

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**S.S. SHAMANSUROV**

**FAVQULODDA VAZIYATLAR VA AHOLI MUHOFAZASI**

**DARSLIK**



**Toshkent – 2023**

UDK 614.8

BBK 68.9

**S.S. Shamansurov** Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi. Darslik. -T.:,  
2023. – 308 bet.

Darslik 61020100 – “Hayot faoliyati xavfsizligi” bakalavr ta’lim yo‘nalishi, favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Darslik quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi: Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlashni olib borish asoslari, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, Iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini ta’minlash asoslari, aholini muhofaza qilishning uslublari va tamoyillari, terroristik harakatlardan muhofazalanish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Darslik talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bo‘yicha ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslik “Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi”fanining dasturiga muvofiq yozilgan.

Учебник предназначен для бакалавриата направления 61020100 – “Безопасность жизнедеятельности”, специалистов занимающихся проблемами безопасности населения в чрезвычайных ситуациях.

Учебник охватывает следующие темы: Защита населения и территории в чрезвычайных ситуациях, государственная система предупреждения и реагирования на чрезвычайные ситуации Республики Узбекистан, основы ведения мониторинга и прогнозирования чрезвычайных ситуаций, подготовка населения к действиям в чрезвычайных ситуациях, основы обеспечения устойчивости отраслей экономики, методы и принципы защиты населения от террористических актов. оказания первой медицинской помощи.

Учебник служит развитию творческих способностей учащихся по формированию теоретических и практических знаний, умений и навыков. Учебник написан по программе дисциплины “Защита населения и чрезвычайные ситуации”.

Textbook 61020100-Bachelor Educational Course “Safety of life activities”, designed for specialists dealing with the problems of population safety in emergency situations.

The textbook includes the following topics: protection of the population and territories in emergency situations, the state system of the Republic of Uzbekistan for the Prevention of emergency situations and action in such situations, the basics of conducting emergency monitoring and forecasting, preparing the population for action in emergency situations, the basics of ensuring the stability of economic sectors, methods and principles of The textbook serves to develop creative abilities in the formation of theoretical and practical knowledge, skills and abilities of students. The textbook is written in accordance with the program of the discipline “Population protection in emergency situations”.

Ushbu darslik Toshket davlat texnika universitetining 2023 yil 12.08dagi №01/9-05-523- sonli buyrugiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Taqrizchilar: Sh.E. Kurbanbayev - t.f.d., professor, O‘zbekiston Respublikasi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti boshlig‘ining o‘ribbosari.

M.N.Musaev - t.f.n., professor, ToshDTU «Hayot faoliyati xavfsizligi» kafedrasi mudiri.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2023.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>6</b>
<b>1. Bob. Favqulodda vaziyatlarda aholi va xudular muhofazasi .....</b>	<b>8</b>
§1.1. Favqulodda vaziyatlarda aholi muhofazasining asosiy tushunchalari.....	8
§1.2. Favqulodda vaziyatlarda aholi va xudular muhofaza qilishga oid qonun va qonun osti xujjatlar .....	9
§1.3. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari.....	11
§1.4. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari	42
§1.5. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari.	52
§1.5.1. Atmosfera havosini ifloslanishidan muhofaza qilish .....	56
§1.5.2. Suv resurslarini muhofaza qilish.....	58
<b>2. Bob. O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT)</b>	<b>68</b>
§2.1. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari.....	69
§2.2. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi .....	70
§2.3. FVDTning faoliyat ko‘rsatishi tartibi.....	82
§2.4. FVDT xizmatlar tarkibi.....	88
<b>3. Bob. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish.....</b>	<b>119</b>
§3.1. Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish.....	119
§3.2. Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi rejasini tuzish.....	124
<b>4. Bob. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlashni olib borish asoslari.....</b>	<b>127</b>
§4.1. Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilishning huquqiy asoslari	127
§4.2. Monitoring tizimining turlari.....	133
§4.3. Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilishning horijiy mamlakatlar tajribasi.....	137
<b>5. Bob. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash.....</b>	<b>149</b>
§5.1. Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash .....	149
§5.2. Aholini tayyorlash shakllari va davriyligi .....	153
§5.2.1. Qo‘mondonlik-shtab o‘quvmashqlari .....	154
§5.2.2. Maxsus-taktik o‘quv mashqlari .....	155
§5.2.3. Kompleks o‘quv mashqlari .....	156
<b>6. Bob. Iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini ta’minlash asoslari....</b>	<b>160</b>

§6.1.	Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligini ta'minlash tamoyillari.....	160
§6.2.	Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida qutqaruв va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish.....	171
<b>7. Bob. Aholini muhofaza qilishning uslublari va tamoyillari .....</b>		<b>183</b>
§7.1.	Favqulodda vaziyatlardan o'z vaqtida ogohlantirish va xabar berish tizimi tushunchalari.....	184
§7.2.	Favqulodda vaziyatlardan aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish tizimi.....	188
§7.3.	Favqulodda vaziyatlardan aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor etishning avtomatlashtirilgan tizimi.....	233
§7.4.	Evakuatsiya tushunchasi, uning turlari va tashkil etish tadbirleri	236
<b>8. Bob. Terroristik harakatlardan muhofazalanish.....</b>		<b>242</b>
§8.1.	Terrorizm va terrorchilik harakatlari haqida tushuncha.....	242
§8.2.	Terrorizmni iqtisodiyot va aholi uchun xavfli hususiyatlari.....	249
§8.3.	Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari.....	253
§8.4.	Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish.....	256
<b>9. Bob. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari .....</b>		<b>261</b>
§9.1.	Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalari.....	261
§9.2.	Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish.....	264
§9.3.	Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning bajarilishi va uni ahamiyati.....	270
§9.3.1.	Qon ketishida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.....	271
§9.3.2.	Odam jarohatlanganida qo'llaniladigan bog'lamlar turlari va ularni qo'vesh qoidalari.....	274
§9.3.3.	Bosh, ko'krak qafasi, qorin va qo'l-oyoq jarohatlariga ko'rsatiladigan birlinchi tibbiy yordam.....	276
§9.3.4.	Suyak singan paytda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.....	280
§9.3.5.	Kuygan paytda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.....	284
§9.3.6.	Yurak faoliyati va nafas olish to'satdan to'xtab qolganida birinchi tibbiy yordam berish.....	286
§9.3.7.	Sovuq olgan, xushdan ketgan va suvga cho'kkан odamlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.....	290
§9.3.8.	Odam zaharli moddalardan zaharlanganida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.....	292
§9.3.9.	Shikastlangan odamlarni tashish va transportirovka qilishda yordam ko'rsatish.....	293
§9.4.	Tabiiy ofat, avariya va katastrofalarda jabrlanganlarni tibbiy	296

saralash qoidalari (triaj).....	
<b>Xulosa</b> .....	<b>299</b>
<b>Glossariy</b> .....	<b>300</b>
<b>Termin va atamalar</b> .....	<b>304</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	<b>305</b>

## KIRISH

Jahonning turli burchaklarida sodir bo‘layotgan voqealarni umumlashtirib tahlil qilsak, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar yildan-yilga ortib borib, keng maydonlarni qamrab olayotganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Ko‘pgina davlatlarda olib borilayotgan izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hodisalarini har bir obyekt barqarorligini oldindan o‘rganish, bashoratlash, uning negizida ogohlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, nafaqat noxush vaziyatlar keltiradigan iqtisodiy zararni tejab qolishga, balki insonlar o‘rtasidagi shikastlanish ko‘rsatkichlarini pasaytirishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha sohalari singari tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida dadil qadamlarni tashladi. Bu sohadagi bilimlarni va meyoriy-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladigan bir qator qonun va qonun osti hujjatlar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da<sup>1</sup>, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, aholi va xududlarini muhofazalash, shuningdek aholini favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga tayyorlash tadbirlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish va o‘zaro harakat qilish mexanizmini takomillashtirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turmushimizda biz ko‘pgina tabiiy va texnogen xavf-xatar bilan to‘qnashamiz va ulardan ko‘rildigan talofatlarni kamaytirishga urinamiz. Uy-joy ichidagi xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalarini o‘rganish tabiiy ofatlar xavfi yuqori hududlarda yashaganda eng oqilona ehtiyyotkorlik choralaridir.

Mamlakatimiz aholisini iqtisodiyot obyektlari va sohalarini tabiiy, texnogen xususiyatli va boshqa favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni yuqori darajaga

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

ko‘tarish shuningdek, barcha soha, tizimlarining barqarorligini ta’minlash, turli favqulodda vaziyatlarni oldindan bashoratlash va aholini bunday vaziyatlardan ogohlantirish, talafot yuz bergen taqdirda kechiktirib bo‘lmaydigan qidiruv-qutqaruв ishlarini olib borish hamda talafotlar oqibatlarini bartaraф etishda malakaga ega bo‘lishimiz va uni hayotga ta’dbiq eta olishi lozim.

# **1. BOB. FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLOVA XUDUDLAR**

## **MUHOFAZASI**

### **§1.1. Favqulodda vaziyatlarda aholi muhofazasining asosiy tushunchalari**

**Favqulodda vaziyat** - bu muayyan hududda o‘zidan so‘ng odamlarning qurbon bo‘lishi, odamlar sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

**Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish** - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, say-harakatlari majmui.

**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish** - oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergen taqdirda esa, odamlarning hayotini saqlab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

**Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** - favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y bergen zonalarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

**Fuqaro muhofazasi** - harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

## **§1.2. Favqulodda vaziyatlarda aholi va xudular muhofaza qilishga oid qonun va qonun osti xujjatlar**

So‘ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat negizida, alohida xavfsizlikni kafolatlovchi, fuqarolar ma’suliyatini va jamiyatning huquqiy zaminini belgilovchi bir qancha meyoriy xujjatlar qabul qilindi. Bu bejiz emas albatta, chunki, hozirgi sharoitda mamlakatimiz aholisini va iqtisodiy obyektlarni muhofaza qilishni yuksak darajaga ko‘tarish, ularning tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar hamda turli falokatlardan saqlab qolish milliy davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash va aholini bunday xavflardan o‘z vaqtida ogohlantirish borasida samarali tadbirlar o‘tkazish, xavfli vaziyat ro‘y bergen taqdirda tezkor harakat qilish va xavfsizlikni ta’minlashni taqazo etadi.

Keyingi vaqtalarda favqulodda vaziyatlarda, dunyo miqyosida ko‘payib borayotganligi, ko‘pgina davlatlarning barqaror rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir etkazmoqda. Binobarin, Vatanimiz hududlari ham turli favqulodda vaziyatlardan holi emas. O‘zbekistonning iqlimi, tabiiy tuzilishi, tabiiy-geologik sharoiti, ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi o‘ziga xos turli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi va tarqalishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, mazkur hududlarda istiqomat qilayotgan aholini xavfsizligini ta’minlash o‘ta dolzarb va muhim jabhalardan biridir.

Xususan xavfsizligi ta’minlash, insonlar salomatligini yuksak darajaga ko‘tarish masalalari bo‘yicha ham bir qancha qonuniy xujjatlar qabul qilindi. Bular:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 mart №1378 “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar Vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 12 aprel 201-sod “Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish va ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularning bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455-sonli “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida” qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi 2022 yil 17 avgustdagи O‘RQ-790-sonli “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi 1999 yil 19 avgustdagи “Yo‘l xarakati xavfsizligi to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 80-II-son “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi 1999 yil 20 avgustdagи “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi 2000 yil 31 avgustdagи “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi 2000 yil 15 dekabrdagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi 2006 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida” qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-sonli “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni 2018 yil 2 iyuldagи №PF-5471 “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini

takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘sishma kiritish to‘g‘risida;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgustdagi 601-sonli “Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi 1027-sonli “Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinushi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi 754-sonli “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgust kunidagi 515-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrdagi O‘RQ-737-son “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy Qonuni.

### **1.3. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari**

Tabiiy ofat-bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o‘zgarish bo‘lib, u birdan insonlarning mo‘tadil yashash, ishslash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o‘limi hamda qishloq xo‘jaligi hayvonlarining nobut bo‘lishi, moddiy boyliklarning yo‘q bo‘lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, favqulodda vaziyat inson ongi va uning faoliyatidan tashqarida sodir bo‘lishidir.

Tabiiy ofatlarning turlari xilma-xil: yer silkinish, suv toshqini, (gidrometeorologik) yer, tog‘, qor ko‘chishi, kuchli shamol, yong‘in, qurg‘oqchilik,

epidemiya, epizootiya, epifitotiya hodisalari va boshqalardir (o‘lat, vabo, gemorragi isitma, toshmali terlama, sibir yara kasalligi, quturish, botulizm, va tulyarimiya kasalliklari).

### **1. Geologik xavfli hodisalar:**

odamlar o‘limiga, ma’muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob- uskunalarining, energiya ta’minoti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo‘nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan **zilzilalar**;

odamlar o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko‘chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirishni talab qiluvchi **yer ko‘chishlari, tog‘ o‘pirilishlari** va boshqa xavfli geologik hodisalar.

### **2. Gidrometeorologik xavfli hodisalar:**

odamlar o‘limiga, aholi punktlarini, ba’zi sanoat va qishloq xo‘jaligi obektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlari o‘tkazilishini talab qiladigan **suv toshqinlari, suv to‘planishi va sellar**;

aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog‘lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan **qor ko‘chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala** va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

### **3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:**

o‘lat, vabo, sarg‘ayma isitma kabi **siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar**;

odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar - epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma;

zoonoz infeksiyalar -Sibir yarasi, quturish;

virusli infeksiyalar - SPID;

**epidemiya** - alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo‘lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo‘lgan odamlarning guruh bo‘lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida - 50 kishi va undan ortiq;

**aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo‘lib kasallanish** - 20 kishi va undan ortiq;

**tashhisini aniqlanmagan bezgak kasalligi** - 15 kishi va undan ortiq;

**o‘lim yoki kasallanish darajasi** o‘rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo‘lgan vaziyat;

**zaharli moddalar bilan zaharlanish** - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq;

**oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish** - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq;

**epizootiya** - hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo‘lishi;

**epifitotiya** - o‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishi.

## **Yer silkinish**

Tabiiy ofatlar ichida eng xavfisi va dahshatlisi bu yer silkinishidir. Yer silkinish-yer osti zarbasi va yer usti qatlaming tebranishi bo‘lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli yuizaga keladi. Yer ostki zARBASINING paydo bo‘lish o‘chog`i, yerning ostki qatlamidagi uzoq vaqt yig‘ilib qolgan energiyaning yuzaga otilib chiqish jarayoni tufayli yuizaga keladi. O‘choqning ichki qismi markazi giposentr deyiladi, yerning ustki qismidagi markasi episentr deyiladi.

Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

-Tektonik zilzilalar;

-Vulqon zilzilalari;

-Ag‘darilish, o‘pirilish zilzilalari;

-Texnogen (insonning muhandislik faoliyati bilan bog‘liq) zilzilalar.

Zilzila turlaridan eng xavfisi (talofatlisi), tektonik zilzila hisoblanadi. Ma’lumki, har yili planetamizda 100000 (yuz ming) dan ortiq yer silkinishlarini

seysmik asboblar (seysmograf) qayd etadi. Bularidan 100 tasi vayron qiluvchi, fojiali bo‘lib imorat va inshoatlarning buzilishiga, yer yuzasida yoriqlarni paydo bo‘lishiga ming-minglab insonlar yostig‘ining qurishiga olib keladi. Yer silkinish o‘chog`i giposentrning joylashgan chuqurligi bo`yicha: Yuza-70 km.gacha, o‘rta-70-300km va chuqur-300 kmdan pastda: Mantiya qatlamida vujudga keladigan xillarini ajratish mumkin.

### **Yer silkinish (zilzila) sabablari va talofatlari**

Zilzilalar yer ostidagi qizigan va cho‘g‘lanib erigan moddalarning hajmiy o‘zgarishlari natijasida, yer markazida harakatlanishi natijasida ba’zi bir tabiiy kechadigan holatlarga ko‘ra yer markazida ba’zi bir gazsimon moddalarning to‘planishi va bular nihoyatda katta bosim ostida bo‘lganligi sababli lavalar yo‘liga to‘siq bo‘lishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu bosim ostidagi gazlar bizga ma’lum bo‘lman tabiiy hodisalar natijasida o‘z o‘rnini o‘zgartirishi mumkin. Uning o‘rnini lavalar egallashi natijasida yer qarida katta miqdordagi energiya jamlanishi va bu energiya o‘zi uchun ma’lum bo‘shliq izlab, uni topishi natijasida shu bo‘shliqqa keskin otilib o‘tib ketishi natijasida kelib chiqadigan zilzilalar tektonik zilzilalar deb ataladi.

Bundan tashqari yuqorida sanab o‘tilgan jarayonlar natijasida yer qa’ridagi erigan lava o‘ziga yondosh bo‘lgan gazlar bilan birga yer yuzasiga chiqish uchun yo‘l izlasa va yer yuzasidagi ma’lum sabablarga ko‘ra bo‘sh qolgan bo‘shliqlarni to‘ldirsa, unda mana shu to‘ldirish jarayonida paydo bo‘lgan energiya yer silkinishiga olib keladi va vulqonlar otilishi natijasida kelib chiqadigan zilzilalar deb yuritiladi.

Yana yer shari kosmik fazoda harakatlanganligi sababli, u har daqiqada millionlab katta-kichik jismlarni uchratadi va bu uchragan narsalar yer yuzasi atmosferasi qatlamlariga kirib, harakat tezligi kata bo‘lganligi sababli atmosferada qizib yonib ketadi. Bunday yonish har daqiqada millionlab bo‘lganligi sababli biz uni yulduz uchishi sifatida yerdan kuzatishimiz mumkin. Bunday jismlarning yirik turlari ham bo‘ladi va u atmosfera qatlamiga kirib yonib ketgani bilan hajmi katta bo‘lganligi sababli, yer yuziga kelib tushgunga qadar yonib ulgura olmaydi va yerga

katta kuch bilan kelib tushganligi sababli yerga bir necha o'n metr chuqurlikka kirib ketadi va o'zida katta energiyani jamlaganligi sababli kuchli portlash ro'y beradi. Bunday katta jismning yerga urilishi yer yuzasida ma'lum miqdorda siljishlar hosil qiladi va bu zilzilalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

**Tektonik zilzilalar.** (yer ostidagi yuqorida aytib o'tilgan jarayonlar yer qobig'iga ta'sir ko'rsatishi natijasida yer yuzasida siljishlar vujudga kelganligi sababli shunday nomlanadi). Bu ziizilalarmng asosiy ko'rsatkichlari sifatida uning kuchi va xarakteristikasini belgilovchi belgilari-uning magnitudasi, zilzila o'chog'i chuqurligi va yer yuzasiga fta'sir qiluvchi energiya intensivligi hisoblanadi. Magnituda-Rixter shkalasida energiyaga proporsional bo'lgan 0 dan 8,5 balgacha bo'lgan birliklarda berilsa, 0 dan 12 balgacha berilsa, bu oddiy bizda foydalanadigan shkalalarda belgilanib, har bitta o'sib boruvchi raqam tebranish energiyasini 100 karra o'sganligini bildiradi. Rixter shkalasi bo'yicha 8,5 va oddiy shkalada 12 ball eng og'ir oqibatlarga olib keladigan zilzilalar hisoblanadi (1.1-jadval).

Zilzila o'chog'i chuqurligi-bu har bir zilzilaga xavfli bo'lgan rayonlarda har xil bo'lib 0 dan 700 km gacha chuqurliklarda bo'lishi mumkin. Seysmik rayonlar uchun o'zining ma'lum chuqurliklari mavjud bolib, agar uning chuqurligi katta bo'lsa, zilzilaning ta'sir radiusi ancha katta maydonlarga tarqalishi mumkin.

Energiya tig'izligi, ya'ni kuchi o'n ikki balli shkala bo'yicha belgilanadigan yer yuzasidagi yer silkinish kuchi hisoblanib, u quyidagicha e'tirof etiladi: sezilar-sezilmas, juda kuchsiz, kuchsiz, sezilarli, ancha kuchli, kuchli, juda kuchli, buzib yuboruvchi, vayron qiluvchi, kuchli vayronalikka olib keluvchi, falokatli va kuchli falokatli.

Zilzilani keltirib chiqarishga sababchi bo'lgan yer ostidagi zilzila o'chog'i - gipomarkaz (gipo-chuqurlik)dir. Shu yerning yer yuzasi epimarkaz (epi-yuza) deb atalib, bu zilzilaning eng kuchli ta'sir yer silkinadigan yuza bo'ladi. Keyingi yer yuzasi bo'ylab tarqalish elastic yoki seysmik to'lqinlar tarzida yerning qattiq qobigci bo'ylab tarqala boshlaydi (yer ostida yadro portlatilganda ham xuddi shunday hodisa bo'ladi).

Har yili yer yuzasida umumiy 100 ming yer silkinishlari kuzatiladi (bu bir sutkada 300 silkinish demakdir), ammo bularning hammasi ham xavfli emas. Shundan taxminan yiliga 10 mingini odamlar sezadi. Yiliga taxminan 100 ga yaqin zilzilalar fojiali oqibatlarga olib keladi. Bunda bir necha sekund ichida butun boshli shahar-qishloqlar vayron bo'lishi yoki okean yaqinida joylashgan mamlakatlar suv ostida qolishi tog' cho'qqilarining buzilib ketishi natijasida u yerda eriyotgan qor suvlarining yo'li to'silishi natijasida tog'ning qa'rida ko'llar paydo bo'lishi va shuningdek, zilzilalar ta'sirida okeanlar tubidan yangi orollar hosil bo'lishi, tog'larning ma'lum masofaga siljib ketishi va yer qimirlashi ta'sirida yerning yorilishi natijasida bir necha o'n va hattoki, yuz metr va undan ham chuqurroq jarlarning hosil bo'lishi zilzilalarning oqibati hisoblanadi.

### 1.1-jadval

#### **Rixter magnituda va MSK-64 jadvali bo'yicha zilzila kuchi o'rtaсидаги нисбат**

<b>Rixter bo'yicha magnituda</b>	<b>MSK-64 bo'yicha zilzila kuchi (ballarda)</b>	<b>Kuzatiladigan hodisalar</b>
2 va undan kam	I-II	Odatda insonlar sezmaydilar
3,0	III	Binolar ichida sezish mumkin
4,0	IV-V	Aksariyat tomonidan sezilsa ham binolarga shikast yetmaydi
5,0	VI-VII	Binolar ozroq zarar ko'radi, devorlar yorilishi mumkin
6,0	VII-VIII	Zaif qurilgan binolar qulashi mumkin, mustahkam binolar devorlarida yoriqlar paydo bo'lishi mumkin
7,0	IX-X	Ko'p binolar buzilib, kuchli shikast yetadi
8,0 ball va undan yuqori	XI-XII	Barcha binolar vayron bo'ladi, hudud relefni o'zgaradi

Shaharlarda elektr va gaz tarmoqlarining ishdan chiqishi natijasidauzilgan gaz quvurlaridan chiqib ketgan gazlar ko'plab yong'inlar chiqishiga sababchi bo'ladi. Avtomobil va temir yo'llar ishdan chiqadi. Tog'li o'lkalarda tog'larning o'pirilib

ketishi yollarning berkilib qolishiga olib keladi, aloqa tarmoqlari ishdan chiqadi. Zilzila. bo‘lgan joy boshqa hududlardan uzilib qoladi; bu esa u yerdagi omon qolganlarni katta ruhiy tushkunlikka olib keladi. Kuchli halokatli zilzilalarda 1024-1025 erg energiya ajraladi va bu energiya yer yuzida portlatilgan megaton yadro zaryadi portlashidan bir necha marta katta vayronagarchiliklarga sababchi bo’ladi.

Bunday kuchli fojiali zilzilalar tog‘li hududlarda, okean va dengizbo‘yi davlatlarida, masalan, Kamchatka, Yaponiya, Alyaska, Meksika, Chili, Alp tog‘lari, Bolqon, Kavkaz va boshqalarda yuz berishi mumkin.

O‘piriluvchi zilzilalar yer ostidagi kars bo‘shliqlari va tashlab qo‘yilgan konlarning o‘pirilishi natijasida kelib chiqadigan zilzilalar hisoblanib, ularning kuchi uncha katta bo‘lmaganligi uchun zarari ham ko‘p bo‘lmaydi.

Suv osti vulqonlarinig otilishi natijasida, suv ostining relefi va shakl-shamoyili o‘zgarishi natijasida gravitatsiya to‘lqinlari hosil qilishi hisobiga paydo bo‘ladigan ulkan to‘lqinlar «sunami» deb yuritiladi va okean bo‘yi aholisiga jiddiy zarar yetkazadi.

Meteoritlar tushishi va ularning portlashidan hosil bo‘ladigan zilzilalar kamyob hodisa bo‘lsa ham, insoniyat tarixida bo‘lgan va bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisa hisoblanadi.

Ba’zi bir taniqli olimlarning bashoratlariga ko‘ra yerning uzoq o‘tmishida yer yuzini band etgan ulkan dinozavrлar va boshqa jonzotlar yerning kosmik asteroidlar bilan to‘qnash kelib urilishi natijasida yer o‘qining birmuncha siljib ketganligi natijasida yer yuzidasovush boshlangan va bu yuqorida zikr etilgan jonzotlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Insoniyat tarixida bunday kosmik jismlar bilan to‘qnashish izlarini uchratish mumkin. Masalan, uncha uzoq o‘tmish bo‘lmagan 1908-yilda Sibirning Tungus rayonidagi meteoritning poitlashi natijasida juda kata maydon vayron bo‘lishi bilan birga undan hosil bo‘lgan zilzilalar kuchi ancha uzoq masofalarda sezilgan. Bunday meteorit yoki kometalar bilan to‘qnashish yer yuzasida nihoyatda kuchli poitlash bilan kechishi va buning natijasida yer yuzida nihoyatda kata craterlar va ko‘llar hosil bo‘lganligi ma him. Bunday to‘qnashishlardan paydo bo‘ladigan portlashlar natijasida nihoyatda katta miqdordagi energiya ajralishi

kuzatiladi va bu energiya shu yaqin atrofdagi bir necha o'n kilometr masofadagi radiusda butun jonzod va o'rmonlarning yo'qolib ketishiga va kata vayronagarchiliklarga olib keladi.

Misol tariqasida Janubiy Afrika Transvaal hududiga tushgan meteorit portlashidan hosil bo'lgan energiya 2500000 Mt, Tungus meteoriti 1000 Mt atom yadrosi portlashiga teng bo'lgan energiya ajratgan degan hisoblar mavjud. Dunyodagi davlatlarning ko'pchiligidagi kosmik jismlar meteoritlar va asteroidlar portlashidan hosil bo'lgan kraterlar va ulkan ko'llar topilgan. Asteroid, meteorit va kometalarning yer yuzida hosil qilgan portlash kraterlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Zilzilalar nihoyatda og'ir, halokatli va fojiali oqibatlarga olib keladiki, buning natijasida atom portlashlaridan bir necha marta kata bo'lgan voyronagarchilik yuzaga keladi. Bu vayronagarchiliklar oqibatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: Turar joy binolarining buzilib va to'ntarilib ketishi natijasida bino vayronalari ostida qolgan odamlar halok bo'ladi. Ma'lumki, odamlar yer qimirlashdan emas, yer qimirlashi natijasida buzilib ketgan binolar parchalari ostida qolib ketganligi uchun halok bo'ladi (1.1-rasm).

Zilzilalar shaharlar yoki katta-katta qishloqlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, unda portlashlar va yong'inlar kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Ularning asosiy sababi shahar va qishloqlardagi elektr tarmoqlarining ishdan chiqishi natijasida ko'p yerlarda qisqa tutashuvlar bo'lishi va bu shahar va qishloqlardagi gaz taqsimlash va gaz berish trubalarining ishdan chiqishi natijasida to'planib qolgan gazlar elektr uchqunlari ta'sirida portlashga muvofiq muhit yaratadi.



1.1-rasm. Kuchli yer silkinishi oqibatlari

Agar shaharda ko'plab yengil alangalanuvchi moddalar saqlanayotgan bo'lsa, uning oqibati dahshatliroq bo'lishi mumkin; Katta kuchdagi zilzilalar natijasida yer yorilishi va yer siljishlari natijasida butun boshli qishloqlar va shahar rayonlari yer ostida yoki vayronalar ostida qolib ketishi mumkin. Aholi yashash maskanlari yaqinida daryolar, kanallar, ko'llar va boshqa suv inshootlari bo'lsa, ularning buzilib ketishi, daryolarning o'z o'zanini o'zgartirishi natijasida u maskanlarni suv bosib ketish xavfi paydo bo'ladi.

Bulardan tashqari dunyoning boshqa hududlarida bo'ladigan tabiiy ofatlar, masalan, vulqonlar otilishi nitijasida miriglab aholi yashaydigan hududlarda vulqon otilishidan hosil bo'lgan zaharli tutun bosib ketishi va bu tutunlar birnecha kunlab tarqalmasligi natijasidaodamlarning halokatli holatlari kuzatilgan. Bundan tashqari vulqonlar otilganda katta miqdordagi kul va qurum otilib chiqadi, bu qurum bir necha o'nlab gektar maydonlarni bosib ketishi mumkin. Bu qurum va ko'llar qum bilan aralashgan holatda bo'lishi unimli yerlarni ishdan chiqaradi va bular tarkibida chiqayotgan lavalar tog' yon bag'riga joylashgan obod maskanlarni yondirib kultepaga aylantiradi.

Dengiz va okeanlar yaqinida joylashgan aholiga suv toshqinlari va katta kuchdagi dovullar va sunami kabi ofatlarga dosh berishga to'g'ri keladi. Bu keltirib o'tilgan voqealar odamlarning ruhiy holatida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, odamlarda mhiy tushkunlik, qo'rquv paydo bo'ladi va ba'zi bir holatlarda ruhiy kasalliklar kelib chiqishiga olib keladi. Odatda, zilzilalar to'satdan boshlanadi. Bunda odamlarda qo'rquv hissi sarosimalikka olib keladi. Sarosimaga tushgan odamlar baravariga xonalardan yoki binolardan chiqib ketish joylariga intiladi va bu intilish birdaniga vujudga kelganligi sababli odamlar ko'proq to'planadigan binolarda chiqish joylarida ur-yiqit boshlanadi va bu yerda bir odam ikkinchisiga yo'l berish kerakligi haqida umuman o'ylamaydi va har kim uchun o'z hayotini qutqarish birinchi darajali ishga aylanadi. Bu esa qo'shimcha fojialar kelib chiqishiga sababchi bo'ladi.

Shuning uchun zilzila xavfi bo'lgan hududlarda odamlarni oldindan ogohlantirish xizmatini tashkil qilish va sarosimalikning oldini olishga qaratilgan

chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bunday joylarda, shuningdek, odamlarni uydan chiqib ketgandan keyin uyga tezda qaytib kirish imkoniyati bo‘lmaydi; bunga birinchidan, qo‘rquv hissi xalaqit bersa, ikkinchidan, uning qaytadigan uyi vayronaga aylangan bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun bunday hududlardan palata shaharchalari qurish uchun yetarli palatkalar va ularni hayot faoliyati izdan chiqmasligini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalari oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Bu hududda joylashgan sanoat korxonalari va energetika tarmoqlarini ishini avariyanı oldini olishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida energiya tarmog‘ini o‘chirishni ta’minlovchi vositalar oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, zilzila xavfi bo‘lgan rayonlarda zilzila bo‘lish vaqtini oldindan bilish va uning bo‘lishini aholiga o‘z vaqtida yetkazish va zilzila vaqtida u yerdan chiqib ketish imkoniyati bo‘Imagan taqdirda sarosimaga tushmasdan sovuqqonlik bilan harakat qilish, ya‘ni eshiklar oralig‘iga yoki mustahkam va baquwat mebellar bo‘lsa, ularning tagida zilzila oqibatlarini va tugallanishini kutib turish zilziladan omon saqlanishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyodagi hamma seysmik xavfli rayonlar, hattoki, qaysi joyda necha ballgacha zilzila bo‘lishi mumkinligini belgilagan holda aniqlash imkoniyati bor.



1.2-rasm. O’zbekiston Respublikasining seysmik rayonlashtirish xaritasi

Hamma zilzila xavfi bo'lgan hududlarga ega bo'lgan davlatlarning hammasida seysmik stansiyalar va seysmologiya ilmiy tadqiqot markazlari va laboratoriyalari ishlab turibdi. Bu stansiya va laboratoriylar bir-birlari bilan mustahkam aloqa bog'lagan va bir-birlari bilan axborot almashish imkoniyatlari yo'lga qo'yilgan. Bu ma'lumotlarni internet tizimi orqali olish va uzatish imkoniyatlari mavjud. Bu stansiyalar va institutlarning asosiy vazifalari-zilzilani aniq bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtini iloji boricha aniqlikda oldindan ilmiy asoslarda asoslab bashorat qilish va uni o'sha zilzila bo'ladigan hudud aholisini zilzila xavfidan ogoh qilish bilan ularning hayotini saqlab qolishdir.

Bu borada birmuncha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, masalan, zilzila bo'lishi mumkin bo'lgan joyni aniq aytib berish va uni bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtini taxminiy aytish imkoniyatlari bo'lsada, uni vaqtini aniq aytish imkoniyati yo'q.

Zilzilalar bo'lish vaqtini an'anaviy metodlar bilan, masalan, suv osti suvlarining tarkibini aniqlash va suvlar tarkibidagi radon miqdorini belgilash va boshqa tajribalar yo'li bilan, ya'ni ilgarigi zilzilalarning davriyligi va boshqa xususiy belgilar: zilzila bo'ladigan hududlarda hayvonlarning besaramjonligi, yovvoyi hayvonlarning u yerdan uzoqroqqa qochishga intilishi va boshqa belgilardan yer silkinishini bashorat qilish mumkin.

Zilzila bo'lgan hududda birinchi navbatda vayronaga aylangan, yarim vayron bo'lgan, bosib qolgan va yonayotgan binolar ostidan zararlanguarlarni qutqanb olish, ularga birinchi yordam ko'rsatish, yonayotgan binolarda o't o'chirish ishlarini amalga oshirish, zararlanguarlarni suv bilan ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyimkechaklar bilan ta'minlash, o'tish yo'llarini buzilgan binolar bo'laklaridan tozalash, ba'zi bir yarim buzilgan binolarning odamlar hayotiga xavf solayotgan qismlarini buzib tashlash, avtotransport vositalari harakatlanishi kerak bo'lgan zonalarda tiklash-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, elektr va gaz tarmoqlarida yuz bergen zararlarni aniqlash va vaqtincha bo'lsa ham, ularni o'chirib yong'in va portlash xavfmi oldini olish, yaroqsiz holga kelgan va ta'mirlash imkoniyati bo'lmanan binolarni butunlay buzib tashlash, sog' qolgan binolarda ularning mustahkamligini tekshirgandan keyin ularning hayot faoliyatini ta'minlaydigan

xo'jaliklari elektr va gaz ta'minoti tizimini zararlanmaganligiga ishonch hosil qilgandan keyin ularga zararlanganlarni vaqtincha joylash, yaqin o'ttada joy tanlab unga hamma boshpanasiz qolganlarni palatkali lager tashkil qilib joylashtirish va boshqa ishlar amalga oshiriladi.

### **Sel va suv toshqinlarining tasnifi**

**Sel** - juda katta (umumiy oqim massasi 75 foizgacha) buzish kuchiga ega bo'lgan qisqa muddatli toshqin, uning tarkibida kichik tog' va tog'oldi daryolari havzalarida hamda ancha (kamida 0,10) qiya yonbag'irli quruq soylarda kuchli yomg'irlar yoki qorlarning jadal erishi natijasida paydo bo'ladigan mineral zarrachalar va tog' jinslari parchalari mavjud bo'ladi.

**Sel oqimlari** - sellar ro'y beradigan davrda suv oqimlari bo'ylab o'tadigan suvlar.

**Toshqin** - qorlarning intensiv, qisqa vaqt erishi va ko'plab yomg'irlar yog'ishi natijasida vujudga keladigan suv oqimining biror-bir tarmog'ida suv sathining jadal, nisbatan qisqa vaqtida va nodavriy ko'tarilishi va suv sarfining ko'payishi.

**Toshqin suvlari** - toshqinlar davrida suv oqimlari o'zanida oqadigan suvlar (VM 2017 yil 21 dekabr, 1009-sun qarori);

Sel toshqinlari jarayonlarining 3 turini farqlash lozim: **eroziya-tashuvchi, eroziya-siljituvchi va siljituvchi.**

Ushbu turlarning birinchisi suv-oqiziqlar oqimlarining paydo bo'lishi va o'tishi bilan bog'liq, qolgan ikkitasi yuqori zichlikka ega loyli va loy-toshli oqimlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Ushbu har uch turdag'i jarayonlar o'zini xavfli tarzda namoyon etishi bilan ma'lumdir.

**Eroziya-tashuvchi sel jarayoni.** Yetarli darajada yaxshi o'rganilmagan. Suv oqiziqli sel oqimlari xususiyatlarini o'rganish, jala yomg'irlardan bo'lgan toshqinlar, yomg'ir suvlarining yer yuzasida shakllanishi, suv toplash havzasidagi eroziya kabilarning o'ziga xos belgilarini hisoblash masalasi va o'zandagi oqimning tashuvchi xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Oqiziqlarning harakat

jarayoni allyuvial-prolyuvial qatlamlarning ichki ishqalanish burchagi o‘zan qiyaligi burchagidan ancha katta bo‘lganida kechadi. Ivishi va zaif ulanishli qatlamlarning qalinlashishi tezliklari yuvib ketish tezligidan uncha yuqori bo‘lmagan tuproqlar uchun tashish jarayoni juda kichik qiyaliklar holatida ham sodir bo‘laveradi.

**Eroziya-siljituvcchi sel oqimi.** Jala quyishi, muzlik ichidagi suvlarning yorib chiqishi yoki ko‘llar suvi toshishi oqibatida vujudga kelgan suv oqimi sel o‘chog‘iga tushsa va bu o‘choqning qiyaligi siljish jarayonida o‘choqlar qiyaligi va eroziya-tashuvchi jarayon o‘zanlari qiyaligi orasidagi holatni egallasa, bu holda u loy-toshli oqimni shakllantiradi. Suv oqimi va PSMlarning o‘zaro ta’sir etish jarayoni, tog‘ jinslarining o‘lchamlariga nisbatan katta va xarsang toshlarga yaqin bo‘lgan, alohida qismlarning ketma-ket siljib borishida namoyon bo‘ladi. Ushbu turdag'i sel toshqinlari jarayonining davomiyligi boshlang‘ich suv oqimining ta’siri muddati bilan aniqlanadi.

**Siljituvcchi sel jarayoni.** Ushbu turdag'i jarayon tufayli hosil bo‘ladigan sel oqimlarining shakllanish imkoniyati PSMning suv bosqini va siljishi sharoitlari bilan bog‘liq. Ushbu ta’rif qoya tubi sel o‘choqlarida yig‘iluvchi yumshoq-chaqiq qatlamlarga taalluqlidir. Muzlagan morenalarda filtirlovchi toshqin ta’sirida ivib qolgan tog‘ jinsi bo‘lagi massivi PSM bo‘ladi. Agar PSMda loy zarrachalari katta miqdorda mujassam bo‘lsa, u plastik xususiyatlarni namoyon qiladi.

Siljituvcchi jarayon yumshoq-chaqiq jinsning ichki ishqalanish burchagi soyliq yoki kuluarning qiyalik burchagidan unchalik katta bo‘lmagan holda, shuningdek, PSMning suv toshqini natijasida siljituvcchi kuchlar ushlab qoluvchi kuchlardan ustun kelganda rivojlanib boradi. PSMning siljishi va keyinchalik suv bilan birga harakatlanishi natijasida sel massasining hosil bo‘ladi, loyli va loy-toshli oqimning shakllanishi ro‘y beradi.

Sel o‘choqlarini o‘rganish va hisoblashda qulaylik yaratish maqsadida ularni lokal va yoyma sel hosil bo‘lish o‘choqlariga ajratish lozim. Birinchi va ikkinchi turdag'i o‘choqlarda sel oqimlarining shakllanishida qanday o‘xhash tomonlar va farqlanishlar mavjud? Ikkala tur sel o‘choqlaridagi jarayon fizikasi bir xil. Unda ham, bunda ham sel hosil bo‘lishi yumshoq-chaqiq jinsning siljishi va keyinchalik

yoppasiga harakatlanishi bilan izohlanadi. Lokal va yoyma sel hosil bo‘lish o‘choqlari o‘rtasidagi farq ko‘proq miqdoriydir, bu yerda miqdoriy holatlar sifat jihatidan ko‘rib chiqishga turtki bo‘lishini kuzatish mumkin. Birinchi holda biz PSMni yaxlit, individual obekt sifatida ko‘rib chiqsak, ikkinchisida esa sel hosil bo‘lishining lokal mikro-o‘choqlarining katta miqdori joylashgan maydoni haqida so‘z yurtishga to‘g‘ri keladi.

Sochilgan sel hosil bo‘lish o‘chog‘i oson parchalanuvchi, sellar orasidagi vaqtida qattiq materiallar bilan tez to‘lib qoluvchi yirik va kichik egatlar tarmog‘iga ega tikka yalang tog‘ jinslari ko‘rinishida bo‘ladi. Bu yerda sel materialining yig‘ilish imkoniyatlari cheklangan, uning yig‘ilish tezligi egatlar to‘lib borgan sari kamayadi. Bunday yalang jinslarning qiyalik burchagi quruq yumshoq-chaqiq materialning tabiiy tiklik burchagiga yaqindir (35-550). Suv toshqini holatlarida, agar oqim hosil bo‘lish tezligi ma’lum bir minimal o‘lchamdan oshsa (odatda 0,005-0,015 mm/min), yumshoq-chaqiq jinsnинг ivishi, yomg‘ir suvining yuza qismidan va filtratsiya tarzida egatlarga oqib kelishi yuz beradi va natijada yer qatlami sel mikrooqimlari ko‘rinishida oqa boshlaydi, keyinchalik bular yagona sel o‘zaniga birlashadilar. Yomg‘ir tezlashgan sari «ishlovchi» egatlar hosil bo‘lish jarayoni va tezligi ko‘payadi. Yoyma sel hosil bo‘lish o‘choqlarida shakllangan sel oqimlari nisbatan kam quvvatli va bir yilda bir necha bor takrorlanishi mumkin.

Lokal sel o‘choqlari orasida 3 ta asosiy turlarni ajratish lozim: **sel o‘yiqlari, sel o‘nqir-cho‘nqirlari va qoyali o‘choqlar**. Ular ayrim geomorfologik xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadi.

**Sel o‘yiqlari** - asosan qoyalarning qirrali joylarida uchraydi, ayniqsa qadimgi morenalarda ular tog‘ jinslari qatlamlarini yorib kirgan ancha keng va chuqr morfologik hosilalardir. Bunday yoriqlarning yon devorlari PSMni bo‘lakli materiallar bilan ta’minlovchi zonalar vazifalarini bajarib, kesilib tushgan yoki juda katta qiyalikka ega bo‘ladilar. Sel o‘yiqlari uzunligi ba’zan 2 km va undan ko‘proq ham bo‘ladi; kengligi, chuqurligi va uzunligi o‘rtasidagi mutanosiblik 1:1:10 ga yaqin; qiyaligi 150-250 orasida bo‘ladi. Bunday yoriqlarda PSMdan «foydalanish»

hissasi sel o‘chog‘iga kelib tushuvchi suv oqimi ta’sirining o‘lchami va davomiyligi bilan belgilanadi.

**Sel o‘nqir-cho‘nqirlari** - ko‘p jihatlariga ko‘ra sel o‘yiqlariga o‘xshaydi, biroq, ularning o‘lchamlari nisbatan kichikroq, mazkur hol esa ularning rivojlanish imkoniyatlari cheklangani bilan bog‘liq, ayniqsa chuqurligiga ko‘ra. Bunday chuqurliklar kam hollardagina 10 m dan ortadi.

Sel o‘nqir-cho‘nqirlari va o‘yiqlari bir necha yuz yilliklar davomida paydo bo‘lish, rivojlanish, yetishish va so‘nish kabi pog‘onalardan o‘tadilar. Ushbu turdagi o‘choqlarning paydo bo‘lishi qulash, bir chiziq bo‘yicha kechadigan halokatli eroziyalar bilan bog‘liq. Ko‘pincha ular sel oqimlarining shakllanish jarayonidayoq hosil bo‘ladi: bunda, odatda, birinchi oqim keyingilaridan yirikroq o‘lchamda sodir bo‘ladi.

**Qoyali sel kuluarlari va jarliklar.** Ular tog‘ jinslarining jadal parchalanishi jarayonida yuz bergen va PSM uchun to‘yinish maydoni rolini o‘ynayotgan ulkan qoyali tog‘lar va massivlar orasida joylashadi. Alovida kuluarlar uzunligi kam hollarda 1000-1500 m dan ortadi. Kengligi 15-20 m, o‘rtacha qalinligi bir necha metr, qiyaliklari odatda 35-450 oralig‘ida o‘zgarib turadi. Bunday o‘choqlardan oqiziqlar chiqish hajmi, odatda, o‘nlab, kam hollarda yuzlab ming m<sup>3</sup> larda o‘lchanadi. Biroq qoya tubi sel o‘choqlari ma’lum maydonda harakatlanib, ayni vaqtda kuchli sel oqimlarini hosil qilishi ham mumkin.

Qoya tubi sel o‘choqlari orasida ba’zan juda yirik gigantlari ham uchraydi. Odatda bu tor va chuqur daralar, hamda glyatsial suv toshqiniga ega katta PSMlik kanyonlardir. Qoyali o‘choq harakatlari ko‘proq uni hosil qilgan tog‘ jinslarining petrografik tarkibi bilan belgilanadi. Ushbu tarkib ta’siri ikki asosiy yo‘nalishlarga, aniqrog‘i yumshoq-chaqiq qatlamlarning kelib qo‘shilish tezligiga va mazkur materiallarning fizik - mexanik xususiyatlariga bog‘liq. Ushbu ikki jihatda loy qorishmalarining qanchalik faolligi ma’lumdir. Umuman olganda sel hodisalarida turli xil tog‘ jinslari egallagan maydonlarning ishtirok etishi to‘g‘risida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ular granitli, duaritli, ohaktoshli, marmarli, turli slanetslar, qum, vulqon tuflari egallagan maydonlar bo‘lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, sel oqimini alohida loyli yoki loy-toshli deb tasniflash hollari juda kam uchraydi. Oqimlarning «bosh» qismi yoki alohida to'lqinlari ko'pincha loy-toshli bo'lsa, ayni damda asosiy qismlari loydan iborat bo'ladi. Shuningdek, loyli yoki loy-toshli oqimdan avval suv-cho'kindi oqimi o'z izlarini qoldirib o'tishini har doim e'tiborga olmoq darkor va oqimning umumiy turini, hamda xususiyatlarini aniqlaganda bu izlardan birdaniga yakunlovchi xulosa chiqarish to'g'ri emas. PSMni suv bilan ta'minlash usullari haqida so'z borganda, quyidagi 3 ta asosiy turni farqlash joiz: jala, glyatsial va ko'l toshqinlari. Oxirgi holatda muzlikdan to'yinuvchi ko'llar to'g'onlarining buzilishi oqibatida kelib chiqadigan sel toshqinlari nazarda tutilmoqda.

Glyatsial sellar, muzlikdan to'yinuvchi ko'llar va muzlik ichida to'plangan suvlarning, ularni ushlab turgan to'g'onlarni yorib chiqishi natijasida, shuningdek, PSMlarning morenalarda erigan filtratsion suvlar bilan namlanganligi sababli hosil bo'ladi. Bunday erigan muzlik suvlarning to'g'oni yorib chiquvchi toshqinlari, ma'lum obekt uchun kam uchraydigan holat, biroq, umuman olganda baland tog'larda bunday hodisalarning kuzatilishi qonuniy va ko'p uchraydi. Yirik daryolar va qiyaligi kichik bo'lgan joylarda bunday toshqinlar juda ham xatarli emas. Yemirilgan tog' jinslari bo'laklari bilan to'lgan nisbatan kichik va tik tushadigan tog'daralari va kuluarilarda to'g'oni yorib chiquvchi toshqinlar kuchli loy-toshli sel oqimlarini hosil qiladi. Erigan muz suvlarning toshqinlari muzliklarning odatdagi va vaqtı-vaqtı bilan ro'y beradigan siljishlari hamda ulardagi erigan suvlar drenajining buzilishi bilan ham bog'liqdir.

Sel havzasi doirasida quyidagi elementlar ajralib turadi:

- 1) sel o'choqlari;
- 2) sel o'choqlarining suv toplash maydoni, ularning tarkibida shu yerga xos, vaqtı-vaqtı bilan suv toshqinini hosil qilish rejimiga ega elementlar bo'lishi mumkin (muzliklardan to'yinuvchi, morenalardan iborat to'g'onli suv havzalari);
- 3) sel hosil bo'ladigan maydonlar;
- 4) neytral suv toplash maydoni.

Ta'kidlash joizki, sel oqimining atigi bir turi bilan tavsiflanadigan sel havzalari ham uchrashi mumkin. Biroq ko‘p hollarda bir o‘zanda barcha sel oqimlari turlarining birgalikda yoki navbatma-navbat o‘tishi sodir bo‘ladi. Selning orqa qismida tuproq (yer osti) suvlarining paydo bo‘lishini tabiiy holat sifatida qabul qilish lozim. Aynan suv oqimlari endigina to‘xtab qolgan loyli va loy-toshli uyumlarni yuvib, seldan keyingi o‘zan o‘yiqlarini vujudga keltiradi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Ugom daryosining o‘ng sohilidagi sel o‘yiqlari  
va loy-toshli sel uyulmalari

### **Sel va suv toshqinlarining kelib chiqish sabablari**

Tog‘ hududlarida kuchli yomg‘irlarning yog‘ishi, muzlik va qorlarning tez yerishi natijasida hosil bo‘lgan daryo toshqinlarini, tog‘ yon-bag‘rilarida nuragan tog‘ jinsi bo‘laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilishi sel hodisasi deb yuritiladi. Sel oqimi massasining taxminan 50-60 foizi turli kattalikdagi tog‘ jinsi bo‘laklaridan, o‘simlik va daraxt bo‘laklaridan iborat bo‘ladi. Sel oqimining davomiyligi 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s.gacha yetishi mumkin, sel massasining zichligi yesa 1,2-1,9 t/m<sup>3</sup>.ni tashkil yetadi.

Bunday fizik ko‘rsatkichlarga yega oqim juda katta kuch bo‘lib, xalq xo‘jaligiga sezirarli zarar keltiradi, oqim yo‘lida uchragan suv inshoatlarini, yo‘llarni, qishloq va shaharlarni, bog‘larni, ko‘priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko‘mib tashlaydi.

Sel oqimlari o‘zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o‘lchamiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Cuv-toshli sellar;
2. Loyqa sellar;
3. Aralash sellar.

Yer yuzasida yuz bergen ofatli sellarga misol qilib, 1934 yilining yangi yil kechasi AQShning Los-Anjelos shahri atrofida kuzatilgan sel oqimini ko‘rsatish mumkin. Shu kuni shaharga yaqin Kordelera tog‘ida kuchli yomg‘ir yog‘ib, uning miqdori 538 mm.ni tashkil yetdi. Yomg‘ir tinishidan sal oldinroq tog‘dan katta tezlikda suv toshqini pastga harakat qilgan. Bu suv toshqini 100 m masofagacha yoyilib unga yaqin bo‘lgan ikki shahar - Lya Kreket va Montero shaharlariga katta talofot yetkazdi. Suv oqimi to‘lqinining balandligi 6 m.gacha yetgach, o‘z yo‘lida 500 ta ko‘prikni, bir qancha imoratlar va inshoatlarni vayron qilgan, qanchadan-qancha odamlarni boshpanasiz qoldirgan.

Markaziy Osiyoda yeng kuchli sel oqimlari Qozog‘iston Respublikasining Olma-Ota shahridan o‘tuvchi, shahar nomi, bilan ataluvchi daryo vodiysida kuzatilgan. Masalan, 1921 yil 8 iyun kuni kechqurun yuz bergen sel oqimi natijasida shaharga olib kelingan tog‘ jinslari 100 mingta vagonga jo bo‘lgan. Bu ofat natijasida 400 dan ortiq kishi halok bo‘ldi. Sel oqimining vujudga kelishiga tog‘lik hududlardagi qorlar va muzliklarning yerishi, kuchli yomg‘ir yog‘ganligi sabab bo‘lgan.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko‘p talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ulardan yana biri Medeo sel to‘g‘oni qurilgandan keyin, 1973 yil 15 iyul kuni ro‘y berdi. Shu kuni kuchli yomg‘ir ta’sirida baland tog‘likdagi tabiiy ko‘l to‘g‘onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi hosil bo‘ldi. Bu oqim taxminan 2 soat davom yetib, uning sarfi 2000-3000 m<sup>3</sup>/s.ga yetgan va Medeo to‘g‘oniga 400 mln m<sup>3</sup> sel massasi olib kelib tashlangan. Yertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to‘g‘ondan oshib ketishiga atigi 6 m masofa qolgandi. Agar sel to‘g‘ondan oshib harakatlansa, Olma-Ota shahriga juda katta xavf tug‘dirishi mumkin yedi. Shuning uchun buni oldini olish maqsadida

to‘g‘ondagi suv asta sekin chiqarilib yuborildi hamda to‘g‘onning balandligini 150 m.gacha ko‘tarildi.

Oxirgi 100 yil ichida O‘zbekiston Respublikasi xududida 2500 dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bulardan 1400 dan ortig‘i loyqa, 350 dan ortig‘i suv-toshlik, 650 dan ortig‘i aralash sellardir. Respublikamizning Farg‘ona vodiysida, Toshkent oldi xududlarida ham sel oqimlari kuzatilib turadi. Sel oqimlari Respublikamiz hududida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo‘lib, bahor oylaridagi kuchli jala, yomg‘irlar, haroratning issiq kelishi, tog‘larda muzlik va qorlarning tez yerishi, daryo o‘zani qiyaligining  $3-5^0$  dan kattaligi, suv yig‘ish maydonida zarrachalari bog‘lanmagan bo‘shoq tog‘ jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo‘lishi mumkin bo‘lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o‘rganish, atrof-muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil yetishda katta xalq xo‘jalik ahamiyatiga yega.

Shuning uchun sel hodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy, amaliy xulosalarga, chora – tadbirlarga asoslangan bo‘lmog‘i kerak.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Sel bo‘lishi mumkin bo‘lgan daryolarning suv yig‘ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig‘ish maydonida bo‘shoq tog‘ jinslari yig‘ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to‘sqinlik qiluvchi tabiiy va su’niy to‘sqliardan tozalash ishlari;

2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan daryolarning suv yig‘ish maydonlarini muhofaza qilish, ya’ni bu maydonlarda o‘simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug‘orish ishlarini olib borishni chegaralash;

3. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'rilarida butalar va daraxtlarning yekilishini yo'lga qo'yish talab yetiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor yerishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishidan saqlaydi;

5. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshoatlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrli quvurlar yotqizish ishlari.

Sel oqimiga qarshi kurashish uslubini tanlash maqsadida maxsus muhandis-geologik qidiruv ishlari olib boriladi. Olingan natijalardan (har tomonlama taxlil qilish asosida) o'rganilayotgan xudud uchun xarita tuziladi.

Bu xaritada:

- sel kuzatiladigan;
- sel kuzatilishi mumkin bo'lgan;
- sel kuzatilmaydigan maydonlar ajratiladi.

Sel kuzatiladigan va kuzatilishi mumkin bo'lgan joylarning iqlim sharoitiga, geologik o'zgarishlarga, vujudga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimi kuchiga qarab kurashish usullari tanlanadi, tadbir choralari belgilanadi.

Tog'lik hududlarda shaxsiy imoratlarni qurish ishlari sel xavfi xaritasi bilan tanishgan holda, maxsus tashkilotlar ruxsati asosida olib borilishi kerak.

Hulosa qilib takidlash mumkinki, yuqorida aytilgan hamma ofat turlari O'zbekistonga xos xarakterlidir. Shuning uchun shu o'lkada yashovchi har bir fuqaro yuqoridagi aytilgan tabiiy ofatlardan qo'rqmasdan, yesankiramasdan, yuqori tashkilotlar, fuqarolar muhofazasi organlari tomonidan beriladigan har bir ko'rsatma, yo'riqnomalarga qat'ian rioya yetib, harakat qilish zarur. Bunda hech qanday o'zboshimchalik, odamlarni bezovtalantirish, havfsirash, faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan harakatlarni qilish ta'qiqlanadi. Qayerda yuqori intizom, chuqur ishlangan omillar bo'lsagina, o'sha yerda ofat oqibatlari tugatilib, xayot tezda o'z izga tushib ketadi.

## **Ko‘chkilar va uning kelib chiqish sabalari**

**Ko‘chkilar.** Ko‘chkilar tabiiy jarayonlar yoki odamlar qir-adirlarning barqarorligini buzganda sodir bo‘ladi. Tuproq yoki jinslarning birikuvchi kuchlari bir nuqtada tortishish kuchidan kamroq bo‘lib chiqadi, butun massa harakatlana boshlaydi va falokat yuz berishi mumkin.

Tuproq massalari qiyaliklardan deyarli sezilmaydigan tezlikda siljishi mumkin (bunday siljishlar sekin yoki sudralma deb ataladi). Boshqa hollarda, nurash mahsulotlarining siljish tezligi yuqori bo‘ladi (masalan, kuniga metr), ba’zan katta hajmdagi jinslar tezyurar poezd tezligidan oshib ketadigan tezlikda qulab tushadi. Bularning barchasi qiyaliklarning siljishi - ko‘chkilardir. Ular nafaqat siljish tezligida, balki hodisaning ko‘lamida ham farqlanadi. Muhandislik geoglari ularni tasniflash uchun turli xil ilmiy va texnik atamalardan foydalanadilar.

Eng ko‘p ishlatiladigan nom “ko‘chki”. Ko‘chkilar bo‘yicha dunyodagi eng hurmatli mutaxassislardan biri akademik Kvido Zaruba ko‘chkini quyidagicha ta’riflaydi: “Bu tog‘ jinslarining keskin siljishi bo‘lib, unda harakatlanuvchi massalar monolit asosdan ko‘rinadigan sirpanish yuzasi bilan ajralib turadi”. Uning ta’kidlashicha, yer ko‘chkisi jarayonning o‘ziga ham, bu jarayon natijasida yuzaga keladigan relef shakllariga ham tegishli.

Akademik Zaruba professor Mentslem bilan birgalikda “Ko‘chkilar va ularga qarshi kurash” kitobini yozgan. Darhol kirish qismida mualliflar ko‘chkilarning turli xil xavfli oqibatlariga e’tibor qaratadilar. Ko‘chkilar uylarni vayron qilishi va butun jamoalarga xavf tug‘dirishi mumkin. Ular qishloq xo‘jaligi yerlariga tahdid soladi, uni yo‘q qiladi va ishlov berishni qiyinlashtiradi. Ular konlarni ishlatishda xavf tug‘diradi. Ko‘chkilar kommunikasiyalarga, tunnellarga, quvurlar, telefon va elektr tarmoqlari; suv inshootlariga, asosan, to‘g‘onlarga tahdid soladi. Bundan tashqari, ular vodiyni to‘sib qo‘yishi, vaqtinchalik ko‘llarni yaratishi va suv toshqiniga hissa qo‘shishi, shuningdek, ko‘llarda halokatli to‘lqinlarni yaratishi mumkin. Suv ostidagi ko‘chkilar telegraf kabellarini ishdan chiqaradi.

Ko‘chkilar qanday tahdid solayotganini tushunish uchun bu ro‘yxatga olish kifoY. Ko‘pincha, bu jarayonlar halokatli emas, yuzlab odamlar halok bo‘ladi, ammo ularning milliy iqtisodiyotga yetkazadigan zarari sezilarli bo‘lishi mumkin. Ko‘chkilar vijdonida qancha inson hayoti yotgani noma’lum. Ko‘chkilar bo‘yicha taniqli shveysariyalik mutaxassis, professor A.Geymaning ma’lumotlariga ko‘ra, 1930-yilgacha birgina Shveysariyada 5000 dan ortiq odam ko‘chkilar oqibatida halok bo‘lgan. Bu ma’lumotlarga dunyoning qolgan qismidan va vaqt o‘tishi bilan bizga yaqinroq bo‘lgan ko‘chkilarni qo‘shib hisoblasak, zilzilalar paytidagi ko‘chkilarni hisobga olmaganda, biz 100 000 ko‘rsatkichiga yaqinlashamiz.

**Ko‘chkilarning hosil bo‘lish shartlari.** Bo‘shashgan, zaif sementlangan jinslarda siljish sodir bo‘ladi, chunki tik va baland qiyalik daryo, suv ombori, dengiz tomonidan kesilganligi sababli o‘z barqarorligini yo‘qotadi va katta tosh massalari katta bloklar bo‘lib qiyalikdan pastga siljiy boshlaydi. Ko‘chki harakati doimo yer osti suvlarining mavjudligi bilan bog‘liq. Ularning ko‘pligi ko‘chki uchun zarur shartdir. Biroq, ko‘chkiga sabab bo‘lgan yer osti suvlari emasligini aniq tushunish kerak. Ko‘pincha biz vodiylarning tik yonbag‘irlari ko‘chkilarga moyil ekanligini va keyingi yuqori yoki quyi oqimda bir xil geologik tuzilishga ega, suvli qatlamlarning bir xil suv ko‘pligi va yer osti suvlari sathining bir xil balandligi bilan hech qanday ko‘chkilar yo‘qligini ko‘ramiz. Tikligi 10-12 darajadan past bo‘lgan qiyaliklarda ko‘chkilar kamdan-kam kuzatiladi. Nishab 15 gradus bo‘lsa, ko‘chkilar faqat qulay geologik va gidrogeologik sharoitlarda sodir bo‘ladi. Ammo ularning plastisiyasini ta’minlaydigan tog‘ jinslarining yetarli darajada namligi har doim zarur. Aytish mumkinki, bir qator zarur shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ko‘chkilar nishabning tikligi va balandligi funksiyasidir. Lekin ayta olmaysiz. Ko‘chki yer osti suvlarining mavjudligi funksiyasidir. Ko‘chkilarning paydo bo‘lishi uchun bunday geologik sharoitlar ko‘chki qiyaligining tagida suvga chidamli qatlamlar va suvli qatlamlar yuqorida joylashganida eng qulaydir. Ammo nishab faqat suvli qatlamlardan iborat bo‘lsa va suvga chidamli qatlam bo‘lmasa ham, yer osti suvlari baribir oqiziladi, ularning darajasi vodiy yoki dengiz (ko‘l) qirg‘oqlari tomon

oraliqlardan asta-sekin kamayadi. Nishablarning yetarlicha tikligi va balandligi bilan ko‘chkilar muqarrar ravishda sodir bo‘ladi.

Ko‘chkilarga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Yer yuzasi asosan qiyaliklardan iborat. Ulardan ba’zilari barqaror, boshqalari esa turli xil sharoitlarga qarab beqaror bo‘lib qoladi. Bu nishab burchagi o‘zgarganda yoki nishab bo‘sh material bilan yuklanganda sodir bo‘ladi. Shunday qilib, tortishish kuchi tuproqning biriktiruvchi kuchidan kattaroqdir. Nishab silkinish paytida ham beqaror bo‘ladi. Shuning uchun tog‘li relefdagi har bir zilzila qiyalik bo‘ylab siljishlar bilan birga keladi. Ko‘chkilarning shakllanishi, ayniqsa, suvga chidamli jinslarning yuzasini qiyalik yo’nalishiga to‘g‘ri keladigan tog‘ jinslarining bunday yotqizilishi bilan qulaydir. Suv o‘tkazmaydigan gorizont sirpanish yuzasi bo‘lib xizmat qiladi, uning yuza bo‘ylab ko‘proq yoki kamroq muhim tosh bloklari qiyalikdan pastga siljiydi. Nishabning beqarorligi, shuningdek, tuproq, bo‘sh cho‘kindi yoki jinslarning sug‘orilishining ko‘payishi bilan ham yordam beradi. Suv teshiklarni to‘ldiradi va tuproq zarralari orasidagi yopishqoqlikni buzadi. Interstsial suvlar moylash vositasi sifatida harakat qilishi va sirg‘alishni osonlashtirishi mumkin. Tog‘ jinslarining jipsligini muzlash va nurash jarayonlari bilan buzish mumkin. Nishablarning beqarorligi, shuningdek, plantasiyalar turining o‘zgarishi yoki o‘simlik qoplaming yo‘q qilinishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Nishabdagi toshloq toshlar bo‘sh material yoki tuproq bilan qoplangan bo‘lsa ham, vaziyat jiddiy. Bo‘shashgan konlar, ayniqsa, sirpanish tekisligi suv bilan "moylangan" bo‘lsa, taglik jinslardan osongina ajratiladi. Noqulay (ko‘chkilar ehtimoli nuqtai nazaridan) tog‘ jinslari qattiq ohaktoshlar yoki qumtoshlar qatlamlari bilan ifodalangan holatlardir, ular ostida yumshoqroq slanetslar mavjud. Ob-havo natijasida interfeys hosil bo‘ladi va qatlamlar nishab bo‘ylab siljiydi. Bunday holda, hamma narsa asosan qatlamlarning yo’nalishiga bog‘liq. Ularning tushish yo’nalishi va qiyaligi nishabga parallel bo‘lsa, bu har doim xavflidir. Nishab burchagining qiymatini aniq aniqlash qiyin, undan ko‘p nishab barqaror emas va undan kamroq barqaror. Ba’zan bunday tanqidiy burchak 25 daraja sifatida aniqlanadi. Tikroq qiyaliklar endi barqaror emasdek. Ko‘chkilarning paydo bo‘lishiga eng ko‘p

yog‘ingarchilik va silkinishlar ta’sir qiladi. Ko‘chkilar doimo kuchli zilzilalar paytida sodir bo‘ladi. Yomg‘irga kelsak, u ko‘p sharoitlarga bog‘liq. Masalan, Alp tog‘larida 2500 mm dan ortiq yog‘ingarchilik kritik chegara sifatida qabul qilinadi. Qisqa vaqt ichida bunday yog‘ingarchilik miqdori o‘tkir xavf tug‘diradi.

**Ko‘chki nima.** I.V.Popov ta’rifiga ko‘ra, ko‘chki - bu ajratuvchi yuzalarni yer osti suvlari bilan namlash natijasida tik yon bag‘irlarda o‘nlab kubometr va undan ortiq hajmdagi tosh bloklarining siljishi. Aynan tosh bloklari (bloklar ichida) asl tuzilishini saqlagan holda cho‘kadi. Qoyalar jinslar odatda bo‘sh yoki zaif sementlangan. Qoyalar blokda qattiq jinslarning alohida qatlamlari yoki linzalari bo‘lishi mumkin.

Ko‘chki paytida tog‘ jinsi qisman ezilib, breksiyalangan tuzilmasiz massaga aylanadi. Nishab etaklarida ko‘chki massalarining to‘planishi delapsiya deb ataladi.

Ko‘chkilar hajmi jihatidan juda farq qiladi. Yuz minglab kubometr toshlarni bosib olgan ulkan ko‘chkilar va bir necha o‘n kub metrlik kichik ko‘chkilar mavjud.

Ko‘chkilar jarliklar, soylar, daryo vodiylarining tik yon bag‘irlari bilan chegaralangan. Ular tog‘larda zaif sementlangan jinslar hududida joylashgan. Ko‘chkilar daryolar va dengizlar qirg‘oqlari bilan chegaralangan platforma tekisliklarida keng tarqalgan. Ammo tekisliklarning hamma joyida ko‘chki yonbag‘irlari kichik maydonlarni egallaydi, chunki odatda tik yon bag‘irlari (15 darajadan yuqori) tor mahalliylashtirilgan va ular egallagan hududning tekislikning umumiy maydoniga nisbati hatto 1% ham emas. Tog‘larda esa kuchli jinslar ustunlik qiladi, bu ham ko‘chkilarning tarqalishini keskin cheklaydi. Tekisliklarda, shuningdek, tog‘larda, toshlar chiqib ketadigan joylarda, hatto vodiylarning tik yon bag‘irlarida ham ko‘chkilar kuzatilmaydi.

Sirpanish paytida ma’lum bir relef shakllari majmuasi hosil bo‘ladi: ko‘chkining buzilishi devori (ko‘chki to‘sig‘i) bilan chegaralangan ko‘chki sirkni, ko‘chki bloki, ko‘p hollarda yuqori maydonning (ko‘chki terasi) ko‘chki qiyalik tomoniga inversiyasi bilan tavsiflanadi. Ko‘chki yo‘nalishidagi daryo, dengiz yoki ko‘lga qaragan tik to‘sinq. Ko‘chkining ajralish yuzasi sferik shaklga ega bo‘lib, aylanaga yaqinlashishga moyil. Ba’zi hollarda tog‘ jinslarning sirt qatlamlarining

harakatlanuvchi ko'chki bloki tomonidan deformasiyasi natijasida bosimli ko'chki shishishi paydo bo'ladi. Bunday ko'chkilar daryo yoki dengiz qirg'og'iga erkin sirg'alib ketadigan ko'chkilardan farqli o'laroq detrusiv deb ataladi.

Tasniflash. Ko'chki hodisalari orasida quyidagi turlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tosh bloklarining sirpanishi (blok yoki konstruktiv).

2. Toshli yoki muzlagan sirt yuzasida bo'shashgan konlar qoplaming (bir vaqtning o'zida va tez) siljishi ko'chki-siljishlar.

3. Kichkina bloklarni siljitish - siljish, butun nishabni yoki uning muhim qismini qoplash.

4. Nishablarning to'kilishi, tosh yoki yarim toshli jinslar bloklarining siljishi.

Shunga ko'ra, ko'chki yonbag'irlari, bo'shashgan cho'kindi qoplaming ko'chkisi yonbag'irlari (ko'chki-siljishlar yonbag'irlari), qiya yonbag'irlar va cho'kish yonbag'irlarini ko'rib chiqish mumkin.

Strukturaviy ko'chkilar turli mezonlarga ko'ra bo'linadi. O'tgan asrda A.P.Pavlov ko'chkilarni detrusiv va depressivlarga ajratdi. Birinchi ko'chkilar plastik jinslarni pastki uchi oldiga "itarib yuboradi", ularni deformasiya qiladi. Ikkinchisi daryo, dengiz, ko'l chetiga erkin siljiydi [27].

Nishablarni tashkil etuvchi jinslarning tuzilishiga ko'ra ko'chkilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ketma-ket, bir jinsli jinslarda rivojlangan;

2. Oqibatli, tog' jinslarining qatlam tekisliklari bo'ylab yoki yoriq tekisliklari bo'ylab sodir bo'ladigan;

3. To'shak yuzalarining sirpanish tekisliklari yoki yoriqlar tekisliklarining kesishishi bilan tavsiflangan ketma-ket.

Ko'chkilar bir balandlikda sodir bo'lishi mumkin - bir qavatli yoki bir necha - ko'p qavatli. Ko'p pog'onali ko'chkilar tog'larda va kamroq tekisliklarda, asosan yon bag'irlarining balandligi 100-200 metrga yetadigan joylarda kuzatiladi.

Ko'chki jarayoni sodir bo'lgan vaqtga ko'ra, ko'chkilar bir vaqtning o'zida, davriy va doimiy ravishda bo'linadi. Zamonaviy ko'chkilarni, so'nggi (bir necha o'n

yillar oldin sodir bo‘lgan), eski ko‘chkilarni - tarixiy davrda, ya’ni 3-5 ming yil oldin pastga siljishini ajratish mumkin. Yillar oldin va geologik jihatdan uzoq vaqt davomida bizdan uzoqda joylashgan qadimiyari o‘tkir xavf tug‘diradi. Ko‘chirish tezligiga ko‘ra, barcha nishab jarayonlarini uch toifaga bo‘lish mumkin: sekin, o‘rtalikli siljishlar va tez.

**Sekin siljishlar.** Sekin siljishlar halokatli emas. Ular bo‘shashmasdan cho‘kindilarning sudraluvchi siljishlari, shuningdek sirpanish va sirpanish deb ataladi. Bu haqiqatan ham siljishdir, chunki uning tezligi yiliga bir necha o‘n santimetrdan oshmaydi. Muhandislik geologlari bunday siljishni qanday aniqlashni yaxshi bilishadi (masalan, qiyalikda o‘sadigan o‘ralgan daraxt tanasi, qatlamlar va sirtlarning egilishi, qatlamlarning qulashi deb ataladigan va sezgir asboblar yordamida). Tuzli tebranish va gellifluksiya bunday sekin siljishlarning turlaridir. Ilgari sho‘rlanish deganda tuproqdagi va suv bilan to‘yingan bo‘sh cho‘kindilarning siljishi tushunilgan. Keyinchalik bu muddat muzlik va muzlashning muzlashi va erishi tufayli tuproqlar siljishi uchun kengaytirilgan. Hozirgi vaqtida "gelifyuksiya" atamasi o‘zgaruvchan muzlash va eritish natijasida yuzaga keladigan siljishlarning shakllanishi uchun tavsiya etiladi.

Demak, sho‘rlanish - bu yopishqoq-suyuqlik konsistensiyasiga ega bo‘lgan tuproq massasining harakati, ya’ni qalin qatlamda tarqalish qobiliyati. Ushbu sekin siljishlarning xavfi shundaki, ular asta-sekin tez siljishga, keyin esa halokatga aylanishi mumkin. Ko‘pgina yirik ko‘chkilar bo‘shashgan materiallarning siljishi yoki tosh bloklarining sekin siljishi bilan boshlangan.

**O‘rtacha tezlik.** O‘rtacha tezlikning siljishi ostida soatiga metr yoki kuniga metr tezlikda sodir bo‘ladigan siljishlar tushuniladi. Bularga eng tipik ko‘chkilar kiradi. Bunday odatiy ko‘chki rasmda ko‘rsatilgan.

Ko‘chki uchastkasi ajratish zonasasi, sirpanish zonasasi va frontal yoki akkumulyatsiya zonasidan iborat.

Ajratish zonasida asosiy ajralish yorig‘i va sirpanish tekisligi ajralib turadi, ular bo‘ylab ko‘chki tanasi pastki jinsdan ajratilgan. Ko‘chkilar katta moddiy zarar etkazadi, ammo to‘g‘ri tashkil etilgan evakuasiya odamlarning qurbon bo‘lishining

oldini oladi. Bunday holda, toshqinning paydo bo‘lishi xavflidir, chunki ko‘chki odatda daryo oqadigan vodiylarni to‘ldirishi mumkin.

**Tez siljishlar.** Faqat tez ko‘chkilar tezligi bir necha o‘nlab kilometrlarni tashkil etuvchi yuzlab qurbanlar bilan haqiqiy ofatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Qochish mumkin bo‘limganda (haqiqiy evakuasiya qilish uchun vaqt qolmagan) bir soatlik (yoki undan ko‘p) bunday siljishlarga. Bunday hollarda siljish kuchiga inersiya kuchi qo‘shiladi va siljish yuzasida maydalangan jinslar "qo‘sishimcha moylash" ni ta’minlaydi va birlashtiruvchi kuchlarni kamaytiradi. Bunday falokatlarning har xil turlari ma’lum va ularni belgilash uchun ilmiy adabiyotlarda turli atamalar qo‘llaniladi. "Tosh tushishi" tushunchasi o‘z-o‘zidan aniq. To‘fon ko‘chkilari qattiq moddalar suv bilan aralashib, yuqori tezlikda oqganda sodir bo‘ladi. Ko‘chki-oqimlar loy (ular vulqon loy oqimlarini ham o‘z ichiga oladi), tosh va o‘tishli bo‘lishi mumkin. Qor ko‘chkilari ham, qor-tosh ham tez siljishlarga tegishli.

Ko‘chkilar ko‘chki blokining parchalanish darajasi bilan ham ajralib turadi.

**Ko‘chkilarning yonbag‘irlari.** Ko‘chkilar-ko‘chkilar past tog‘li yoki tekis tog‘li relef sharoitida yuzaga keladi, bu yerda tog‘ jinslari qoyali tipga ega va shuning uchun o‘z-o‘zidan blokli ko‘chkilarni hosil qila olmaydi. Bu yerda siljish faqat toshlarni qoplaydigan, qumloq-moloz-blokli bo‘sh konlarning qopqog‘ini qoplashi mumkin. U tog‘ jinslarining muzlagan tog‘ jinslari yuzasida suzib yuradi (ko‘pincha bu yuzalar bir-biriga to‘g‘ri keladi). Ko‘chkilar sodir bo‘ladigan yon bag‘irlarining tikligi 15 dan 30 darajagacha. Tog‘ jinslari ham, muzlatilgan jinslar ham akviklyud bo‘lib xizmat qiladi, uning yuzasida ozmi-ko‘pmi suv bilan to‘yingan va o‘zining birikuvchanligini yo‘qotgan bo‘sh tog‘ jinslari ma’lum bir lahzada quyi chiqish nuqtasidan o‘tadi. Ustida turgan jinslar bilan tog‘ jinslari (muzlagan) asoslari orasidagi aloqa zaiflashadi.

Daryoning pastki qismini kesish natijasida tog‘ jinslari ostida yotqizilgan, uning ustida tuproq suv bilan to‘yingan blok parchalanadi va eg‘imli yuzadan kanalga suzadi. Pastdan to‘xtash joyini yo‘qotib, qiyalik bo‘ylab balandroq joylashgan blok o‘zining barqarorligini yo‘qotadi. U avvalgisidan keyin suzadi. Nishabdani yuqorida joylashgan bloklarning qolgan qismi bilan ham xuddi shunday holat sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, nishabda bo'shashgan materialdan mahrum bo'lgan chiziq paydo bo'ladi. Ip maksimal qiyalik yo'nalishi bo'yicha nishab bo'ylab uzaytiriladi. Nishabning pastki qismida, ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri kanalda, tartibsiz, notekis yuzasi bo'lgan suzuvchi materiallar to'planadi. Parchalangan bo'lib, ular tezda suv oqimi bilan yuviladi.

Nishabning qo'shni bo'laklariga nisbatan, tushish sodir bo'lgan chiziq nishabning umumiy yuzasiga 2-5 m ga chuqurlashtiriladi, bu esa singan qoplamaning qalinligiga mos keladi. Reja ko'rinishida ko'chkilar chiziqli cho'zilgan shaklga ega. Odatda chiziqning kengligi 15-20 m, uzunligi esa 50-150 m ga yetadi. Yirik ko'chkilar sodir bo'ladi.

Nishabning u yoki bu qismida ko'chki-surmalar takrorlanadi. Ammo ko'chki oqimi ostida qolgan hududga tutash hududlar harakatga darhol emas, balki bir necha yil yoki hatto o'n yilliklar o'tgandan keyin qo'shiladi. Buning sababi shundaki, sirpanish sodir bo'lgan chiziqqa ularshgan qiyalik chiziqlari biroz yaxshiroq drenajlanadi, chunki hosil bo'lgan tushkunlik tabiiy drenaj vazifasini bajaradi. Keyingi ko'chki avvalgisidan 30-50 m masofada sodir bo'ladi. Yer yuzasiga ta'sir qilgan tog' jinslari moloz-toshli tuproq bilan qoplanganidan ko'ra tezroq parchalanadi va unda yana bo'sh cho'kindi qoplami hosil bo'ladi. Taxmin qilish mumkinki, geologik jihatdan uzoq vaqt davomida ko'chki-ko'chkilar kuzatilayotgan vodiylarda turli vaqtarda cho'kish natijasida yon bag'irlarning butun yuzasi tutilgan. Albatta, qiyaliklarning hozirgi vaqtida drift bilan qoplanmagan qismlari ham barqaror emas, lekin jarayonning sur'ati ularda ancha tinchroq - vayronalar qoplaming siljishi doimiy ravishda, lekin asta-sekin, sur'atda sodir bo'ladi. Biroq, tuproqning bog'lanish chegarasidan o'tib ketganda, hodisaning sifati o'zgaradi va sekin massa harakati ko'chki-siljishga aylanadi. Ko'chkilarning mavjudligi shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, ma'lum sharoitlarda vayronalar qoplami qiyalikda juda beqaror. Tegishli tiklik, qiyalik uzunligi, tuproqning qalinligi va namligi bilan dunyoviy jarayonni tez sur'atda siljish bilan almashtirish mumkin.

**Nishablarning sirpanishi.** CHo'kishlar kichik blokli ko'chkilar bo'lib, ularda hatto sodaning uzluksizligi ko'pincha saqlanib qoladi. Ular etarlicha zich suvga

chidamli jinslar yuzasida rivojlanadi va jinsning qalinligi atigi 0,3 - 1,5 m. Buning sababi tuproqning yuqori qatlamida, ba'zan faqat tuproq qatlamida ortiqcha namlikdir.

Morfologik jihatdan qiya yon bag'irlar boshqa qiyaliklardan mikropog'ona bilan farqlanadi. Chorva mollari mo'l bo'lgan dasht yonbag'irlarida cho'kish ayniqsa kuchli namliksiz, tuproqning zaif plastik holatida, ba'zan esa sirtdan soda bilan mahkamlangan bo'sh tuproqlarda ham sodir bo'ladi. Kengligi bir necha o'n santimetr bo'lgan terasli maydonlar bo'ylab harakatlanayotganda, hududlardagi hayvonlar vaqtincha yerga yukni oshiradi, bu esa uning siljishiga yordam beradi. Natijada "sigir yo'llari" deb ataladigan nishabning mikro-gofrirovkasi. Hali ham ba'zida mikropog'onani tog' jinslarining tuzilishi funksiyasi deb aytishadi. Shu bilan birga, ular yaylov yo'qdek tuyulgan joylarda kuzatilishini ko'rsatadi. Bunday hollarda muammoni hal qilish uchun yo'llarning morfologiyasini (ularning qo'shilishi - shoxlanishi, moyilligi), shuningdek, qiyalik cho'kindi qoplaming tuzilishini diqqat bilan kuzatish talab etiladi. Zinapoya bo'ylab yotqizilgan xandaq shubhasiz javob berishi mumkin.

**Nishablarni joylashtirish.** Nishabning cho'kishi hodisasi ko'chkiga juda yaqin, lekin u bo'shashmasdan emas, balki magmatik, metamorfik yoki yetarlicha diagenetlangan qattiq cho'kindi jinslarda sodir bo'ladi. U o'nlab, yuzlab va minglab kilometr hajmli jinslar blokini ajratishdan, ajratilgan blokning holatini bosqichma-bosqich o'zgartirishdan va uning keyingi qulashidan iborat. Qulashning o'zi allaqachon ko'chki jarayonidir. Nishab tushishi hodisalari ancha keng tarqalgan.

Odatda geomorfologik adabiyotlarda ifodalanadi. CHo'kish toshli va yarim toshli jinslardan tashkil topgan chuqur yorilgan platolar va tog'li hududlar bilan chegaralangan. Baland tog'larda cho'kish tezda qulashga aylanadi va shuning uchun qulash jarayonining boshlanishi hisoblanadi.

Oddiy holatda, dastlab tik qiyaliklarning chekkalarida tor yoriq paydo bo'ladi, u asta-sekin kengayib, asta-sekin mayda tuproq bilan to'lib, devorlardan uning ichiga qulab tushadi. Ikkinchisi odatda suv bilan to'yingan va suvning bir qismini blokning poydevoriga o'tishiga imkon beradi, taglik jinsini namlaydi. Asta-sekin, vertikal

yorilib ketgan kuchli jinslar ostidagi qatlamning tomi vodiya qarab ma'lum bir nishabga ega bo'ladi, shuning uchun blok qiyalik oladi va yuqori qismdagi bloklarni ajratib turadigan yoriqlar tobora ko'proq bir-biridan uzoqlashib boradi. Relefda ular 3-10 m chuqurlikdagi tosh yoki chimli devorli ariqlar shaklida ifodalangan. Keyin blok yanada kattaroq nishabga ega bo'lib, ag'dariladi va shu bilan birga yeziladi. Uning yo'q qilinishi natijasida hosil bo'lgan bo'laklarning keyingi harakati boshqa nishab jarayonlari jarayonida amalga oshiriladi.

Hisoblash jarayoni davom etishi uchun quyidagi shartlar zarur.

1. Parchalanish chuqurligi - baland va tik yonbag'irlarning mavjudligi. Vodiylarning chuqurligi yoki qirg'oq qirg'oqlarining balandligi 150-300 m va undan ko'p bo'lsa, poydevordagi toshlarga bosim vodiy (yoki suv ombori) tomonidan hech narsa bilan qoplanmaydi.

Va agar taglikdagi tosh kamida bir oz plastik bo'lsa, u bosim ostida asta-sekin tekislanadi va uning yuzasi vodiy (suv ombori) tomon ma'lum bir nishabga ega bo'ladi.

2. Ikkinchchi zaruriy shart - qiyalikning tagida bosim ostida sezilarli deformasiyaga qodir bo'lgan jinslarning mavjudligi. Ko'pincha, bu juda zaif plastik alevoli toshlar, loytoshlar, gil-kremniyli sement bilan zaif qumtoshlar. Kamroq - karst jinslari (ohaktosh, dolomit, gips, tosh tuzi). Ikkinchisining mavjudligi ularning plastisitivligi va erimaganligi sababli qiyaliklarning sarkmasina olib kelishi mumkin.

3. Uchinchi shart - hududni tashkil etuvchi jinslar orasida kuchli, lekin ayni paytda mo'rt va vertikal yorilishli qumtoshlar, dolomitlar, ohaktoshlar, diabazlar, doloritlar, bazaltlarning ustunligi.

Jarayon jarayonida yer osti suvlarining ishtiroki shart emas. Ammo nishab poydevorini yaxshiroq namlash bilan jarayonning yanada faol borishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Jarayonning rivojlanishida tosh bloklarini ajratib turadigan kengaygan yoriqlarga tushgan materialning bosimi ham muhim rol o'ynaydi. Agar 100 m chuqurlikdagi yoriq shag'alli qum bilan to'ldirilgan bo'lsa, unda bu plomba xanjar kabi ishlaydi. Yoriqlarni to'ldiradigan shag'alli qumloqlarning yuqori gorizontlarida,

ayniqsa, tuproq muzlaganda devorlarga bosim kuchayadi va natijada uning hajmi ortadi. Devorlarga bosim nafaqat takozli yoriqlar ta'siriga, balki pastki qatlamlar yuzasi bo'yab ajratilgan tosh bloklarini "itarish" ta'siriga ham ega bo'lishi mumkin. Oxirgi holat tartibga solish jarayonini keskin kuchaytirishi mumkin.

Nishab tushishi hodisasining morfologik ifodasi hamma joyda bir xil emas. Eng xarakterli joylashuv ariqlaridir. Ariqlarning chuqurligi (10-40 m) ularning kengligidan oshadi (qirradan chetga qadar).

Ikkita ko'chki: eng katta va eng fojiali.

Tarixiy davrning eng katta ko'chkisi 1911 yilda Pomirda sodir bo'lgan ko'chki hisoblanadi. Kuchli zilzila ulkan ko'chkiga sabab bo'ldi. So'rov o'tkazildi. 2,5 km 31 bo'sh material pastga siljiydi [32]. 54 nafar aholi istiqomat qiluvchi Usoy qishlog'i axlatga to'lib ketgan, ko'chki Murg'ob daryosi vodiysi to'sib qo'ygan va to'g'on ko'l hosil qilgan. U o'sib, Sarez qishlog'ini suv bosdi. Ushbu tabiiy to'g'onning balandligi taxminan 300 m, ko'lning maksimal chuqurligi 284 m, uzunligi esa 53 km.

Eng ko'p qurban bo'lgan fojiali 1920 yilda Xitoyning Kansu provinsiyasida sodir bo'lgan ko'chkilar edi. Loess platosi kuchli zilziladan aziyat chekdi. Loess juda gözenekli, ammo ayni paytda u sezilarli kuchga ega. Shuning uchun loessli joylarda tik yon bag'irli kanyon va vodiylar hosil bo'ladi. Zilzila natijasida lyossning tutashuvi buzilganda, yon bag'irlari beqaror bo'lib qolgan. Minglab kubometr loess vodiylarni to'ldirdi, shahar va qishloqlarni qopladi. 200 ming kishi halok bo'lgani taxmin qilinmoqda [28].

Ko'chki yonbag'irlarini aniqlash.

Ko'chki jarayonlari muhandislik inshootlarining barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Ammo ular tomonidan tahdid bo'rttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Shunga ko'ra, qayta sug'urtalash va ushbu jarayonlarni ko'rsatadigan xavfni hisobga olmaslik qimmatga tushishi mumkin. Morfologik jihatdan zaif talaffuz qilingan o'chirilgan shakllar, yangi va o'tkir shakllardan farqli o'laroq, hozirgi vaqtida jarayonning past faolligini aniq ko'rsatadi. Biroq, agar shakllarning o'lchamlari va demak, hodisalar ko'lami muhim bo'lsa, unda shakllarning yo'q qilinishi hech

qanday holatda zaif tahdidni ko'rsatmaydi. Va aksincha, hodisalarining kichik miqyosidagi o'tkir shakllar qulay omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **1.4. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari**

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil ko'rinishidagi falokatlar kirib, ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagи favqulodda vaziyatlar tasnifi to'g'risida" gi 455-son qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Texnogen tusdagidagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagи vaziyatlar kiradi:

**1) Transportlardagi avariylar va halokatlar** - ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar; Yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo'lgan va temir yo'l xodimlarining halokat hududidagi temir yo'l platformalarida, vokzal binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo'l transportidagi halokat va falokatlar; Portlashlarga, yong'lnarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTZM larning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan, yo'l-transport hodisalari; Odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariylar, yong'lnar; Gaz, neft mahsulotlarining otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariylar.

**2) Kimyoviy xavfli obektlardagi avariylar.** Tevarak-atrof tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy xavfli obektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

### **3) Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obektlardagi avariylar.**

Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong‘in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan obektlardagi odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishlariga va o‘limiga, asosiy ishlab chiqarish zaxiralarining nobud bo‘lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar xayot faolitining buzilishiga olib keladigan yong‘inlar va portlashlar; Odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o‘limiga olib keladigan hamda qidiruv-qutqarish ishlarini o‘tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo‘llanishni talab qiluvchi ko‘mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog‘liq avariylar, yong‘inlar va jinslar qo‘porilishi.

**4) Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar.** Sanoat va qishloq xo‘jaligi mas‘ul iste’molchilarining avariya tufayli energiya ta’mnotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan GES, IES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi bug‘qozon qurilmalaridagi, kompressor, gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta’mnoti obektlaridagi avariylar, yong‘inlar, aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug‘ilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obektlardagi avariylar; Atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug‘diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo‘ladigan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariylar.

### **5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog‘liq avariylar.**

Odamlar o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv ishlari o‘tkazilishini hamda zarar ko‘rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishini talab qiladigan mакtablar, kasalxonalar, kinoteatrлar va boshqa ijtimoiy yo‘nalishdagi obektlar, shuningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to‘satdan buzilishi, yong‘inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

### **6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariylar.**

Sanitariya-himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo‘lgan yuqori darajadagi radiaktivlik odamlarning yo‘l qo‘yiladigan ko‘p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radiaktiv moddalardan foydaladigan obektlardagi avariylar; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariylar; Radioizotop buyumlarning yo‘qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiytadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq vaziyatlar.

### **7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariylar.**

Suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog‘lardagi ko‘llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o‘limiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi obektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

**Gidrotexnik inshootlardagi avariylar:** Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 53 ta suv ombori, daryo suvlarini iste’molchilarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to‘g‘onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa suv inshootlari mavjud. Bunday inshootlar har qanday favqulodda vaziyatlar yuz berganda (harbiy holatda ham, tinchlik davrida ham) katta xavf tug‘diradi. Gidrotexnik inshootlarning ayrimlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida joylashgan bo‘lib, yuqori darajadagi xavfli obektlar hisoblanadi.

Gidrotexnik inshootlari ko‘rsatkichlariga ko‘ra har xil bo‘ladi:

#### **1) joylashgan o‘rniga ko‘ra:**

- a) yer usti inshootlari (daryo, ko‘l, kanal va h.k);
- b) yer osti inshootlari (o‘tkazuvchi quvurlar, tunellar va h.k).

#### **2) foydalanish maqsadiga ko‘ra:**

- a) suv-energetika inshootlari;
- b) suv ta’mnoti inshootlari;
- v) sug‘orish inshootlari;
- g) chiqindi suvlarni chiqarish inshootlari;

d) baliqchilik xo‘jaligi inshootlari;

e) suv-sport inshootlari va h.k.

### **3) vazifasiga qarab:**

a) GES lar va boshqa suv inshootlari (to‘g‘onlar va boshqalar);

b) suv o‘tkazish inshootlari (kanallar, tunellar, quvur o‘tkazgichlar);

v) tarnovlar, osma quvurlar va h.k.;

g) tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun);

d) suv oqimini tartiblash inshootlari (suv oqimini to‘g‘irlovchi, daryo va qirg‘oq o‘zanlarini yaxshilovchi va boshqalar);

e) baliq xo‘jaligi inshootlari (baliq boqish uchun).

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi juda katta hududlarni, jumladan: shaharlar va aholi yashash joylarni, sanoat tarmoqlarini va moddiy resurslarni suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, oqibatda juda katta ham ma’naviy, ham moddiy zararlarga sabab bo‘ladi. Jumladan, avtomobil va temir yo‘llar, elektr va aloqa uzatish simlarining zararlanishi, chorva mollari, qishloq xo‘jalik ekinlari hosili, ekinzorlar va boshqalarning nobud bo‘lishi, xom-ashyo, yoqilg‘i, oziq-oqat mahsulotlari, o‘g‘itlar va boshqa resurslarni yaroqsiz holga kelishi; aholini xavfsiz joylarga vaqtincha evakuatsiya qilish xarajatlari; yerlar hosildor qatlaming yuvilib ketishi; suv bosgan hududlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa kerakli mahsulotlarni olib kelish xarajatlari va boshqa salbiy talofatlarga olib keladi.

Gidrotexnik inshootlari quyidagi ta’sirlar natijasida buziladi:

- 1) tabiiy ofatlar oqibatida (zilzila, ko‘chki, jala yomg‘irlar yuvib ketish va boshqalar);
- 2) uskunalarning tabiiy yemirilishi va eskirishi;
- 3) inshootni loyihalash va qurishdagi xatoliklar;
- 4) suvlarni ishlatish qoidalarini buzilishi;
- 5) portlatishlar oqibatida (harbiy harakatlar, terrorchilik va boshqalar).

Gidrotexnik inshootlarining buzilishi muayyan oqibatlarga olib keladi, jumladan: Gidrotexnik inshooti o‘z vazifasini bajarmay qo‘yishi; suv to‘lqinini insonlarga zarar yetkazishi va turli boshqa inshootlarni buzilishi; hududlarni suv

bosib, mol-mulkka, yerlarga, moddiy resurslarga va boshqa obektlarga jiddiy moddiy zarar keltirishi va h.k. Shuning uchun bunday inshootlardan foydalanuvchi tashkilotlar zimmasiga ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunining 8,9-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuklangan. Unga ko‘ra bunday xavfli obektlarni loyihalash, qurish va ishlatish davomida xavfsizligini pasayish sabablarini tahlil etish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariyanı oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bajarish, shuningdek bunday masalalar bo‘yicha favqulodda vaziyatlar tizimlari bilan hamkorlik qilish ta’kidlab o‘tilgan. Shu o‘rinda 2009 yil 17 avgustda Rossiyaning “Sayan- Shushensk” GESida bo‘lgan avariya to‘g‘risidagi ma‘lumotni ta’kidlab o’tish joiz. Ushbu gidroinshoot juda bahaybat qurilgan bo`lib uning uzunligi 1 km dan uzun, balandligi 250 m, gidrostatik vazni 22 mln tonnani tashkil etadi. GES ning avariya uchrashishining sababi, 1985 yilda gidroinshotning eng baland ustuni darz ketib, Yenesey daryosining bu qirg`og`idan u qirg`og`igacha bo`lgan butun to`g`on tanasida yoriq p`aydo bo`lgan. Yoriqdan har soniyada 550 litr suv oqib o`ta boshlagan va natijada to`g`on betoninig yemirilishi boshlangan. Yemirilish jarayoni 8 yil mobaynida davom etgan va 1996 yildagina Fransuz mutaxassislari tomonidan yoriq polimer materiallari bilan yaxlitligi tiklangan. Shu davr mobaynida (8 yil) inshotning ba`zi bir seksiyalari 97 mm dan - 107 mm gacha joyidan siljigan. Ammo, “Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi” to‘g‘risidagi qonunga binoan, 108 mm ga siljish xavfsizlik nuqtai nazaridan “taxlikali” holat xisoblanadi. Shunday ayanchli holatga qaramasdan, gidroinshotdan foydalanib kelishligi oqibatida to`g`onning ikkinchi agregat qisimlari sochilib qulab tushgan va yong`in paydo bo`lgan. Bu avariyaning talofati natijasida 100 dan ziyod fuqarolarning qurbon bo`lganligi va katta moddiy zarar ko‘ringanligi ma’lum.

Gidrotexnik inshootlarda avariya bo‘lmasligi uchun muhofaza qilinish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur, jumladan:

- 1) Gidrotexnik inshootlarini loyihalash va qurilishda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik;
- 2) Gidrotexnik inshootlaridan to‘g‘ri foydalanish;

3) Gidrotexnik inshootlaridagi belgilangan tadbirlarni va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida bajarish;

4) Qirg'oq va inshoot tubini mustahkamlash ishlarini o'tkazish;

5) Suv chiqarishda va g'amlashda qonun qoidalarga rioya etish (vaqtga mos ravishda taqsimlanishi);

6) Qo'shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish:

7) Gidrotexnik inshootlaridagi vaziyatni doimo kuzatib turish;

8) Gidrotexnik inshootlari hududini begona kishilar kirishidan ishonchli qo'riqlash;

9) Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo'lish ehtimolini oldindan aytish taxminlarini tuzish uchun gidrotexnika sharoitni muntazam kuzatib borish.

#### **Gidrotexnik inshootlaridagi avariyalarda fuqarolarning xatti-harakatlari:**

Gidrotexnik inshootlaridagi avariyada fuqarolar quyidagi qoidalarni bajarishlari lozim:

1) Suv ostida qoladigan hududdagi fuqarolarni, suv bosishi mumkin bo'lgan hududlarni va suv bosish vaqtini, shuningdek, shikastlovchi omillarini (suv urib ketadigan to'lqin balandligi va tezligini va boshqalarni) yaxshi bilishlari kerak;

2) Aholining hammasi suv bosish xavfi tug'ilgandagi va suv bosgandagi xatti-harakatlarga tayyorlangan bo'lishlari kerak;

3) Aholining hammasi suv bosish ehtimoli borligi, suv bosish vaqtini, uning chegaralari haqidagi va evakuatsiya tartibi haqidagi tavsiyalarni vaqtida olishi kerak;

4) Xavf haqidagi xabar (ogohlantirish) olinganda quyidagi ishlar qilinishi kerak:

- darhol hujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suvini o'zi bilan olish;

- uylarni ehtiyyot holatda (gaz, suv, elektr ta'minotini o'chirishi) qoldirishi kerak;

- chorva mollarini xavfsiz joylarga o'tkazib qo'yish;

5) Agar to'satdan halokatli suv bossa:

- suvning to'lqin zarbidan saqlanish uchun mustahkam qurilgan inshootlarning yuqori qismlariga chiqiladi;

- oldindan tayyorlangan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlari osilgan najot kamarini) taqib olinadi;

- agar odam imorat ichida (yuqori qismlarida ) qolgan bo‘lsa, qayerdaligini belgilab, qutqaruvchilar yordamga kelishi uchun oq bayroq belgilari osib qo‘yiladi.

### **Yong‘in xavfi bo‘lgan obektlardagi avariylar:**

**Yong‘in** - bu nazorat qilib bo‘lmaydigan hodisa bo‘lib, beba ho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo‘q qiluvchi, atrof-muhitni izdan chiqaruvchi ofat, ayniqlsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favquloddagi vaziyatdir.

Yong‘inning kelib chiqishi uch omilning bir vaqtda, bir joyda duch kelishining oqibatidir, ya’ni:

- yonuvchan moddani (neft, qog‘oz, yog‘och va boshqalar);
- havo harorati (issiqlik);
- uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi).

Xalq xo‘jaligida yong‘in chiqishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

a) chekish paytida yong‘ingarchilikka ehtiyyotsizlik bilan munosabatda bo‘lish, yonuvchan moddalarni yoqish, gugurt bilan yoritish va boshqalar. Bunday yong‘in umumiy yong‘inning 26 foizini tashkil qiladi;

b) bolalarning o‘t bilan o‘ynashi - 14 %;

v) elektr jihozlarini boshqarish qoidalarini buzish natijasida - 13,5 %;

g) pechka va tutun quvurlarining noto‘g‘ri o‘rnatalishi oqibatida - 8,5 %;

d) isitkich jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanishda - 8,3 %;

e) elektr moslamalarini montaj qilish qoidalarining buzilishi - 5 %;

y) payvandlash ishlarini bajarishda yong‘in xavfsizlik qoidalarining buzilishi-2,3 %;

j) texnologik jihozlarni boshqarish qoidalarining buzilishi - 1,2 % ni tashkil etadi.

Demak, yong‘inning birlamchi sabablari kichik yong‘in manbalari turtkilari bo‘lishi mumkin - bular sigaret qoldiqlari, uchqunlar va o‘chirilmagan gugurt qoldiqlari; yuqori haroratli issiqlik manbalari - alanga, pechka va tutun chiqadigan quvurlarning qizigan konstruksiyalari va boshqalar bo‘lishi mumkin.Yong‘in

natijasida quyidagi xavfli omillar paydo bo‘ladi: ochiq alanga va uchqunlar; havo va predmetlardagi yuqori harorat; yong‘indan paydo bo‘lgan o‘tkir zararli mahsulotlar; tutun; kislorod miqdorining pasayishi, bino va inshootlarning yemirilishi va buzilishi; portlashlar sodir bo‘lishi; yong‘in bo‘lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi, yong‘inni suv bilan o‘chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi natijasida portlashlar yuz berishi va boshqalar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yong‘indan nobud bo‘lganlarning 60 - 80 %i nafas olish yo‘llarining zaharlanishi yoki toza havoning yetishmasligi oqibatida halok bo‘lar ekan.

Yonishda yonuvchi mahsulotlar bilan oksidlovchilar orasida o‘zaro ta’sir natijasida bo‘ladigan murakkab fizikaviy-kimyoviy jarayondir, bunda issiqlik, zaxarli gazlar va yorug‘lik nurlarining ajralishi kuzatiladi. Demak, yonish jarayonining paydo bo‘lishi uchun yonuvchi material, yondiruvchi manba va oksidlovchilar bo‘lishi zarurdir.

Ishlab chiqarishdagi avariylar:

Avariya deganda bajariladigan ishni birdan to‘xtab qolishi yoki sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning izdan chiqishi, transportlarda va boshqa obektlarda moddiy boyliklarning buzilishi, yo‘q bo‘lishi tushuniladi.

**Avariyalarning kelib chiqishiga quyidagi omillar sababchi bo‘lishi mumkin:**

- tabiiy ofat tufayli;
- inshootlarni loyihalashda yoki uni qurishda qo‘yiladigan xatoliklar tufayli;
- ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi natijasida;
- transport, mexanizm, jihozlardan noto‘g‘ri foydalanganda;
- agressiv moddalarni (portlovchi, tez alanganuvchi zaharli moddalarni) noto‘g‘ri saqlanishi va uni ishlatilish qoidalarining buzilishi oqibatida;
- texnika xavfsizlik qoidalarining buzilishi va boshqalar.

Mana shunday xatoliklar tufayli ishlab chiqarishlarda katta avariylar sodir bo‘ladiki, oqibatda ko‘pdan-ko‘p insonlar jabrlanadi va moddiy boyliklar yo‘q bo‘lib ketadi. Ko‘pincha kimyo, neftni qayta ishlovchi sanoat, qog‘oz ishlab chiqarish sanoati,

go'sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida avariylar tez-tez uchraydi. Ayniqsa, KTZM ta'sirida bo'ladigan avariylar: kimyo, neftni qayta ishlovchi, qog'oz-sellyuloza go'sht-sut, oziq-ovqat sanoati, suv tozalash inshootlarida hamda temir yo'llarda KTZMni tashishda ko'p uchraydi. Masalan, 1990 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining «Yoshlik» stansiyasidan o'tib borayotgan kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (95 tonna) yuklangan sisterna nazorat qilinmasligi oqibatida yo'l-yo'lakay tomchilab borgan. Bu holatni o'z vaqtida sezgan yoshlik stansiyasi xodimlari darhol tegishli choralarni ko'rib, baxtsizlikni oldi olingan. Agarda sisternadagi suyuqlik shu yerga to'liq oqib ketganda nafaqat stansiyadagi va uning atrofidagi aholini, balki 13 km olisda yashovsi aholini ham zaharlagan bo'lardi. Shunga o'xhash ko'plab misollarni keltirish mumkin. Inson uchun xavfli bo'lgan zaharli moddalar bilan ishlaydigan korxonalarning ham soni O'zbekistonda yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bular «O'zbekimyosanoat» uyushmasiga qarashli korxonalar bo'lib, ular Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Angren va boshqa shaharlarda ( $\text{SO}_2$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va boshqa zaharli moddalar) joylashgan. Bu korxonadan tashqari kimyoviy, zaharli moddalar bilan ishlaydigan boshqa korxonalar ham mavjud. Hozirgi kunda Respublikadagi kopgina ishlab chiqarish korxonalarida inson uchun zaharli moddalar ishlatiladi. Mabodo muayyan sabablarga ko'ra, bunday korxonalarda avariya sodir bo'lib, kimyoviy moddalar tashqariga chiqib ketsa, xududning zaxarlanish chuqurligi 45-50 km ni ( $450 \text{ km}^2$  dan ortiq maydonni ) tashkil etishi mumkin. Shuning uchun Respublikamiz aholisi, ishlab chiqarish korxonalarining ishchi-xizmatchilari favqulorra yuz beradigan vaziyatlarda to'g'ri ish tutishlari, fuqarolar muhofazasi tomonidan beriladigan har bir yo'riqnomalar, vazifalarni to'g'ri bajarishlari va saqlanish qoidalariga riosa etishlari zarur. Buning uchun har bir korxonada, ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalaridagi fuqarolar muhofazasi xodimlari avariya va halokatlarni, uning oqibatlarini yo'qotish chora-tadbirlarini hamda ofat ro'y bergan joyda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish qoidalarini tushuntirishlari lozim.

Bu borada ayniqsa metallurgiya, kimyo, biotexnologiya, rezina-texnika, neftni qayta ishlovchi va boshqa sanoat tarmoqlarining salbiy ta'siri juda kattadir.

Respublikamizdagi sanoati rivojlangan ayrim shaharlarda, jumladan, Samarqand, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Angren, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlarda havoning ifloslanish darajasi meyoridan 1,5-2, hatto ayrim joylarda 3-6 marta ortiq. Markaziy Osiyoda havoni eng ko‘p ifloslantiruvchi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodi 1987 yilda havoga belgilangan miqdordan deyarli ikki barobar ortiq zaharli modda chiqarib kelgan. Shamolning yo‘nalishiga ko‘ra, ftor birikmasining 80 foizi Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Oltinsoy tumanlariga tushadi.

Avariya va falokatlar turli xil sharoitlarda, masalan, temir yo‘l, avtomobil, suv yo‘li, aviatsiya transportlarida sodir bo‘lishi mumkin. Avtomobil transportida bo‘ladigan avariylar ham katta fojiali hodisalarini keltirib chiqaradi. Bunday ofatlar yuz berishining bir qancha sabablari bor:

- Yo‘l qoidalarining buzilishi;
- Avtomobilni texnik nosozligi;
- Tezlikning haddan tashqari yuqori bo‘lishi;
- Avtomobil haydovchining etarli malakaga ega bo‘lmasligi.

Aviatsiyada avariya - aviatexnikani biror elementlarning ishlamay qolishi, bevaqt ob-havoni o‘zgarishi, uchish-qo‘nish qoidalarini noto‘g‘ri bajarilishi oqibatida sodir etiladi.

Ba’zan katta avariylar ikkita aviatexnikaning bir-biri bilan to‘qnashishi yoki yerga, qushlarga urilishi oqibatida ham sodir bo‘ladi. Aviatsiyada avariylar ko‘pchilik hollarda fojialar bilan yakunlanadi.

Aviatsiyadagi avariyalarda qutqarish va tuzatish ishlarini 2 guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) boshqarayotgan ekipaj xodimlari tomonidan kamchilikni tugatish ishlari;
- 2) yerdagi xizmatchilarining olib boradigan ishlari.

Bu xildagi avariylar yer yuzida tez-tez uchrab turadi. Jumladan, O‘zbekiston aviatsiyasida ham bunday hodisa ro‘y bergan va mudhish halokat bilan yakunlangan holatlar mavjud. Masalan, 1979 yil avgust oyida «Paxtakor» futbol jamoasi a’zolari tushgan samolyot Minskka ketayotganda osmonda boshqa samolyot bilan to‘qnashib,

fojia bilan yakunlangan edi. Buni albatta, Respublikada yashovchi har bir fuqaro yaxshi biladi. 1999 yilda Toshkent-To‘rtko‘l yo‘nalishidagi YAK-40 samalyotining To‘rtko‘l aerodromiga qo‘nish paytida samolyot shassisining ishlamay qolishi oqibatida favqulodda vaziyat yuzaga kelib, 2 kishi qurban bo‘lgan va 8 kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan.

### **1.5. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari**

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar (FV), kelib chiqish sabablariga ko‘ra tasnif qilinadi. FV larning bunday tasnif qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida"gi 455-sonli qarorida tasdiqlangan.

Atmosfera - Yerning gazsimon qobig‘i bo‘lib, hayot uchun zarur bo‘lgan birlikdir. Atmosfera yer po‘stiga fizikaviy, kimyoviy, biologik ta’sir etadi va yer yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera yerning himoya qobig‘idir, chunki u tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va kosmosdan keladigan meteoritlarningzararli ta’sirlaridan (shu jumladan quyosh radiatsiyasidan ham) himoya qiladi.

Agar atmosfera bo‘lmaganda edi, Yer yuzasida ham Oydagi kabi hayot bo‘lmas edi. Chunki, er yuzasi kunduzi 100 gradus qizib, kechasi esa - 100 gradus sovugan bo‘lardi.

Atmosfera havosi har doim aralashib turishi uchun, uning kimyoviy tarkibi sayyoramizning hamma joyida asosan bir xildir. Atmosfera havosining tarkibi asosan: azot (78%); kislород (21%) dan va qolgan 1% esa boshqa gazlardan; argon (0,93%); karbonat angidrid (0,03%) vodorod, geliy, kripton, ksenon va boshqa gazlardan tashkil topgan.

Aynan havo tarkibini biri ko‘payib, ikkinchisi kamayib ketishi tirik mavjudod hayotini muvozanatdan chiqarib yuboradi va halokatga olib kelishi mumkin.

Atmosfera gazsimon moddalardan tashqari shakli, kattaligi, kimyoviy tarkibi va fizik xossalariiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi mayda zarrachalar - tutun, chang, to‘zon va boshqalar mavjud. Atmosfera havosining ifloslanishi oqibatida nafaqat

inson hayotini, balki tevarak atrofdagi muhitni ham xavf ostiga qo'yadi. Ilgarilari atmosfera havosi sanoat obektlari ustidagina ifloslangan bo'lsa, hozirda esa sanoat, transport, energetika va boshqa obektlardan chiqqan chiqindilar katta-katta hududlarga tarqalib, havoning keng miqyosda ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.

Atmosfera havosi 2 xil yo'nalishda ifloslanishi mumkin.

**1. Tabiiy ifloslanish.** Bunda kosmik changlar vulqonlarning otilishidan vujudga keladigan moddalar, tog' jinslari va tuproqning qulashidan vujudga keladigan moddalar; o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari; o'rmon va dashtlardagi yong'indan (tabiiy va sun'iy yong'in oqibatidan); dengiz suvlarining qurishidan havoga chiqqan tuz zarrachalari (qurg'oqchilik ofati oqibatida) oqibatida ifloslanish bo'ladi. Agar bunda yuqoridagi moddalar meyordan ortiq bo'lsa, katta halokatlarga olib kelishi mumkin. Ammo atmosfera tarkibidagi tabiiy changlar yer yuzasida bo'ladigan jarayonlar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki changlar suv bug'lari uchun kondensatsiya yadrosi hisoblanib, yog'ingarchilikni vujudga keltiradi, quyoshdan kelayotgan radiatsiyani yutib, organizmni ortiqcha nurlanishidan saqlaydi. Bundan ko'rinaridiki, havodagi tabiiy changlar ma'lum darajada atmosfera tarkibining zaruriy elementi hisoblanadi va ular hodisa va jarayonlarning borishini tartibga solib turadi.

Bunda kosmik changlar vulqonlarning otilishidan vujudga keladigan moddalar, tog' jinslari va tuproqning qulashidan vujudga keladigan moddalar; o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari; o'rmon va dashtlardagi yong'indan (tabiiy va sun'iy

Yana o'simlik dunyosining yonishi, jumladan dov-daraxtlar barglarining yonishi oqibatida atmosfera havosiga juda zararli moddalar (konserogen moddalar) tarqalib, tirik mavjudotlarning hayot faoliyatiga xavf soladi.

**2. Sun'iy ifloslanish.** Sun'iy ifloslanish 3 xil ko'rinishda kuzatiladi.

a) Sanoat tarmoqlari, transport va turar joylarni isitishda foydalaniladigan yoqilg'ilar orqali ifloslanish.

Keyingi paytlarda atmosferaning sun'iy ifloslanishida avtomobil transporti birinchi o'rinni (40%) egallaydi, energetika sanoati (20%), sanoat ishlab chiqarish (14%) va maishiy-kommunal, qishloq xo'jaligida (26%) ni tashkil qiladi

Ma'lumotlarga ko'ra yer yuzida bir yilda havoga chiqarilgan oltingugurt gazi,

is gazi, kul va karbonat angidridining miqdori taxminan 500 mln tonnaga yetmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, insoniyat paydo bo'lganidan to shu vaqtgacha 80-85 mld tonna turli yoqilg'ilar yoqilgan, shuning yarmi keyingi 25 yilga to'g'ri keladi. Faqat ko'mirning o'zi yiliga 2 mld tonna yoqiladi. Yoqilg'ilarning yoqishga yiliga 10-15 mld tonna kislород sarflanadi. Metall oksidlanishi uchun yiliga 100 mln tonna kislород sarflanadi.

YUNESKOning ma'lumoticha, turli mamlakatlarda ishlab turgan 260 mln.dan ortiq avtomashinalar yiliga 80 mln kishi iste'mol qiladigan kislородni sarflaydi, yoki 1000 km yurgan yengil avtomobil bir kishining bir yillik kislородини yutadi.

Yoqilg'ilar yonganda atmosferaga zararli moddalar chiqib, uni ifloslantiradi. Jumladan 1 tonna benzin yonganda 60 kg is gazi havoga ko'tarilib aralashadi. Neft yonganda sulfat angidrid, ko'mir yonganda karbonat angidrid bilan kul havoni buzadi.

b) Sanoat chiqindilari orqali havoni ifloslanishi kimyo, neftni qayta ishslash, sement ishlab chiqarish, radiaktiv moddalar ishlatiladigan tarmoqlarda, hamda yadroviy, neytronli aslahalarni qo'llanishi oqibatida, KTZM lar, radiaktiv changlar, sement changlari atmosfera havosini ifloslantiradi.

v) Sanoat chiqindilari va maishiy-xo'jalik chiqindilarini yoqish orqali ifloslanishi.

Havo tarkibidagi karbonat angidridi, is gazi, azot, oltin gugurt oksidlari, xlor, fosfor, ftor va boshqalarni ko'p miqdorda bo'lishi inson salomatligiga ta'sir qiladi, natijada astma, rak, sil kasalliklari kelib chiqadi.

Ayniqsa atmosfera havosi tarkibida karbonat angidridning miqdori ortishi natijasida quyoshdan keladigan qisqa to'lqinli nurlarni yer yuziga o'tishiga to'sqinlik qiladi, natijada sayyoramiz yuzasidagi havoning o'rtacha harorati ortib boradi.

Agar atmosfera havosining ifloslanishi oldi olinmasa, olimlarning bergen ma'lumotiga ko'ra 2050 yilda sayyoramiz harorati  $1,5\text{-}4,5^{\circ}\text{C}$  gacha isishi mumkin. Bu esa muzliklarni erishiga sabab bo'lib quriqlikning ma'lum qismini suv bosib, favqulodda vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.


Atmosfera havosini ifloslanishi nafaqat insoniyatga balki suv basseynlariga,

o'simliklarga hayvonot dunyosiga ham katta salbiy zarar ko'rsatadi.

Atmosfera havosini ifloslanishining iqtisodiy zararlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) atmosferaning ifloslanishi tufayli materiallarning yemirilishi va korroziyaga uchrashi (bino, inshootlar, metallar yemiriladi, kiyim-kechak, gazmollarning bo'yoqlari buziladi, tarixiy yodgorliklar qulaydi);
- 2) atmosferaning ifloslanishi korxona asbob-uskunalarining foydalanish muddatini o'rta hisobda 1,5 barobarga kamaytiradi;
- 3) atmosferani ifloslanishi oqibatida insonlar juda ko'p og'ir kasalliklarga uchramoqda;
- 4) havoni ifloslanishidan qishloq xo'jalik ekinlari ham zarar ko'rmoqda;
- 5) havoning ifloslanishidan (achchiq tutunlar) avtomobilarning yurishi, samolyotlarning uchishi qiyinlashib juda ko'p avariylar bo'ladi.
- 6) atmosferaning ifloslanishidan yarim o'tkazgichlar, aniq jihozlar, asboblar, vaksina va antibiotiklar ishlab chiqarishni qiyinlashtirib yubormoqda;
- 7) sanoat tarmoqlaridan atmosferaga qimmatbaho xom ashylar (sement changlari, rux, qo'rg'oshin, qalay, ftor va boshqalar) atmosferaga chiqarib yuborilmoqda.

1-chizma



O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi ma’lumotiga ko‘ra Respublika havosiga qo‘shilayotgan turli iflos moddalarning ko‘p qismi quyidagi korxonalar zimmasiga tushmoqda: “O‘zneftgaz” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ, O‘zbekiston Respublikasi uy-joy communal xizmat ko’rsatish vazirligi, Olmaliq tog‘ kon metallurgiya kombinati, Navoiy tog‘ kon metallurgiya kombinati. Shaharlar bo‘yicha havoni eng ko‘p ifloslovchi shaharlarga: Toshkent, Angren, Olmaliq, Qarshi, Farg‘ona, Navoiy, Chirchiqlar kiradi.

### §1.5.1. Atmosfera havosini ifloslanishidan muhofaza qilish

Ma’lumki, atmosfera o‘z-o‘zini tabiiy tozalash jarayoniga ega. Ulardagi yog‘ingarchiliklar iflos moddalarni, havoni yuvadi, shamollar havodagi ifloslovchi moddalarni uchirib, bir joyda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaydi, tuproqqa yoki suv

yuzasiga tushgan iflos moddalar reaksiyaga kirishib oqibatda neytrallashib qoladi. Lekin sanoat, transport rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi mashinalashgan va kamyolashtirilgan hozirgi sharoitda havoning sun’iy ifloslanishi ortib bormoqda. Shuning uchun atmosferaning sun’iy ifloslanishidan tozalash yo‘llarini joriy etish, uning oldini olish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Havo atmosferasining ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1) Tutun chiquvchi quvurlarni balandroq qurish; buning natijasida iflos chang va gazlar keng maydonga yoyilib, uning konsentratsiyasi kamayadi.

Masalan: balandligi 100 m bo‘lgan quvurdan chiqayotgan chang va gazlar radiusi 20 km bo‘lgan mintaqaga tarqalsa, balandligi 250 m bo‘lgan quvurdan chiqqan chang, gazlar radiusi 75 km mintaqaga tarqaladi.

2) Pechlarda ko‘mir, torf, qoramoy yoqishning o‘rniga, elektr energiyadan, gazlardan foydalanilsa - atmosferaga chang, qurum, tutun va zaharli gazlar kam chiqariladi. Olimlarning ma’lumotiga ko‘ra, ko‘mir bilan ishlovchi korxonalar gazga o‘tkazilsa, havoga chiqariladigan oltingugurt gazi miqdori 10.000 marta, uglerod oksidi miqdori 2000 marta, azot oksidlari miqdori 5 marta kamayadi.

3) Sanoat korxonalarida zararli moddalarni tozalovchi uskunalar qurish.

4) Sanoat korxonalarida chiqitsiz texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Kabelni sintetik qoplama bilan o‘raydigan yangi texnologiyaga o‘tilishi, atmosferaga qo‘rg‘oshinni chiqishi yo‘qotildi.

5) Sanoatda yer osti termal suvlardan (issiq suv-90°C li) foydalanish orqali ifloslanishni kamaytirish mumkin.

6) Avtotransportlardan chiqadigan gazlarni, dudlarini kamaytirish orqali (benzin o‘rniga, propan yoqilg‘isini qo‘llash orqali) havoni ifloslanishini kamaytirish mumkin.

7) Shahar va qishloqlarda yashil o‘simliklarni ko‘paytirish orqali havoni ifloslanishidan saqlash mumkin.

Masalan: darahtlar, butalar va o‘tlar changining 80 foizini  $\text{SO}_3$  gazini 60 foizini ushlab qoladi.

O‘zbekiston havosini ifloslanishini kuzatishga O‘zbekiston Gidro metereologiya boshqarmasi rahbarlik qiladi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi: O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni ifloslanishini kuzatish markazi, Farg‘ona va Navoiy shaharlaridagi kompleks laboratoriya, atmosfera havosini ifloslanishini kuzatuvchi 7 ta laboratoriya (Olmaliq, Andijon, Samarqand, Angren, Bekobod), havo ifloslanishini kuzatuvchi 4 ta guruh (Buxoro, Guliston, Nukus va Namangan shaharlarida), atrof-muhitni ifloslanishini kuzatuvchi Sariosiyo idoralararo laboratoriyasi va ikki monitoring (Chotqol qo‘riqxonasi, Abramov muzligi) stansiyalari kiradi.

### **§1.5.2. Suv resurslarini muhofaza qilish**

Yer yuzasidagi barcha suvlar gidrosferani tashkil qiladi. Okean va dengizlarning umumiyligi maydoni quruqlik yuzasiga qaraganda 2,5 barobar ko‘pdir. Gidrosferaning 93,96 %i okean suviga, 4,39%i quruqlikdagi daryo, ko‘l va yer osti suvlari, 1,65%i qutb va tog‘lardagi muzliklarga to‘g‘ri keladi.

Suv kuchli erituvchi va qudratli kuchga ham ega. U qattiq tog‘ jinslarini (turli xil minerallar, granit va bazaltlar) ham emiradi.

Organik dunyo va insoniyat jamiyatini suvsiz tasavvur qilish qiyin. Suv organizmlardagi biofizik va biokimyoviy jarayonlarda hamda ularni yashash muhitini sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Suvsiz hayot yo‘q. Chunki o‘simplik tanalarining 80-85 foizi, hayvon organizmlarining 60-75 foizi, meduza tanasining 99,7 foizi suvdan iborat. yangi tug‘ilgan chaqaloq tanasining 70 foizini, katta yoshdagi kishi organizmining 65 foizini suv tashkil etadi. Suv inson tanasining hamma a’zosida uchraydi, hatto suyakning 25 foizini ham suv tashkil etadi, hatto inson iste’mol qiladigan sabzavot tarkibida 78-80 foiz, sutda 89 foiz, go‘shtda 50 foiz suv bor.

Inson o‘z tanasidagi namlikni bir xil bo‘lishiga harakat qiladi, chunki kishi tanasidan 12 foiz namlik yo‘qolsa odam halok bo‘ladi. Inson suvsiz bir necha kungina yashashi mumkin, uning suvgaga bo‘lgan bir kunlik fiziologik talabi 2,5 litrga teng.

Suv nafaqat jonli tabiatni rivojlanishi, yashashi uchun kerak, balki insonlarni

maishiy ehtiyojlarini, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun ham eng kerak moddiy resurslardan hisoblanadi.

Ammo har qanday suvlarni ham ehtiyojimizni, ishlab chiqarish tarmoqlarini ehtiyojini qondirish uchun ishlatish mumkin emas. Chunki suv resurslarimiz kundan kunga turli xil sabablarga ko‘ra ifloslanib bormoqda. Suv resurslarini ifloslanishi deganda har xil organik, noorganik, mexanik, bakteriologik va boshqa moddalar to‘planishi oqibatida, uning fizik xususiyatlari (rangi, tiniqligi, hidi, mazasi) va kimyoviy tarkibining (organik va mineral qo‘sishchalar miqdorining ortishi, zaharli moddalarni paydo bo‘lishi) o‘zgarishi, uning tarkibida kislorodning kamayib ketishi, bakteriyalarni ko‘payishi va kuchli yuqumli kasallik tarqatuvchi bakteriyalarning paydo bo‘lishi tushuniladi.

Suvning ifldoslanishi tabiiy va sun’iy sabablarga asoslangan bo‘ladi (4-chizma). Suvning ifloslovchi manbaalar orasida eng muhim o‘rinni sanoat ishlab chiqarishidan paydo bo‘lgan va maishiy kommunal xo‘jalikdan chiqqan oqova suvlar egallaydi. Bunday oqova suvlarga: yuvuvchi sintetik moddalari bo‘lgan oqovalar; foydali qazilma boyliklarni qazib olishida ishlatilgan oqovalar; neft konlaridan chiqqan iflos suvlar; yog‘och tayyorlash, uni qayta ishlash va oqizishda hosil bo‘ladigan chiqindili oqava suvlar; chorvachilik fermalaridan oqib chiqadigan suvlar; texnik ekinlarni (zig‘ir, paxta, kanop va boshqa) birlamchi ishlov berishda chiqadigan chiqindili suvlar, tashlandiq va zovur suvlar; har xil mineral va organik o‘g‘itlar hamda zararkunandalarga sepilgan zaharli kimyoviy birikmalar ishlatilgan dalalardan oqib chiqadigan suvlar; aholi yashash joylaridan oqib keladigan yog‘in suvlar; elektr stansiyalardan chiqqan issiq suvlar; radiaktiv ifloslangan va boshqa suvlar kiradi.

Sanoat chiqindi suvlarida tirik organizmlar uchun xavfli bo‘lgan har xil mineral va organik kislotalar, fenollar, vodorod sulfid, ammiak, mis, rux, simob, mishyak, xrom, nikel va boshqa zaharli moddalar, yog‘, neft mahsulotlari va har xil biogen moddalar bo‘lib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqava suvlar bilan birga daryo, ko‘l va suv omborlariga borib quyladi.

Ayniqsa selluloza-qog‘oz sanoati obektlaridan chiqadigan oqova suvlar tarkibida organik moddalar bo‘lib, oksidlanish jarayonida kislorodni yutib, suvni

ifloslab unga yoqimsiz hid va ta'm beradi, suvning rangini o'zgartirib yuboradi, suvning tagida, qирғоqlarida chirib, zamburug'larning vujudga kelishiga olib keladi. Suv havzalarining radiaktiv ifloslanishi organik hayot uchun, ayniqsa insonning sog'lig'i uchun eng zararlidir. Radiaktiv ifloslanishning asosiy manbalari: termoyadro qуollarini suv ostida sinash; uran rudalarini qazib olish va tozalash; atom elektr stansiyalari, radiaktiv chiqindilarni saqlash; uran ruda konlarida va ishlab chiqarishda avariyaning ro'y berishi; radiaktiv chiqindilarning va radiaktiv moddalarning idishlarini yuvish va boshqalardan chiqqan chiqindilar hisoblanadi. Radiaktiv eritmalar juda ham kuchli bo'lib, bir choy qoshiqdagi radiaktiv eritmani zararsizlantirib suvga tashlash uchun unga 9,45 mln.l suv aralashtirish kerak bo'ladi. Buning ustiga radiaktiv moddalar uzoq vaqt o'z xususiyatini o'zgartirmaydi. Yer osti suvlariga o'tgan radiaktiv moddalar 1000 yilgacha saqlanib, so'ngra zararsizlanishi mumkin. Shu sababli suv havzalariga tushgan radiaktiv moddalar suv o'simliklari va hayvonlari organizmiga o'tib uzoq vaqt saqlanib qoladi, hamda og'ir salbiy oqibatlarni vujudga keltiradi.

Organik ifloslangan oqar suvlar tarkibida azot bakteriyalar, jumladan tif, sil, ichburug'i kabi kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, achitqi va mog'or zamburug'lari va boshqalar bo'ladi. Shu sababli suv havzalari tarkibida organik moddalar ko'payib ketsa, u ifloslanadi, suvning chirigan mahsulotlar bilan zaharlanishiga, har xil yuqumli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalarning ko'payib ketishiga qulay imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston suvleri va suv havzalari ifloslanishiga qarab 6 tipga bo'linadi:

1. Toza suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan tog'liq hududlarda joylashgan bo'lib suvda mineral zarrachalari kam hamda biogen elementlar va organik qo'shilmalar kam uchraydi. Bularga Pskom, Oqbuloq, Qizilsoy, Oqsu, Toshkeskin va boshqalar kiradi.
2. Tog' oldidagi kam ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bular: Oqtoshsoy, Ugam, Ohangaron, Qovasoy, Qashqadaryo, Omonqo'tan, Chorvoq va Xisor suv omborlari kiradi.
3. O'rtacha ifloslangan tog' oldi va tekislikdagi suv oqimlari va suv havzalari.

Ular ko‘pgina aholi zich joylashgan yerlarda mavjud. Biogen, mineral va organik moddalar meyordan 2-3 barobar ortiq. Bularda yana og‘ir metall ionlari va neft mahsulotlari meyordan ortiq bo‘ladi. Bular: Chirchiq, Ohangaron (o‘rta oqim), Salorning yuqori qismi, Qorasuv kanali, Norin, Qoradaryo, Isfaransoy, Marg‘ilonsov, Zarafshon, Tuyabo‘g‘iz, Chimqo‘rg‘on, Qayroqqum, Tuyamo‘yin suv omborlari kiradi.

4. O‘rtacha ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar qishloq xo‘jaligida foydalanylilotgan sug‘oriladigan yerlarda, sanoat oqiziqlari tarkibidagi mineral va organik moddalar bo‘ladi. Ya’ni bularda meyordan 3-4 barobar ortiq og‘ir metallar, neft qoldiqlari va pestitsidlar uchraydi. Bular Chirchiq (Chirchiq sanoat kompleksidan quyi), Qo‘qonsoy (Qo‘qonsoydan quyi), shimoliy Bag‘dod kollektori, Siyob kollektori va boshqalar kiradi.

5. Iflos suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan sho‘r tuproqli qishloq xo‘jalik yerlarida, yuqori minerallashgan suvli yerlarda joylashgan. Yirik aholi punktlarini quyi qismida joylashgan. Bu kategoriya kiruvchi suvlarga: Amudaryo-Orolbo‘yi hududi, Buxoro vohasi, Mirzacho‘l massivi va Farg‘ona vohasi kiradi. Bu suvlar tarkibida biologik, mineral, organik moddalar, og‘ir metallar va neft qoldiqlari meyordan 3-5 barobar ko‘p. Keyingi vaqtarda og‘ir metall konlari (mis, xrom, kaliy va boshqalar) ham ko‘plab uchramoqda. Ular Toshkent shahrini quyi qismida Qorasu (o‘ng qirg‘oq), Ohangaron, Chirchiq daryolari.

6. Juda ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar yirik aholi punktlariga, shaharlariga to‘g‘ri keladi. Uning suvlarida ko‘p miqdorda turli zaharli moddalar uchraydi. Og‘ir metall meyordan 40-50 barobar ortiq. Bularga Chirchiq (Salordan keyingi qismi), Salor (Toshkent, Yangi yo‘ldan so‘ng) kiradi.

Respublikamizda eng ifloslangan suvlar Toshkent shahriga va Toshkent viloyatlariga mansubdir.

Suv havzalarining ifloslanish darajasini 42 foizini mineral ifloslanish-har xil tuz, qum, gillar, ishqor, kislota, mineral yog‘lar, shlak va boshqalarga to‘g‘ri kelsa, 58 foizi organik ifloslanishga-kommunal xo‘jaligi, shahar kanalizatsiyasi, hammom, kir yuvadigan joylar, sanitariya-sog‘lomlashtirish tashkilotlari, teri, qog‘oz-selluloza,

pivo ishlab chiqarishdan chiqadigan oqovalar, o'simlik moylari, meva va poliz ekinlari qoldiqlari, maishiy chiqindilarga to'g'ri keladi.

Demak, ifloslangan suvlardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan kuchli kasalliklarni paydo qiladi va tarqatadi; sanoat ishlab chiqarishlarda texnologik jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, mahsulot sifatini pasaytiradi, qimmatbaho asbob-uskunalarni ishdan chiqaradi, gidrotexnik, temir-beton inshootlarini, suv quvurlarini yemiradi va juda katta iqtisodiy va ma'naviy zararlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ifloslangan suv manbalarini tozalash va zararsizlantirish hamda aholini chuchuk suv tanqisligini hal qilish hisoblanadi. Chuchuk suv zaxiralari albatta yer ostida muayyan miqdorda joylashgan, ammo hozirgi talablar to'la qondiriladigan bo'linsa, ular uzoq yillarga yetmasligi mumkin.

Shuning uchun kelajakda aholini chuchuk suv bilan ta'minlashning quyidagi qo'shimcha imkoniyatlari mavjud:

**Yer osti suvlaridan foydalanish.** Ma'lumki, yer osti suvlaring miqdori 60.000 ming km bo'lib, butun gidrosferaning 4,12%ini tashkil etadi. Lekin yer osti suvlaridan hozircha foydalanish koeffitsienti juda past, jumladan O'zbekistonda atigi 6% miqdordagina foydalaniladi.

**Muzlik suvlaridan foydalanish.** Sayyoramizning umumiyligi suv miqdorining 1,65%ini muzliklardagi suv tashkil qiladi. Muzliklardi 24.000 ming km<sup>3</sup> suv to'plangan bo'lib, butun dunyodagi chuchuk suvning 8,5%ini tashkil etadi. Bu muzliklar asosan Arktikada, Antarktidada va Grenlandiyada joylashgan bo'lib, ba'zan dengizga uzilib tushib, aysberglarni hosil qiladi. Mana shu aysberglarni qirg'oqqa yaqin keltirib, uni eritib, aholini sanoat korxonalarini chuchuk suv bilan ta'minlash ustida ish olib borilmoqda. Masalan, uzunligi 100 km, eni 50 km, qalinligi 0,2 km keladigan aysbergda 1000 km<sup>3</sup> chuchuk suv mavjud. Bu butun O'rta-Osiyo daryolarining suvidan 8 marta ko'pdir.

**Okean va dengiz sho'r suvlaridan foydalanish.** Hozir dunyoda 800 dan ortiq sho'r suvlarni chuchuklashtiruvchi texnologiyalar ishlab, kuniga 1,7 mln m<sup>3</sup> suv yetkazib bermoqda. Shuning 90%i ichish uchun ishlatilmoqda.

**Quruqlikda favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari.** Quruqlikda favqulodda vaziyatlar tuproqning ostki va ustki qismlarini tarkibi, holati o‘zgarishi natijasida kuzatiladi. Bu o‘zgarish tabiiy yoki sun’iy sabablar natijasida bo‘ladi.

Tabiiy sabablar bilan inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda tuproqning hayotini yomonlashishi tushunilib, bularga eroziyalar kiradi. Eroziya deb yerning ustki hosildor qismini suv va shamol ta’sirida yuvib yoki uchirib ketishiga aytildi. Eroziya dehqonchilik uchun katta zarar keltiruvchi ofat hisoblanib, «kemirish» yoki «yemirish» degan ma’noni anglatadi.

Suv va shamol eroziyasi natijasida AQSH, Xitoy, Kavkaz, O‘rta Osiyo va boshqa hududlarda millionlab hektar yerlar ishdan chiqdi hamda unumsiz yerga aylandi.

Ma’lumotlarga qaraganda dunyo bo‘yicha eroziya natijasida yiliga 100 mlrd dollar zarar ko‘rilmoxda.

Suv eroziyasining xavfli turi bu sel hodisasisidir. Sel - tabiiy ofatlar qatoriga kirib, uning xususiyati va oqibatlari xususida III bobda mufassal yozilgan.

Shamol eroziyasi tufayli tuproq tarkibi buzilib, ba’zi yerlada o‘pirilishlar kuzatiladi, tuproqni ifloslanishi tufayli esa uning kimyoviy va biologik xususiyati o‘zgaradi, jumladan modda almashinuvida buzilish yuz beradi, har xil kasalliklar tarqatuvchi mikroorganizmlar tez ko‘payadi.

Demak, eroziya nafaqat tuproq strukturasini buzadi, balki atrof-muhitni ham izdan chiqaradi, inshootlarga, magistral yo‘llarga, moddiy resurslarga katta zarar keltiradi va insonlarning o‘limiga sabab bo‘ladi.

Eroziyaga qarshi kurashish tadbirlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: agrotexnik, o‘rmon melioratsiyasi va gidrotexnik.

Agrotexnik chora-tadbirlarda almashlab ekishni oshirish, ko‘proq o‘tli o‘simliklarni ekish orqali tuproq zichligini oshirishga erishiladi.

O‘rmon melioratsiyasi natijasida o‘simiksiz qolgan tog‘ yon bag‘irlarini, tekis-qumli yaylovlarni turli buta, daraxtlar bilan qoplash kiradi.

Gidrotexnik chora-tadbirlar majmuasiga tog‘ yon bag‘irlarni yuvish va o‘yilishdan saqlash uchun gidrotexnik qurilmalar qurish (to‘g‘onlar, terrasalar), tog‘li

hududlarda sel oqimini to'suvchi va to'xtatuvchi devorlar, tosh-shag'al-tuproq-yog'ochlardan foydalangan holda qurilmalarni qurish kiradi.

Tuproqni sun'iy omillar ta'sirida ifloslanishi: sanoat va shahar chiqindi axlatlarini (gaz, neft, elektr kabellar ishlab chiqarishida, mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy vositalarni qo'llashda, radiaktiv chiqindi moddalarni yerga tashlanishi, transport vositalaridan chiqadigan zaharli moddalar, oqava suvlar tarkibidagi bekorchi jinslar va boshqalar) tuproqqa qo'shilishi natijasida kuzatiladi.

Sanoat chiqindilari 2 xil ko'rinishda tashqariga chiqarib yuboriladi:

a) Qattiq sanoat chiqindilariga: qurum, kul, shlak, tosh, kon chiqindilari, yog'och, plastmassa va boshqa chiqindi materiallar, mineral va organik changlar hamda sanoat axlatlari kiradi.

b) Suyuq chiqindilarga: oqava suvlar qayta ishlanganidan keyin qoladigan chiqindilar kiradi.

Sanoat chiqindilarining asosiy qismi konchilik, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog'ochni qayta ishlash, IES, kimyo, neftni qayta ishlash, paxta tozalash, to'qimachilik, sement ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda hosil bo'ladi.

Sanoat qattiq chiqindilari o'simliklarga, hayvonlarga va odamlarga katta zarar keltiradi. Masalan, fosfogips (o'g'it ishlab chiqarish sanoatida chiqadigan chiqindi mahsulot) sizot suvlarini ifloslantirishi va zaharlashi mumkin. Ishlab chiqarishning ba'zi chiqindilari tarkibida og'ir metallar: xrom, qalay, qo'rg'oshin, surma va boshqa zaharli moddalarning birikmalari tuproqdan o'simliklar va hayvonlar orqali odam organizmiga tushadi va turli xil og'ir kasalliklarga olib keladi. Konserogen xossalarga ega bo'lgan changlarni, oltingugurt, azot, uglerod birikmalarini ajralishi inson faoliyati uchun juda xavflidir.

Tuproq qatlaming radiaktiv moddalar bilan ifloslanishi ham juda xavflidir. So'ngi yillarda dunyoning bir qator mamlakatlarida radiaktiv moddalardan foydalanish (harbiy va tinchlik maqsadlarida) oqibatida ekologik falokatlar kuzatilmoqda. Radiaktiv moddalarni qazish, tashish va ishlatish jarayonida, atom bombalarini ishlashi va portlashi davrida, AES larni avariylarga uchrashida, radiaktivlashgan juda mayda chang zarrachalari atmosferaga ko'tarilib, keyin yomg'ir

bilan yoki o‘zi yerga-tuproqqa tushib, uni zaharlaydi. Bunga misol qilib, 1986 yilda Chernobl AES dagi avariyanı keltirish mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda 1946-1970 yillari mobaynida sobiq ittifoq tomonidan Qиргизистонning Maylisoy hududining 23 ta yeriga radiaktiv chiqindilar ko‘milgan. Mabodo, o‘sha hududlarda sel, yer ko‘chkisi ofatlari yuz beradigan bo‘lsa, nafaqat Qиргизистон hududi va xalqi uchun, balki O‘zbekistonning Farg‘она vodiysi uchun ham katta ekologik xavf tug‘diradi. Bunday xavfli hududlarda 10mln.dan ortiq fuqarolar yashaydi. Tuproq qatlaming kimyoviy moddalar, ayniqsa pestitsidlar, gerbitsidlar bilan ifloslanishidan saqlashda ularni qoidasiga, normasiga, vaqtiga qarab ishlatishga erishish muhim ahamiyatga ega. Biroq ba’zan yuqori hosil olish va zararkunanda hashoratlariga, begona o‘tlarga qarshi kurashish maqsadida o‘g‘itlarni hamda zaharli kimyoviy moddalar haddan tashqari ko‘p ishlatiladi. Natijada qishloq xo‘jaligi ekinlari ularni o‘zlashtira olmaydi va oqibatda ularning bir qismi tuproqda to‘planib qolib uni zaharlaydi. Jumladan, MDH davlatlarida o‘rtacha 1 gk yerga 113 kg.dan ko‘proq mineral o‘g‘it, 2 kg zaharli moddalar ishlatilmoqda. Bu moddalar tuproqda yig‘ilib, tuproq tagiga suv, havo o‘tkazishni, modda almashinuvini, mikro organizmlarni rivojlanishini yomonlashtiruvchi qavat hosil qiladi.

Olimlarning fikricha kimyoviy zaharli moddalarning xavfi AES larning radiaktiv chiqindilari xavfidan 9 barobar xavfli ekan. Hozirgi vaqtida jahon bo‘yicha ekinlarni himoya qilish uchun turli kimyoviy moddalardan gettariga 300 g., G‘arbiy Yevropa va AQShda 2-3 kilogramm, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 200 gramm solinayotgan bir vaqtida, paxta dalalarimizda ishlatilayotgan kimyoviy moddalarning yillik miqdori (1990 yil) gettariga 19,5 kg ni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda ulardan foydalanish deyarli 2 barobar kamaygan. Bunday kimyoviy moddalar zararkunanda bilan birga tuproq hosildorligini oshirish uchun foydali hasharotlarning qirilib ketishiga ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun tuproqni zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishidan saqlash uchun begona o‘tlarga qarshi, o‘simliklar bargini to‘kishda, zaharsiz, kishi salomatligiga zarar yetkazmaydigan zaharsiz kimyoviy vositalarni qo‘llash katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga keyingi vaqtarda qishloq xo‘jaligida zararkunandalarga qarshi kurashishda atrof-muhit uchun

zararsiz biologik usullardan foydalanilmoqda va u o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Hozirgi kunda sanoat va maishiy chiqindilarning miqdori ham ortib, ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun Dunyo miqyosida sanoat va maishiy chiqindi axatlarni yo‘qotish, jahonshumul masalaga aylandi. Chunki uni yoqish atrof-muhitni, yerlarga ko‘mish esa tuproqni ifloslashtiradi va har xil kasalliklar tarqatuvchi mikroblarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Shuning uchun hozirgi kunda tuproq qoplamini ifloslanishidan saqlash, chiqindilarni qayta ishslash yoki ularni zararsizlantirib tashlash eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Jumladan chiqindilarni qayta ishslash orqali qimmatbaho metallar (konserva bankalar, har xil metall parchalari) rezina buyumlari, plastmassa materiallari va boshqalar ajratib olinmoqda. Ajratib olingan rezina, yog‘och parchalarini gidroliz yordamida (parchalash orqali) yonuvchi gaz, saqichli smola, qattiq uglerodli birikmalar, qolgan qismidan esa kompost olinmoqda. Kompostning harorati yuqori bo‘lganligidan undan issiq xonalarda tuproqni qizdirishda, o‘g‘itlashda ishlatiladi. Shahar axlati va sanoat chiqindilari (simob, rux, margimush, mis, qo‘rg‘oshin, ftor, marganes kabi zaharli kimyoviy moddalar tutgan va maishiy kommunal chiqindilari) tashlangan yerlarda tezlik bilan sanitariya hududlari tashkil etilib oldi olinmasa, o‘sha joylar tuprog‘i o‘ta ifloslashib, tabiiy holda tozalana olmaydi. Chunki tuproqda kimyoviy va organik moddalar miqdori ortib, mikroorganizmlar, ayniqsa (kasallik tarqaluvchi) mikroorganizmlar ko‘payib ketishiga sharoit vujudga keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra 1 ga toza tuproqda 16-150000 ming bakteriya mavjud bo‘lsa, birga ifloslangan tuproqda 1 mld.gacha mikroblar borligi aniqlangan. Oqibatda tuproq ifloslanib, har xil yuqumli kasalliklarni, jumladan sibir yazvasi, o‘lat, vabo, ichburug‘ tifi, sil kasalligini tarqatuvchi manbaaga aylanadi.

Shunday qilib, atmosfera havosini, tuproqni va suv basseynlarini turli xil zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ekologik tusdagи favqulodda vaziyatlar kelib chiqadi. Bunday ekologik vaziyatlar nafaqat atrof-muhitni izdan chiqaradi, balki insonlarning salomatligiga, normal hayot faoliyatiga katta xavf tug‘diradi.

## **Nazorat savollari**

1. Tabiiy ofatlarning bir-biridan farqi va umumiy xususiyatlarini tushuntiring.
2. Yer silkinishining turlari va kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
3. Yer silkinish o‘chog‘ida qilinadigan eng asosiy vazifalar nimalardan iborat?
4. Suv toshqiniga sababchi omillarni tushuntiring.
5. Yer surilishi, uni bildiruvchi birlamchi belgilar nimalardan iborat?
6. Kuchli shamol va uni keltiradigan talafotlari qanday?
7. Avariylar va unga sababchi bo‘lgan omillar nimalardan iborat?
8. KTZM ta’siridagi avariyalarda fuqarolar muhofazasining xatti-harakatlarini tushuntiring.
9. Fojealar sodir bo‘ladigan tarmoqlar va ularning oqibatlari qanday bo‘ladi?
10. Fojea oqibatlarini tugatishda fuqarolarning xatti-harakatlari qanday bo‘ladi?
11. Atmosfera havosini tabiiy ifloslanishiga qaysi omillar sababchi bo‘ladi?
12. Havoni sun’iy ifloslanishi necha xil ko‘rinishda bo‘ladi?
13. Atmosfera havosini ifloslanishiga qanday chora-tadbirlar qo’llaniladi?
14. Qanday sabablar bilan suvlar ifloslanadi?
15. Tuproqni ifloslanishiga qanday sabablar sababchi bo‘ladi?
16. Hozirgi kunda aholini chuchuk suv bilan ta’minlashning qanday imkoniyatlari mavjud?

## **2. BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA BUNDAY VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH DAVLAT TIZIMI (FVDT)**

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinnlarda — FVDT) - davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari va vositalaridan iborat tizim.

Asosiy tushunchalar:

**aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish** — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlar majmui;

**favqulodda vaziyatlarning oldini olish** — oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar pasaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

**favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarning kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kompleksi;

**FVDTning funksional quyi tizimi** — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olgan quyi tizim;

**FVDTning hududiy quyi tizimi** — tegishli hududda aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z ichiga olgan quyi tizim;

**fuqaro muhofazasi** — harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

### **§2.1. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari**

FVDTning asosiy maqsadi vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish kiradigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta’minlashdan iborat.

Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash;

respublika hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va yujrosini ta’minlash, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta’minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, almashish, axborot tayyorlash va berish;

aholini, boshqaruv organlarining mansabdar shaxslarini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari yaratish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

xorijiy davlatlar hududida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko‘rsatish hamda ularni va halok bo‘lganlarni evakuatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta’minlash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan sug‘urta qilishning maqbul tizimini ta’minlash.

## **§2.2. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi**

FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi mazkur nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari hamda axborot-boshqaruv tuzilmasidan iborat bo‘lib, respublika, mahalliy va obyekt darajalariga ega.

FVDTning har bir darajasi quyidagilarga ega bo‘ladi:

FVDT boshqaruv organlari;

FVDT tezkor-boshqaruv organlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlari.

FVDTning hududiy quyi tizimlari o‘z ma’muriy hududlari doirasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etiladi hamda tegishli tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar miqyosidagi bo‘g‘inlardan iborat bo‘ladi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch-vositalari tarkibi, faoliyat ko‘rsatish tartibi mazkur Nizom, mahalliy geofizik va tabiiy-iqlim sharoitlarini, xavf darajasi yuqori obyektlarning mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — FVV) bilan kelishgan holda tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

FVDTning funksional quyi tizimlari vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajarish, shuningdek, idoraviy mansub obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuch-vositalaridan iborat bo‘ladi.

FVDT funksional quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch-vositalari tarkibi, faoliyat ko‘rsatish tartibi mazkur Nizom, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha funksiyalari, xavf darajasi yuqori bo‘lgan idoraviy mansub obyektlardagi ishlab chiqarish texnologiyalarining xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda FVV bilan kelishgan holda tegishli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi (O‘zbekiston Respublikasi

qonunlariga muvofiq tasdiqlanuvchi ixtisoslashgan xizmatlar va avariya-qutqaruv tuzilmalari to‘g‘risidagi nizomlar bundan mustasno).

FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi;

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari;

atrof tabiiy muhit va xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

turg‘un (statsionar) boshqaruv punktlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuch-vositalarini boshqarishning harakatdagi punktlari;

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan, boshqarish va axborot bilan ta’minalashning avtomatlashtirilgan tizimi.

Axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni ta’minalashi lozim:

FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining ixtisoslashgan hamda laboratoriya nazorati va kuzatuv tizimidagi bo‘linmalaridan olingan seysmologik, geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar, quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o‘zgarishi, atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari hamda gidrosfera holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar, sanoat va transportdagi avariylar va halokatlar, epidemiylar, epizootiyalar, epifitotiyalar, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) holat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishslash (tahlil qilish va saqlash);

FVDTning boshqaruv organlari, kundalik boshqaruv organlari, kuchlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi holatlari, xususiyatlari, rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi to‘g‘risida xabardor qilish va ma’lumot (axborot) berish;

FVDT quyி тизимлари va bo‘g‘inlari, boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarni tugatish kuch-vositalari o‘rtasida o‘zaro axborot va ma’lumot almashinuvini ta’minalash.

Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarning mezonlari, mazmuni va turlari, ularni FVDT quyи тизимлари va bo‘g‘inlariga, shuningdek, aholiga yetkazish muddatlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar o‘rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha kundalik hamkorlik qilish va xabar berish yo‘riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

FVDT boshqaruv organlari:

**respublika darajasida** — FVV markaziy apparati, FVDT tarkibiga kiruvchi vazirliliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo‘linmalar;

**mahalliy darajada** — mahalliy davlat hokimiyati organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar favqulodda vaziyatlar bo‘limlari, tashkilotlarning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo‘linmalar;

**obyekt darajasida** — obyektlar ma’muriyati hamda vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni bajarish kiradigan tarkibiy bo‘linmalar (xizmatlari, sho‘balari yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslari)dan iborat.

FVDT, uning quyи тизимлари va bo‘g‘inlarining faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha ularga belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minalash tegishli FVDT boshqaruv organlariga yuklanadi.

FVDT tezkor-boshqaruv organlari — FVDTning tegishli hududiy va funksional quyi tizimlariga hamda uning bo‘g‘inlariga tezkor boshqaruvni amalga oshiruvchi boshqaruv organlaridir, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

respublika darajasida — FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi, FVDT tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

mahalliy darajada — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining tezkor-boshqaruv markazlari, shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo‘limlarining tezkor-boshqaruv guruhlari, tashkilotlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

obyektlar darajasida — obyektlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari;

tegishli ravishda har bir darajadagi FVDT boshqaruv organlarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuch va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlari.

FVDT tezkor-boshqaruv organlari tegishli boshqaruv organining doimiy joylashuv punktlarida, favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda esa — favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlarda tashkil etiladi. Ular oldindan tegishli xabar berish, aloqa, axborotni qayta ishlash va uzatishning tegishli texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda o‘zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga doimiy tayyor holatda saqlanadi.

Tezkor-boshqaruv organlari favqulodda vaziyat sodir bo‘lishi xavfi to‘g‘risida ogohlantirish ma’lumotlarini hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar FVDT boshqaruv organlariga tezkor taqdim etilishini ta’minlaydi.

Quyidagilar respublika darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida iqtisodiyot tarmoqlari hamda o‘ta muhim va xavf darjasini yuqori bo‘lgan obyektlar faoliyati barqarorligini oshirishga qaratilgan

va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkon qadar kamaytiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga rahbarlik qilish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida respublika maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etish va bajarilishini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiyligi foydalaniладigan telekommunikatsiyalar, hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televide niye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta'minlash;

kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimida tegishli vazifalarni bajarish;

boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, FVDT kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini ta'minlash;

sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarning to'planishini va almashinishini hamda xabar qilinishini ta'minlash va nazorat qilish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, shu jumladan, zarar ko'rgan aholining hayot sharoitlarini ta'minlash ishlarini, evakuatsiya ishlarini amalga oshirishga oid tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalg qilinadigan FVDT funksional quyi tizimlari kuch-vositalarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish va ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun respublika (idoraviy) moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini, shuningdek, FVDTning maxsus sug‘urta jamg‘armasini tashkil etishga va undan foydalanishga rahbarlik qilish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish;

idoraviy mansub obyektlarning rahbarlari tarkibi va kuchlari, shuningdek, xodimlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashni muvofiqlashtirish;

ishlab chiqarish va texnologiyalar xavfsizligi, shuningdek, xodimlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning tarmoq normalari va qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish.

Quyidagilar mahalliy darajadagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarning barqaror ishslash imkoniyatini oshirishga doir tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy (viloyat) maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining mahalliy darajasini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiyl foydalaniladigan telekommunikatsiyalar hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televide niye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta’minlash;

FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda komyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong‘in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimning mahalliy darajasini yaratish va ularning doimiy shayligini ta’minlash;

atrof tabiiy muhitning holatini, xavf darajasi yuqori obyektlardagi vaziyatni doimiy kuzatish va nazorat qilishni ta’minlash, favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish;

boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, kuch-vositalarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha harakatlarga doimiy tayyorligini ta’minlash;

sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, ularni bartaraf etishga doir ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, almashish va o‘z vaqtida xabar qilish;

FVDT hududiy quyi tizimlari kuch-vositalarining, shuningdek, ko‘ngilli tuzilmalar, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar chog‘ida qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirishiga rahbarlik qilish va harakatlarining uyg‘unligini ta’minlash, volontyorlar hamda mehnatga layoqatli aholini ushbu ishlarga jalb qilishni tashkil etish;

aholini evakuatsiya qilish (vaqtincha olib chiqish)ni, evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish, hayot sharoitini ta’minlash hamda ularning favqulodda vaziyatlar bartaraf etilgach doimiy yashash joylariga qaytishini rejalashtirish va amalga oshirish;

xavfli zonalardagi aholi punktlarida va xo‘jaliklarda yashovchilarni xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish hamda ularning hayotiy sharoitini har tomonlama ta’minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralariini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini moliyalashtirish;

FVDT xizmatlari va tuzilmalarini, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruv xizmatlarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

fugorolarni, ularning uy-joyi va mol-mulkini maqsadli sug'urta qilishni tashkil etish hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan sug'urtalangan himoyasi samaradorligini ta'minlash uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari va sug'urta tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

aholini, boshqaruv organlarining mansabdar shaxslarini, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga rahbarlik qilish.

Quyidagilar obyektlar darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obyektlarning barqaror ishlashi imkoniyatini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;

texnogen avariylar va boshqa turdag'i favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni erta aniqlash, ular sodir bo'lganda oqibatlarini prognozlashtirish hamda ularni bartaraf etish tadbirlarini rejalashtirish maqsadida avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa xavflardan darak beruvchi va nazorat tizimlarini keng joriy etish, kunlik monitoring va kuzatuv ishlarini nazorat qilish;

obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimning mahalliy va obyekt darajalarini yaratish ishlarini tashkil etish;

boshqaruv organlarining, obyektlar kuch-vositalarining favqulodda vaziyatlardagi harakat qilishga tayyorligini ta'minlash;

xabar qilish, axborot to'plashni ta'minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, yetkazishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun ko'rيلayotgan chora-tadbirlar va zarur yordam to'g'risida yuqori organlarga ma'lumot berish;

qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini belgilangan tartibda tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlari bajarilishini, obyektning zarar ko'rgan xodimlarini va obyekt yaqinida yashaydigan aholini evakuatsiya qilish va hayot sharoitlarini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlash;

xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar uchun texnik hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash ishlarini tashkil etish;

obyektlarning xavfsizligini pasportlashtirish va deklaratsiyalash, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar chegaralarini belgilash.

FVDTning kuch-vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

fuqaro muhofazasi qo'shinlari;

FVVga to'g'ridan to'g'ri hamda tezkor bo'y sunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari;

vazirliklar va idoralarning professional ixtisoslashtirilgan bo'linmalari va tuzilmalari, respublika, mahalliy va obyektlar darajasida FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining xizmatlari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari;

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining ko'ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi "Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhlari, "Vatanparvar" mudofaaga ko'maklashuvchi tashkiloti.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlari FVVga bo'ysunadi hamda o'z tezkor yo'nalishlariga muvofiq alohida davrda respublikaning muhim mudofaa va sanoat obyektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga doir ishlarni olib boradi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlari yirik ko'lAMDAGI ishlab chiqarish avariyalari, halokatlar, tabiiy ofatlar chog'ida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish va maxsus priborlar, texnikalar, asbob-uskunalar va tayyorlangan mutaxassislarini talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondonining farmoyishiga asosan jalb etilishi mumkin.

FVVga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunuvchi qutqaruv tuzilmalari malakali mutaxassislar bilan butlangan va maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqarish vositalari bilan jihozlangan, qutqaruv ishlarini avtonom rejimda kamida 72 soat ichida amalga oshirishga mo'ljallangan, doimiy shay holatdagi qutqaruv tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

FVVga tezkor bo'ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasini, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazini va uning filiallarini, O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining qidiruv-qutqaruv xavo kemalarini, qidiruv va avariya-qutqaruv xizmatlari va tuzilmalari, mahalliy davlat hokimiysi organlari avtotashuvchilari hududiy uyushmalarining avtovtransport va avtosanitariya otryadlarini, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni tugatishga, FVDT kuchlari harakati va tadbirlarini ta'minlashga mo'ljallangan FVDT funksional quyi tizimlarining boshqa tarkibiy bo'linmalarini o'z ichiga oladi.

Tezkor bo'ysunadigan tuzilmalarning vazifalari, tayyorlanish muddatlari, ularni jalb etish tartibi ushbu tuzilmalarning Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan harakat rejalarida hamda FVDT tegishli funksional quyi tizimlari bilan shartnomalarda belgilanadi.

Vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan va professional avariya-qutqaruv, avariya-tiklash va boshqa ixtisoslashtirilgan bo'linmalari idoraviy mansub

obyektlarda ishlab chiqarish-texnologiya avariyalari va halokatlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shuningdek, epidemiyalar, epizootiyalar va epifitotiyalar yuzaga kelganda maxsus vazifalarni hal etish uchun mo‘ljallangan.

Vazirliklar va idoralarning yong‘in, kon, gaz-qutqaruv, qurilish, qurilish-montaj, tibbiyot va boshqa ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari va tashkilotlari negizida favqulodda vaziyatlarning tarqalishini cheklash hamda ularning oqibatlarini tugatish bo‘yicha birinchi navbatdagi ishlar uchun doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar tuzilishi mumkin.

Doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar idoradan tashqari avariya obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni tugatish ishlariga amaldagi xarajatlar qoplangan holda shartnoma asosida jalg etiladi.

Hududiy quyi tizimlar va ularning bo‘g‘inlarida aholini va hududlarni sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yirik texnogen avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishga doir vazifalarni bajarish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimlarning qarorlari bilan geofizik, tabiiy-iqlim va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qurilish, montaj-qurilish, avtokorxonalar va boshqa tashkilotlar negizida mahalliy davlat organlarining umumiyligi va maxsus vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan hududiy tuzilmalari tashkil etiladi.

Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda ushbu obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan mavjud ixtisoslashtirilgan xizmatlar va bo‘linmalar (qurilish, kimyo, tibbiy va boshqalar) negizida bevosita obyektlarda kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun shtatdan tashqari ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etiladi.

Tabiiy va texnogen xususiyatli yirik ko‘lamli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor qutqaruv ishlarini bajarish hamda zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyasining kimyoviy himoya, muhandislik-sapyor va boshqa harbiy bo‘linmalari, harbiy-transport aviatsiyasi hamda harbiy-tibbiy xizmat muassasalari jalg etilishi mumkin.

### **§2.3. FVDTning faoliyat ko‘rsatishi tartibi**

Prognozlashtirilayotgan yoki yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning holati, ko‘lmlaridan kelib chiqib muayyan bir hududda FVDT quyidagi rejimlardan birida faoliyat yuritadi:

kundalik faoliyat rejimi — muayyan bir hududda, obyektda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi mavjud bo‘lmaganda;

yuqori tayyorgarlik rejimi — favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi yuzaga kelganda (tegishli darajadagi FVDT boshqaruv organlarining prognozi olinganda);

favqulodda vaziyat rejimi — favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va favqulodda vaziyatlar davrida (tegishli darajadagi FVDT boshqaruv organlaridan xabarnoma olinganda).

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hamda tegishli obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan joriy etiladi.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlarini joriy etish bo‘yicha qarorda:

tegishli faoliyat rejimini joriy etish uchun asos bo‘lgan holat;

favqulodda vaziyat sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hudud chegaralari yoki favqulodda vaziyat hududining chegaralari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun jalgan etiladigan kuch va vositalar;

favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni yoki sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha choralar;

favqulodda vaziyatlarning oldini olishga mas’ul mansabdor shaxslar yoki favqulodda vaziyatni bartaraf etish tadbirlarining rahbari belgilanadi.

Favqulodda vaziyat rejimini joriy etishda favqulodda vaziyatlar tasnifi, shuningdek, aholining hayot faoliyati xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillar

hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun qo'shimcha talab etiladigan chora-tadbirlardan kelib chiqib favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning quyidagi darajalaridan biri o'rnatiladi:

- obyekt darajasida bartaraf etish;
- mahalliy darajada bartaraf etish;
- respublika darajasida bartaraf etish.

## **O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining TASHKILIY-FUNKSIONAL TUZILMASI**

Respublika darjasini	Boshqaruv organlari	Tezkor-boshqaruv organlari	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalari	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari
Mahalliy darja	Favqulodda vaziyatlar vazirligi(keyingi o'rnlarda — FVV) markaziy apparati; Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rnlarda — FVDT) tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari; statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.	FVVning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi; FVDT tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlar markaziy (boshqaruv) apparatlarining navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari; statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.	Fuqaro muhofazasi qo'shninari; FVVga to'g'ridan to'g'ri hamda tezkor bo'ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari; qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari; umumi va maxsus vazifali tuzilmalar.	Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasining mablag'lari va davlat zaxirasi moddiy resurslari zaxirasi; moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxiralari; xalqarotashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami; O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining omborlar va zaxiralar tizimi.
Obyektlar darjasini	mahalliy davlat hokimiyyati organlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar favqulodda vaziyatlar bo'limlari; tashkilotlarning v'kolatli bo'linmalari.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining tezkor-boshqaruv markazlari; shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'limlarning tezkor-boshqaruv guruhlari; tashkilotlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari; statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.	qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari; umumi va maxsus vazifali tuzilmalar.	mahaliy davlat hokimiyyati organlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxiralar; xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami; O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining omborlar va zaxiralar tizimi.
	obyektlarning ma'muriyati va vakolathi tarkibiy bo'linmalari.	obyektlarning navbatchilik-dispatcherlik xizmatlari; statsionar va harakatdagi boshqaruv punktlari.	qutqaruv tuzilmalari; maxsus vazifali tuzilmalar; fuqaro muhofazasi tuzilmalar.	obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxiralar; tegishli yuqori tashkilotning moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxiralar.

Quyidagilar FVDT faoliyat ko'rsatish rejimlarida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

atrof tabiiy muhitning holatini, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va belgilangan tartibda almashish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligi va muhofazasini ta’minalash, yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar va ziyonni qisqartirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sharoitida turar joy binolari, sanoat obyektlari, hayot ta’minti tizimlari va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini oshirish bo‘yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda chora-tadbirlarni rejalashtirish va bajarish;

favqulodda vaziyatlarda aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish, ko‘chirilgan aholining vaqtincha yashash joylarida hayot faoliyatini ta’minalash choralarini rejalashtirish hamda tegishli tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirish;

FVDT boshqaruv organlari va kuchlarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibini rejalashtirish hamda ularni belgilangan tartibda tayyorlash;

aholini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o‘rgatish;

xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi shayligini ta’minalash va nazoratini olib borish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish va to‘ldirish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

sug‘urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish;

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to‘g‘risida davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, va boshqa tashkilotlarga xabar berish hamda aholini xabardor qilish;

atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi ehtimolini, ularning ko‘lamlari va oqibatlarini prognozlashtirish;

FVDT tegishli quyi tizimlari va bo‘g‘inlari faoliyatiga bevosita rahbarlik qilishni davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning o‘z zimmasiga olishi, zarurat bo‘lganda vaziyatning yomonlashishi sabablarini aniqlash uchun favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan mintaqalarda tezkor guruhlarni tashkil etish, vaziyatni normallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish, zaruratga ko‘ra aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish;

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholini va atrof tabiiy muhofaza qilish, shuningdek, turar joy binolari, hayot ta’minoti tizimlari, obyektlar va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish;

doimiy joylashish punktlarida FVDT rahbarlari tarkibining kecha-kunduz navbatchiligini joriy etish;

FVDT tezkor-boshqaruv organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini kuchaytirish;

kuchlar va vositalarni shay holatga keltirish, yuqori tayyorgarlik faoliyat rejimiga o‘tkazish, ularning harakat rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo‘lganda favqulodda vaziyatlar taxmin qilinayotgan hududga yo‘naltirish;

v) favqulodda vaziyat rejimida:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish;

aholini muhofaza qilishni, shu jumladan, aholini, moddiy boyliklarni va boshqa mol-mulkni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilishni tashkil etish;

favqulodda vaziyat zonalari chegaralarini belgilash, o‘rab olish (to‘sib qo‘yish), ushbu mintaqaga kirish-chiqishni tartibga solish;

doimiy tayyorgarlikdagi tuzilmalarni favqulodda vaziyatlar hududiga yo‘naltirish, ushbu tuzilmalar tomonidan favqulodda vaziyatlarni chegaralash va birlamchi sabablarini bartaraf etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

iqtisodiyot obyektlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, zarar ko‘rgan aholining hayot sharoitlarini ta’minlash ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlar hududlaridagi atrof tabiiy muhitning holati, avariya obyektlari va ularga yondosh hududlardagi vaziyat bo‘yicha monitoring olib borish;

evakuatsiya qilingan aholini vaqtinchalik joylashtirish va hayot faoliyatini ta’minlash, tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etish hamda bandligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

favqulodda vaziyatlar mintaqalarida sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

birinchi navbatda infratuzilma obyektlarini tiklash, ijtimoiy soha obyektlarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

jabrlangan aholiga moddiy yordam ko‘rsatish, jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rilgan zararni qoplash tadbirlarini amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun quyidagi mablag‘lardan foydalilanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi va davlat zaxirasining moddiy resurslari zaxirasi – O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari hisobidan;

moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxirasi — FVDT funksional quyi tizimlari mablag‘lari hisobidan;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari mablag‘lari hisobidan;

obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi — tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo‘lgan tovarlar omborlari va zaxiralari tizimlaridan uning roziligi bilan foydalanish mumkin.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari turlari va hajmi ularni tashkil etgan tashkilot tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari avariya sodir bo‘lgan obyektlar, ularni balansda saqlovchi vazirliklar va idoralarning, ushbu obyektlar joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining kuch-vositalari bilan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari obyektlarining rahbarlari, vazirliklar va idoralarning tezkor guruhlari (mutaxassislar) va hokimlarning bevosita rahbarligida amalga oshiriladi.

Alohibda hollarda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun Hukumat komissiyasi tashkil qilinishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun resurslar yetarli bo‘lmagan taqdirda ular obyekt ma’muriyati, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari rahbarlarining iltimosnomasiga binoan FVDTning yuqori organlari zaxiralaridan ajratilishi mumkin.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha dasturlarni moliyalashtirish, tarmoqlar va obyektlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash har bir darajada tegishli budgetlar, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni mablag‘ bilan ta’minlash favqulodda vaziyatlar zonalarida joylashgan obyektlarning mablag‘lari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) mahalliy budgetlari hamda FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilgan mablag‘lar mavjud bo‘lmagan yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratiladi.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararlar miqdorini kamaytirish bo‘yicha oldindan choralar ko‘rish maqsadida respublika va idoraviy harakat qilish rejalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va obyektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek, FVDTning barcha darajalarida o‘zaro hamkorlikda harakat qilish rejalari ishga solinadi.

FVDT harakatlarini rejalahshtirishga tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni FVV amalga oshiradi.

#### **§2.4. FVDT xizmatlar tarkibi**

**Vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarning Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha**

#### **FUNKSIYALARI**

### **O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi**

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda — FVDT) faoliyatini boshqarish va davlat nazoratini amalga oshirish.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog‘ligini muhofaza qilishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va FVDTning samarali hamkorligini tashkil etish.

Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini boshqarish va nazoratini olib borish.

FVDT boshqaruv organlari va aholini seysmik jarayonlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkil etish va amalga oshirish.

FVDT boshqaruv organlari va aholini seysmik jarayonlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining:

Yong‘in xavfsizligi xizmati;

Seysmik xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi**

Tabiiy va texnogen tusdagи favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qatnashish.

Favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibiga va fuqarolar xavfsizligiga rioya etilishini hamda obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish va qo‘riqlashni ta’minlash.

Qonunchilikka qarshi harakatlar bilan kurashishda, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda va alohida davrda huquq-tartibotni ta’minlashda qatnashish.

FVDT funksional quyi tizimining Qo‘riqlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**

Favqulodda vaziyatlar chog‘ida jamoat tartibini va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash.

Tibbiy yordam xizmati bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda nobud bo‘lgan aholini hisobga olish.

FVDT funksional quyi tizimining:

Jamoat tartibini saqlash xizmati;

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi obyektlari joylashgan mintaqalardagi radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik vaziyatning nazorat qilinishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining avariya-qutqaruv xizmati kuchlari va vositalarini, muhandislik-sapyor bo‘linmalarini, kimyoviy xizmat bo‘linmalarini, maxsus texnika va moddiy resurslarni favqulodda vaziyatlar mintaqalariga yetkazishda harbiy-transport aviatsiyasining qatnashishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun idoraviy mansub obyektlarda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to‘g‘risida axborot almashinuvini amalga oshirish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**

Favqulodda vaziyatlarning xususiyatini hisobga olib zarar ko‘rgan aholiga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish, zarar ko‘rganlarga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatish.

Favqulodda vaziyatlar mintaqalariga dori vositalarining shoshilinch yetkazib berilishini ta'minlash.

Zarar ko'rgan va transportda tashish mumkin bo'limgan kasallarni hisobga olish va ularning favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilinishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi vositalar zaxiralarini yaratish hamda ularni zarur darajada saqlash.

Aholini favqulodda vaziyatlar chog'ida dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga o'qitish va tayyorlashning metodik asoslarini ishlab chiqish.

Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlanganlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga evakuatsiya qilish tadbirlarining tibbiy ta'minotini amalga oshirish.

Tashish mumkin bo'limgan jabrlanganlarga chet elda tibbiy yordam berish tadbirlarini amalga oshirishda xorijiy davlatning tegishli tibbiyot muassasalariga ko'maklashish.

Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlarda halok bo'lganlar va jabrlanganlarning ro'yxatini yuritish.

Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni, shuningdek, ularning tibbiy reabilitatsiyasini ta'minlash.

Respublika hududida favqulodda vaziyatlarda jaroxatlangan va xalok bo'lgan chet el fuqarolari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berish.

Obyektlarning sandrujina (postlari) soni, tarkibi va moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanish me'yorlarini O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqish.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda sanitariya drujinalari va postlarini dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga tayyorlash.

Respublika hududidagi sanitariya-epidemiyaga oid ahvolni kuzatish, nazorat qilish va prognozlashtirish.

Sanitariya-epidemiologiya sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o‘choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlar mintaqalarida sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishga oid ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish.

Favqulodda vaziyatlar mintaqalarida sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Inson salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

Tibbiy profilaktika bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlash.

FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar mintaqalaridagi sanitariya-epidemiyaga oid ahvol to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining:

Tibbiy yordam xizmati;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish obyektlarini qurishning aniq yo‘naltirilgan dasturlarini

ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli konsepsiylar, strategiyalar va dasturlarni moliyalashtirish masalalarini ko‘rib chiqish va takliflar berish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida moddiy resurslar zaxirasini yaratish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini mablag‘ bilan ta’minlash.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda zaxira fondidan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ajratilgan mablag‘larning hisobi yuritilishini tashkil etish hamda ulardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari asosida xorijiy davlatlar hududida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko‘rsatish hamda ularni va halok bo‘lganlarni evakuatsiya qilish tadbirlarini, mutaxassislarning xorijiy davlatga voqeа joyiga yetib borishini va O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelishini moliyalashtirish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shartnama asosida chet davlatlarga ishga yuborilayotgan fuqarolar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilingan aholi bandligini ta’minlash maqsadida ularni vaqtinchalik ish bilan ta’minlash.

## **O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlarini xorijiy davlatda sodir bo‘lgan favqulodda vaziyat hududidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ushbu hududdagi vaziyatning rivoji to‘g‘risida xabardor qilish.

Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish.

Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan xorijiy davlatlarning mas’ul davlat organlari bilan birgalikda jabrlanganlarga tibbiy va boshqa ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish va O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytib kelishlarini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan yoki halok bo‘lgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlarning tegishli diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalariga yuborish.

Konsullik ustavi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi sohasidagi qonun hujjaligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi**

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

Umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus va proffesional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzulari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonida hayot xavfsizligi asoslarini o‘rgatishni tashkil etish choralarini ko‘rish.

O‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalarни ishlab chiqish va nashr etish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi**

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotning tezkorlik bilan olinishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishini ta’minlash.

Favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan aholi uchun qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazishni tashkil etish.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil davomida va uzluksiz barqaror narxlarda ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasi zarur bo‘lgan hajmda shakllantirilishini tashkil etish.

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur qayta ishslash va saqlashni ta’minlash.

Tarmoq tarkibiga kiruvchi obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish hamda amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini oziq-ovqat xavfsizligi, idoraviy mansub obyektlardagi avariylar hamda halokatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

O‘simgiliklar yuqumli kasalliklari keng tarqalishi (epifitotiyalar)ning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

Zararkunadalar va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi agrokimyoviy vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining O‘simgiliklarni himoya qilish va agrokimyoviy nazorat xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi**

Yirik va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holati ishonchligini va xavfsiz ishlashini ta’minlash.

Suv omborlari, daryolar va kanallarning gidrologik rejimi, toshqinlar, halokatlari suv bosishlar, gidrotexnika inshootlariga tabiiy ta’sirlar monitoringini tashkil etish va olib borish.

Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariylar va halokatlarning yuzaga kelishi mumkinligini prognozlashtirish.

Suv xo‘jaligi obyektlarining ish rejimini o‘zgartirish yoki keyinchalik ulardan foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

Suv xo‘jaligi va energetika obyektlarining mukammalligi I, II va III klass bo‘lgan gidrotexnika inshootlarining texnik holatini diagnostika qilish, xavfsizligini baholash.

Yirik va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, shu jumladan, loyihalarning ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etish, qurilishning sifatini va foydalanishga qabul qilib olinishini nazorat qilish.

Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnik inshootlarning holatini nazorat qilish.

Yirik va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birlashtirishda suv bosishi, toshqinlar, sellarning oldini olish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqin suvlari va sellarning avariyasiz o'tkazilishini ta'minlashga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar kompleksini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini suv omborlarining to'g'onlari va gidrotexnik inshootlari hamda boshqa suv manbalarining o'pirilib ketishi bilan bog'liq kutilayotgan suv toshqinlari va halokatli suv bosishlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlar, xususan, suv toshqini sodir bo'lgan hududlarda zarur irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

FVDT funksional quyi tizimining:

Suv xo'jaligi xizmati;

Mukammalligi I, II va III klass bo'lgan, shuningdek, respublika va mintaqalardagi suv xo'jaligi hamda energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi holatini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi**

Avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari, metropolitendan xavfsiz foydalanish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Yo'l va yo'l inshootlarining texnik holati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni FVDT qutqaruv tuzilmalari, kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga tashish uchun tayyorlash.

Favqulodda vaziyatlarni tugatish va evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan FVDT qutqaruv tuzilmalari, kuch-vositalari, harbiy bo'linmalar, maxsus texnika va moddiy resurslarni birinchi navbatda tashishni ta'minlash.

Yong‘in va avariya-tiklash poyezdlari, ixtisoslashgan va qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibining temir yo‘l transportida favqulodda vaziyatlarni tugatishda qatnashishini ta’minlash.

Qidiruv-qutqaruv havo kemalari va ekipajlari hamda qidiruv va avariya-qutqaruv tuzilmalarining qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirokini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaro va eksperimental aviatsiyasida qidiruv va avariya-qutqaruv ishlarini olib boruvchi xizmatlar ustidan nazorat olib borish.

Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirini amalga oshirish uchun avtomobil tuzilmalari va evakuatsiya poyezdlarini tashkil etish, shuningdek, ularni evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirishga tayyorlashni ta’minlash.

Portlovchi, yong‘in xavfi bo‘lgan yuklar va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalarni tashishda xavfsizlikni ta’minlash.

FVDT boshqaruv organlarini, yo‘lovchilar hamda aholini avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari va metropolitenda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga zarur axborotlarni taqdim etish.

FVDT funksional quyi tizimining:

Avtotransport xizmati;

Avtoyo‘l xizmati;

Qidiruv va parvozlarni avariya-qutqaruv jihatdan ta’minlash xizmati;

Temir yo‘l va temir yo‘l transportida yong‘in, portlash xavfi bo‘lgan yuklar, kimyoviy moddalar va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar tashilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi**

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ta’siriga uchragan hududlar va aholi punktlarida shaharsozlik faoliyatini alohida tartibga solish.

Shaharsozliq, loyihalash va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirishda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini tashkil etish.

Shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertiza qilish.

Yirik va alohida muhim obyektlarda bajariladigan qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarining sifatini nazorat qilish va ularni foydalanishga qabul qilishda ishtirok etish.

Favqulodda vaziyatlar natijasida obyektlarga hamda fuqarolarning turar joylariga yetkazilgan zararni hamda qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarga ehtiyojlarni hisob-kitob qilishda ishtirok etish.

FVDT funksional quyi tizimining Shaharlar, aholi punktlari va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhandislikka doir muhofaza qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati**

Favqulodda vaziyatlarda izdan chiqqan ichimlik suv va oqova suvlari tizimlarini tiklash, ularning favqulodda vaziyatlar sharoitlarida barqaror ishlashini ta’minlashni muvofiqlashtirish.

Uy-joy va kommunal xo‘jaligi faoliyatining barqarorligini oshirish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlar oqibatida zarar ko‘rgan uy-joy va kommunal xo‘jaligi obyektlarini tiklash va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jabrlangan aholini belgilangan me’yorlar miqdorida ichimlik suv bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining Ichimlik suv ta'minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi**

Mahalla fuqarolar yig'inlari darajasida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik sohasidagi vazifalarni hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga hamda boshqa tashkilotlarga ko'maklashish.

Mahalla fuqarolar yig'inlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lмаган ахолисини favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash.

"Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhlarini tuzish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb etish.

Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududlardan evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish, ro'yxatga olish va ularning vaqtinchalik joylashtirilishida ishtirok etish.

### **O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi**

Respublika aholisini va iqtisodiyot tarmoqlarini kundalik rejimda va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida yoqilg'i-energetika resurslari bilan barqaror ta'minlashga qaratilgan tadbirlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek, ko'mirdan foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish.

Neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, kayta ishslash, tashish, saklash obyektlari (qurilmalari)ni montaj kilish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rioya etilishini nazorat qilish.

Atom energetikasini rivojlantirish agentligiga (keyingi o'rnlarda — Agentlik) tegishli bo'lgan atom energetik reaktorlar, yadro-fizik qurilmalar, yadroviy

materiallar va radiatsiyaviy manbalarni hamda radiofaol chiqindilarni saqlash punktlarining xavfsizligini va rivojlanishini ta'minlash.

Atom energiyasidan foydalanish obyektlarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlikni ta'minlash, ularda radiatsiyaviy avariyalarning oldini olish, ixtisoslashgan kuchvositalarining harakat qilishga shayligini ta'minlash, shuningdek, ta'sir ko'rsatish sohalari mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish.

Tarmoq obyektlarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan avariylar va halokatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

Tarmoq obyektlarida avariylar kelib chiqishi ehtimolini va oqibatlarini prognozlashtirish, tarmoqning birlashmalari va obyektlarida favqulodda vaziyatlar chog'ida ishlarning barqarorligini oshirish.

Idoraviy mansub yirik gidrotexnik inshootlardan chiqarib yuborilayotgan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni FVDT boshqaruva va tezkor-boshqaruva organlari hamda mutasaddi xizmatlarga taqdim etib borish.

Xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar, shu jumladan, yoqilg'i-energetika tarmog'ining yirik gidrotexnik inshootlari, neft va gazni qayta ishslash va boshqa xavfli obyektlarida hamda ularga yondosh hududlarda xabar berish mahalliy tizimlarini yaratish.

Ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarini doimiy tayyor holda saqlash hamda tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdi ishtirok etishini ta'minlash.

FVDT boshqaruva organlari va aholini tarmoq obyektlarida avariylar va halokatlar yuzaga kelishi xavfi yoki sodir bo'lganligi, ko'rilib-yayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar chog'ida aholining harakat qilish tartibi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

Issiqlik va gidravlik elektr stansiyalari, elektr va issiqlik tarmoqlari asbob-uskunalaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini, shuningdek,

iqtisodiyot obyektlari va respublika aholisini elektr energiyasi hamda issiqlik bilan uzlusiz ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

FVDT funksional quyi tizimining:

Energetika xizmati;

Atom energiyasidan foydalanish obyektlarining xavfsizligini ta'minlash xizmati;

Yoqilg'i-energetika tarmog'i obyektlarida ishlarni olib borishning holati va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**

Respublika va mahalliy darajalarda hamda FVDT faoliyat ko'rsatishining barcha rejimlarida telekommunikatsiyalar va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi yaratilishida ko'maklashish.

Favqulodda vaziyatlarni tugatishga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini umumiyligida foydalaniladigan telekommunikatsiyalar va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlari bilan ustun darajada ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta'minlash.

Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta'minlashning statsionar vositalariga foydalanish-texnik xizmat ko'rsatishni shartnomaviy shartlarda amalga oshirish.

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar to'g'risida aholini o'z vaqtida xabardor etish maqsadida mobil aloqa vositalari orqali SMS xabar yetkazishni tashkil etish.

FVDTning funksional quyi tizimining Aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi**

FVDT faoliyatidagi mavjud muammolarni ilmiy asoslarga tayangan holda echishga qaratilgan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari loyihalarini tanlovlardan asosida shakllantirish.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan samarali muhofaza qilish uchun ilmiy va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalangan holda FVDTning innovatsion faolligini oshirishga ko‘maklashish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**

Respublika iqtisodiyoti va hududlari uchun xos zilzilalar bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi, ularning oldini olish, aholini va hududlarni muhofaza qilish hamda seysmik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tarmoqlar va obyektlarning faoliyat ko‘rsatishi barqarorligini oshirishga doir tadbirlarning samaradorligini prognozlashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy tadkiqotlarni tashkil etish.

Respublika hududidagi seysmik hodisalarini kompleks kuzatishni amalgalash oshirishni, zilzilalarni prognozlash va seysmik mintaqalashtirishning ilmiy asoslari va usullarini ishlab chiqish.

Mintaqaviy, mahalliy va maydon darajalaridagi seysmik ta’sirni va inshootlar uchun seysmik xavfni baholashning yangi nazariy va amaliy usullarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirib borish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi**

Aholi va atrof tabiiy muhit uchun radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik), yong‘in xavfini tug‘diradigan tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi

hududiga olib kirilishi va hududidan olib chiqib ketilishini nazorat qilish va hisobini yuritish.

FVDT funksional quyi tizimining Yong‘in chiqishi, portlovchi-radiatsiyaviy xavfli yuklar (tovarlar), zaharli va kimyoviy moddalar, shuningdek, kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan kuzatish va nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi**

Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar hamda intensiv sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyati joylashgan mintaqalarda ekologik vaziyat ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish, uni yaxshilash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

Sanoat chiqindilarini to‘plagichlar, chiqindi omborlari, zaharli moddalar ko‘miladigan joylar va boshqalarning joylashishi va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

Suvdan foydalaniladigan joylarda ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi va sanoat, baliqchilik xo‘jaliklari va boshqa tarmoqlarning chiqaradigan oqovalari, shuningdek, zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga tashlamalari hamda chiqindilarning joylashtirilishi ustidan monitoring olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini ekologik vaziyat, atrof tabiiy muhitda zaharli moddalarning tashlanishi va chiqarib yuborilishi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining Atrof tabiiy muhitni muhofaza hamda ekologik xavfsizlik bo‘yicha nazorat-inspeksiya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi**

Xavfli tabiiy geologik jarayonlar (ko‘chish, qulash, suffoziol, karst)ning rivojlanish mintaqalari (zonalari)ni aniqlash, ularning faollashishini o‘rganish va ogohlantirish; yonbag‘irlarning tabiiy barqarorligini saqlash bo‘yicha ko‘chkiga qarshi va boshqa oldini oluvchi tadbirlar birinchi navbatda o‘tkaziladigan zonalarni belgilash.

Aholi punktlari doirasida, tog‘li va tog‘oldi mintaqalarda sog‘lomlashtirish obyektlari va boshqa jamoat obyektlari joylashgan zonalarda xavfli geologik jarayonlar monitoringini tashkil etish va olib borish, liniyalı inshootlardan (yo‘llar, kanallar, elektr uzatish liniyalari, quvurlar va shu kabilar) foydalanuvchi kon-ruda korxonalari va idoralarning xo‘jalik faoliyati hududi bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishi ehtimollari to‘g‘risidagi geologik axborot bilan ta’minlash, ko‘chki xavfi bo‘lgan mintaqalardagi hududlardan oqilona foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Yer osti suvlarining radioaktiv, kimyoviy va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslanishini kuzatish va nazorat qilish.

Transchegaraviy hududlarda radioaktiv va zaharli elementlar bilan ifloslanish o‘choqlarini aniqlash va o‘rganishni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda xavfli zonalarda joylashgan aholini vaqtincha evakuatsiya qilish yoki bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish shart bo‘lgan shaharchalar va xo‘jaliklar ro‘yxatini belgilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish.

Yangidan qurilayotgan aholi punktlari va obyektlar uchun yer ajratishni tegishlicha kelishish. Ulardan foydalanishda tog‘ qiyaliklari barqarorligi holatini kuzatib borish.

Xavfli geologik jarayonlar bo‘yicha ma’lumotlar elektron bazasini shakllantirish va ularning ta’siridan ko‘rilgan zararlarni baholash.

FVDT funksional quiyi tizimining Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi**

Kimyoviy, portlovchi hamda boshqa yuqori darajada xavfli obyektlarning holatini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish, ularda avariylar va halokatlar yuzaga kelishi ehtimolini prognozlashtirish.

Texnogen avariylar va halokatlarning oldini olish, radioizotop priborlarini saqlash va ulardan foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quiyi tizimlarini sanoat obyektlarida yuzaga kelgan avariylar va halokatlar, ularning ko‘lamlari, rivojlanishining borishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari hamda favqulodda vaziyatlarni tugatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minalash.

Harbiylashtirilgan kon-qutqarish qismlari bo‘linmalarining kon qazish ishlaridagi nafas olish organlarini muhofaza qilish vositalarini qo‘llashni hamda maxsus jihozlarni talab etuvchi gaz portlashlari, otilib chiqishlar va to‘lib qolishlar bilan bog‘liq avariyalarni tugatishda qatnashishini ta’minalash.

FVDT funksional quiyi tizimining Kon-ruda, kimyo, neft va gazni qayta ishslash hamda qayta ishslash sanoatida va “Toshmetroqurilish” obyektlarini qurishda yer osti o‘tish ishlarini bajarishda ishlarning holati va xavfsiz olib borilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi**

Epizootiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish.

Epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasallikkari va ushbu kasallikkarni qo‘zg‘atuvchilar tarqalishini cheklash bo‘yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Favqulodda vaziyatlar mintaqalarida epizootiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Epizootiyalarni tugatish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi epizootik vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining Epizootiyani bartaraf etishda veterinariya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi**

Geologik va gidrometeorologik xavfli uchastkalarda o‘rmonzorlar barpo etilishining oldi olinishini nazorat qilish.

O‘rmonlarni yong‘inlardan muhofaza qilish va epifitotiyaga qarshi kurashish.

O‘rmon xo‘jaligi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni va prognoz m’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etib borish.

### **O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi**

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan obyektlar va hududlarning relyefini va favquloda vaziyat ta’siriga tushuvchi hududlarning kompyuter modullarini ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini geodeziya va kartografiya axboroti, shuningdek, yer-kadastr xaritalari bilan ta’minlash.

## **O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi**

Turizm xizmatlarini tashkil etishda, turistik obyektlarda, turistlar vaqtincha joylashtiriladigan, ovqatlanadigan va harakatlanadigan joylarda, respublika hududi bo‘ylab harakatlanishda va turizm obyektlariga tashriflarni uyshtirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush holat (favqulodda vaziyat)larning oldini olish tadbirlarini muvofiqlashtirish va nazoratini amalga oshirish.

Turizm obyeklari va yo‘nalishlari, shuningdek, sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlar va prognoz ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etib borish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi**

Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining buyurtmanomalariga binoan mahalliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar, tijorat tuzilmalaridan buyurtmachining mablag‘lari hisobiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni tugatish uchun maxsus texnika, asbob-uskunalar, priborlar va materiallar xarid qilishni amalga oshirish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi**

Jismoniy va yuridik shaxslarga favqulodda vaziyatlar oqibatida yetkazilgan zararni qoplab berish yoki kompensatsiya to‘lash bo‘yicha yetkazilgan zararni aniqlash uchun baholash ishlarini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga zarur axborotlarni taqdim etish.

## **O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi**

Halokatli gidrometeorologik hodisalarni prognozlashtirish va kuzatish.

Sel va qor ko'chkilariga qarshi tadbirlarni o'tkazish zarur bo'lgan mintaqalar va hududlarni aniqlash.

Atrof tabiiy muhit (atmosfera, tuproq va yer usti suvlari)ning ifloslanishi, gidrologik rejim va daryolar qayirlari hamda o'zanlaridagi toshqinlar xavfi monitoringini tashkil etish va o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlariga gidrometeorologik axborot taqdim etish, atrof tabiiy muhit ifloslanishining ekstremal yuqori darajalari to'g'risida ogohlantirish.

FVDT funksional quyi tizimining Tabiiy gidrometeorologik hodisalar yuzaga kelishi va rivojlanishi, atmosfera havosi, tuproq va yuza suvlari ifloslanishi ustidan gidrometeorologik kuzatishlar xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi**

Respublikaning ayrim hududlarida, ma'lum maydonlarda tarqalgan yoki chetdan kirib kelib, o'simliklar olamiga katta zarar yetkzishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantini obyektlarining tarqalishi va ularga qarshi kurashish bo'yicha nazorat ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

### **O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi**

Radioeshittirish stansiyalari va televide niye orqali favqulodda vaziyatlar xavfi va yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotni aholiga yetkazish.

FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda aholi o'rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, FVDTning hududiy quyi tizimlari rahbarlari buyurtmanomalari bo‘yicha aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko‘rsatuvarlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

Sog‘lijni saqlash vazirligi va O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o‘zaro va o‘ziga o‘zi yordam ko‘rsatishga o‘qitish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan eshittirishlarni tashkil etish.

### **“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati**

Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadigan avariylar va halokatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarning yuzaga kelishi ehtimoli va oqibatlarini prognozlashtirish, favqulodda vaziyatlar chog‘ida ular ishlarining barqarorligini oshirish.

Kimyoviy xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlarda xabar berishning mahalliy tizimlarini yaratish.

Kimyoviy xavfli obyektlardan kimyoviy zararlanishi ehtimoli bo‘lgan zonalarni aniqlash.

FVDT boshqaruv organlari va aholini avariylar va halokatlar, ularning oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar hamda aholining favqulodda vaziyatlar chog‘ida harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

Idoraviy ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarining tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlar chog‘ida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirishda qatnashishini ta’minlash.

FVDT funksional quyi tizimining Tarmoq obyektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligini nazorat qilish idoraviy xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **“O‘zbekoziqovqatxolding” xolding kompaniyasi, “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi**

Zarar ko‘rgan aholini va evakuatsiya qilingan aholi joylashtirilgan mintaqalardagi aholini ta’minlash uchun tabiiy ofat zonalariga oziq-ovqat va birinchi navbatda zarur bo‘lgan tovarlar yetkazib berilishini tashkil etish, tuzilmalarning shaxsiy tarkibiga va zarar ko‘rgan aholiga oshxonalarda (ovqatlanish shaxobchalarida) ovqat tayyorlash uchun suv bilan ta’minlash.

Saqlash, texnologik qayta ishslash va sotish chog‘ida don va dondan qayta ishlangan mahsulotlar, oziq-ovqatlar va boshqa tovarlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, FVDTning boshqa funksional quyi tizimi xizmatlari bilan birgalikda oziq-ovqat va suvlarning radioaktiv moddalar, og‘ir metallar, nitratlar va pestitsidlar bilan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan konsentratsiyalarning belgilangan darajasidan ortiqcha ifloslanishini nazorat qilishni amalga oshirish.

Mahsulotlar va boshqa tovarlarni zararsizlantirish, texnologik qayta ishslash yoki zararsizlantirib bo‘lmaydiganlarini yo‘q qilish.

O‘zbekiston Respublikasi FVDT funksional quyi tizimining Savdo va ovqatlanish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

## **“O‘zmaxsusmontajqurilish” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi**

Qurilish va qurilish-montaj tashkilotlari negizida ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etish hamda ularning favqulodda vaziyatlar mintaqalarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni bajarishda qatnashishini ta’minlash.

Favqulodda vaziyatlar mintaqalariga qurilish materiallari yetkazib berilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

## **Sug‘urta tashkilotlari**

Suv toshqini, ko‘chkilar, sel xavfi mavjud bo‘lgan va boshqa turdagи favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori bo‘lgan mintaqalarda yashaydigan fuqarolarni, shuningdek, binolar va inshootlarni, moddiy boyliklar, qishloq xo‘jaligi ekinlari va hayvonlarini sug‘urtlashni ta’minlash.

### **O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatি**

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, FVDTning boshqa funksional quyi tizimlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish masalalari bo‘yicha tayyorlash.

FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlarida sanitariya drujinalarini tuzish, ularni jihozlash va yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorlash, tayyorgarlik holatini nazorat qilishda ko‘maklashish.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida sanitariya postlarini tashkil etish va o‘qitish.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, birinchi navbatda, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi xodimlarini, kursantlar, haydovchilar va yo‘l-transport xizmatlari xodimlarini birinchi yordam ko‘rsatish amaliyotiga shartnoma asosida o‘qitishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda aholini birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, o‘ziga o‘zi va o‘zaro yordam berish hamda zarar ko‘rganlarga g‘amxo‘rlik qilishga o‘qitish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan teleko‘rsatuvarlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining otryadlari va boshqa ko‘ngillilar bo‘linmalarini tashkil etish, o‘qitish, jihozlash hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etish.

Favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining eng zarur tovarlar omborlari va zaxiralari tizimini tashkil etish.

**Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha**

**FUNKSIYALARI**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda — FVDT) hududiy quyi tizimlarini tashkil etish, boshqarish va ularning faoliyatini nazorat qilish.

FVDT xizmatlarining umumiy va maxsus vazifalari hududiy tuzilmalarini, yig‘ma mexanizatsiyalashtirilgan otryadlarni, yig‘ma qutqaruv komandalarini, avtosanitariya otryadlarini tashkil etish va boshqarishga rahbarlik qilish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholini, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, shuningdek, tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari, ishchi va xizmatchilarini tayyorlash tadbirlarini tashkil etish va nazorat qilish.

Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi obyektlar va aholini elektr energiyasi, gaz, yoqilg‘i va ichimlik suv bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha axborotlarni to‘plash va almashish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar xavfidan yoki yuzaga kelishidan aholini o‘z vaqtida xabardor qilish va xabar berish.

Gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar mas'ul mansabdon shaxslar mavjud emasligi tufayli cheklangan hududlarda favqulodda vaziyatlar paydo bo'lishining oldini olish.

Halokat zonalaridagi zarar ko'rgan aholi hamda ular joylashtirilgan tumanlarda evakuatsiya qilingan aholini ta'minlash uchun tegishli hududning mahalliy budgeti mablag'lari hisobiga oziq-ovqat va eng zarur tovarlar yetkazib berilishini tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga volontyorlarni jalb etish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Oshxonalarda (ovqatlanish shaxobchalarida) tuzilmalarning shaxsiy tarkibi va zarar ko'rgan aholi uchun ovqat tayyorlash uchun suv bilan ta'minlash.

Don va uni qayta ishslash mahsulotlari, oziq-ovqat va boshqa tovarlarni saqlash, texnologik qayta ishslash, tashish va realizatsiya qilishda ularni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish; FVDTning funksional quyi tizimlari hududiy bo'linmalari bilan birgalikda oziq-ovqat va suvning radioaktiv moddalar, og'ir metallar, nitratlar va pestitsidlar bilan belgilangan cheklangan yo'l qo'yiladigan konsentratsiyalardan ortiq ifloslanishini nazorat qilish.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish shtabi faoliyatiga rahbarlik qilish.

Aholi punktlari va iqtisodiyot obyektlari faoliyatini tiklash ishlarini tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholi hayot faoliyatini tiklash.

Quyidagi FVDT hududiy quyi tizimlari faoliyatiga rahbarlik qilish:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat FVDT xizmatlari va tuzilmalari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman (shahar)lar hamda iqtisodiyot obyektlarining umumiy va maxsus vazifalar yuklangan hududiy tuzilmalari.

Mahalliy sharoitlarga, favqulodda vaziyatlarning xususiyatiga va viloyatlar (shaharlar va tumanlar)ning moddiy-texnika bazasiga qarab fuqaro muhofazasi boshlig'i o'z vakolatlari doirasida FVDTning hududiy va obyektlar bo'yicha quyidagi xizmatlarini tashkil etishi va vazifalarini belgilashi mumkin:

avtoyo'l xizmati — favqulodda vaziyatlarni tugatishda yo'l-ko'prik ta'minotini tashkil etish va amalga oshirish, yo'llar va ko'priklarni ta'mirlash va tiklash;

avtotransport xizmati — temir yo‘l va havo transporti organlari bilan birgalikda aholini joylashtirish va favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun kuch-vositalarni yetkazib berish, ishchi smenalarini olib kelish (olib ketish), moddiy va tarixiy-madaniy boyliklar, noyob asbob-uskunalar, oziq-ovqat, qurilish materiallarini va boshqa moddiy vositalarni evakuatsiya tumaniga olib chiqib ketish;

gaz ta’minoti xizmati — gaz ta’minoti inshootlari va tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

suv ta’minoti xizmati — suv ta’minoti inshootlari va tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, suv manbalarining radioaktiv, kimyoviy va zaharli moddalar hamda bakteriyali vositalar va og‘ir metallar bilan ifloslanish (zararlanish)dan muhofaza qilinishini ta’minlash. Ichimlik suv sifati va oqova suvlarni tozalash ustidan nazoratni ta’minlash;

veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmati — hayvonlarda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi (epizootiya)larning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar hududlarida sanitariya-veterinariya va epizootiyalarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish. Epizootiyalarni tugatish. Rahbariyatga favqulodda vaziyatlar zonasidagi sanitariya-veterinariya holati to‘g‘risida axborot taqdim etish;

o‘simliklarni himoya qilish va agrokimyo nazorati xizmati — epifitotiylarning oldini olish, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish. O‘simliklarni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta’minlash. Fitopatologik qidiruv ishlarini, qishloq xo‘jaligi yerlarining radioaktiv va zaharli moddalar bilan ifloslanishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish. Ekinzorlar, yaylovlar hamda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini zararsizlantirish. Epifitotiylarni tugatish;

suv xo‘jaligi xizmati — suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta’minlash, ularda avariylar va halokatlar yuz berishi mumkinligini prognozlashtirish. Suv

xo‘jaligi obyektlarining ish rejimini yoki ulardan bundan keyin foydalanish rejimini o‘zgartirish zarurligini belgilash, suv omborlaridan suvni avariya yuzasidan chiqarib tashlash. Suv omborlarida oldindan xabar berish tizimlarini yaratish. Toshqinlar, suv bosishlari, sel oqimlaridan ogohlantirish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan kompleks chora-tadbirlarni tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish hamda toshqin suvlari va sel oqimlarini avariyasiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash;

muhandislik xizmati — tinchlik davrda himoya inshootlari fondi to‘planishi va mavjud bo‘lishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish, boshlang‘ich hududlarda zararlangan joylarga tomon harakat qilinganda, halokatli suv bosishi zonalarida va ishlar olib boriladigan obyektlarda, yirik yong‘inlarni o‘chirishda, tabiiy ofatlar, yirik avariylar va halokatlar oqibatlarini tugatishda FVDTning kuchlari harakatlarini muhandislik jihatdan ta’minlash uchun favqulodda vaziyatlarni tugatish ishlariga jalb etiladigan tegishli tuzilmalarni tayyorlash va ularning harakat qilishini tashkil etish;

kommunal-texnika xizmati — kommunal xo‘jaligi inshootlari va tarmoqlari ishlarining barqarorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish, ulardagi avariyalarni tugatish, halok bo‘lganlarga maxsus ishlov berish, tashish va ommaviy ko‘mish shaxobchalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish;

moddiy-texnika ta’minoti xizmati — evakuatsiya qilinadigan aholini eng zarur buyumlar va anjomlar (kiyim-bosh, poyabzal va shu kabilar) bilan ta’minlashni tashkil etish, tuzilmalarning shaxsiy tarkibini anjomlar va maxsus kiyim-bosh, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarini ularning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va buzilgan ishlab chiqarishni tiklash uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika vositalari va qurilish materiallari bilan ta’minlash;

tibbiy xizmat — aholi va tegishli tuzilmalarning shaxsiy tarkibi sog‘lig‘ini saqlashga, zararlanganlar va bemorlarga o‘z vaqtida tibbiy yordam berishga yo‘naltirilgan davolash-evakuatsiya, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

sanitariya jihatidan ishlov berish va zararsizlantirish xizmati — zararlanish joylaridan chiqqan odamlarga sanitariya jihatidan ishlov berish, ularning kiyim-boshlari va yakka tartibdagi himoyalanish vositalarini zararsizlantirishni tashkil etish va amalga oshirish;

aloqa, xabar berish va axborotlashtirish xizmati — boshqaruв organlarini barqaror va uzlucksiz aloqa bilan ta'minlash, aloqa va xabar berishning turg'un vositalariga foydalanish-texnik jihatdan xizmat ko'rsatishni tashkil etish va ularni nazorat qilish, shuningdek, ularni doimiy tayyor holatda saqlash, favqulodda vaziyatlar bo'yicha hududiy boshqarmalarining ko'rsatmalariga binoan xabar berish signallarini uzatish va qabul qilishni texnik jihatdan ta'minlash;

jamoat tartibini saqlash xizmati — shaharlar va boshqa aholi punktlarida, favqulodda vaziyatdan zararlanish joylarida, odamlar to'planadigan joylarda va transportda, aholini evakuatsiya qilish yo'naliшlarida jamoat tartibini saqlash;

qo'riqlash xizmati — favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan hududlarda davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, moddiy va tarixiy-madaniy boyliklarni, shuningdek, aholi evakuatsiya qilingan joylarni qo'riqlash;

yong'in xavfsizligi xizmati — shaharlar, boshqa aholi punktlari va iqtisodiyot obyektlarining yong'inga qarshi xavfsizlikni oshirishga yo'naltirilgan muhandislik-texnik, tashkiliy va yong'inning oldini olish tadbirdari o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, yong'in joylarida, tabiiy ofat hududlarida, shuningdek, yirik avariylar va halokatlar yuz berganda yong'inlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ularni o'chirish;

yonilg'i-moylash materiallari ta'minoti xizmati — favqulodda vaziyatlarni tugatishga jalb etiladigan avtotransport vositalari va boshqa texnik vositalarni yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlashni tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun turg'un va ko'chma avtomobil yonilg'isi quyish shaxobchalaridan foydalanish;

texnik xizmatlar — texnikani texnik jihatdan soz holatda saqlash va favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun jalb etiladigan avtotransport vositalarini texnik ta'mirlash, shikastlangan va nosoz texnikani qutqarish ishlari yo'naliшlarini va uchastkalaridan

shikastlangan mashinalarning yig‘ma punktlariga va ta’mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish, ta’mirlash korxonalari va tuzilmalarini ehtiyot qismlar va anjomlar bilan ta’minlash hamda ularning zaxirasini shakllantirish;

savdo va ovqatlanish xizmati — oziq-ovqat zaxiralarini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar zaxirasining maxsus omborlarida oziq-ovqat zaxirasi g‘amlanishini tashkil etish. Tuzilmalarni va aholini bir kecha-kunduzlik ta’minot normalari bo‘yicha oziq-ovqat, issiq ovqat bilan ta’minlash;

boshpanalar va bekinish joylari xizmati — tashkilotlarning muhofaza inshootlari fondini hisobga olish, muhofaza inshootlarining bekinadigan odamlarni qabul qilishga doimiy tayyorligini nazorat qilish, muhofaza inshootlari imoratlarining to‘g‘ri saqlanishi, muhofaza konstruksiyalari, qurilmalari va muhandislik-texnik asbob-uskunalarini saqlanishi, ulardan iqtisodiyot ehtiyojlari va aholiga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilishini tizimli nazorat qilish. Qurilishi tugallangan muhofaza inshootlarini qabul qilishda qatnashish. Muhofaza inshootlari fondini jamlash rejalarini ishlab chiqish va ularga tuzatish kiritish, boshpana va bekinish joylariga xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarini tashkil etish va tayyorlash;

energetika xizmati — favqulodda vaziyatlar sharoitlarida energiya obyektlarida barqaror ishlashni ta’minlash va ularagi avariyalarni bartaraf etish. Zararlanish joylarida qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirok etish;

favqulodda vaziyatlarda nobud bo‘lgan uy hayvonlari jasadlarini yig‘ib olish va utilizatsiya qilish xizmati (tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari hamda “Toza hudud” DUKlari negizida) tashkil etiladi.

Zarurat bo‘lganda va tegishli kuchlar mavjud bo‘lganda FVDTning boshqa xizmatlari: avariya-texnik, radiatsiyaviy va kimyoviy himoya, niqoblanish, axborot bilan ta’minlash xizmatlari va shu kabilar ham tashkil etiladi.

### **Nazorat savollari**

1. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari?
2. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi?
3. FVDTning faoliyat ko‘rsatishi tartibi?
4. FVDT xizmatlar tarkibi?

### **3. BOB. FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASI TADBIRLARINI REJALASHTIRISH**

#### **§3.1. Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi va "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlarini amalda qo'llanilishi va fuqaro muhofazasining asosiy vazifalarini bajarilishini ta'minlash, fuqaro muhofazasi rejasi bilan uzviy bog'liqdir.

**Fuqaro muhofazasi rejasi** deyilganda - qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradigan muhofaza tadbirlarining majmuasi tushuniladi. Bunday tadbirlarga: favqulodda vaziyatlarni oldini olish, aholini va hududlarni muhofaza qilish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish, qutqaruv va tiklov ishlarini o'tkazishga kuch va vositalarni tayyorlash hamda ko'rildigan zarar va talofotlarning miqyosini kamaytirish yuzasidan bajariladigan vazifalari kiradi.

Fuqaro muhofazasi rejasi umum davlat miqyosda ishlab chiqiladi. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari oldindan tuzilib, ular respublika miqyosidan tortib, to obyekt darajasigacha alohida tuziladi. Rejalashtirish har qanday FV lar uchun (tinchlik yoki harbiy davr) alohida ishlab chiqiladi.

Favqulodda vaziyatda fuqaro muhofazasi rejalarini respublika miqyosida Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi tomonidan, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqarish hamda ijtimoiy obyektlarni muhofaza qilish rejalarini esa korxona, tashkilot va muassasalarining boshliqlari tomonidan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiyligi rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Ayni chog'da O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri mamlakat FM boshlig'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha favqulodda vaziyatda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyatini rejalashtirish hamda FMni boshqarish Favqulodda Vaziyatlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar muhofazasi to‘g‘risida” gi qonunning 7-moddasida Respublika Vazirlar Mahkamasining FM sohasidagi quyidagi vakolatlari belgilab qo‘yilgan:

- fuqaro muhofazasi sohasidagi yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejasini tasdiqlaydi;
- fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini, ularning moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti tartibini tasdiqlaydi;
- tinchlik davrida va urush davrida davlat iqtisodiyoti faoliyat ko‘rsatishi barqarorligini ta’minlash tadbirlari ishlab chiqilishiga va o‘tkazilishiga rahbarlik qiladi;
- hududlarni ularda yashayotgan aholi soniga va davlat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynovchi yoki aholi xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashkilotlar mavjudligiga ko‘ra fuqaro muhofazasi bo‘yicha guruhlarga, shuningdek, tashkilotlarni davlat iqtisodiyotidagi roli yoki aholi xavfsizligiga ta’siriga ko‘ra fuqaro muhofazasi bo‘yicha toifalarga kiritish tartibini belgilaydi;
- fuqaro muhofazasi tizimini urush davri sharoitiga o‘tkazish, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- himoya inshootlarini va fuqaro muhofazasi boshqa obyektlarini barpo etish tartibini, shuningdek yakka muhofazalanish vositalari, moddiy-texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil vositalar zaxiralarini to‘plash, saqlash va ulardan foydalanish shartlarini belgilaydi;
- davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**Fuqaro muhofazasi rejasiga qo‘yiladigan talablar.** Fuqaro muhofazasining tadbirlari hududlarning iqtisodiy, tabiiy xususiyatlarini, geografik joylashgan o‘rni hamda FV xavfi qanchalik aniqligini hisobga olgan holda, oldindan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

FM ning rejalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 1) To‘liq, mukammal ishlangan bo‘lishi;
- 2) Mazmuni qisqa va lo‘nda bo‘lishi;

- 3) Vaqt har tomonlama qat'iy hisobga olinishi;
- 4) Aniq va real bajariladigan bo'lishi;
- 5) Iqtisodiy tomondan maqbul bo'lishi kerak.

**Rejaning mukammal to'liq ishlanganligi** - aholi va moddiy boyliklarni muhofaza qilinishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasini ishlab chiqilishini va uning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi. Shuning uchun rejada bajariladigan aniq tadbirlar, ularning mazmuni, shakli, muddatlari va boshqaruvchilari ko'rsatiladi.

**Reja mazmuni qisqa bo'lishligi** - rejadagi tadbirlardan foydalanish oson bo'lishi uchun qilinadi. Buning uchun hamma bajariladigan tadbirlar grafik-sxemalar tarzda amalga oshiriladi. Bunda sxema-xaritada obyektlar, bajariladigan vazifalar va ularning hajmi shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Tushuntirishlar, jadvallar, sxemalar, grafiklar, sur'atli belgilar tushuntirish xatlari orqali beriladi.

**Vaqtni har tomonlama qat'iy hisobga olinishi** - rejalashtirilgan har bir tadbirni to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

**Reja aniq va real bo'lishi** - rejaning bajarilish darajasini xarakterlaydi. Buning uchun falokat va halokat ma'lumotlari to'liq o'rganiladi. Jumladan: vayronaliklar, talofot darajasi, moddiy zararlar imqyosi oldindan bashoratlanadi, uning oqibatlarini yo'qotish uchun kerakli FMning kuch va vositalari hisoblab chiqiladi.

**Iqtisodiy maqbullik** - har qanday FVda (tinchlik davrda ham, harbiy davrda ham) muhofazalanish inshootlaridan foydalanishni hisobga olishdir.

FM rejasiga 4 ta bosqichli ishlardan tashkil topadi:

- 1) birinchi bosqichda rejani tuzishda ishtirok etuvchilarning tarkibi, ularning malakasi aniqlanadi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar, hujjatlar o'rganiladi, to'plangan ma'lumotlar umumlashtiriladi va kalendar reja ishlab chiqiladi;
- 2) ikkinchi bosqichda reja amalda ishlab chiqiladi va uning hujjatlari tuziladi;
- 3) uchinchi bosqichda bajariladigan hamma tadbirlar bir-biriga moslashtiriladi, zarurat bo'lsa tuzatiladi va tasdiqlanadi;
- 4) to'rtinchi bosqichda hamma rejalashtirilgan tadbirlar, tasdiqlangandan keyin (tasdiqlangan reja) tegishli ijrochilarga yetkaziladi.

FM rejasini ishlab chiqish bevosita FM boshlig'iغا yuklatiladi, reja tadbirlarini

ishlab chiqishda FM bo‘yicha shtatli xodimlar ishlari bilan shug‘unlanuvchi hay’at, FM tizimlari, evakuatsiya komissiyasi va iqtisodiyot tarmoqlarini yetakchi mutaxassislari ishtirok etadilar.

**Fuqaro muhofazasi rejasini ishlab chiqishda kerakli ma’lumotlar.** FM rejasini va uning ilovalarini ishlab chiqish uchun FM ning yuqori tashkilotlari va bo‘limlaridan quyidagi ma’lumotlar olinishi kerak:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining fuqaro muhofazasiga oid qaror va ko‘rsatmalari;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining nizomlari, ko‘rsatmalari va tavsiyalari;
- 3) Iqtisoditot tarmog’i yuqori organlarining ko‘rsatmalari va tavsiyalari;
- 4) Fuqaro muhofazasi tizimlarini, undagi odamlar soni, hamda aholini va moddiy boyliklarni muhofaza qilish imkoniyatlari xususidagi ma’lumotlar;
- 5) Boshpanalarning soni, ularning odamlarni qabul qilish imkoniyatlari, hamda boshqa boshpanalar qurish imkoniyatlari;
- 6) Obyektning xususiyati, uning muhofaza va iqtisodiy imkoniyati;
- 7) Toifalangan shaharlarga FV da yordam berish imkoniyatlari;
- 8) Toifalangan shahar iqtisodiyot tarmog’larining ro‘yxatlari: a) FV da o‘z ishini davom ettiradigan obyektlar;  
b) evakuatsiya qilinadigan obyektlar.
- 9) Yuqori xavfli hamda tasarrufida kimyoviy, portlash-yong‘in xavfi bor obyektlar, KTZM va zaharli moddalar tashiladigan temir yo‘l magistrallari, aeroportlar va boshqa obyektlar ro‘yxati.
- 10) Xavfli hududlardagi aholi punktlari haqidagi ma’lumotlar.
- 11) FM vazifalarini bajarilishiga ta’sir etadigan mahalliy, xususiyatlari ma’lumotlar (hududning geografik o‘rni va tabiiy iqlim sharoiti);
- 12) Favqulodda vaziyatlardan chiqariladigan xulosalar.

FM rejasini tuzishda Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tarmoq va korxonalar o‘z ma’lumotlari bilan bir-birlarini ta’minlashlari kerak. Bu xususda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 apreldagi 143-son

qarorida ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat geologiya qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, "O'zbekneftgaz" AJ, "O'zkimyosanoat" AJ va "O'zgidromet" markazi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini hududlar, obyektlardagi tabiiy-iqlim, ekologik, epidemiologik, epizootik, geologik va texnologik vaziyat hamda ularning yaqin davrda va istiqbolda o'zgarishi ehtimollari to'g'risidagi axborot bilan muntazam ravishda, favqulodda vaziyatlarda ma'lumotlarni o'z vaqtida, muntazam ravishda ta'minlashlari lozim deb takidlangan.

FM rejalarini ishlab chiqishda va bajarishda FM kuchlariga katta e'tibor beriladi. Masalan, avariya-qutqarish ishlarini rejashtirishda quyidagi tartibdagi vazifalar belgilanadi:

- a) shikastlangan o'choqlarni va ofat joylarini razvedka qilish, qidiruv-qutqaruv ishlari kompleksini o'tkazish;
- b) aholini, hayvonot va o'simlik dunyosini va iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish tadbirdari;
- v) zararlangan aholini hayot faoliyatini tashkil qilish, halok bo'lganlarni hisobga olish va ko'mish, yaradorlarni kasalxonaga yotqizish;
- g) karantin-observatsiya, sanitari-gigiyenik, epidemiyaga qarshi tadbirdar;
- d) mahalliy organlar bilan hamkorlik qilish.

Yana bir misol. Aholini, moddiy-madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish tadbirdarni rejashtirishda:

- shikastlangan hududlardan transport yoki piyoda olib chiqiladigan aholining sonini;
- zarur bo'ladigan transport sonini;
- odamlarning transportda olib chiqish tartibi;
- qimmatbaho uskunalar, moddiy boyliklar, oziq-ovqatlarni olib chiqish tartibi;

- xom-ashyolar, o‘g‘itlar va boshqa kerakli moddiy resurslarni xavfli hududlardan olib chiqish tartiblari;
- qishloq xo‘jalik hayvonlarini xavfli hududdan xavfsiz hududga uzoqlashtirish tartib qoidalari va boshqa vazifalar belgilanadi.

Fuqaro muhofazasini boshqa tadbirlarini rejalashtirishda ham muayyan tartibdagi vazifalar belgilanadi. Albatta, bularda har bir qilinadigan amal tadbirning mohiyatidan, xususiyatidan va imkoniyatlardan kelib chiqib, reja tadbirlari belgilanadi. Har bir holat uchun tuzilgan FM rejalar FVV ga taqdim etilishi zarur. Mabodo tuzilgan rejalarga o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘lsa, yilning birinchi choragi davomida kiritiladi. Reja ikki nusxada tuzilib, uning bir nusxasi obyektning boshqarish punktida, ikkinchisi yuqori tashkilotlarda saqlanadi.

### **§3.2. Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi rejasini tuzish**

Tinchlik davrida kuzatiladigan FVni bartaraf etish rejası - FV yuz berganda fuqarolarni muhofaza qilish, atrof-muhitga yetkazilgan moddiy zararlar miqdorini kamaytirish, shikastlangan hududlarni halqaga olish va bu hududlarda xavfli omillar ta’sirini kamaytirishga qaratilgan QBTI ishlari majmuasidan tarkib topadi.

Bu ishlarni bajarishda FVDTning FVni tugatuvchi kuch va vositalaridan foydalilanadi. Bu kuch va vositalar FVV bevosita bo‘ysunuvchi tezkor FM qo‘sishlaridan, Respublika ixtisoslashgan tizimlaridan, vazirlik va idoralarning harbiylashgan va professional ixtisoslashgan avariyanı tiklash tizimlaridan, mahalliy hokimiyat organlarining tizimlaridan, obyektlarning ixtisoslashgan va harbiylashmagan umumiy va maxsus tizimlaridan tashkil topadi.

Reja ikki bo‘limdan va ilovadan iborat bo‘ladi:

Birinchi bo‘limda - ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofat ro‘y berganda muayyan hududda yuzaga keladigan FV ga baho beriladi.

Bunda quyidagilar yoritiladi:

1) Radiatsiyaviy, kimyoviy va yong‘in xavfi bor shaharlar va aholi punktlarini,

KTZM, portlash xavfi bor bo‘lgan va biologik vositalari bo‘lgan obyektlarni, odamga kuchli ta’sir etuvchi moddalar tashiydigan transport vositalarining temiryo‘l uzellarini, neft-gaz konlari, neft quvurlari, gidrouzellar va boshqa obyektlarning ro‘yxati aniq keltiriladi. Talofot hududidagi, shuningdek qo‘snni hududlardagi epidemiologik, epizootik, elifitotik va seysmik aktiv hududlar, tabiiy ofatlar bo‘ladigan joylar, sanoat va qishloq xo‘jaligiga yetishi mumkin bo‘lgan zararlar hamda shu hududlardagi aholi soni va ko‘riladigan taxminiy talofotlar miqdori ko‘rsatiladi.

2) Yirik ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish yuzasidan aholini, qishloq xo‘jaligi hayvonlarini va o‘simliklarini, moddiy boyliklarni muhofaza qilish yuzasidan qilinadigan tadbirlar ko‘rsatiladi.

3) Yuqoridagi falokat va halokatlar ro‘y berganda shikastlangan hududlarda (xususiyatiga ko‘ra) qutqaruв va birlamchi tiklov tadbirlari ko‘rsatiladi.

Ro‘y bergen favqulodda vaziyat holatidan kelib chiqib, quyidagi tadbirlar rejalashtiriladi:

- boshqaruv, xabarlash va aloqani tashkil etish;
- razvedkani, kuzatishni va nazoratni tashkil etish;
- FM kuchlarini tashkil etish;
- moddiy va moliyaviy ta’mintoni tashkil etish. FVni tugatishni tashkil etish.

Rejaning ikkinchi bo‘limi ikki qismdan tashkil topib, bu bo‘limda ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar sodir bo‘lishi xavfida va sodir bo‘lganda quyidagi tadbirlar rejalashtiriladi:

1) FV sodir bo‘lish xavfida boshqaruv organlarini, ishchilar va xizmatchilarni va aholini ogohlantirish tartibi.

2) FVni oldini olish yoki ularni ta’sirini kamaytirish tadbirlari, amalgalashish muddatlari va tartibi, jalb etiladigan kuch va vositalar.

3) FM kuchlarini, muhofaza inshootlarini shay holatiga keltirish.

4) Shaxsiy muhofaza vositalarini ishchi va xizmatchilarga berish.

5) Odamlarni evakuatsiya qilish va ko‘chirish uchun avtotransportlarni va xavfsiz hududni tayyor holga keltirish.

6) Aholini tibbiy va epidemiyaga qarshi muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish.

7) Yong‘indan saqlash tadbirlarini o‘tqazish va ishlab chiqarishni avariyasiz ishslashga tayyorlash.

Tuzilgan rejaga quyidagilar ilova qilinadi:

1) FM boshlig‘ining FV ni tugatish bo‘yicha qarori.

2) Favqulodda vaziyatlarda harakatlanuvchi tizimlarni falokat va halokatda, xamda tabiiy ofatlar xavfi bo‘lganda yoki sodir bo‘lganda bajariladigan tadbirlarning kalendor rejasi.

3) Favqulodda vaziyatlarda harakatlanuvchi tizimlarning falokat va halokatda hamda tabiiy ofatlar xavfi tug‘ilganda yoki sodir bo‘lganda tadbirlarni boshqaruvchi kuch va vositalarni hisobi (har bir tadbir xususida umumiylar ma’lumotlar keltiriladi).

4) Fojea, halokatlar va tabiiy ofatlar xavfi tug‘ilganda boshqaruvni, xabar berishni, va aloqani tashkil qilinishi (sxema tarzida).

### **Nazorat savollari**

1. Fuqaro muhofazasi rejasi nima maqsadda tuziladi?
2. Fuqoro muhofazasi rejalarini qaysi tashkilotlar tasdiqlaydi?
3. Fuqaro muhofazasi rejalariga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Rejani tuzish bosqichlari qanday?
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 apreldagi 143-sон qarorida nimalar ta’kidlangan?
6. Nima uchun rejaga tuzatishlar kiritiladi?

## **4. BOB. FAVQULODDA VAZIYATLAR MONITORINGI VA PROGNOZLASHNI OLIB BORNISH ASOSLARI**

### **§4.1. Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilishning huquqiy asoslari**

Mamlakatimiz iqtisodiyotining salmoqli ravishda rivojlanishida sanoat korxonalarini xususan, xavfli iqtisodiy obyektlarining ishga tushirilishi muhim rol o‘ynamoqda. Hozirgi kunda respublikamizda 40 mingdan ziyod xavfli obyektlar faoliyat yuritmoqda. Bunday xavfli obyektlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga sanoat xavfsizligi talablarining buzilishi natijasida baxtsiz hodisalar sonining yildan-yilga ortib borishi tendensiyasi kuzatilmoxda. Respublikamiz hududidagi xavfli obyektlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnogen xavflar, favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati respublikamizdagi iqtisodiyot obyektlarida ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarda insonlar hayotini saqlash, favqulodda vaziyat ko‘laming kengayib ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada mamlakatimizda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi manbalarni monitoring qilish, prognozlashtirish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilishga oid bir qator meyoriy-huquqiy hujjalarni, xususan, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar haqida”gi 271 sonli, “Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli, Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli, “O‘zbekiston

Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi”gi 515-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Hozirgi kunda mazkur sohada oldimizda turgan dolzARB muammolarni hal qilish hamda ustuvor vazifalarni amalga oshirishdan kelib chiqib, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagI PF-4947 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishidagi “Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish” bandidan kelib chiqqan holda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfini monitoring va prognoz qilishni ta’minalash sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5066 sonli Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3029 sonli, “Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choralar to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1027-sonli, “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 525-sonli, “Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o‘tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 784-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar haqida mavzuimiz doirasida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

O‘zbekiston Respublikasi “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (2006 yil 28 sentabr) respublikamizda faoliyat yuritayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarining barqarorligini ta’minalash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnogen xavflarni bartaraf qilish hamda sanoat xavfsizligini

ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonun asosida 2008 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi 271-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligini ta'minlash, avariya va jarohat yetkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligini oshirish, avariylar kelib chiqishi sabablarini belgilab beradigan qonuniyatlar va omillarni tadqiq etish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarini hisobga olish va identifikatsiyalash, sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash hamda "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonunga muvofiq boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan [20].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyunda "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sonli Farmoni qabul qilindi [10]. Mazkur Farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida, 2017 yil 19 iyulda Vazirlar Mahkamasinining "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 525-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu Farmon hamda qarorda mamlakatimizda aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi xavfining chuqur tahlilini va aniqlashni nazarda tutuvchi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimini takomillashtirish;

- respublika hududlarini seysmik xavflar, texnogen avariya va halokatlar manbalari bo'yicha rayonlashtirish, fuqarolarning hayoti va sog'ligi, mol-mulkiga xavflarni barvaqt profilaktika qilish va ularning oldini olish;
- hayotiy faoliyatni ta'minlovchi obyektlar va tizimlarning barqaror ishlashini, tahdidlar va ularning kelib chiqish omillarini oldindan aniqlash, bartaraf etish borasida aniq choralar ko'rish, aholining ushbu sohada ma'lumotlarga ega bo'lish darajasini oshirishni ta'minlash;
- favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish.

O'zbekiston Respublikasidagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va ularning yuzaga kelishini oldindan aniqlab, ularni bartaraf etish borasila tegishli tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligiga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfi va omillarini oldindan aniqlash, ular vujudga kelishini barvaqt profilaktika qilish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfini kompleks monitoring va prognoz qilishni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini hamda O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasini rivojlantirish va boshqaruvini ta'minlash borasida vazifalar belgilab berildi. Bugungi kunda vazirlik tizimida bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga mazkur farmonda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida texnogen xavflarning oldini olish, avariylar xavfini kamaytirish hamda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish borasida "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish komissiyalari" tashkil etildi. Ushbu komissiya favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfi yuqori bo'lgan obyektlarning mustahkamligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish kabi ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tabiiy, texnogen va

ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (2017 yil 28 dekabr) mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida texnogen xavflar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar monitoringini olib borish, ularni prognozlashtirish va axborot almashinish borasida Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) va uning funksional quyi tizimi faoliyat olib boradi. Shu bilan birga xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishda FVDT xizmatlarining kuch va vositalari jalb etilishi belgilangan.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) ga kiruvchi tashkilotlarning xizmat va tuzilmalari texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishda monitoring qilish va prognozlashtirish borasida quyidagi tadbirlarni amalga oshiradilar:

- xavfli ishlab chiqarish obyektlarida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan texnogen xavflar, favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish va prognozlashtirish bo‘yicha qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta’minlash;
- texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfini keltirib chiqaruvchi manbalarni oldindan aniqlash;
- texnogen xavf manbalarini kuzatish, nazorat qilish;
- favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash ma’lumotlari bo‘yicha axborot almashinuvini tashkil etish;
- sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, shuningdek, ularning oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tadbirlar asosida faoliyat olib bormoqdalar.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri  
Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish hududiy komissiyasining  
namunaviy tarkibi**

	<b>Komissiya raisi:</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig‘i Hokim – viloyat (Toshkent shahar) fuqaro muhofazasi boshlig‘i
	<b>Komissiya raisining o‘rinbosari:</b>
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi (viloyatlar, Toshkent shahar) Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i
3.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
4.	Okrug qo‘mondoni (tegishli region)
	<b>Komissiya a’zolari:</b>
5.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘lijni saqlash vaziri viloyat Sog‘lijni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Toshkent shahar sog‘lijni saqlash bosh boshqarmasi boshlig‘i
6.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vaziri viloyat Qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i
7.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vaziri viloyat (Toshkent shahar) Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
8.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot vaziri viloyat (Toshkent shahar) Iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmasi boshlig‘i
9.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vaziri viloyat Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i Toshkent shahar Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bosh boshqarmasi boshlig‘i
10.	Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarni rivojlantirish vazirligi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
11.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuroriviloyat (Toshkent shahar) prokurori
12.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi raisi viloyat (Toshkent sh.) Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i
13.	Hududiy Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish stansiyasi boshlig‘i*
14.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi boshlig‘i

15.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisi viloyat (Toshkent shahar) Arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i
16.	Hududiy elektr ta’minoti korxonasi boshlig‘i
17.	Hududiy gaz ta’minoti korxonasi boshlig‘i
18.	“Neftbaza” UK boshlig‘i
19.	Mintaqaviy temir yo‘l bog‘lamasi boshlig‘i
20.	“O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK aeroporti direktori
21.	Avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy boshqarmasi boshlig‘i

#### **§4.2. Monitoring tizimining turlari**

**Monitoring** (monitoring - kuzatish, nazorat qilish) - ma’lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Monitoring kundalik hayotning barcha sohalarida qo‘llanadi. Macalan, ekologiya sohasida yer foni holati bo‘yicha kuzatishlar tizimi yer monitoringi deb ataladi. Bunday monitoring yerdagi o‘zgarishlarnio‘z vaqtida aniqlash, ularni baholash, salbiy jarayonlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadini ko‘zlaydi [32].

**Monitoring subyekti** – alohida belgilangan hududda sodir bo‘layotgan tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa hodisa va jarayonlarning kuzatilishi, tahlil qilinishi lozim bo‘lgan harakati.

**Monitoring obyekti** - chegara doirasida aniq dastur bo‘yicha atrof muhitning holatini nazorat qilish maqsadida doimiy ravishda kuzatuv ishlari olib boriladigan, unda kechayotgan jarayonlarni, ulardagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash va proqnozlash uchun tahlil qilish va baholash amalga oshiriladigan tabiiy, texnogen obyekt yoki uning bir qismi.

**Monitoringning asosiy maqsadi** tabiiy muhitning inson faoliyati ta’sirida o‘zgarishini kuzatish, olingan ma’lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv apparatini ishga solishdir. Monitoring asosida atmosfera havosi, suv havzalari, yerosti suvlari, tuproq, o‘simlik qoplaming turli chiqindilar, zaharli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Kuzatish ishlari insonning ma’lum

ekologik sharoitda yashashining buzilishiga qaratiladi. Atrof-muhitning o‘zgarish darajasi hali ifloslanmagan tabiiy sharoit holatiga nisbatan olinadi.

### **Monitoring tizimi.**

Monitoring tushunchasi tizim sifatida atrof muhitdagi jarayonlar va hodisalarini doimiy kuzatish orqali yuzaga keladigan tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar xavfini oldindan aniqlash hamda prognoz qilish uchun qo‘llaniladi [37]. Keng ma’noda esa atrof muhit holatini baholash, unda yuz beradigan jarayonlarni tahlil qilish va “normal vertikal” dan chetga chiqishni o‘z vaqtida aniqlash uchun doimiy ravishda kuzatuv va nazorat qilish tizimiga aytildi.

Shuning uchun ham sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar ko‘lamiga qarab, monitoring tizimini quyidagilarga ajratish mumkin: global, mintaqaviy, impakt va bazaviylarga bo‘linadi.


**Global monitoring** – jahon hamjamiyati darajasida biosferadagi umumiy jarayon va hodisalarini kuzatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar va tahidlarni baholash va prognozlashtirishga aytildi.

**Mintaqaviy monitoring** - bu jarayon va hodisalar o‘z tabiatini yoki antropogen ta’siriga qarab ma’lum hududlarda sodir bo‘lgan jarayonlar va hodisalarini kuzatib borish, ma’lum bir hudud aholisi uchun mumkin bo‘lgan tahidlarni baholash va prognozlash.

**Ta’sirni (impakt) monitoring qilish** - xavfli hududlarda ifoslantiruvchi moddalar manbalariga bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish, ehtimoliy tahidlarning yuzaga kelishini baholash va prognoz qilish.


**(Bazaviy) asosiy monitoring** - antropogen ta’sirlardan ta’sirlanmagan tabiiy tizimlarning holatini kuzatish, ularni baholash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni prognozlash [35]. (4.1-rasm)

## **Monitoring tizimi tahlili**



4.1- rasm. Monitoring tizimi tahlili

Bugungi kunda atrof-muhit muammolari yer sayyorasi uchun eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda va butun dunyoda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning sonining o‘sib borishi insonlari hayotiga xavf solish bilan birga ularning oqibatida ko‘rilgan zararlar miqdori ham ortib bormoqda. Buni nafaqat mamlakatimiz miqqosida, balki dunyo mamlakatlaridagi xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi sodir bo‘lgan texnogen favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari natijasidagi zararlarni ko‘rib chiqsak, bunga birgina misol Yaponiyada 2011 yil 11 aprelda sodir bo‘lgan zilzila natijasida Fukusima-1 atom elektr stansiyasida portlash sodir bo‘ldi. Ushbu portlash natijasidagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish va keltirilgan moddiy zararlar miqdori Yaponiya iqtisodiyot vazirligining 2013 yildagi hisob-kitobi bo‘yicha 97,9 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, avariya oqibatlarini bartaraf qilish sohasida keltirilgan iqtisodiy zararlar ko‘rsatgichi 2016 yilda 190 milliard dollargacha yetganligini ko‘rish mumkin.



4.2-rasm. Monitoring turlari

Yuqorida keltirilgan sxemada xavflarni monitoring qilishda barcha turlaridan foydalilanildi (4.2-rasm).

Xavfli iqtisodiyot obektlarida xavflarni monitoring qilishda bugungi kunda zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalardan foydalilmoxda. Bunda ishlab chiqarish korxonalari inson uchun zararli bo‘lgan omillarni kuzatish uchun maxsus asbob-uskunalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalilanadi.

Monitoring qilish uchun tanlangan texnologiyalar toifalangan obekt faoliyatiga mos bo‘lishi shart. Xavfli iqtisodiyot obektlarida ovoz, vibrasiya, nurlanish, yorug‘lik bilan ta’minlanganligi darajasi, havodagi zararli gazlar va changlar, elektr-magnit maydonlar kabilarni monitoringini ta’minalash kerak. Buning uchun shu va shu kabi zararli omillarni doimiy kuzatib boradigan asbob-uskunalar bilan jihozlash kerak.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda dunyoning barcha davlatlarida iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida xavfli iqtisodiyot obyektlarining soni ortib bormoqda. Bu borada har bir mamlakatda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish borasida mavjud meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida davlat organlari tomonidan tegishli tadbirlar amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqqan holda xavfli iqtisodiyot obyektlarida texnogen xavflar va favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish, ularni o‘z vaqtida aniqlash bo‘yicha prognoz ma’lumotlari ishlab chiqilib xavflar o‘rganiladi hamda sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar bartaraf qilish bo‘yicha oldindan ishlab chiqilgan rejalar asosida bartaraf qilinishi belgilangan.

### **§4.3. Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilishning horijiy mamlakatlar tajribasi**

Bugungi kunda jahonda barcha sohalarida ulkan ilm-fan yutuqlarining qo‘lga kiritilishi natijasida sanoatning, xususan, xavfli ishlab chiqarish obyektlarining jadallik bilan rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida yetakchi rol o‘ynayotganligi bilan yer sayyorasi va insoniyat uchun eng jiddiy muammolarni tug‘dirmoqda. Bularga xavfli ishlab chiqarish obyektlarining bir tomondanatrof-muhitga keltirayotgan ekologik zarar yetkazayotganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan mazkur obyektlarda doimiy saqlanib turadigan potensial xavflar hamda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan texnogen xalokatlar muammolarini aytishimiz mumkin. Bunday muammolarni o‘rganish jarayonida quyidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak,

**Rossiya Federatsiyasi.** Rossiya Federatsiyasi hududida har yili taxminan 20 million tonna kimyoviy moddalar havoga chiqariladi. Shuningdek Rossiyaga g‘arb shamollarining tarqalishi sababli g‘arbiy qo‘shni mamlakatlar tomonidan atmosferaga chiqariladigan zaharli moddalar ta’sirida 8-10 barobar ko‘proq atmosfera ifloslanishini oladi. Bugungi kunda dunyo okeaniga 20 milliard tonna axlat tashlab yuboriladi va yiliga 10 million tonnadan ziyod neft quyiladi. Shu bilan birga butun dunyoda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo‘layotgan favqulodda vaziyatlarning soni o‘sib bormoqdava ularning oqibatida ko‘rilgan zararlar miqdori ortib bormoqda. Bugungi kunda Rossiyada 2,5 mingdan ortiq kimyoviy xavfli obyektlar, 1,5 mingdan ortiq yadroviy va radiatsiyaviy xavfli obyektlar, 8 mingdan ortiq yong‘in va portlovchi moddalar, 30 mingdan ortiq gidrotexnika inshootlari mavjud. Ushbu obyektlar mamlakat iqtisodiyoti, mudofaa tizimi va ijtimoiy sohalarning rivojlanishida katta rol o‘ynaydi [68]. Ammo ayni payt mazkur obyektlarda baxtsiz hodisalar yuz beradigan bo‘lsa, odamlarning sog‘lig‘i va hayotiga jiddiy xavf tug‘diradi. Rossiya fanlar akademiyasining yetakchi mutaxassislari tomonidan tabiiy va texnogen xavflarni tahlil qilish, xavfsizlik masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sodir bo‘layotgan avariylar va halokatlar

natijasida milliy iqtisodiyotiga keltirilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita zararlar Rossiyaning (YAIM) yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3-5 % gachani tashkil qilmoqda. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida monitoring olib borishdan asosiy maqsad yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kuzatib borish hamda zonada xavf yuzaga kelishining 1-bosqichidayoq uni blokirovkalash va profilaktik chora-tadbirlar jarayonini ta’minlovchi tadbirlarni o‘tkazishdan iborat.

Rossiya Federatsiyasida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni xususan, potensial xavfli obyektlarda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo‘lganda bartaraf etish sohasida 1994 yil 21 dekabrda tasdiqlangan “Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida” gi Qonuni,Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2000 yil 23 martdagi “Favqulodda vaziyatlarni kuzatish va prognozlashtirish tizimini yaratish to‘g‘risida” gi 86- sonli Farmoyishi, Federal xukumatning 2003 yil 30 dekabrdagi “Favqulodda vaziyatlarda oldini olish va ularni bartaraf etish yagona Davlat tizimi (RSCHS) to‘g‘risida” gi 794-sonli Qarori,Federal xukumatning 2013 yil 8 noyabrdagi “Favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va ularni bartaraf etish yagona Davlat tizimining kuch va vositalari to‘g‘risida” gi 1007-sonli Qarori bilan tartibga solingan. “Favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va ularni bartaraf etish yagona Davlat tizimining kuch va vositalari to‘g‘risida” gi 1007-sonli Qarorlari qabul qilingan. Favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishi va uning ko‘lamni kengayib ketishining xavfini kamaytirishda monitoring qilish va prognozlashtirish ish samaradorligida hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiya Federatsiyasida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish tadbirlari Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazida olib boriladi. Favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish yagona Davlat tizimi (Yedinoy gosudarstvennoy sistemi preduprejdeniya i likvidatsii chrezvichaynix situatsiy (RSCHS i GO)) ning yuqori kundalik boshqaruvin organlarining tarkibiy qismi hisoblanib, u hududiy bo‘lingan

kuch va vositalarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar ro'y bergan vaqtida kompleks qo'llash imkonini beradi.

Kundalik boshqaruv organlari quyidagi tizim tartibida faoliyatni amalga oshiradi:

- **Federal darajada** - Favqulodda vaziyatlar milliy boshqaruv markazi (NSUKS) bo'lib aholini muhofaza qilish sohasida barcha faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilot bo'lib, axborot markazlari, federal ijro etuvchi organlarning dispatcherlik xizmatlari va yagona tizimning funksional quiyi tizimlari vakolatli organlari bilan faoliyat olib boradi.

- **mintaqalararo darajada** – hududiy favqulodda vaziyatlar markazlari.

- **mintaqaviy darajada** - Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligi bosh boshqarmalari, axborot markazlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ijroiya organlari va hududiy federal ijroiya hokimiyat organlari dispatcherlik xizmatlari;

- **munitsipal darajada** - Favqulodda vaziyatlarning oldini va bartaraf etish yagona Davlat tizimi (RSCHS) ning munitsipal Yagona navbatchi-dispatcherlik xizmatlari (YEDDS);

- **obyekt darajasida** - tashkilotlarning (obyektlarning) navbatchi-dispatcherlik xizmatlari, Favqulodda vaziyatlar va fuqaro mudofaasi bo'limlari.

**Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirishning tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- favqulodda vaziyatlar va ularning manbalarini oldindan aniqlash favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish xavfini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarni tashkil etish;

- sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatning xususiyati va tarqalishi ko'lagini aniqlash;

- favqulodda vaziyatlar xavfini boshqarish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, jumladan ularning oldini olish, salbiy oqibatlarni kamaytirish va tugatish.

**Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirishning tizimi yuqoridaq vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

- favqulodda vaziyatlar manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash va tahlil qilish;
- favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini monitoring qilish va prognozlashtirish;
- atrof-muhit obyektlari, oziq-ovqat, ichimlik suvi va boshqalarda radioaktiv, kimyoviy, biologik ifloslanish (zararlanish) ni aniqlash va o‘rganish maqsadida laboratoriya nazoratini o‘tkazish;
- favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishi, rivojlanishi va xavflarni baholash uchun ssenariylar ishlab chiqish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish yagona Davlat tizimi (RSCHS) boshqaruva organlarini axborot bilan ta’minlash;
- ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini yaratish, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish va xavfni baholash (xaritalar, dasturlar va h.k.).

### **Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish tizimining kuchlar va vositalariga quyidagilar kiradi:**

- **Federal darajada:** Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining “Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish Umumrossiya Milliy Markazi” (Antistixiya markazi) (VSMP, Sentr «Antistixiya») davlat korxonasi, “Umumrossiya favqulodda vaziyatlar va fuqaro mudofaasi muammolari ilmiy-tadqiqot instituti federaldavlat muassasasi («Vserossiyskiy nauchno-issledovatel’skiy institut po problemam grajdanskoy oboroni i chrezvichaynix situatsiy MCHS Rossii» (FGU VNII GOCHS));

- **mintaqalararo darajada:** Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining mintaqaviy monitoring qilish va prognozlash markazlari markazlari. **Mas:** Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining Shimoliy-G‘arbiy federal okrugi mintaqaviy monitoring qilish va prognozlashtirish markazi (SUKS SZRS MCHS Rossii). Mazkur markaz (shaxsiy tarkibi 228 kishidan: 21 ta harbiy xizmatchi, 207 nafar xizmatchidan iborat) Sankt-Peterburg shahrida joylashgan bo‘lib, uning tarkibiga 11ta hududiy FVBM (SUKS)ning bosh boshqarmalari kiradi. Ularga: Kareliya Respublikasi, Komi Respublikasi, Arxangelsk, Vologda, Kaliningrad, Leningrad,

Murmansk, Novgorod, Pskov oblastlari, Sankt-Peterburg federal shahri va Nenets avtonom okrugi kiradi;

- **mintaqaviy darajada:** Rossiya Federatsiyasi hududiy subyektlarining mintaqaviy monitoring qilish va prognozlashtirish markazlari, Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining Favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazining monitoring qilish va prognozlashtirish bo‘limi;

- **hududiy darajada:** Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy subyektlari favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi tezkor navbatchilik smenalari va hududiy favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish markazlari.

Shundan kelib chiqqan holda, Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish tizimi “Favqulodda vaziyatlarning oldini va bartaraf etish yagona Davlat tizimi (RSCHS) tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning tarkibiy tuzilmalaridan tashkil topgan. Mazkur boshqaruva tuzilmalarning tuzilishiga ko‘ra uchta darjasи mavjud bo‘lib, ular: federal, mintaqaviy va hududiy. Mazkur tizimda Davlat federal ijroiya hokimiyat organlari, “Rosatom” davlat korporatsiyasi, “Roskosmos” davlat korporatsiyasi, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ijroiya organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining tarkibidagi xizmatlar, bo‘linmalar va tuzilmalar o‘z vakolatlari doirasida kuzatish va nazorat qilish ishlarini olib boruvchi kuchva vositalar hisoblanadi.

Bu tashkilotlar potensial xavfli obyektlarda texnogen xavflarni monitoring qilishda quyidagi amalga oshiradilar:

- Atrof-muhit holati va uning ifloslanishi davlat monitoringi;
- Atmosfera havosi davlat monitoringi;
- Suv obyektlari davlat monitoringi;
- Radiatsion vaziyat bo‘yicha davlat monitoringi;
- Yer osti boyliklari davlat monitoringi;
- Kimyoviy, biologik va gidrometereologik vaziyatni nazorat qilish va h.k.

Shu bilan birga Davlat federal ijroiya hokimiyat organlari, “Rosatom” davlat korporatsiyasi, “Roskosmos” davlat korporatsiyasi, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ijroiya organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining tarkibidagi xizmatlar, bo‘linmalar va tuzilmalarning yong‘indan saqlash va avariya-qutqaruv xizmatlari, avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv, avariya- tiklash ishlari, avariya-texnik va boshqa kuch va vositalari tarkibi bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasidatabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda:

- Yong‘inlarni o‘chirish;
- Iste’mol va ishlab chiqarishdagi salbiy texnogen chiqindilarningta’sirini cheklash;
- Avia-kosmik qidiruv va qutqarish;
- Gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta’minalash;
- Transport xavfsizligini ta’minalash;
- Neft va neft mahsulotlarini quyish korxonalarida favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va bartaraf etish ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish;
- Favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini saqlash;
- Yo‘l-transport hodisalari va uning og‘ir oqibatlaridan ogohlantirish va bartaraf etish tadbirlarini o‘tkazish;
- Elektr tarmoqlari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, yoqilg‘i-energetik majmua obyektlarida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish;
- Favqulodda vaziyatlar vaqtida jabrlangan aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish hamda umumiyligi ovqatlanishni tashkil etish;
- Radiatsiyaviy avariylar oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi belgilangan tartibda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish yagona Davlat tizimi kuch va vositalarining doimiy shayligining avtomatlashtirilgan hisobini, ularning saqlanishi va yangilanishi haqidagi ma’lumotlarni yuritadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtrib boradi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida tabiiy va texnogen xavflarni monitoring qilish va prognozlashtirishning samaradorligini oshirish maqsadida Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligi EMERKOM agentligi tomonidan milliy axborot tizimini yaratish bo'yicha ish olib bormoqda. Mazkur tizim Rossiya Federatsiyasining "Elektron hukumat" doirasida tegishli axborot resurslari bilan bilan ta'minlanadi.

**Belarus Respublikasi.** Bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda favqulodda vaziyatlarni monitoring va prognoz qilish tizimi katta ahamiyat kasb etmoqda. Aholini va hududlarni muhofaza qilish sohasida Belarus Respublikasida ham favqulodda vaziyatlarni kuzatish, tahlil qilish va aniqlash, favqulodda vaziyatlarning aniqlangan va potensial manbalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash, shuningdek aholining, tashkilotlarning, atrof-muhitning xavfsizligiga ta'sirni prognoz qilish chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatda bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bularga "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni (1998 yil 5 may), Belarus Respublikasi Prezidentining 2001 yil 24 sentabrdagi "Belarus Respublikasi bo'ysinuvidagi respublika davlat boshqaruv organlari va boshqa davlat tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 516-sonli Farmoni, Belarus Respublikasi Ministrlar Sovetining 2002 yil 8 fevraldagagi "Belarus Respublikasi xukumati bo'ysinuvidagi Davlat boshqaruv organlari va boshqa davlat tashkilotlari quyi tizimi tarmoqlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish Davlat tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 181-sonli Qarori hamda 2004 yil 10 noyabrdagi "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlashtirish tizimi to'g'risida" gi Nizomni tasdiqlash bo'yicha 1466-sonli Qarorlari kiradi. Ushbu meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida Belarus Respublikasida faoliyat yuritayotgan potensial-xavfli obyektlarda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilish sohasida monitoring va prognozlashtirish tadbirlari amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar monitoringini olib borish va prognoz qilish natijalari sohadagi tegishli tashkilotlar faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda Belarus Respublikasida favqulodda vaziyatlar monitoringi 1992 yil 26 noyabrdagi “Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi Qonuniga muvofiq 1993 yilda tashkil etilgan “Belarus Respublikasi Atrof-muhitni monitoring qilish milliy tizimi” (Natsionalnoy sistemi monitoringa okrujayushey sredi v Respublike Belarus (NSMOS)) tarkibida olib borildi.

Mamlakatda ushbu sohada olib borilgan islohotlar natijasida 2003 yilda Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi 2003 yil 14 iyuldaggi 949-sonli “Belarus Respublikasida atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida” gi Qaroriga asosan, Belarus Respublikasi Atrof-muhitni monitoring qilish Milliy tizimi (NSMOS) tarkibidan favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish chiqarildi va 2004 yil 19 noyabrdagi Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 1466-sonli Qarori bilan “Favqulodda vaziyatlarni kuzatish va bashoratlash tizimi” tashkil qilindi. Mazkur qarorga asosan **“Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimi”** (Sistema monitoringa i prognozirovaniya chrezvichaynix situatsiy (SMPCHS)) Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish Davlat tizimi tarkibi doirasida faoliyat yuritishi belgilandi [64]. Shundan kelib chiqqan holda favqulodda vaziyatlarning monitoringi va prognozlashtirish Belarus Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimi (SMPCHS)**

**ning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi manbalarini kuzatish;
- favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi manbalar bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi manbalar bo‘yicha ma’lumotlar bankini yaratish;
- favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish;

- Respublika davlat boshqaruvi organlari va Belarus Respublikasi xukumati bo‘ysunuvidagi tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi va ma’muriy organlarga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning xavfi yoki favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlash.


Belarus Respublikasida tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni 15 ta alohida turdagи monitoring qilish ishlarini tashkil qilish 11 ta davlat organi tomonidan amalga oshiriladi (4.3-rasm).

Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimi **respublika, hududiy va mahalliy** darajalarda faoliyat olib boradi:

**Respublika darajasida** - Favqulodda vaziyatlar vazirligi monitoring va prognozlash tizimining faoliyat yuritishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ushbu ma’lumotlar asosida prognozlashtirish tadbirlarini muvofiqlashtiradi.

**Hududiy va mahalliy darajalarda** - favqulodda vaziyatlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishslash va ularni prognozlashtirish ishlari oblastlar va Minsk shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari hamda rayon va shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Obyekt darajasida** - favqulodda vaziyatlarning monitoringi va prognozlash jarayonida kuzatish obyektlari favqulodda vaziyatlarnikeltirib chiqarish manbalari hisoblanadi.



4.3-rasm. Belarus Respublikasida favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish tizimi

**Turkiya Respublikasi.** Turkiya Respublikasida Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish, avariya qutqaruv ishlarini tashkil qilish borasidagi davlat vakolatli organi – Tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar vazirligi (AFAD - afet ve acil durum) – hisoblanadi.

Turkiya Respublikasi qonunchiligidagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilish sohasida bir qancha qonunlar qabul qilingan.

Tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar vazirligi (AFAD) quyidagi departamentlardan tashkil topgan:

- Rejalahshtirish va favqulodda vaziyatlarni yumshatish departamenti;
- favqulodda vaziyatlarda harakat qilish departamenti;
- tiklash departamenti;
- fuqaro muhofazasi departamenti;
- zilzila departamenti;
- ma'muriy xizmatlar departamenti;
- aloqa va axborot texnologiyalari departamenti;
- strategik rivojlantirish departamenti.

Hozirgi kunda Turkiyaning barcha provinsiyalarida vazirlik (**AFAD**) ning 81 ta hududiy filiallari, shuningdek, 11 ta mintaqaviy qidiruv va avariya-qutqaruv tuzilmalari faoliyat olib borib, mazkur tuzilmalarning shaxsiy tarkibi 1196 kishini tashkil etadi. ( Stanbul-120, Izmir - 125, Sakarya - 77, Bursa - 114, Afyon - 90, Anqara - 148, Samsun - 105, Adan - 125, Arzirum - 124, Diyorbakir - 96, Van - 72). Shu bilan birga 81 ta provinsiyada mahalliy gubernatorlar qarori bilan “Tabiiy ofatlarni muvofiqlashtirish Markaz” (Afet Koordinasyon Merkezi -**AKOM**)lari tashkil qilingan bo‘lib, Markazlar aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mamlakat hududidagi 923 ta tumanda ish olib boradi.

Turkiya Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilish borasida favqulodda vaziyatlarni **monitoring qilish va prognozlashtirishga** alohida e’tibor berilgan. Bu borada vazirlik (AFAD) ning **Rejalahshtirish va favqulodda vaziyatlarni yumshatish departamenti** shug‘ullanadi. Ushbu departament favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish, ularni tahlil qilish hamda favqulodda vaziyatlarning keltirib chiqaruvchi ikkilamchi omillari va boshqa rivojlanish jaryonlarini o‘rganadi, tahlil qiladi.

**AFAD boshqaruv markazi.** AFAD Boshqaruv markazi keng miqyosdagi favqulodda vaziyatlarning xavfini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha bosh muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Markaz o‘z faoliyatida vazirliklar, idoralarni boshqarish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, halokatli geologik, seysmologik, gidrometereologik hodisalar,

iqtisodiyot obyektlaridagi avariya va halokatlar, yo'l-transport hodisalari va boshqalar haqida ma'lumotlarni to'playdi, qayta ishlaydi, tahlil qiladi va ularni saqlaydi. **AFAD** boshqaruv markazi kundalik faoliyatida vazirlik va idoralarning favqulodda vaziyatlar bo'yicha tegishli markazlari bilan o'zaro axborot almashinushi va o'zaro hamkorlik ishlarini olib boradi. Favqulodda vaziyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish sohasida tadbirlarni amalga oshirish 4 darajada amalga oshiriladi:

1. Mahalliy darajada – favqulodda vaziyatlarni kamaytirish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda mahalliy munitsipalitetlarning resurslari;
2. Mintaqaviy darajada – mahalliy munitsipalitetlarning resurslari yetarli bo'lmaganda qo'shni munitsipalitetlarning resurslari;
3. Milliy darajada – milliy resurslar safarbar qilinganda;
4. Halqaro darajada – milliy resurslar yetarli bo'lmaganda halqaro hamjamiyat yordami bilan to'ldiriladi.

Turkiya Respublikasida faoliyat yuritayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish har bir obyektda xavflarni monitoring qilish bo'yicha ishlab chiqarish mutaxassislari jalb qilingan. Bu obyektlarda har bir ishlayotgan texnologiyalarning xavfsiz ishlashi va barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy datchiklar, vizual kuzatuv asboblari, issiqlik, tutun va zaharli moddalarning tarqalishini aniqlovchi jihozlar o'rnatilgan. Mazkur obyektlar xavflarni o'rganish, ularni tahlil qilish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan xususan, Tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar vazirligi (AFAD) ning Rejalashtirish va favqulodda vaziyatlarni yumshatish departamentining hududiy filiallari hamkorlikda ish olib boradi.

### **Nazorat savollari**

1. Favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish tizimi?
2. Monitoring tizimining turlari qanday?
3. Favqulodda vaziyatlarda horijiy mamlakatlarning monitoring tizimi?

## **5. BOB. AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISHGA TAYYORLASH**

### **§5.1. Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash**

Aholini tayyorlash, toifalar doirasida tashkil etiladigan guruhlar tarkibida, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda harbiy xizmatchilar;

davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari — FVDTning aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha yillik asosiy tadbirlar rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan o'tkaziladigan yig'inlar va o'quv mashqlarida;

respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o'rribosarlari - 3 yilda bir marta jamlash rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining (keyingi o'rnlarda Fuqaro muhofazasi instituti deb ataladi) malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarida;

tumanlar va shaharlar miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbarlari - 3 yilda bir marta jamlash rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi (keyingi o'rnlarda Markaz deb ataladi), shuningdek, hududiy

favqulodda vaziyatlar boshqarmalari hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazlarining (keyingi o‘rinlarda hududiy markazlar deb ataladi) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida;

tashkilotlarning xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda harbiy xizmatchilar — doimiy ravishda tayyorlash dasturlariga muvofiq, xizmat va ishdan ajralmagan holda, xizmat va ish joylarida tashkil etiladigan obyekt o‘quv mashg‘ulotlarida tayyorgarlikdan o‘tkaziladi;

**b) maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari:**

maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari — doimiy ravishda maktabgacha ta’limning maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim-tarbiya jarayonida muammoli-vaziyatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarda

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari — o‘quv yili davomida, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qish jarayonida darslarda, sport o‘yinlari va musobaqalarida, shuningdek, mактабдан ташқари та’лим muassasalari va hududiy markazlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmularidagi mashg‘ulotlarda;

o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari — o‘quv yili davomida, o‘rta maxsus, professional ta’lim va oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qish jarayonida darslarda, sport o‘yinlari va musobaqalarida, shuningdek, hududiy markazlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmularidagi mashg‘ulotlarda tayyorgarlikdan o‘tkaziladi;

**v) ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar:**

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar — fuqarolarning o‘zinio‘zi

boshqarish organlario‘quv-maslahat punktlarida suhbatlar o‘tkazish, ma’ruzalar o‘qish, o‘quv filmlarini namoyish etish, o‘quv mashqlari va mashg‘ulotlarga jalb etish, shuningdek, qo‘llanmalar va eslatmalarni tarqatish, radio va teledasturlarni efirga uzatish hamda Internet jahon axborot tarmog‘ida sohaga oid ma’lumotlarni joylashtirish orqali;

O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlartashrif davomida, ularga xizmat ko‘rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish, yo‘riqnomalar, buklet va eslatmalarni tarqatish orqali tayyorlarlikdan o‘tkaziladi.

### Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi

#### SXEMASI

Aholi toifasi	Tayyorlarlikdan o‘tadigan guruuhlar	Davriyili	Tayyorlash joyi va shakli
Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilar hamda harbiy xizmatchilar	Davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari	FVDTning aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yillik asosiy tadbirlar rejasiga muvofiq	O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan o‘tkaziladigan yig‘inlar va o‘quv mashqlarida
	Respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlarning rahbarlari va mas’ul mutaxassislari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o‘rinbosarlari	3 yilda bir marta, jamlash rejasiga muvofiq	O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining malaka oshirish va qayta tayyorlash o‘quv kurslarida
	Tumanlar va sh?harlar miqyosidagi tashkilotlarning rahbarlari va mas’ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshqliqlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rahbarlari	3 yilda bir marta, jamlash rejasiga muvofiq	Hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazlarining malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida
	Tashkilotlarning xodimlari, ishchi va xizmatchilar hamda harbiy xizmatchilar	Doimiy ravishda, tayyorlash dasturlariga muvofiq	Xizmat va ishdan ajralmagan holda, xizmat va ish joylarida tashkil etiladigan o‘quv

			mashg'ulotlarda
Maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'limga makkablari o'quvchilari, o'rta maxsus, professional ta'limga muassasalarini o'quvchilari va oliy ta'limga muassasalarining talabalarini	Maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilari	Doimiy ravishda maktabgacha ta'limga davlat talablari va o'quv dasturlariga muvofiq	Ta'limga tarbiya jarayonida muammoli-vaziyatlari o'yinlar va mashg'ulotlarda
	Umumiy o'rta ta'limga makkablari o'quvchilari	O'quv yili davomida, umumiy o'rta ta'limga davlat ta'limga standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq	O'qish jarayonida darslarda, sport o'yinlari va musobaqalarida, shuningdek, maktabdan tashqari ta'limga muassasalarini va hududiy markazlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmualidagi mashg'ulotlarda
	O'rta maxsus, professional ta'limga muassasalarini o'quvchilari va oliy ta'limga muassasalarini talabalarini	O'quv yili davomida, o'rta maxsus, professional ta'limga va oliy ta'limga davlat ta'limga standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq	O'qish jarayonida darslarda, sport o'yinlari va musobaqalarida, shuningdek, hududiy markazlarning Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmualidagi mashg'ulotlarda
Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar	O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan yillik asosiy tadbirlar rejasini asosida	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida tashkil etilgan o'quv maslahat punktlarida suhbatlar o'tkazish, ma'ruzalar o'qish, o'quv filmlarini namoyish etish, o'quv mashqlarini va mashg'ulotlarga jalb etish, shuningdek, qo'llanmalar va eslatmalarni tarqatish, radio va teledasturlarni efirga uzatish hamda jahon Internet tarmog'ida sohaga oid ma'lumotlarni joylashtirish orqali
	O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar	Tashrif davomida har bir guruh bilan alohida	Ularga xizmat ko'rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha suhbatlar o'tkazish, yo'riqnomalar, buklet va eslatmalarni tarqatish

Aholini tayyorlash innovatsion texnologiyalarni, uyg'unlashtirilgan hamda masofadan o'qitish uslublarini, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, shuningdek, mustaqil o'rganish orqali amalga oshiriladi.

## §5.2. Aholini tayyorlash shakllari va davriyigli

Aholini tayyorlash, ularning nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, FVDT kuch va vositalarining hamkorlikda harakat qilishini takomillashtirish, shuningdek, tayyorgarlik darajasini baholash quyidagi shakllardagi tadbirlarni o‘tkazish orqali amalgalash oshiriladi:

Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida - 5 yilda bir marta uch kecha-kunduzgacha;

tumanlar va shaharlarda - 3 yilda bir marta uch kecha-kunduzgacha;

davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarda — 1 yilda bir marta bir kecha-kunduzgacha;

qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarini o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga (keyingi o‘rinlarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi deb ataladi) to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunadigan kuch va vositalar jalb etilishi mumkin;

Maxsus-taktik o‘quv mashqlari:

tashkilotlarda - 3 yilda bir marta olti soatgacha;

o‘ta muhim va toifalangan obyektlarda - 1 yilda bir marta olti soatgacha.

Kompleks o‘quv mashqlari:

xodimlar soni 200 dan ortiq bo‘lgan tashkilotlarda hamda 400 dan ortiq o‘ringa ega bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalarida - 2 yilda bir marta bir kecha-kunduzgacha;

qolgan tashkilotlarda - 2 yilda bir marta olti soatgacha.

O‘ta muhim va toifalangan obyektlarda o‘tkaziladigan o‘quv mashqlariga ushbu obyektlarning xavfi doirasiga tushuvchi hududda yashayotgan aholi jalb etiladi.

“Yosh qutqaruvchi” musobaqalari umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalarida 1 yilda bir marta o‘tkaziladi.

O‘quv mashqlari, mashg‘ulotlar va musobaqalar, shuningdek, boshqa amaliy tadbirlarga jalb qilinayotgan tashkilotlar rahbarlari, mutaxassislar, qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibi va aholi xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirilishi zarur.

### **§5.2.1. Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari**

**Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari** - O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining (keyingi o‘rinlarda FVDT deb ataladi) barcha darajalardagi rahbarlarini va boshqaruv organlarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo‘lganda bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilishga hamda fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning oliy shakllaridan biridir.

Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashg‘ulotlarining ma’zmuni - barcha mashq qatnashchilarining aholi va hududlar muhofazasini tashkil etish, xalq xo‘jaligi tarmoqlari barqarorligini ta’minalash bo‘yicha tarmoda avariya, halokat, tabiiy ofat yoki zamonaviy qirg‘in qurollar qo‘llanilishi tufayli sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda (uning miqiyosini va texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda) aniq, sharoitdan kelib chiqqan holda tasarruflaridagi kuch va vositalarini boshqarishdan iborat. O‘quv mashqlari rahbariyat tarkibi o‘z qo‘l ostidagilarni boshqarishda ko‘nikmalar hosil qilishiga, favqulodda vaziyatlarni oldini olishga va uning oqibatlarini bartaraf etishga, yuzaga keladigan sharoitni to‘g‘ri baholay bilishga imkon beradi.

**Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarini** yuqori saviyada olib borilishi uchun, mashq mavzusi, uning maqsadi, mashq savollarini tayyorlashda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolar boshlig‘ining buyruqlari, hamda Vazirlik hay’ati yig‘ilishining qarorlari asos qilib olinishi zarur hisoblanadi. O‘quv mashqini olib borish uchun, mashqni o‘tkazish rejasi, mashqga rahbarlik qilish tartibi, bajariladigan tadbirlar ro‘yxati va mazmuni, moddiy texnik ta’milot rejasi va boshqa hujjatlar tayyorlanadi. **Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashg‘ulotining maqsadlari** har xil bo‘lishi mumkin. Bularidan asosiyları: rahbarlarni va komanda boshliqlarining obyekt FM tadbirlarini bajarishda nazariy bilimini va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va qo‘sishlar bilan o‘zaro harakat qilishini ta’minalashdan iborat (5.1.-rasm).



5.1.- rasm. Qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarini o‘tkazish

### **§5.2.2. Maxsus-taktik o‘quv mashqlari**

**Maxsus-taktik o‘quv mashqlari** — qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni bajarishga hamda fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy va samarali shakllaridan biridir.

Maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlar tuzilmalarning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishga o‘rgatishdan iborat. Ya’ni bunday o‘quv mashqlari fuqaro muhofazasining harbiylashgan va maxsus bo‘limlari, hamda avariya-qutqaruv tuzilmalarining amaliy ishlarni bajarishga o‘rgatish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgandir. Bunday o‘quv mashqning maqsadi: tizim boshliqlar tarkibini avariya-qutqaruv va boshqa tiklov ishlarini va aholini muhofaza qilishni tashkil etish, tizimlarni hamda avariya-qutqaruv bo‘linmalarini aholini muhofaza etish tadbirlarini mustaqil ravishda bajarish, hamda boshqa tizimlar bilan hamkorlikda harakat qilishga tayyolash. Tizimlarning favqulodda vaziyatlar o‘chog‘ida harakat qilish tayyorgarligini tekshirish hamda fuqarolarning ruhiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Maxsus-taktik amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishda mashg‘ulotni tayyorlash va o‘tkazish haqida buyruq, mashg‘ulotga tayyorgarlikning rejasi, hamda o‘quv mashqni o‘tkazish rejalari ishlab chiqiladi. O‘quv mashqlari

umummaqsadli tuzilmalar bilan xizmatli tuzilmalar birgalikda o'tkaziladi. Jumladan, qutqaruv guruhlari bilan sanitar drujinalar, razvedka, aloqa, jamoat tartibini saqlash, himoya inshootlarida xizmat ko'rsatish guruhlari, yong'inga qarshi kurash guruhlari ishtirok etadilar. Bunda ishtirok etadigan tuzilmalarning soni, o'quv mashqini mavzusiga maqsadlariga, xarakteriga, avariya-qutqaruv ishlarining ko'lamiga, favqulodda vaziyat ko'lamiga va boshqa qutqaruv-tiklov ishlarining hajmiga bog'liq bo'ladi.

### **§5.2.3. Kompleks o'quv mashqlari**

**Kompleks o'quv mashqlari** — obyektlar rahbarlarini, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari a'zolarini, ular tarkibiga kirmagan ishchi va xizmatchilarini, ishlab chiqarish faoliyatini to'xtatmagan holda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarishga tayyorlashning asosiy shakllaridan biridir.

Kompleks **o'quv** mashg'ulotning mohiyati shundan iboratki, uning hamma qatnashchilari bir vaqtda yagona taktik sharoitda, moddiy ishlab chiqarish bazasida harakat qilib, obyekt rejasida ko'zda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatini to'xtatmasdan amalga oshiradi. Odatda mashg'ulotda: obyekt FM rejasining realligi; FM tadbirlarini amalga oshirishga obyektning tayyorgarlik darajasi va dushman tomonidan qo'llanilgan zamonaviy qurollar asoratlarini, shuningdek, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariya va halokatlarning oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishiga e'tibor beriladi; obyektning favquloddagi vaziyatlar paytida uzlusiz ishslash yo'li va usullari tekshirib ko'rildi.

Kompleks **o'quv** mashg'ulotning maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin: obyektni har qanday FVlarda xar tamonlama to'xtovsiz ishslashga tayyorlash, tuzilmalar tuzish, boshqarish, hamma soha fuqarolarini tayyorlash, raxbar va komanda-boshliq tarkibda FM tadbirlarini o'tkazishda aniq va mustaqil ko'nikmalarni ishlab chiqish, fuqarolarni turli xil ta'sirlardan himoya qilish usullariga o'rgatish, FV lar oqibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni olib borishga tayyorlash,

obyekt FM rejasini realligini tekshirish va hozirgi talabga mos holga keltirish, FM masalalarini bajarishga obyektning tayyorgarlik darajasini aniqlash, obyekt shaxsiy tarkibida ma’naviy-ijtimoiy va psixologik xislatni tarbiyalash talab etiladi. Kompleks o‘quv mashg‘ulotlar 3 ta asosiy ko‘rsatkichga ega bo‘lishi kerak;

1. FM masalalarini to‘liq, har tomonlama o‘rganish, ya’ni ogohlantirish belgisidan (ishorasidan) tortib, to amaliy mashg‘ulotni tugatishgacha bo‘lgan masalalar;

2. Kompleks mashg‘ulotda, obyektda faoliyat ko‘rsatuvchi jami fuqarolar tayyorlanadi;

3. Kompleks mashg‘ulotda, muhofazaga tayyorlashning jami shakl va uslublari qo‘llaniladi.

300 kishidan ortiq fuqarolari bo‘lgan korxona, tashkilotlarda, hamda 600 dan ortiq kasallar joyi bo‘lgan tibbiy tashkilotlarda 3 yilda bir marta (2 sutkagacha), boshqa tashkilotlarda 3 yilda bir marta obyekt trenirovkalari (6 soatgacha) o‘tkaziladi. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari talaba va o‘quvchilari bilan har taraflama mashg‘ulotlar har yili o‘tkaziladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish soxalarida band bo‘lmagan aholini tayyorlash FVlardan muhofazalash masalalari bo‘yicha suhbatlar, ma’ruzalar o‘tkazish, o‘quv filmlarni ko‘rsatish, yashash joylarida o‘quv mashqlari va mashg‘ulotlarga jalg etish, shuningdek qo‘llanma va eslatmalarni mustaqil o‘rganish, radio eshitirishlarni tinglash, teledasturlarni, ko‘rgazmali qurollarni ko‘rsatish va boshqa omillar qo‘llaniladi.

**Mashg‘ulotga tayyorlanish.** Kompleks o‘quv mashg‘ulotni muvaffaqiyat-li o‘tkazish, ko‘p jihatdan unga qanchalik tayyorgarlik ko‘rilganligiga bog‘liq. Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish obyekt FM rejasini hisobga olgan holda uni tashkiliy shtatlar tuzilishi, material ishlab chiqarish xususiyati, hududiy joylashganligi, FM holati va boshqa faktlarga amal qilgan holda olib boriladi. Mashg‘ulotni tayyorlash, tashkil etish va uni o‘tkazishga mashg‘ulot rahbari shaxsan javob beradi. Mashg‘ulotga oldindan va har taraflama tayyorlanish lozim. Mashg‘ulot rahbari mashg‘ulotning mavzusini, o‘quv maqsadini, o‘quv savollari va bosqichlarini,

komanda-boshliq tarkiblarining sonlarini, tuzilmalar, jami mashg‘ulotga jalgan etilganlarning soni, mashg‘ulot rejasini asosiy holatlarini ishlab chiqish, material, texnik jihozlar bilan ta’minlanganliklarini aniqlashlari lozim.

**Imitatsiya rejasi** o‘quv mashg‘uloti rahbarining yordamchisi tomonidan matn bo‘yicha chizma asosida ishlab chiqiladi. Unda odatda: imitatsiya joyi, vaqt va turlari ko‘rsatiladi, imitatsiya ishlariga ajratilgan kuchlar va vositalar, ma’sul kishilar, imitatsiyani boshqarish signallari (belgilari) va aloqa vositalari, imitatsiya o‘tkaziladigan joyni qo‘riqlash choralar va uning xavfsizligini ta’minalash ko‘rsatiladi. Chizmada imitatsiya o‘tkazadigan joy shartli belgilar bilan ifodalanadi. Imitatsiya rejasi o‘quv rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Amaliy mashg‘ulotning asosiy maqsadi obyektdagi FV oqibatlarni tezroq tugatishdir. U obyektda razvedkani tashkil qilish va olib borishdan boshlanadi. Olingan razvedka ma’lumoti va uning tahliliga asosan obyektdagi holat aniqlanadi, barcha tuzilmalarga FV oqibatlarini tugatish bo‘yicha qo‘srimcha vazifalar yuklatiladi. Hamma ko‘zda tutilgan o‘quv savollarini o‘rganuvchilar tomonidan amaliy mashg‘ulotlar davomida bajarilgandan so‘ng, mashg‘ulot rahbari ko‘rsatmasiga asosan to‘xtatiladi.

Tahlil amaliy mashg‘ulotning yakuniy bosqichidir. Tahlilda o‘qitilganlar har tamonlama muhokama qilinadi, qo‘yilgan maqsadni qay tarzda amalga oshirilganligi, o‘quv savollarini qanday qilib ishlab chiqilganligi, rahbar va komanda-boshliq tarkibining, shtab xodimlari, tizimlar, har xil toifadagi o‘qiganlarning qanday tayyorlanganligi tahlil qilinadi. Tahlil avval rahbarlar bilan, so‘ngra mashg‘ulotning hamma qatnashchilari bilan o‘tkaziladi. Tahlil oxirida mashg‘ulot rahbari mashg‘ulotlarda qatnalganlarning o‘quv maqsadlariga qay darajada erishilganligini aniqlaydi, o‘qiganlarning harakatlarini baholaydi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tugatish tadbirlarini belgilaydi. Har taraflama o‘tkazilgan mashg‘ulotning natijalari to‘g‘risida tuman FM shtabiga kerakli ma’lumot taqdim etiladi.

## Nazorat savollari

1. Fuqarolarni FM ga o‘qitishning prinsiplari nimalardan iborat?
2. Fuqarolarni FM ga o‘qitishda qanday uslublar qo‘llaniladi?
3. Fuqarolarni FM ga tayyorlash qanday tartibda amalga oshiriladi va ularning xususiyatlari qanday?
4. Fuqarolar muhofazasining amaliy mashg‘ulotlari necha turda o‘tkaziladi?

## **6. BOB. IQTISODIYOT TARMOQLARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH ASOSLARI**

### **§6.1. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligini ta'minlash tamoyillari**

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, har qanday favqulodda vaziyatlarda (harbiy va tinchlik davrlarida) fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligi deyilganda, ularning rejalashtirilgan miqdorda sifatli mahsulotlarini ishlab chiqarishi yoki biror avariya natijasida shikastlangan ishlab chiqarish korxonalarida juda qisqa vaqt ichida tiklash ishlari tushuniladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashiga shu tarmoqlar joylashgan mintaqaga va uning meteorologik sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki mintaqada xavfli tabiiy ofatlar (zilzilalar, yer, qor ko'chkilari, sellar, suv toshqinlari, kuchli shamollar va boshqalar) natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va obyektlarning barqaror ishlash darajasini pasaytirish mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlari barqaror ishlashiga yana quydagi omillar: obyektning qurilish xarakteri, uning atrofida joylashgan xavfli korxonalar, ishlovchilar soni, o'lchami va xarakteri, imorat va inshootlarning qurilish tavfsifi, ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi, qo'llaniladigan texnologiyalar, qo'llaniladigan KTZMning xususiyatlari va boshqalar ta'sir qiladi. Mana shu omillarni o'rGANISH asosida obyektning barqarorligi haqida baho berishi mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlarining favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlashini ta'minlashda quydagi tadbirlar bajariladi:

1. Iqtisodiyot tarmoqlariga yaqin joyda yashovchi aholining hayotini muhofaza qilish;
2. Shikastlangan hududlarda qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini o'tkazish;
3. Tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, texnologik va muhandislik-texnik tadbirlari kompleksini o'tkazish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va obyektlarining barqaror ishlashini pasayishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin. Jumladan: ishlab chiqarish tarmog'ida boshqaruv. Mehnat va ishlab chiqarish intizomlarining bo'shashishi oqibatida; texnika va texnologiyalarning eskirishi oqibatida; xavfli kimyoviy moddalarni tashish, saqlash va ishlatish qoidalarining buzilishi hamda atrof-muhitga zaharli chiqindilarni chiqarilishi oqibatida; davlat nazorat organlari va inspeksiyalar ishini talabchanligining pasayib ketishi; harbiy mojarolar va terrorchilik harakatlari sodir bo'lish ehtimolida.

Iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror ishlashiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari, fojialardan hamda umumiylar qirg'in qurollarining birlamchi va ikkilamchi ta'sir omillaridan ishchi xizmatchilarni muhofaza qilish;
- yuqoridagi ta'sir omillariga inshootlarni muhandis-texnik komplekslarining chidamliligi;
- ishlab chiqarish korxonalarini kerakli materiallar bilan (xom-ashyo, yoqilg'i, gaz, suv, elektr quvvati) barqaror ta'minlash;
- ishlab chiqarishni va fuqaro muhofazasini barqaror va surunkali boshqarish;
- obyektning ishlab chiqarish tarmog'i buzilgan joyida-QBTIning tiklash ishlarini boshqarish darajasi;
- yuqoridagi ta'sir omillariga inshootlarni muhandis-texnik komplekslarining jadalligi.

Yuqoridagi omillar nafaqat inshootlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki ularning darajasini ham oshiradi. Shu sababdan ham hozirgi davrda tinchlik davrdagi favquloddagi vaziyatlarda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligiga 5 ta omillarni qo'llash orqali erishish mumkin:

- o'z vaqtida ogohlantirish;
- himoya inshootlaridan foydalanish;
- yakka tartibda saqlovchi va tibiyl vositalardan foydalanish;

- evakuatsiyani qo'llash;
- xom-ashyo, materiallar, elektr quvvati, gaz, suv bilan ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlarda (tinchlik va harbiy davrlarda) iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash yo'llari va usullari turli xilda bo'lib, har bir korxona bajaradigan ishlarining xususiyatlariga qarab olib boriladi.

Hozirgi davrida iqtisodiy jihatdan eng qulay yo'lni tanlash, har bir korxona o'z inshootini, fuqarolarni muhofaza qiluvchi obyekt sifatida, vaziyatni har tomonlama muhokama etib, keyin uning barqaror ishlashini ta'minlash yo'li va usulini tanlashi kerak. Inshootlar barqarorligini baholashda maxsus uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini, inshootlar barqarorligini baholashda, hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi:

- shikastlantiruvchi ko'rsatkichlarning eng yuqori qiymati;
- inshootlar va ularning elementlarini tavsifnomasi (qanaqa material, qanday tartibda qurilgan, uning zilzilabardoshligi).

Odatda favqulodda vaziyatlarda inshootlarga ta'sir etuvchi omil va ularning qiymati fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan beriladi, agar unday ma'lumot kelmasa, u holda hisoblash yo'li bilan shu yerning o'zida aniqlanadi. Agar bu ma'lumotlarni shu yerning o'zida ham aniqlash imkonи bo'lmasa, u holda shu ta'sir etuvchi omillarning taxminiy qiymatlari asosida kuchsiz, o'rtacha va kuchli shikastlantirish hududlarini aniqlash mumkin. Masalan, yer silkinishidan (ballga qarab), yadro quroli ishlatilganda ta'sir etuvchi to'lqinni hosil qiladigan ortiqcha bosim ( $\Delta R$ ) qiymatiga qarab inshootlar turli xil darajada shikastlanadi. Jumladan, yer silkinishining 5, 6, 7, 8, 9 ballarida yoki yadro qurolini  $\Delta R_{\phi} = 10, 20, 30, 40$  kPa omillarida kimyo, neftni qayta ishlash, radioelektrotexnika, meditsina va shunga o'xshash sanoat korxonalarida shikastlanish ro'y berishi mumkin.

Mashinasozlik, oziq-ovqat, metallurgiya va shunga o'xshash korxonalarida esa yer silkinishining 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 ballarida ham 10, 20, 30, 40, 50, 60 KPA ortiqcha bosim hosil qilinganda inshootlar talofotlanishi mumkin. (1-jadval). Albatta, bu ma'lumotlar yuqoridagi sanoat korxonalarini xususiyatlarini hisobga olgan holda

qurilgan inshootlar sifatida qarab xulosa chiqariladi. Odatda seysmik to‘lqinlar ta’sirida buzilgan inshoot va uning elementlarini qisqa vaqt ichida hamda iqtisodiy jihatidan qulay darajada tiklash, o‘sha inshootni chidamlilagini oshirishning eng qulay yo‘li hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan uslublar asosida yorug‘lik nurlanish, o‘tuvchi radiatsiya va boshqa ta’sir omillari ta’sirida ham inshoot va uning elementlarining barqarorligini (chidamlilagini) ham aniqlash mumkin va barqaror ishlashini ta’minalash imkoniyati yaratiladi. Jumladan, ( $\gamma$ ) nuri ta’sirida inshootlarning chidamliligi, shu obyektga keladigan maksimal ( $\gamma$ ) nur dozasi, obyektdagi odamlarning shikastlanish darjasasi, asbob-uskuna, jihozlarning buzilishi va boshqa ta’sirlar orqali o‘sha inshootlarning chidamliligi baholanadi.

Agar to‘lqin zarbasida hosil bo‘ladigan ortiqcha bosim qiymati, o‘sha inshootni chidamlilik (30-50 kPa atrofida) darajasida bo‘lsa, u holda 0,5-1 MT qurol portlatilganda ham o‘tuvchi nur qiymati kichik bo‘ladi (5-20 rad.dan oshmaydi). Bunday holatda o‘sha ishlab chiqarish inshooti va uning faoliyatiga u deyarli ta’sir etmaydi.

#### 6.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi tarkibiy qisimlarining barqarorlik chegarasiga zarbali to‘lqin omilining ta’siri

Tarkibiy qisimlari va ularning xususiyatlari	$\Delta R_{\phi}, \text{kPa}$ da buzilish darajalari					
Inshoot: bir qavatli, g‘ishtli, to‘sinsiz, temir-betonli qismlardan						
Texnologik jihozlar: ko‘targichlar va ko‘taruvchi jihozlar, og‘ir jihozlar						
KES: metal eskadadagi havo o‘tkazuvchilar, elektr ta’mnoti, yer ustidagi, yer ostidagi						



O'rta buzilish



O'rta buzilish



Kuchli buzilish



To'liq buzilish

## **§6.2. Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini oshirish**

Iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish deganda, bo‘ladigan talofot va vayronliklarning sonini va hajmini kamaytirishga, qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini o‘tkazish uchun sharoit yaratish va o‘tkazishga hamda respublika iqtisodiyot rejalarida belgilab qo‘yilgan mahsulot miqdori va turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va uni amalga oshirishdan iboratligi tushuniladi. Iqtisodiyot tarmoqlari va obyektlarning barqaror ishlashini oshirish masalalari umumdavlat miqyosida hamda iqtisodiyot tarmog‘ining hamma quyi bo‘g‘inlarida hal etilishi kerak. Buning uchun har bir korxonada uning barqarorligini oshiradigan tadbirlar kompleksini (tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, texnologik va muhandislik-texnik tadbirlar) amalga oshirilishi lozim.

**Tashkiliy tadbirlarga** – ishlab chiqarish xodimlarini favqulodda vaziyat sharoitida muhofaza qilish tadbirlar kompleksi: jamoa himoya inshootlari, shaxsiy saqlovchi vositalar, oziq-ovqat, suv manbalari bilan ta’minalash, fuqaro muhofazasi kuchlarini va moddiy boyliklarni saqlash kiradi.

**Ilmiy tadqiqot tadbirlariga** – barcha ilmiy tadqiqot muassasalarida respublika hududi uchun xarakterli tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni yuzaga kelishini taxminlash, bunday vaziyatlarni oldini olish, aholini muhofaza qilish va respublika iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar kompleksi kiradi.

**Texnologik tadbirlarga** har bir korxonaning ishlab chiqarish xususiyati va texnologiyasiga monand olib boriladigan tadbirlar kiradi.

**Muhandislik-texnik tadbirlarga** katta mablag‘lar talab qiladigan tadbirlar majmuasi (inshootlar qurish, ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar bilan jihozlash va boshqa tadbirlar) kiradi. Albatta, bu tadbirlar kompleksining asosiy bo‘g‘inini ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilar o‘rganiladi:

- favqulodda vaziyatning muhandislik-texnik kompleksiga ta’siri;
- ishlab chiqaruvchi xodimlarni muhofaza qilish;
- ishlab chiqarish, texnologik va laboratoriya uskunalarini muhofaza qilish;

- obyektni elektor energiyasi, suv, gaz va bug‘ bilan ta’minlash darajasi;
- ishlab chiqarishdagi o‘zaro aloqalarni ta’minlash;
- xom-ashyo materiallarini, tayyor mahsulotni muhofaza qilish;
- shikastlovchi ikkilamchi ta’sirlarga qarshi omillarni o‘rganish;
- izdan chiqqan ishlab chiqarishni qayta tiklash tadbirlarini tadqiq qilish.

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga qarab xalq xo‘jaligi tarmoqlarining barqaror ishlashini oshirishda muayan tadbirlar kompleksi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bular quyidagilardan iborat:

- ishchi xizmatchilarni va ularning oilalarini muhofaza qilish, hamda ularning hayotiy faoliyatini ta’minlash;
- muhandislik-texnik majmualarni muhofaza qilish;
- shikast etkazuvchi ikkilamchi omillarni ta’sirini kamaytirish;
- favqulodda vaziyatda ish rejimlarini tashkil etish;
- vayron bo‘lgan ishlab chiqarishni qayta ishlash va hokazo.

Tinchlik davrida ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan inshootlarning barqarorligini oshirish quyidagi omillardan iborat:

- tabiiy ofat, ishlab chiqarish avariyalari va fojiyalaridan ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarni muhofaza qilish;
- moddiy texnikaning ta’mnotinini ishonchli ta’mnotinini boshqarish;
- inshootlarni yorug‘likdan berkitish;
- favqulodda vaziyatda shikastlangan ishlab chiqarishni tiklash va uni alohida ish rejimiga o‘tkazish.


Shularning ichida ishchi va xizmatchilarni muhofaza qilishning eng ishonchli omili, bu iqtisodiyot tarmoqlaridagi inshootlar chidamlilagini oshirish hisoblanadi. Shu maqsadda himoya inshootlari tayyorlanadi. Bunda ishlab chiqarishlarda ko‘p vaqt bo‘ladigan fuqarolar - boshpanalarda, xavfsiz hududda bo‘ladiganlar esa - RSBda himoyalananadilar. Uzluksiz ishlaydigan ishlab chiqarish joylarida shaxsiy himoyalovchi - boshpanalar qurilib, bunda texnologik jarayonlar shu inshootlardan turib boshqarib turiladi. Bularidan tashqari muhofazaga tayyorlanishning eng muhim elementlaridan biri, bu ishchi va xizmatchilarni muhofazalanish qoida va usullarini

qo'llashi, har qanday favqulodda vaziyatlarda harakat kilish va tizimlar tarkibida qutqaruv va tiklash ishlarida faol ishtirok qilish hisoblanadi.

Muhandis-texnik komplekslarni muhofaza qilish deganda ishlab chiqarishning moddiy asoslarini saqlash, uning inshootlarini, texnologik jihozlarini, asbob-uskunalarini, hamda kommunal-energetik tarmoqlarini saqlash tushuniladi. Obyektdagi inshootlar, qurilmalar bir-biridan uzoqroq masofada, ya'ni eng baland inshootning bo'yiga nisbatan ikki baravar masofada qurilishi kerak. Bu esa yong'inga qarshi masofa hisoblanadi. Mana shunday qurilmalarning eng asosiy ishlab chiqarish inshootlari pastroq balandlikda qurilib, ular metalli yoki temir-beton karkaslardan tayyorlanishi lozim. G'ishtli inshootlarda bo'lmlar armirlangan beton plitalari orqali berkitilishi lozim. Yengil yonuvchan moddalarni (benzin, kerosin, mazut) saqlovchi zaxira xonalari, ishlab chiqarish korpuslaridan uzoqroqda, yerga yaqinroq qilib (chuqurroq joylarda) qurilishi kerak.

Biror obyektning chidamliligi, u yerdagi inshootlar va qurilmalarning chidamlilik darajasiga bog'liq. Odatda inshootlarning chidamliligi: karkas, rom, tirgovich, xavon va boshqa yo'llar orqali oshiriladi (6.1-rasm).

Baland bo'lmanan qurilmalarning mustahkamlilagini oshirishda, o'sha imoratning atrofini tuproq bilan to'ldirish muhim hisoblanadi (6.2-rasm).




6.1-rasm. Yer osti inshootlarining barqarorligini oshirish: 1-yer to'la; 2 -ustun; 3-to'sin; 4-inshootning birinchi qavati.

6.2-rasm. Yarim yerosti inshootlarini tuproq bilan to'ldirish: 1-devor; 2-bo'lma; 3-to'ldirilgan tuproq


Texnologik jihozlarni mustahkamligini oshirish uchun ularni avval bu moslamalardan tashqari biror mustahkam asosga (fundamentga) mahkamlab qo‘yish zarur, hamda ularni iloji boricha inshootlarning pastki qavatiga yoki yerto‘lalarga joylashtirish qulay hisoblanadi.

Juda baland inshootlarning (quvurlar, minoralar va boshqalarini) mustahkamligini oshirishda, ularni har tarafdan tortib qo‘yish usuli qo‘llaniladi (6.3-rasm).




6.3-rasm. Baland inshootlarda tortgichlar bilan maxkamlash:  
a-quvur; b-metalli inshoot

Yengil yonuvchan, zaharli moddalar saqlanadigan omborlarni (idishlarni) saqlashda, shu idish ichidagi suyuqlik sig‘adigan darajada idish atrofi tuproq bilan to‘siq hosil qilinadi (6.4-rasm).



6.4-rasm. KTZM solingan idishlarni o‘rash:  
1-KTZM solingan idish; 2-tuproqli o‘ram

Texnologik jihozlar, asbob-uskunalar va boshqalarning barqarorligini, mustahkamligini oshirishda, shu asbob-uskunalar joylashtirilgan qurilmalar, moslamalar qurish orqali muhofaza qilinadi. Bunday moslamalar niqoblar, kameralar, zontlar va boshqalar qo'llanilib ularning ichiga o'rnatilganda jihozlar inshoot bo'laklaridan saqlanadi (6.5-rasm).



6.5-rasm. Noyob texnikalarni himoyalovchi jihozlar:  
a-kamera; b-shatr; v-yig'iluvchan qoplamlalar; g-zontlar

Tarmoqlarni (obyektlarni) elektr ta'minoti bilan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xar qanday vaziyatda ham ob'ektni barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida elektr ta'minoti ikki yo'nalishda tashkillashtiriladi, har qanday vaziyatda ham obyektni barqaror ishlashini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Albatta, elektrenergiya ta'minoti jihozlari, asboblari yadroviy qurollarning elektromagnit impulslaridan himoyalangan bo'lishi lozim. Obyektlarni gaz, suv bilan ta'minlash ham alohida e'tiborda bo'lishi lozim. Birorta avariya holati yuz beradigan bo'lsa, to'xtatish imkoniyatlari hisobga olingan bo'lishi zarur. Suv ta'minotida ikkita manbaa orqali: asosiy va qo'shimcha ta'minlagichlardan foydalaniladi. Bulardan birida yer osti suvlari ishlatiladi. Xuddi shunga o'xshash bug' va issiqlik ta'minoti ham obyektlarni barqaror ishlashini ta'minlashga ta'sir etadi. Sanoat obyektlari ikki xil manbadan issiqlik oladi: 1-tashqi - IESlar; 2-ichki - o'z qozonxonalaridan. Yuqorida aytilgan omillardan tashqari obyektlar barqarorligini oshirishda qo'shimcha omillar ham qo'llaniladi. Jumladan:

- aynan obyekt hududida portlovchi, yonuvchan va tez ta'sir etuvchi moddalarning miqdorini kamaytirish;

- me'yoridan ko'p bo'lgan yuqoridagi moddalarni xavfsiz joylarga tarqatish.

Kimyoviy korxonalarda KTZMga qarshi ishlatiladigan degazatsiya moddalari: ishqor, ammiakli suv, natriy sulfid va boshqalar saqlanishi zarur. Yana sexlarga biror favqulodda vaziyatlarda (avariya, portlash, gaz chiqib ketishi va boshqa holatlarda) ishlatiladigan avtomatik signallar o'rnatilishi zarur. Bulardan tashqari, uzlusiz boshqarishni tashkil etish va uni himoyalash ishlari tashkillashtirilishi lozim. Bunda ATS, radiouzel, dispatcher punkti, akkumulator zaryadlaydigan elektrostansiya va boshqalar ko'zda tutiladi.

Obyektlarda moddiy texnika holatini ishonchli ta'minlashda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi:

- tayyor mahsulotlarni saqlaydigan omborlarni tayyorlash;
- obyektda xom-ashyo, yoqilg'i, jihozlar, kerakli materiallarni yetarli ta'minlash;
- ta'minlovchi korxonalar bilan uzviy aloqani bog'lash;
- korxona filiallarini boshqa joylarda qurish va boshqa omillar.

Iqtisodiyot tarmoqlarining yorug'ligini maskirovka qilish omilida quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Masalan, obyektning hamma inshootlari, aholi yashaydigan punktlar yorug'ligini kamaytirish, ishlab chiqarish va transport vositalarining signallarini kamaytirish, maskirovka qiluvchi (yolg'onidakam vositalarni qo'llash) usullari qo'llaniladi. Shikastlangan obyektlarni tiklash omillarida birinchi navbatda qilinadigan ishlar o'sha korxonaning o'z moddiy resurslari orqali, o'z kuchi bilan amalga oshirish, imkoniyat darajasida ish xonalarini va jihozlarni qaytadan ta'mirlab, ishga tushirish va boshqa vazifalar bajariladi.

Umuman iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash va ularning chidamlilagini, mustahkamligini oshirish omillarini tashkiliy ravishda o'z vaqtida amalga oshirishda oldindan tuzilgan rejaga amal qilinadi. Shundagina har qanday favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlagan bo'lamiz.

**Muhandislik holatini baholash.** Muhandislik holati deganda - tabiiy ofatlar, avariya va fojealar oqibatida kuzatiladigan hamda yadroviy aslaqalar va boshqa zamonaviy qurollarning birlamchi va ikkilamchi shikastlovchi omillari natijasida

inshootlarni, qurilmalarni, jihozlarni, kommunal-energetik tizimlarni, transport va aloqa vositalarini, ko‘priklarni, suv hovuzlari va to‘g‘onlarni, aerodromlarni va boshqa obyektlarni buzilishi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashi va aholining turmush tarzini izdan chiqishi tushuniladi.

Muhandislik holatini baqolashda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

- obyektni shikastlanish darajalari va hajmini aniqlash (bunda inshootlar, qurilmalar va kommunal-energetik tizimlarning buzilish darajalari, jumladan ishchi xizmatchilarni saqlovchi himoya inshootlarini; talofotlangan hududlarning o‘lchamini; muhandislik ishlarining hajmi va murakkabligini; QBTI ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari va boshqalarni aniqlash ko‘zda tutiladi).

- inshootlarning umumiyligi holatdagi hamda uning alohida tarkibiy qisimlarining barqarorligini aniqlash va ularni insonning hayotiy faoliyatiga ta’siri;

- inshootlarning umumiyligi qolatdagi hamda uning alohida tarkibiy qisimlarining barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida xulosalar, barqarorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar hamda QBTI ni va ishlab chiqarishni qayta tiklash bo‘yicha tavsiyalar. Muhandislik holatini baqolashda bashorat ma’lumotlari muhandislik razvedka ma’lumotlari bilan birgalikda olib boriladi.

Muhandislik holatini baqolashda boshlang‘ich ma’lumotlar quyidagilardan iborat:

- kuzatilishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar, avariya va fojealar xususidagi ma’lumotlar;

- dushman haqida va ularning qo‘llashi mumkin bo‘lgan qirg‘in qurollari, hamda boshqa zamonaviy ta’sir vositalari xususida;

- qurollar va talofot keltiruvchi vositalarning birlamchi va ikkilamchi ta’sir omillari, hamda ishchi xizmatchilarning himoya inshootlarini xarakteristikalari, obyektni muhandislik-texnik komplekslari va boshqalar.

## **§6.2. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish**

Ma'lumki, dushman tomonidan qo'llaniladigan umumiy qirg'in quollarining oqibatlari turli xil darajada bo'ladi. Albatta, talofot darajasi ishlatalgan qurol turiga, uning qo'llanilish miqyosiga bog'liq. Mana shunda yadroviy, kimyoviy, biologik va kombinatsiyalashgan shikastlangan o'choqlarida qutqaruv va tiklash ishlarini (QBTI) amalga oshirish juda murakkab ahvolda ro'y beradi, sababi bunday paytda hamma inshootlar deyarli shikastlangan, yongan, yiqilgan, suv bosgan, atmosfera hamda barcha yerlar zaharlangan va shunga o'xhash boshqa noxush holatlar kuzatilgan bo'ladi.

Xuddi shunga o'xhash holatlar tinchlik davrida ham (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylar, fojialar oqibatida) kuzatilishi mumkin. Shu sababdan fuqarolar muhofazasining eng asosiy vazifalaridan biri, harbiy holatlarda va tinchlik davrlaridagi favqulodda vaziyatlarda umumiy shikastlangan o'choqlardagi QBTI ni amalga oshirish hisoblanadi. Shikastlangan o'choqlarda QBTIni olib borishdan maqsad, fuqarolarni qutqarish va zararlangan odamlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarini amalga oshirishda halaqit beradigan avariyalarni to'sish, shikastlangan joylarni tiklash ishlarini amalga oshirishda sharoitni yaratish va boshqa vazifalarini bajarish ko'zda tutiladi.

Umumiy qirg'in qurollari qo'llanilganda quyidagi qutqaruv ishlari bajariladi:

- obyektlar tomon tizimlarning harakatlanish yo'llarini razvedka qilish;
- shikastlangan obyektlarga harakat qilishda, yong'lnlarni o'chirish va to'sish;
- zaharlangan, yong'inli, gazga to'lgan, suv bosgan joylarda va yer ostida qolgan odamlarni topish va qutqarish;
- shikastlangan, buzilgan va zaharlangan himoya inshootlaridagi fuqarolarni qutqarish;
- havo almashtirgichi buzilgan, shikastlangan himoya inshootlariga havoni yetkazib berish;
- shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni tibbiy

shoxobchalariga eltib qo'yish;

- xavfli hududdagi fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish;
- odamlarni sanitар qayta ishlovdan o'tkazish, uy hayvonlarga veterinar qayta ishlov berish, texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xom-ashyo, suv va yem-xashklarni dezaktivatsiya va degazatsiya qilish.

Boshqa birlamchi tiklov ishlariga quyidagilar kiradi:

- shikastlangan hududlardagi (zaharlangan, yiqilgan, buzilgan inshootlar) yo'llarni tozalash;
- qutqaruv ishlarini olib borishda gazli, elektrli, suvli, kanalizatsiya va texnologik tizimlardagi avariyalarni to'sish ishlari;
- shikastlangan inshootlarni buzish yoki uni mustahkamlash;
- aloqa va kommunal-energetik tarmoqlardagi falokatlarni tuzatish va tiklash ishlari;
- turli xildagi portlovchi qismlarni, portlovchi aslahalarni topish, zararsizlantirish va yo'qotish ishlari.

QBTI ishlari kunu tun, doimiy ravishda, har qanday tabiiy sharoitda olib boriladi.

Umumiy qirg'in qurollarining shikastlanish o'chog'ida QBTIni olib borish uchun, tinchlik davridayoq tuman fuqarolar muhofazasining boshlig'i qarori bilan fuqaro muhofazasi kuchlarining harakat qilish yo'llari tuziladi.

Harakatlanuvchan kuchlar tarkibiga shahar, tuman fuqarolar muhofazasining hududiy, ishlab chiqarish tamoyilga ko'ra tuzilgan tizimlari hamda harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari kiradi. Bu kuchlar asosan birinchi va ikkinchi eshelondan va qo'shimcha qismlardan tashkil topadi. Eshelonlar tarkibiga kiruvchi tuzilmalar uzlusiz faoliyat ko'rsatish uchun ular smenalarga bo'linib ishlab chiqarish tamoyiliga asoslangan bo'ladi.

Birinchi eshelonda asosan fuqarolar muhofazasi harbiy qismlari, korxonaning obyektli tuzilmalari va ma'lum qismdagi hududiy tuzilmalari harakatlanadi. Bunda fuqarolar muhofazasining harbiy qismlari va hududiy tizimlari asosan shahar, tuman

fuqarolar muhofazasi rejasiga asosan xalq xo‘jaligi tarmoqlarining eng muhim obyektlarida QBTI ishlarni bajaradilar.

Ikkinci eshelon tizimlari asosan birinchi eshelon tizimlari kuchini oshirish hamda faoliyat ko‘rsata olmaydigan tizimlar o‘rnini egallash maqsadida harakatlanadi. Obyektning fuqarolar muhofazasini harakatlanuvchan kuchlari asosan umumiylotryadi, qutqaruv otryadi hamda ishlarni bajaruvchi tizimlardan tashkil topgan.

Fuqarolar muhofazasining texnika vositalari hamda kuchlari shikastlangan hududga juda qisqa vaqtda kirishi, QBTI ishlarni muvaffaqiyatli bajarishi, zamonaviy texnikadan unumli foydalanishi, ish jarayonida qo‘l ostidagi kuchlarni, tizimlarni almashtirib turishi va boshqa ishlarni bajarishi lozim. Albatta, turli xildagi texnikalardan foydalanmay shikastlangan hududda katta, unumli ishlarni bajarib bo‘lmaydi. Faqatgina mexanizmlar yordamigina, jumladan, qurilish va yo‘l mashina va mexanizmlari, kommunal-texnika jihozlari yordamida, yer ostida, buzilgan, yonayotgan, gazga to‘lgan inshootlar ichida qolgan, buzilgan himoya inshootlari ostida qolgan fuqarolarni qutqarish va boshqa ishlarni bajarish mumkin.

Bajariladigan ishlarni tavsifiga qarab mexanizmlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- bosib qolgan himoya inshootlarini ochish, to‘silib qolgan, bosib qolgan joylarni ochish va tozalash, yo‘llarni tozalashda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar (ekskavatorlar, traktorlar, buldozerlar, kranlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqalar).
- bosib qolgan chiqish joylari to‘silib qolgan inshootlarda teshik ochish uchun ishlatiladigan pnevmatik jihozlar (parmalaydigan va urib sindiradigan bolg‘alar).
- metallarni kesuvchi jihozlar.
- suv haydaydigan mexanizmlar (nasoslar, suv sepadigan mashinalar, yong‘inni o‘chiruvchi va boshqalar)
- suv yo‘llari oqali tashuvchi mexanizmlar (paromlar, trayler-tyagachlar, yuk tashuvchi pritseplar)
- ta‘mirlovchi va xizmat qiluvchi jihozlar (ta‘mirlovchi qismlar, benzin, suv

quyish, yorituvchi maskanlarda va xizmat ko‘rsatuvchi maskanlarda qo‘llaniladigan jihoz va mexanizmlar).

QBTI ishlarini muvaffaqiyatli bajarishda mexanizm va mashinalardan oqilona foydalanishdan tashqari, razvedka ishlarini o‘z vaqtida tashkil etib o‘tkazishi, ko‘rsatilgan muddatda ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishi, shikastlangan o‘choqda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarga tuzilmalarni jalb etilishi, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi, tuzilma boshliqlarining shikastlangan o‘choqdagi ishlarning tavsifini oldindan o‘rganishi, communal-energetik va texnologik jarayonlarga e’tibor berishi, hududda saqlanadigan KTZM o‘rni, himoya inshootlarining joyi, tavsifnomasi va boshqa vazifalarga katta e’tibor beriladi. QBTI ishlari o‘sha obyektning fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan oldindan rejalashtiriladi va favqulodda holatda qo‘l ostidagi kuchlar, mablag‘lar, texnikalar, bajaradigan ish hajmi aniqlashtiriladi.

**Qutqaruv va birlamchi tiklash ishlarini shikastlangan o‘choqda olib borish usullari.** Ma’lumki, QBTIni bajarish usullari va qoidalari, o‘sha shikastlangan o‘choqda harakatlanuvchan tuzilmalarga halaqit beruvchi omillar darajasiga qarab tanlanadi. Jumladan, shikastlangan inshootlarni tavsifiga, communal, energetik va texnologik tarmoqlardagi avariya darajasiga, o‘sha joydagি radiaktiv va kimyoviy zararlanish darajasi hamda yong‘in miqyosiga qarab usullar tanlanadi. Chunki radiaktiv, kimyoviy va biologik shikastlangan o‘choqlarda shikastlanish har xil darajada va miqyosda bo‘lganligidan QBTI usullari ham har xil tartibda qo‘llaniladi. Masalan, yadroviy shikastlangan o‘choqda qolgan odamlarni qutqarish va boshqa qutqaruv ishlarini bajarish uchun birinchi navbatda, shikastlangan inshootlar, himoya inshootlariga boradigan yo‘l, yo‘laklarni ochish va tozalash ishlari amalga oshiriladi.

Buning uchun bir tomonlama harakatlanuvchan yo‘llar 3-3,5 m kenglikda, ikki tomonlama harakatlanuvchan yo‘llar uchun esa 6-6,5 m kenglikda tozalanadi va ochiladi. Bunday yo‘llarda har 150-200 m.ga 15-20 m uzunlikdagi razyezdlar qo‘yiladi. Yo‘l va yo‘laklarni tozalashda barcha mexanizmlar (buldozer, kranlar va boshqalar) bilan ish ko‘rilib, yong‘inga qarshi tuzilmalar ham birgalikda harakatlanib, yonayotgan inshootlarni o‘chiradi. Keyin buzilgan binolar, yer ostida qolgan odamlar

va yong‘inli uyda qolib ketgan fuqarolarni qutqarish harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari va tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi, bunda ishga yaroqli fuqarolar ham ishtirok etadilar. Buning uchun darhol razvedka ma’lumotlariga qarab inshootlarda qolgan odamlar bilan turli xil uslublar orqali aloqa bog‘lanadi. Masalan, havo kiradigan teshiklar, devor, eshik, suv va issiqlik ta’minoti quvurlarini tiqqilatish orqali. Yer ostidagi, himoya inshootlaridagi odamlarni qutqarishdan oldin unga havo beriladi. Buning uchun havo beruvchi teshiklar tozalanadi yoki devorlardan teshik hosil qilinadi.

Boshpanalarini ochish usullari, uning tuzulishiga va shikastlanish darajasiga qarab tanlanadi. Ya’ni inshootning chidamliligi, yon tomondanmi, qo’shimcha eshik tomoni ochiladimi, devorlari teshilib, yo’lakcha hosil qilinadimi yoki boshqa yo’llari tayyorlanadimi, bular o’sha inshootning ahvoldidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Keyin shu inshootlardagi odamlar qutqarilib, ularga tibbiy yordam ko’rsatiladi.

Xuddi shunga o’xhash ishlar tinchlik davrida ham, tabiiy ofatlar, kuchli yer silkinishi natijasida ham olib boriladi. Masalan, Afg‘oniston, Meksika, Armaniston, Hindiston va boshqa yer silkinishlari ni yodga olish mumkin. Bu yerdarda yer ostida qolgan odamlarni qutqarishda juda katta (16 t) yuk ko’targichlari, projektorlar tunu kun ishладilar. Buzilgan joylarda qolgan odamlarni 2-3 hafta davomida qutqarilgan va yashayotgan fuqarolar borligi aniqlangan. Masalan, 1985 yil Meksikada bo‘lgan yer silkinishi oqibatida 13 sutkagacha harobalar ostida qolib ketgan 4,5 ming odam qutqarilgan. Armanistondagi yer silkinishida esa 5 kundan keyin qutqarilganlar soni 5398 kishini tashkil etgan. Bu falokatda Fransiya, Angliya, AQSH, Shveytsariya va boshqa davlatlarning qutqaruv qismlari ishtirok etdilar va o’zlarining eng zamonaviy uskunalari hamda boshqa vositalardan foydalanishi, bir qancha odamlarni tirik saqlab qolganlari ma’lum.

Yuqorida aytib o’tilgan shikastlangan o’choqlarda faqatgina qutqaruv ishlarini bajarmasdan, birlamchi avariyanı tiklov ishlari ham bajariladiki, bunda qutqaruv ishlariga halaqit beruvchi avariylar hamda yangi falokatlarni keltirib chiqaruvchi avariya va talofotlanishlarning oldi olinadi. Chunki bular oqibatida fuqarolar qo’shimcha talofot olishlari mumkin. Buning uchun suv tarmog‘i kanalizatsiyasi, gaz,

elektrtarmoqlaridagi avariyanı tuzatuvchi tuzilmalar ham jalb qilinadi. Albatta, bu ishlarga umummaqsadli tuzliamlar ham jalb etiladi. Yuqoridagi avariyalarning oldini olishni asosiy yo‘li bu shikastlangan uchastkalarga suv, gaz, elektr va boshqa sabab bo’lishi mumkin bo’lgan omillarni kelishini to‘sish hisoblanadi. Bunda turli xildagi to‘sish omillaridan foydalaniladi. Masalan, inshootlarning devorlari turli xildagi tirgovuchlar orqali mustahkamlanadi, buziladiganlar esa tamoman buzib tashlanadi. Chunki bu ishlarni qilmasdan turib, odamlarni qutqarish xavfli hisoblanadi.

**Kimyoviy shikastlangan o‘choqda qutqaruv ishlarini bajarish** birmuncha oldingisidan farqlanadi. Bu holatda birinchi navbatda ogohlantirish belgisi «Kimyoviy trevoga» berilib, darhol o‘sha joyga radiatsiya, kimyoviy va tibbiy razvedka bo‘limlari yuboriladi. Ular shikastlangan joyni, vaqtini, qo‘llanilgan quroq turini (yoki zaharli moddalar - KTZM), zaharlangan hudud o‘lchamini va uni tarqalish yo‘lini aniqlab beradilar. Mana shularga asoslanib bu obyekt fuqarolar muhofazasi boshlig‘i qaror qabul qilib, o‘zi qutqaruv omillarini hamda kimyoviy zararlanishni to‘sish omillarini tashkil etadi. Bunday holatlarda qutqaruv ishlariga birinchi navbatda sanitar drujinachilari, umumiyo‘tryad, zararsizlantirish guruhlari va mexanizatsiya tuzilmalari jalb etiladi.

Bunda har bir tizimlar aniq vazifa va texnikalar, jihozlar bilan ta’minlanadi. Chunonchi:

- sanitar va qutqaruv tuzilmalariga ish joylarini, transport vositalarini, zararlangan odamlarni o‘choqdan olib chiqish, birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va evakuatsiyani tashkil etish vazifalari;
- radiatsiyaga qarshi (RQ) va kimyoviy himoya (KTQ) hamda umumiyo‘tuzilmalarga qutqaruv ishlarining joyi, KTZM saqlanadigan joylardagi avariyanı to‘sish va zaharlangan inshootlarni, atrof-muhitni degazatsiya qilish ishlari;
- zararsizlantirish guruhlariga degazatsiya bajariladigan ish joylari, obyektlari, degazatsiya qiluvchi eritmalarini tayyorlash va mashinalarni to‘ldirish, degazatsiya ishlarini olib borish yuklatiladi.

**Kimyoviy o‘choqda** qutqaruv ishlarini bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar olingandan keyin har bir tuzilma boshliqlari o‘z qo‘l ostidagi fuqarolarni yakka

tartibdagi himoya vositalari, antidotlar, SHKP-8 bilan ta'minlaydilar. Shundan keyin ular razvedka, sanitar drujina, RQ va KTQ tuzilmalaridan keyin ish joylariga borib, vazifalarini bajarishga kirishadilar. Bunda birinchi bo'lib zararlangan odamlarga yordam ko'rsatiladi, ya'ni gazniqob kiydiriladi, antidot berilib, tibbiy yordam ko'rsatiladi va ular har xil zararlanish toifalariga bo'linib, so'ngra tibbiyot shoxobchalariga evakuatsiya qilinadi. Zararsizlantiruvchi tuzilmalar, hamma yo'llar, inshootlar, texnikalar degazatsiya qilinadi. Shu tariqa kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv ishlari bajariladi.

**Biologik shikastlangan o'choqda esa** biologik razvedka va bakterial moddalar xili, karantin yoki observatsiya rejimini qo'llanilishi; sanitar-ekspertiza, oziq-ovqat mahsulotlari, suv, yemlarning zaharlanganligini aniqlash va ularni zararsizlantirish; epidemiyaga qarshi, sanitar-gigiyenik, veterinariya ishlari va boshqa omillar amalga oshiriladi.

Bu ishlarni olib borishda biologik shikastlangan o'choqda sanitar-epidemeologik maskan, veterinariya maskani, epidemiyaga qarshi harakatlanuvchan otryad, shifoxonalar, poliklinika, veterinariya tarmoqlari va boshqa meditsina tarmoqlari jalb etiladi. Ular birinchi navbatda og'ir kasallik tarqatuvchilardan saqlash uchun profilaktik omillar olib borishadi. Bunda turli xildagi ta'sir etuvchi antibiotiklardan hamda SHD-2 dan, gazniqoblardan foydalaniladi. Hududda kasallik tarqatuvchining aniq turi topilgandan keyin, unga qarshi maxsus dorilardan foydalaniladi. Shundan keyin shikastlanganlarning kasallanish holatiga qarab har xil darajada tuzatish muolajalari olib boriladi. Ular darhol kasalxonaga yotqiziladi va juda og'irlari ma'lum joyga, maxsus guruhlar yordamida evakuatsiya qilinib o'sha yerda davolanadilar.

Biologik o'choqning tugatilishi u yerdagi oxirgi odamni tuzalib ketish vaqt bilan aniqlanadi. Biologik o'choqda harakatlanuvchan qismlar, u yerdagi yuquvchan kasallik bilan kasallanmasliklari uchun hamma omillarni olib borish kerak, ya'ni kasallar bilan muloqatda bo'lmaslik, inshootlar, xonalar, atrof-muhit zararsizlantirib turilishi, kiyim-kechaklarni dezinfeksiya qilib turish va o'zini sanitar - qayta ishlovdan o'tkazib turish talab etiladi. Mana shularga rioya qilib, harakatlanuvchi

tuzilmalar hech qanday yo‘qotishsiz, o‘z vazifalarini bajarib boradilar. Murakkablashgan shikastlanish o‘chog‘ida QBTI ni olib borish, alohida-alohida o‘choqlarda olib borilgan ishlarga nisbatan bir necha o‘n barobar og‘ir hisoblanadi. Chunki bu holatda vaziyat juda murakkab bo‘lib, o‘choqdagi shikastlantiruvchi omillar turini aniqlash juda og‘ir hisoblanadi. Bulardan tashqari, bunday o‘choqda biror omilga qarshi olib boriladigan tadbirlar ikkinchi omilga tamoman teskari bo‘lishi mumkin. Masalan, xavfli epidemiya bilan kasallangan odamlarni davolashda foydalaniladigan karantin omili kuchli binar-xususiyatlari kimyoviy qurollar ishlatilganda qo‘llaniladigan evakuatsiya va boshqa vositalar. Murakkablashgan o‘choqda biror uslubiy ko‘rsatma asosida emas, QBTIni sharoitini aniq o‘rganish orqali, o‘sha yerdagi vaziyatdan kelib chiqqan holatda olib boriladi.

### **Ishlab chiqarish tarmoqlaridagi avariyalarda qutqaruv va tiklash ishlari.**

Ishlab chiqarish jarayonlaridagi avariylar tasadifan sodir bo‘lib, uning ko‘lami tez kengayadi hamda insonlarning hayot faoliyatiga katta xavf soladi. Ishlab chiqarishdagi avariyalarning sodir bo‘lishi, ko‘proq ishlab chiqarish jarayonining xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, ko‘pchilik hollarda bunday falokatlar ikkilamchi salbiy ta’sirlarni yuzaga keltirib, atrof-muhitga katta zarar keltiradi. Masalan, bunday holatlar neftni qayta ishlash, kimyo, yoqilg‘ilarni qayta ishlash, konchilik sanoat tarmoqlari, biotexnologik jarayonlar kechadigan hamda KTZM larni tashish jarayonidagi xatoliklar natijasida ko‘proq yuzaga keladi. Bunday falokatlar yuz bergen obyektdagi fuqarolarni va obyekt atrofida yashaydigan aholini o‘z vaqtida xabardor qilish hamda ularni muhofazasini tashkil etish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarga jarohat olgan aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish va ularni davolash shoxobchalariga joylashtirish ishlari ham kiradi.

Obyektning avariyliga uchragan joylari razvedka qilinib, yong‘in chiqqan hududlarda yong‘inni o‘chirish va ularning ko‘lamini cheklash hamda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa noxush vaziyatlarni oldini olish ishlari olib boriladi. Avariyliga uchragan obyektlardagi shikastlangan bino, konstruksiyalardan, gazga, tutunga to‘lgan inshootlardan extiyot bo‘lish kerak. Chunki, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik inson uchun salbiy holatlarga olib keladi. Shuning uchun

har qanday muhofaza vazifalarini bajarishdan oldin qulab tushish ehtimoli bor bo‘lgan bino qismlarini mustahkamlab yoki buzub tashlab, undan keyin harakat qilish kerak. Ba’zi bir falokatlar sodir bo‘lganda yoqilg‘i yoki xavfli suyuqliklar sig‘imidan oqib ketishi va tarqalishi oqibatida kuchli yong‘inlar, portlash hodisalarining kelib chiqishiga va o‘z navbatida atrof-muhitni zaharlanishiga olib keladi. Shu sababdan avariya oqibatlarini bartaraf etish ishlarini olib borishda bunday salbiy holatlarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Shuning uchun avariyyaga uchragan obyektlarda ish olib borilayotganda obyekt atrofi to‘sıqlar bilan o‘raladi, hamda qo‘riqchilar yoki kuzatuvchilar bilan ta’minlanadi.

**Zararlangan ob`ektlarni maxsus ishlovdan o`tkazish.** Dushman tomonidan qo‘llanilgan qirg‘in qurollari oqibatida insonlar, atrof-muhit, suv, oziq-ovqatlar, texnika, transport vositalari va inshootlar radiaktiv zarrachalar, zaharli moddalar va bakterial moddalar bilan zararlanishi mumkin. Shu sababdan fuqarolarni mana shu zararlanishdan saqlashda maxsus ishlov berish omillari bajariladi. Maxsus ishlov berish omili - umumiy qirg‘in qurollari talofotlarini yo‘qotish jarayonining asosiy qismini tashkil etib, u qutqaruv va tiklash ishlarini olib borishda kompleks vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus ishlov berish omili - to‘liq hamda qisman ishlov berish xillariga bo‘linadi. To‘liq ishlov berish omili deyilganda qo‘yilgan vazifalarni bajarishda hech qanday himoya vositalarisiz amalga oshirish, ya’ni - xavfsiz sharoit yaratish tushuniladi. Qisman ishlov berish omillarida esa qo‘yilgan vazifalarni faqat terini himoyalovchi vositalarsiz amalga oshirish sharoiti tushuniladi. Maxsus ishlov berish omili - atrof-muhitni zararsizlantirish hamda fuqarolarni sanitar qayta ishlov berishdan tashkil topgan. Texnika va transport vositalarini zararsizlantirish avtoservis va boshqa ta’mirlovchi korxonalarda amalga oshiriladi. Fuqarolarni sanitar ishlovdan o`tkazish esa hammom, dushxona va boshqa maxsus yuvinish joylarida amalga oshiriladi. Zararsizlantirish omiliga dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya jarayonlari kiradi.

**Dezaktivatsiya** deyilganda, zararlangan vositalardan (kiyim-kechak, himoya vositalari, suv, texnika, transport vositalari) hamda inshootlardagi radiaktiv

moddalarni aktivligini yo‘qotish tushuniladi. Dezaktivatsiyaning to‘liq hamda qisman xili mavjud bo‘lib, u asosan mexanik va fizik-kimyoviy usul bilan olib boriladi. Mexanik usulda - radiaktiv moddalar bilan zararlangan sirt yuzalarini artish orqali yo‘qotiladi. Fizik-kimyoviy usulda esa radioaktiv moddalar turli xildagi kimviy modda eritmalari bilan yuvish amalga oshiriladi. Dezaktivatsiyada asosan suv ishlatilib, radioaktiv moddalarning yuviluvchanligini oshirishda, sirt-aktiv hamda kompleks hosil qiluvchi moddalar, kislotalar va ishqorlar ishlatiladi. Bular: SF-2, OP-7, OP-10, Na<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> trilon B, shavel, limon kislotalari va uning tuzlardir.

**Degazatsiya omili** - zaharlovchi moddalarni parchalab, zararsiz moddalar hosil qilishi hamda ularning miqdorini kamaytirish hisoblanadi. Degazatsiya omili maxsus texnikalar yordamida amalga oshiriladi. Degazatsiya qiluvchi moddalarga kimyoviy moddalar kirib, ular oksidlovchi xlorli birikmalar (gipoxloridlar, xloramin) va ishqoriy birikmalar (NaON, soda, ammiak, ammiakli tuzlar) kiradi. Bu birikmalarning hammasi eritma holida ishlatiladi.

Erituvchi sifatida: suv, dixloretan, trixloretan, benzin ishlatiladi. Degazatsiya qiluvchi eritma №1, 5 foizli geksaxlormelamin yoki 10 foizli dixloramin eritmasi iprit va boshqa kimyoviy qurollarni zararsizlantirishda ishlatiladi. Degazatsiya qiluvchi eritma №2, 2 foiz NaOH, 5 foizli monoetanolamin va 20 foiz ammiakli suv eritmasidan tashkil topib, zoman tipidagi zaharlovchilarni zararsizlantiradi. Terini kasallantiruvchi va asabni falajlovchi zaharli moddalarni zararsizlantirishda xlorli ohak eritmasi ishlatiladi.

Kimyoviy qurollar bilan zararlangan atrof–muhit kimyoviy yoki mexanik usulda degazatsiya qilinadi. Kimyoviy usul bo‘yicha yuqorida aytilganidek, degazatsiyalovchi modda eritmalari bilan qayta ishlanadi. Mexanik usulda esa zararlangan joylarning ustki qismlari (7-8 sm qalinlikda) olib tashlanadi yoki o‘scha joyning ustini qalin somon, taxtalar bilan berkitilib, himoya qilinadi. Dezaktivatsiya va degazatsiya omillarining tozaligi dozimetrik va kimyoviy asboblar bilan tekshiriladi.

**Dezinfeksiya omili** – biologik shikastlanish o‘chog‘ida olib boriladigan zararsizlantirish tadbirlari hisoblanib, uni olib borish usullari va qoidalari ikkinchi

bobda batafsil keltirilgan. Dezinfeksiya omillarining tozaligi bakteriologik usul orqali nazorat qilinadi.

**Sanitar qayta ishlash.** Bu omil maxsus qayta ishlov berish usulining asosini tashkil etib, u fuqarolarni radiaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial tumanlar bilan zararlanishning oldini olishda qo'llaniladigan har tomonlamali omillaridan tashkil topgan. Sanitar qayta ishlash, qisman va to'liq turlarga bo'linadi. Qisman sanitar qayta ishlash - barcha kiyim-kechak, yakka tartibdagi himoya vositalari, ochiq qolgan terilarni mexanik usulda tozalash hisoblanadi.

**To'liq sanitar qayta ishlash** - tana a'zolarni zararsizlantiruvchi usullarni qo'llash (yuvish, dezinfeksiya qilish) tushuniladi. Bu barcha tana a'zolarini, kiyim-kechak, himoya vositalar va boshqalarni zararsizlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu usul bo'yicha shikastlangan hududdan chiqqan fuqarolar, ishchi-xizmatchilar, tuzilmalar jalg qilinadi. To'liq sanitar qayta ishlash omili maxsus qurilgan yuvinish shoxobchalarida amalga oshiriladi. Bunda fuqarolar bir tomondan kirib, kiyim-kechak, himoya vositalarini yechib, yuvinib, og'iz, ko'z ichlarini zarasizlantirib, ikkinchi tomondan dozimetrik, kimyoviy tekshiruvdan o'tib, so'ngra toza kiyim-kechak kiyishadi hamda ikkincha dozimetrik ko'rikdan o'tiladi. Zararlangan kiyimlar, himoya vositalari, maxsus usullar yordamida zararsizlantiriladi. Shikastlangan hududdan chiqishda yuqorida aytilgan muolajalar yuqori saviyada o'tkazilsa, zararlanish miqyosi shuncha kichik va talofotlarga uchrashning oldi olingan bo'ladi.

Zararlangan joylarni zararsizlantirish ishlar tamom bo'lgandan so'ng har bir fuqaro to'lik sanitar qayta ishlovdan o'tishi kerak. Bu muolaja hammomlarda, dushxonalarda yoki maxsus yuvinish joylarida amalga oshirish kerak. Bu joylarda zararlangan kiyim-kechaklar, himoya vositalari, bir joyga echilib, keyin yuviniladigan xonaga kiriladi vasovun, mochalka bilan hamma teri ustilari zarasizlantiriladi. Yuvinib bo'lgandan so'ng dozimetrik ko'rikdan o'tiladi va yangi zararsizlantirilgan kiyim-kechak kiyiladi hamda ikkinchi dozimetrik ko'rikdan o'tiladi. Mana shunday muolajalardan o'tgan fuqaro, zararli ta'sirlar talofotlariga uchramaydi va uni oldini olgan bo'ladi.

## **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligi nimalardan iborat?
2. Iqtisodiyot tarmoqlarining uzuksiz ishlashiga ta'sir etadigan omillarni ayting.
3. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining uzlusiz ishlashini ta'minlash uslublarini tushuntirib bering.
4. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish usullari nimalardan iborat?
5. Yadroviy shikaslangan o'choqda qutqaruv va tiklov ishlari nimalardan iborat bo'ladi?
6. Kimyoviy shikastlangan o'choqda, qutqaruv va tiklov ishlari nimalardaan iborat?
7. Biologik shikastlangan o'choqda qanday kechiktirib bo'lmaydigan ishlar bajariladi?
8. Zararsizlantirish omiliga qanday jarayonlar kiradi?
9. Maxsus ishlov berish omilining mohiyati va uning turlarini tushuntirib bering.
10. Tabiiy ofat ro'y berganda sanitar gigiyena va epidemiyaga qarshi qanday tadbirlar amalga oshiriladi?

## **7. BOB. AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING USLUBLARI VA TAMOYILLARI**

O‘zbekiston Respublikasi aholisini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish zarurati bugungi kunda insonlar hayotini saqlash va favqulodda vaziyat ko‘lамини kengayib ketishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida mavjud tizimni ilmiy tomondan chuqur o‘rganish, taxlil qilish mavjud muammolarni yuzaga chiqarish, ushbu muammolarni yuzaga chiqarish orqali Respublika aholisini favqulodda vaziyatlarda o‘z vaqtida xabardor qilish bo‘yicha samarali tizimni joriy xizmat orqali amalgalash oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonida “favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va ularning oldini olishning samarali tizimini yaratish” muhim vazifalar belgilangan. Bu borada Favqulodda vaziyatlar vazirligini favqulodda vaziyatlar tahdidi va xavfini oldindan bartaraf etadigan, aholi hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘ilganda o‘z vaqtida va kompleks yordam ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat olib boradigan, uning har bir xodimi “O‘z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish” shiori ostida xizmat qiladigan mobil, zamonaviy professional xizmatga aylantirish uchun katta e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgustdagi 601-son “Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori bunga yaqqol misol.

## **§7.1. Favqulodda vaziyatlardan o‘z vaqtida ogohlantirish va xabar berish tizimi tushunchalari**

**Aloqa** - signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar yoki axborotning boshqa turlarini o‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektrmagnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlash;

**Aloqa tarmog‘i** - uzatishlarning bir yoki bir necha turini, ya’ni telefon, telegraf, faksimil turlarini, ma’lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarning boshqa turlarini ta’minlovchi aloqa vositalarining majmui;

**Aloqa vositalari** - elektrmagnit yoki optik signallarni hosil qilish, uzatish, qabul qilish, qayta ishlash, kommutatsiya qilish hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi texnik qurilmalar, asbob-uskunalar, inshootlar va tizimlar;

**Aloqa inshootlari** - aloqa tarmoqlari va vositalarining ishlashi hamda ulardan foydalanishni ta’minlovchi binolar, qurilmalar, aloqa liniyalari, moslamalar, tayanchlar, machtalar va boshqa inshootlar;

**Tarmoqlararo ulanishlar** - aloqa tarmoqlarining o‘zaro texnologik hamkorligi bo‘lib, u turli aloqalar operatorlarining foydalanuvchilar o‘rtasida axborotni uzatish va qabul qilishni ta’minlaydi;

**Xabar berish tizimi** - aholiga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning xavfi tug‘ilganda yoki sodir bo‘lganda, shuningdek, harbiy harakatlarda aholining harakat qilish qoidalari va muhofaza choralarining zarurligi to‘g‘risida ogohlantiruvchi va favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida ma’lumot yetkazish.

Bu tizim 4 ta darajada favqulodda vaziyat ko‘lamiga qarab Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi to‘g‘risida aholiga xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi darajasiga ko‘ra, quyidagi tartibda ta’minlanishi belgilangan:

- respublika darajasida - umumiyl respublika aholisini;
- mahalliy darajada - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisini;
- lokal darajada - potensial xavfli obyektdan zarar yetishi mumkin bo‘lgan zonadagi aholini;

- obyekt darajasida - obyekt ishchilarini.

Odamlarni ommaviy yashash joylarida ogohlantirish va aholini xabardor qilishning maxsus texnik vositalari mavjud bo‘lib, ular favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishi va aholining xatti-harakatlari to‘g‘risidagi, audio va audiovizual materiallarni, shuningdek, boshqa xabarlarni qayta ishlaydigan va jo‘natadigan maxsus texnikalar hisoblanadi.

Aholini ogohlantirishning asosiy usuli televideniya va radioeshittirish dasturlari va AK O‘zbektelekom filiallarining aloqa tarmoqlari orqali axborot va ogohlantirish signallarini uzatish. Bu usul asosan respublika va mahalliy darajada qo‘llaniladi.

Axborot va ogohlantirish signallari FVDTning kundalik boshqaruv organlari tomonidan telekommunikatsiya operatorlari va teleradioeshittirish kompaniyalari orqali teleradioeshittirish dasturlarida uzatilishi va aholini xabardor qilish uchun telekommunikatsiya tarmoqlari orqali FVDT doimiy faoliyat yurituvchi organlari rahbarlarining ruxsati bilan uzatiladi.

Uzatilayotgan ma’lumotlar 5 daqiqadan oshmasligi zarur, qoida tariqasida, efir studiyalarining efir dasturlari uzilishlari bilan ommaga uzatiladi. Ovozli ma’lumotni 3 marotaba takrorlashga ruxsat etilgan.

FVDT kundalik boshqaruv organlari axborot yoki ogohlantirish signallarini olganda ularning qabul qilganligini tasdiqlaydi va qabul qilgan ma’lumotni yoki ogohlantirish signallarini zudlik bilan fuqaro muhofazasi va FVDT boshqaruv organlariga, kuchlariga va vositalariga yetkazilishi kerak. Axborot yoki ogohlantirish signallarini uzatish avtomatlashtirilgan holda va har bir yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilishi imkonи mavjud.

Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, saqlash va tarqatish, shuningdek favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari va muhofaza usullari, yuzaga kelgan vaziyat to‘g‘risida aholiga xabar berish va ma’lumotlarni yetkazishda barcha jarayonlarni aniq vaqt ko‘lamida monitoring qilish dasturiy-texnik vositalari

majmui orqali va quyidagi axborot markazlarida ishlov berish ayirboshlash ishlari tashkil etilishi belgilangan:

ma'lumotlar markazi - favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qabul qilish va tarqatish xizmati;

terminal majmui - ma'lumotlarni qabul qilish, ishlov berish va audio va vizual xabarlarni aks ettirish, shuningdek odamlarning ommaviy yig'ilish joylaridagi holat haqidagi ma'lumotlarni axborot markaziga axborotlashtirish vositalari orqali qabul qilish va tarqatish.

Potensial xavfli hududdagi mahalliy ogohlantirish va xabar berish tizimi joylashgan potensial xavfli obyektning asosiy va muqobil nazorat punktlarida (MPS) joylashgan AAP-S raqamli tarmog'i uchun avtomatlashgan boshqaruv paneli uzellaridan nazorat qilinadi.

Mahalliy ogohlantirish tizimlari mayjud bo'lgan meyoriy hujjatlarga muvofiq va potensial xavfli obyekt joylashgan hududda aloqa va radioyeshittirish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ulardan tashqari quydagilar ham yaratiladi. Bunda:

radiatsiyaviy xavfli obyektlar joylashgan joylarda - har bir obekt atrofida 5 km radiusda (shu jumladan, korxona xududida ham);

kimyoviy jihatdan xavfli obyektlar joylashgan obyektlarda har bir obekt atrofida 2,5 km radiusni qamrab oluvchi ovozli xabar berish tizimi vositalari qo'llaniladi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirishning asosiy usullaridan biri davlat yoki mahalliy axborot uzatishni va og'zaki xabar berishni FVDTda radio, radiorele, simli va signal beruvchi aloqa vositali Fuqaro muhofazasi xabar berish signallari va tegishli axborotni butun hududga yoki favqulodda vaziyat xavfi tug'ilgan hududga berishi mumkin.

Xabar berish vositalariga - axborot berish, axborot xavfsizligini taminlash uchun bir-birini tanib olish hamda xabarlash, boshqarish va o'zaro hamkorlik qilish signallarini berish uchun ishlatiladigan eshitish, ko'rish, radiotexnika vositalaridir.

Ovozli xabarlarni O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi yoki O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan teleradio eshittirish studiyalarining malakali suxandonlari viloyat, shahar, qishloqlar ma'muriy markazlari studiyalarining, xalq xo'jaligi inshootlari nozimlik punktlari tayinlangan suxandonlari tamonidan eshittiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari asoslangan ovozli xabarlar matnini davlat va rus tillarida ishlab chiqishlari, ularni magnit tasmasiga videokassetaga yozib qo'yishlari kerak. Magnit tasmasidagi yozuvlar (videokassetalardagi) favqulodda vaziyatlar boshqarmasida (tezkor navbatchida) va inshootlarda hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi studiyalarida (shu jumladan Favqulodda vaziyatlar vazirligi shahardan tashqari Boshqaruva punktlarida va viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalarida ham) belgilangan tartibda uyushqoqlik bilan saqlanishi kerak.


Ovozli axborot berishdan avval "Diqqat barchaga!" ogohlantirish sirenada bongi chalinadi. Uni eshitgan zahoti, televizor va radiopriyomniklarni yoqish zarur va berilayotgan ko'rsatmalarga qarab harakatlanish lozim.

Zamonaviy vositalar orqali aholi muhofazasini muvaffaqiyatli tashkil etish aholini o'zini tutishi va xarakatlanish qoidalarini mukammal o'zlashtirishiga, favqulodda vaziyat vaqtida to'g'ri harakatlanishini tashkil etishga va fuqaro muhofazasi ogohlantirish signallariga muvofiq faoliyatni amalga oshirishlariga bog'liq bo'ladi.

Aholini o'z vaqtida turli xavf-xatardan bevosita ogohlantirish maqsadida fuqaro muhofazasining ogohlantirish signallari beriladi:

"havo hujumi!", "Radiatsion xavf!" va h.k.

Respublikamizda mayjud bo'lgan turli hil xabar berish va ogohlantirish tizimlari va ularning vazifalari tasniflari turlicha keltirilgan. Ogohlantirish tizimlari turli mezonlarga muvofiq tasniflanishi mumkin, ulardan eng muhimmi quyidagilardan iborat:



7.1-rasm. Xabar berish va ogohlantirish tizimini tasniflash sxemasi

## §7.2. Favqulodda vaziyatlardan aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish tizimi


Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida aholiga xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi respublika, mahalliy va obyekt axborot markazlari, terminal majmualari va bo‘lingan avtomatlashtirilgan quyi tizimlardan iborat bo‘ladi.

**Markazlashgan xabar berish tizimi** tinchlik va xarbiy harakatlar davrida fuqaro muhofazasiga mas’ul xodimlarga hamda respublika aholisiga signal va kerakli axborotlarni tezlikda yetkazib berishga mo‘ljallangan texnik vositalar, aloqa kanali, radio va televide niye majmuasi hisoblanadi. Markazlashgan xabar berish tizimi respublika, viloyat, tuman, shahar, inshoot miqyosida tuziladi. Aholiga markazlashgan holda xabar berish tizimining maxsus jihozlangan texnik vositalari Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmalari tasarrufida bo‘ladi. Bu texnik vositalar qoida bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkilotlarida joylashtiriladi. Xabar berish vositalari favqulodda vaziyatlar shahar (tuman) bo‘limlarida o‘rnataladi. Agarda bunday bo‘limlar mavjud bo‘lmasa kechayu-kunduz tezkor navbatchilik tashkil qilingan joylarga o‘rnataladi. Markazlashgan xabar berish tizimi sirenaning ovozi shahar, tuman, viloyatning barcha aholisi etiborini jalb qilish imkoniyatiga egaligi; uni ham tinchlik davrida - tabiiy ofat, avariylar sodir bo‘lganda, ham xarbiy davrda ko‘llash mumkinligi; aloqa va radio tarmoqlari orqali og‘zaki axborotlar olish

imkoniyatiga egaligi bilan qulay sanaladi. Xabar berish tizimi markazlashgan va cheklangan quyi tizimlarga bo‘linadi.

### **Mahalliy xabar berish tizimi:**

- shaharlarda, tumanlarda, iqtisodiyot obyektlarida va qishloq joylarda yirik aholi punktlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda «Diqqat barchaga!» signalini berish;
- simli eshittirish tarmoqlari va mahalliy radio eshittirish stansiyalarida og‘zaki axborot berish yo‘li bilan aholini xabarlash;
- signallar va axborotlarni Respublika, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning shaharlardagi boshqaruv punktlariga, shahar, tuman ichki ishlar bo‘limlariga yetkazish;
- rahbar xodimlarning xonodon va xizmat telefonlari orqali doimiy (sirkulyar) xabar berish;
- FM xabar berish signallarini iqtisodiyot obyekt ishchilari xizmatchilariga, FM tuzilmalariga va O‘zbekiston Respublikasining barcha aholisiga yetkazishni ta’minlashi zarur.



7.2-rasm. Respublika darajadagi Markazlashgan xabar berish tizimini yaratish sxemasi

**Lokal xabar berish tizimlari.** Potensial xavfli obyektlar va kimyoviy xavfli obyektlarda aholiga tezda xabar berish mahalliy tizimlari yaratish masalasiga alohida qaror bilan belgilab berildi. Bunday xabar berish tizimlari yordamida avariya sodir bo‘lgan obyektlardagi ishchi va xizmatchilar zaharlanish, vayron bo‘lish yoki halokatli suv bosish ehtimoli mavjud zonadagi aholi punktlari ham o‘z vaqtida ogohlantirilishi belgilangan. Chernobil voqeasidan keyin, Xabar berishning lokal tizimlari yaratish masalasiga alohida e’tibor beriladigan bo‘ldi. Bunday tizimlar yordamida avariya sodir bo‘lgan obyektdagi ishchi xizmatchilargagina emas, balki zaharlanish, vayron bo‘lish yoki halokatli suv bosish ehtimoli bor hududga tushib qoladigan aholiga ham vaqtida xabar berish mumkin bo‘ladi.


Lokal tizimlar odatda, signal beruvchi qurilmalar(datchiklar)dan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ular kimyo inshootlarga “to‘g‘onlar korpusiga o‘rnatib qo‘yiladi.

Aholini favqulodda vaziyatlardan ogoxlantirishda xabar berish aholiga tushunarli, avvaldan belgilangan shartli signallardan (sirena ovozi, korxona va muassasalardan beriladigan signallar) boshlanadi.

Aloqa vositalari va xabar berish usullari avvaldan rejalashtirilgan va tashkil qilingan bo‘lishi kerak. Fuqaro muxofazasi tadbirlarini o‘gkazishning barcha rejimlarida aloqa va xabar berish vositalari asosiy o‘rinni egallaydi. Xar qanday xavf-xatar holatida elektr sirenalari ishga tushiriladi.

Fuqaro muhofazasi sohasida S-40 elektrosirena yordamida «Diqqat barchaga!» nomli signali orqali hamda harakatdagi boshqaruv punktlari tarkibidagi **Ko‘chma aloqa tarmog‘ining aloq vositalari, ovoz kuchaytirgichlar, elektron tablolar (monitor) hamda** avtomobillar, motosikllar va vertolyotlardan foydalanish mumkin.

### Локал хабар бериш ва огохлантириш тизими



7.3-rasm. Lokal xabar berish va ogohlantirish tizimi

Tezkorlik - lokal tizimlarning asosiy avfzalligi bo‘lib, tezlik bilan xabar berishdan iborat. Masalan: Navbatchi dispatcher FV sodir bo‘lishi ehtimolida va sodir bo‘lganda o‘z vaqtida qaror qabul qilishi hamda aholiga va rahbarlar tarkibiga signalni yetkazishni ta’minlashi lozim.

Mahalliy tizimlar odatda, signal beruvchi qurilmalardan (datchiklardan) boshlanadi. Ular kimyo inshootlariga yoki to‘g‘onlar korpusiga o‘rnatib qo‘yiladi. Signal datchiklardan navbatchi dispatcherlar tomonidan inshootda ro‘y bergen favqulodda vaziyat haqida elektron qurilmalar, inshootdagi sirkulyar chaqirish qurilmalari hamda telefonlar va radiokarnaylar orqali e’lon qilinadi.

Aholiga xabar berish mahalliy tizimi P-160 apparaturasi orqali ovozli signallarini va boshqa maxsus uskunalar orqali elektr sirenalarini va ko‘chadagi radiokarnaylarni ishlatishi.

Respublika, viloyat va shaharlardagi boshqaruva punktlaridagi FM aloqasi:

- yuqori FM boshqarmasi va harbiy qo‘mondonlik boshqaruva organlari;
- o‘z tasarrufidagi boshqarmalar, bo‘limlar va xizmatlar;
- hamkorlik qiluvchi boshqarmalar (qo‘shnilar);

- harbiy garnizonlar;
- hamma razvedka turlari;
- ko‘chma va yordamchi boshqaruv punktlari;
- vazirliklar, idoralar, birlashmalar, uyushmalar boshqaruv punktlari bilan tashkil qilinadi.

Shahar (qishloq) tumanlari boshqaruv punktlari aloqaning barcha mavjud kuch va vositalarini qo‘llab:

- yuqori FM boshqarmalari;
- tuman FM hizmatlari;
- evakuasiya organlari;
- transport tashkilotlari;
- inshootlar boshqaruv punktlari;
- tuman shahardan tashqari zonalari;
- o‘zaro hamkorlik qiluvchi (qo‘shni) tumanlar;
- mahalliy tuzilmalar;
- tuman FM vazifalarini hal etish uchun ajratilgan xarbiy qismlar va bo‘linmalar bilan aloqa tashkil etadi.

Aloqa va xabar berishning markazlashtirilgan va lokal tizimlarini tuzish va doimiy shay holda saqlab turish aholiga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki yuzaga kelishi xaqidagi signal va axborotlarni o‘z vaqtida yetkazish imkoniyatini beradi, hamda boshqaruv punktlari va barqaror aloqaning borligi rahbarlikni muvaffaqiyatli olib borish, favqulodda vaziyatlarda oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni tashkil qilishga sharoit yaratib beradi.

### **Favqulodda vaziyatlarda aholiga axborotlar (ma’lumot) uzatish tartibi.**

Fuqaro muhofazasi xavf - xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar va ma’lumot berishdan boshlanadi. Xabar berish aholiga tushunarli avvaldan belgilangan shartli signallardan (sirena ovozi, korxona va muassasalardan beriladigan signallar) boshlanadi.

Maqsad aholini e'tiborini insonlar hayoti va salomatligiga xavf soluvchi qandaydir vaziyat sodir bo'lishi mumkinligiga qaratish va bunday vaziyatlarda harakat tartibini tushuntirishdan iborat.

Aloqa vositalari va xabar berish usullari oldindan rejalashtirilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerak. Fuqaro muhofazasini tadbirlarini o'tkazishning barcha rejimlarda aloqa va xabar berish vositalari asosiy o'rinni egallaydi.

Har qanday xavf-xatar holatida elektr sirenalari orqali Fuqaro muhofazasida «Diqqat barchaga!» signalidan foydalaniladi.

Masalan; kimyoviy xavfli obyektda avariya bo'lganda mana bunday axborot beriladi: «Diqqat barchaga!!! Viloyat MTRKdan gapiramiz favqulodda vaziyatlar vazirligidan olingan ma'lumotga ko'ra, Hurmatli Fuqarolar! Kimyo kombinatida kuchli ta'sirchan zaharli modda - xlor chiqib ketib, avariya sodir bo'lganligi tufayli zaharlangan havo buluti yo'nalishida tarqala bormoqda va shaharning quyidagi kvartallari va viloyat aholi punktlari kimyoviy zaharlanish zonasida qolish ehtimoli mavjud shuning uchun Sizlardan zaharlanish zonasiga tushib qolgan kishilar uylaridan, muassasa, korxona, o'quv yurtlaridan darhol chiqishlari hamda shamol yo'nalishiga perpendikulyar ravishda eng qisqa yo'l bilan xavfsiz joylarga o'tishlarini so'raymiz.

Tashqariga chiqishdan oldin ho'llangan yoki 2% li ichimlik soda eritmasi shimdirligan paxtali doka bog'ich taqib olishingiz maqsadga muvofiq bo'lishini agar zaxarlangan havo yetib kelguncha uyingizdan chiqib ulgurmagan hollarda o'z joyingizda yashirinib, deraza- eshiklarni zichlab yopishingiz va xonaga tashqaridan havo kirmaydigan qilib olishingizni so'raymiz.

Yerto'lalar va uylarning pastki qavatlariga yashirinmang xlor havodan og'ir bo'lgani uchun, hamma pastqam joylarga, jumladan, yerpo'lalarga oqib kiradi. Keyin esa favqulodda vaziyatlar boshqarmasining (bo'limining) ko'rsatmasiga binoan yo'l tuting. Avariyanı bartaraf qilish choraları ko'rileyapti. Xabarlarimizni kuzatib boring». Mana shu tartibda axborot bir necha marotaba beriladi.

Favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda xavf darajasini ko'rsatadigan uchta xabar berish rejimi belgilangan:

1. Kundalik faoliyat rejimi.

2. Yuqori tayyorgarlik (baxorgi-yozgi toshqinlar davri) rejimi.

3. FV (sel oqimi kelib turgan va ko‘chki jarayoni vaqtida) rejimi

Bunday hollarning hammasida hokimiyatlarga, FV struktura tuzulmalariga, huquq- targ‘ibot organlari (IIB, prokratura)ga, tibbiy xizmatga, yong‘inga qarshi kurash xizmatiga va davlat kuzatish xizmatiga xabar beriladi.

Axborot manbalari (datchiklar) bevosita ko‘chki (sel) xavfi bor joylarga o‘rnataladi. Axborot kuzatish postiga keladi, kuzatish posti navbatchisi telefonda mahalliy xokimiyatlarni va xavf ostidagi muassasalarning bevosita o‘zini xabardor qiladi, shuningdek sirenalarni va yorug‘lik signallarini ishlatisib yuboradi. Shu bilan bir vaqtda kuzatish stansiyasi navbatchisiga ro‘y bergen hodisa xaqida axborot beradi, tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limini, tuman xokimiyatini, IIBni, prokraturani, tibbiy xizmatni, yong‘inga qarshi kurash xizmatini va xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmatini xabardor qiladi.

Elektrosirenani ulab («Diqqat barchaga!!!» signalini berib), aholiga xabar berish tizimining o‘z afzalliklari bor. Birinchidan, sirena ovozi shahar, tuman, viloyatdagi hamma aholi e’tiborini tortish imkonini beradi. Ikkinchidan, bu tizimni tinchlik davridagi tabiiy ofatlar va avariylar vaqtida ham, xarbiy harakatlar vaqtida ham ishlasa bo‘ladi. Bundan tashqari, aholi aloqa tarmoqlari va simli eshittirish tarmoqlari asosidagi markazlashgan xabar berish, radio va televide niye orqali ovozli axborot oladi. Axborot hamma aloqa vositalari orqali uzlusiz berib turiladi.



#### 7.4 - rasm. Tashkiliy-funksional tuzilmasi

Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining tashkiliy-funksional tuzilmasi 7.4- rasmda keltirilgan.

\*Qisqartmalar:

AXT — telefon kanallar bo‘yicha avtomatlashtirilgan xabar berish tizimi;

TPEHM — texnologik personal elektron-hisoblash mashinasi;

BPEHM — boshqariladigan personal elektron-hisoblash mashinasi;

TKBQ — terminal kompleks boshqaruv qurilmasi.

Aholini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish tizimi bo‘yicha qabul qilingan meyoriy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri mamlakat aholisini xavfsizligini ta’minalash, tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish. Buning yeng samarali usuli aholini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish hisoblanadi va bu borada respublikamizda bir qancha qonun va qarorlar qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagи “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida Davlat hokimiysi va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, shuningdek tashkilot va korxona rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning havfsizligini ta’minalash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergen favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart” deb ,belgilangan.

8-moddasida Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hisoblanadi, Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari

boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzishi belgilangan.

9-modda. Vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari belgilangan:

favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

aholining va hududlarning muhofazalanish holati to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda vaziyat tahdidi borligi to‘g‘risida xabardor qilishlari;

11-moddasida Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari:

xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro‘y berganligi to‘g‘risida xodimlarni o‘z vaqtida xabardor qilishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 515-sonli qarorida FVDT boshqaruv organlari joylashgan doimiy joylashtirish punktlarida, favqulodda vaziyatlar yuz berganda esa - favqulodda vaziyatlarni tugatish kuchlari va vositalarini boshqarish turg‘un va harakatlanadigan punktlarida tashkil etiladi, ular oldindan tegishli xabar berish, aloqa, axborotni ishlab chiqish va uzatishning tegishli texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda ularga yuklangan vazifalarni bajarishga doimiy tayyor holda saqlanadi.

Quyidagilar respublika darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini, shuningdek, axborot bilan ta’minlash va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalilaniladigan telekommunikatsiyalar viloyat tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy

tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta'minlash;

kimyoviy va boshqa yuqori darajada xavfli obyektlarda hamda ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborotlarning mahalliy tizimini, shuningdek, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan mahalliy tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilishdan iborat.

Quyidagilar mahalliy darajadagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

viloyat ichidagi aloqa va xabar berish tizimlari, shuningdek boshqaruvning va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy va boshqa yuqori darajada xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborotning mahalliy tizimlarini, shuningdek suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish;

Quyidagilar FVDT faoliyat ko'rsatishi chog'ida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to'g'risida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga xabar berish va aholini xabardor qilish;

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagи 515-sон qaroriga 2-ilovasida Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlarning aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish;

O'zbekiston axborat texnologiyalari va komunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Respublika va mahalliy darajalarda hamda FVDT faoliyat ko'rsatishining barcha rejimlarida telekommunikatsiyalar va markazlashtirilgan xabar berish

tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish;

Favqulodda vaziyatlarni tugatishga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlari bilan ustun darajada ta'minlash;

Favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotlarni toplash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta'minlash;

Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta'minlashning turg'un vositalariga foydalanish-texnik xizmat ko'rsatishni shartnomaviy shartlarda amalga oshirish.

«O'zbekiston Respublikasi energetika vazirligi» Neft va gazni qayta ishlash va boshqa xavfli obyektlar hamda ularga yondosh bo'lgan hududlarda xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishi.

Chorvoq suv omboridan suvning halokatli chiqarib yuborilishidan ogohlantiruvchi xabar berish tizimi ishlarini doimiy nazorat qilish;

«O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyatি Kimyoviy xavfli obyektlar va ularga yondosh bo'lgan hududlarda xabar berishning mahalliy tizimlarini yaratish;

Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari, Aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha axborotlarni toplash va ayirboshlash, shuningdek favqulodda vaziyatlar xavfidan yoki yuzaga kelishidan aholini o'z vaqtida xabar berish va ogohlantirishdan iborat.

Aloqa, xabar berish va axborotlashtirish xizmatiga – boshqaruv organlarini barqaror va uzlucksiz aloqa bilan ta'minlash, aloqa va xabar berishning turg'un vositalariga foydalanish-texnik jihatdan xizmat ko'rsatishni tashkil etish va ularni nazorat qilish, shuningdek ularni doimiy tayyor holatda saqlash, favqulodda vaziyatlar bo'yicha hududiy boshqarmalarining ko'rsatmalariga binoan xabar berish signallarini uzatish va qabul qilishni texnik jihatdan ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

Bundan tashqari bu qarorda obyekt FM tuzilmalari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, tashkilotlar, xo'jaliklar va barcha muassasalarda tuzilib, ularning

tarkibiga ushbu obyektning umumiy yo‘nalishdagi tuzilmalari va xizmatlarining maxsus tuzilmasida aloqa va xabar berish guruhi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida - Aloqa va axborotlashtirish boshqarmasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, aloqa va xabar berish tizimini rivojlantirish boshqarmasiga aylantirildi.

Respublikada favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi kuch va vositalarining harakat qilishga tayyorgarligini oshirish, shuningdek aholiga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida o‘z vaqtida xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimini takomillashtirish maqsadida, o‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2017 yil 8 avgustida «Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to‘g‘risida» gi 601-sonli qarori qabul qilindi [10]. Bu qarorning asosiy vazifalari etib:

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, saqlash va yetkazish texnologik jarayoni majmuini avtomatlashtirishni ta’minlash, favqulodda vaziyatlar xolatida muhofaza usullari va aholining harakatlari, yuzaga kelgan vaziyat to‘g‘risida aholiga xabar berish va ma’lumotlarni yetkazishda barcha jarayonlarni real vaqt ko‘lamida monitoring qilish;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida respublika aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish;

boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi kundalik boshqaruv organlari, respublika hududida Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan va ajratiladigan (jalb qilinadigan) maxsus tayyorlangan kuch va vositalarga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bu qarorning vazifalarini amalga oshirish uchun 2018-2022 yillar davrida mavjud xabar berish tizimini demontaj va modernizatsiya qilish, shuningdek respublika darajasidagi va mahalliy darajadagi xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishni bosqichma-bosqich ishga tushirishni amalga oshirish;

obyekt darajasidagi va lokal darajadagi xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishni yaratish va ishga tushirish tadbirdari borishining har yillik tekshiruvini amalga oshirish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning texnik holati to‘g‘risida axborot berib borilishi lozim.

**Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalari va bo‘g‘inlarida aholini xabardor qilish tadbirlarini muvofiqlashtirish**

Bugungi kunda aloqa vositalarini juda tez su’ratlar bilan rivojlanishi ularning boshqarishni ta’minlashdagi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liqdir. Sifatiz aloqa, aloqaning yo‘qligi bu boshqarishning susayishiga olib keladi.

Yuqori sifatli va barqaror aloqani tashkil etish fuqaro muxofazasi boshqarmalarning, xabar berish va aloqa xizmatining eng muxim vazifasidir. Bu muxim vazifani nazariy bilimlarga va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxasislar bajarishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan hududda, favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotni yetkazish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan boshqaruв organlarni, kuch va vositalari bilan axborot va ma’lumotlar almashinuvida aloqani tashkillashtirish muxim o‘rin tutadi.

Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari quyidagilar bilan aloqani ta’minlaydi:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan;

Favqulodda vaziyatlar bo‘limlari, bo‘ysinuvidagi tuzilmalar bilan;

Viloyat, shahar va tumanlar xokimliklari bilan;

Viloyat, shahar va tumanlar FVDT quyi tizimi xizmatlari bilan;

Toifalangan obyektlar, iqtisodiy axamiyatga ega bo‘lgan obyektlar bilan;  
Xarbiy okrug va maxalliy garnizon bilan;  
IIB, DXX, Chegara qo‘shinlari, Bojxona xizmati bilan;  
Qo‘shni viloyat FVBlar bilan;

Fuqaro muhofazasini doimiy tayyorgarligini yuqori darajada saqlab turishning asosiy omillaridan biri "O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi"(FVDT)da barqaror va uzluksiz aloqa va xabar berishni tashkil qilishdan iboratdir.

Aloqa va xabar berishni ta’minlashdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ni ishlash rejimlarini o‘rnatish signallarini (komandalarini) vaqtida uzatish va qabul qilish;
- Fuqaro muhofazasi bo‘limlari, boshqarmalari, xizmatlari va kuchlari signallarini qabul qilish va uzatish;
- Fuqaro muhofazasi boshqarish organlari o‘rtasida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga axborot almashinishing ishonchli bo‘lishi;
- Fuqaro muhofazasi boshqaruv organlarining xabar berish signallarini berishi, shuningdek bu signallarni Fuqaro muhofazasi organlari va aholiga yetkazish.

Aloqa va xabar berish tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak: barqaror; xarakatchan; o‘z vaqtida bo‘lishi; ishonchli; yashirin.

Axborot yetkazish tizimi to‘rt darajadan iborat bo‘ladi, ular respublika, mahalliy, lokal va obyekt axborot markazlari, terminal majmualar va bo‘lingan avtomatlashtirilgan quyi tizimlardan iborat.

**Respublika darajasi** - Respublika aholisiga umumiyl xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishni ta’minlaydi. Respublika axborot markazi Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi tarkibida tashkil etiladi va rejalashtirish va axborot operatsiyalarini o‘tkazish, quyi axborot markazlari faoliyatini nazorat qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

**Mahalliy daraja** - Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahri aholisini qamrab oladi. Mahalliy axborot markazi hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari tarkibida tashkil etiladi va rejalashtirish va axborot operasiyalarini o‘tkazish, javobgarlik zonasida terminal majmui translyatsiyalarini boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

**Lokal daraja** - Potensial xavfli obyektdan zarar yetishi mumkin bo‘lgan zonadagi odamlarga mo‘ljallangan.

**Obyekt darajasi** - Obyekt xodimlarini qamrab oladi. Obyekt axborot markazi potensial xavfli obyektlarda hamda 50 nafardan ko‘p xodimlari bo‘lgan obyektlarda tashkil etiladi. U axborot operasiyalarini o‘tkazish, javobgarlik zonasida terminal majmui translyatsiyalarini boshqarish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. U zarar yetishi mumkin bo‘lgan zonalardagi barcha aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishni ta’minlashi kerak.

**Terminal komplekslari** - Joylashgan va o‘rnatilgan terminal majmui tarkibiga ko‘ra quyidagilardan iborat bo‘ladi: axborot tablosi, o‘tuvchi yozuvlar qurilmasi, tovushni kuchaytiruvchi vositalar, videokuzatuv kameralari, radiotsion va kimyoviy nazorat vositalari va h.k.

**Tarqatilgan avtomatlashtirilgan quyi tizimlar** - Axborot markazlari va terminal komplekslari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ommaviy axborot yetkazishning quyi tizimi, kuzatish va ma’lumot yig‘ish, aloqa va axborot uzatish, axborot xavfsizligi, radiasiyan va kimyoviy nazorat, tovushning hamohangligi va axborotning uzatilishi, XMATni boshqarish va nazorat qilish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Aloqa tizimining **barqarorligi** - bu uning favqulodda vaziyatlar yuz berganda zararlantiruvchi omillarni ta’sir etish sharoitida ham ishchanligini yo‘qotmasligidir va u yashovchanligi, tashqi ta’sirga bardoshliligi, mustaxkamliligi bilan xarakterlanadi.

**Barqarorligi:**

- tashkilotlarning aloqa tizimlarini, bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni zararlantiruvchi omillarini ta’sir etishini e’tiborga olib tashkil etish;
- aloqa uzellari qismlarini himoya inshootlariga joylashtirish bilan;
- turli aloqa vositalarini birgalikda qo‘llash yo‘li bilan;
- aylanib o‘tish va rezerv aloqa kanallari (yo‘nalishlari) tashkil qilish bilan;
- aloqani rezerv kuch va vositalarini tuzish, ularni to‘g‘ri joylashtirish va o‘z vaqtida qo‘llash bilan;
- aloqa bo‘limlari va tuzilmalarini texnika va materiallar bilan o‘z vaqtida ta’minlash bilan erishiladi.

Aloqa tizimini **o‘z vaqtidaliligi** - bu uning signallarni, axborotlarni ko‘rsatilgan vaqtida uzatish qobiliyatidir.

#### **O‘z vaqtida bo‘lishligi:**

- aloqa tarmoqlarini boshqaruv punktlarida avvaldan o‘rnatib qo‘yish va aloqa tizimini ishga tayyorlab qo‘yish bo‘yicha tashkiliy va muxandislik texnik tadbirlarini o‘tkazish;
- aloqa tizimini yoyish va qismlarini yig‘ish vaqtini kamaytirish;
- aloqa kuch va vositalarini to‘g‘ri joylashtirish va rezervlaridan to‘g‘ri foydalanish;
- aloqa kanallari, kuchlari va vositalari bilan tezlikda xarakat kilish;
- aloqa tizimini tezlik va barqaror boshqarish bilan erishiladi -uzatilayetgan axborotlar hajmini kamaytirish va ko‘rsatmalarni xabarlarni o‘z vaqtida uzatish;
- aloqa tarmoqlarida tezkor-texnik xizmatni aniq tashkil qilish va axborotlar xarakatini qattiq nazoratga olib borish;
- turli shoshilinch va hajmdagi xabarlarni uzatish uchun aloqa vositalarini to‘g‘ri tanlash yo‘li orqali;

Aloqa tizimini **ishonchligi**- bu uning uzatuvchi xabarlarni o‘rnatilgan aniqlikda yetib borishini ta’minlash qobiliyatidir.

#### **Ishonchliligi:**

- aloqa kanallari va vositalarining texnik tafsifini o‘rnatilgan (qabul qilingan) parametrlarda saqlab turish bilan;

- bir paytning o‘zida bitta kanal orqali xabarlarni o‘z vaqtida uzatish bilan; Aloqa tizimining **yashirinligi**-bu uning uzatilayotgan axborotni, ma’lumotlarni va ularni uzatish joyini dushmanlardan yashirish qobiliyatidir.

### **Yashirinlikka:**

- maxfiylashtirish, shifflash, kodlashtirish apparatlarini va yashirin boshqarish hujjatlarini qo‘llash bilan;
- o‘zaro gaplashish, ma’lumotlarni uzatish qabul qilingan qoida va tartiblarni saqlash bilan;
- aloqani ishlatishga iloji boricha kamroq odamlarni jalb qilish bilan;
- aloqa vositalarini to‘g‘ri joylashtirish, ularni ishslash tartibiga qatiy rioya qilish bilan erishiladi.

**Aholiga va rahbarlar tarkibiga aloqa va xabar berishni tashkil etish FVDTning har bir darajasida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

### **Respublika darajasida:**

- kimyoiy xavfli va boshqa potensial xavfli obyektlarda, ularga tutash hududlarda markazlashgan xabar berish tizimi va lokal tizimlarini, shuningdek gidrotexnika inshootlarida, suv omborlarida signal berish va xabar qilishning mahalliy avtomatik tizimlarini loyihalash va yaratishni nazorat qilish;
- atrof tabiiy muhit ahvolini va FVni oldindan tahminlanayotgan potensial xavfli obyektlar ahvolini kuzatish va nazorat qilish tizimini tashkil etish;
- yuzaga kelgan favqulodda vaziyat haqida, uning ko‘لامи va rivojlana borishi, ehtimoli bo‘lgan oqibatlari va uni tugatish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar haqida xabar berishni, axborot yig‘ish va almashishni ta’minalash va nazorat qilishdan iborat;
- xabar berishni tashkil etish va fuqaro muhofazasi tizimini shay holatga keltirish bo‘yicha direktiv hujjatlarni ishlab chiqish;
- xabar berish tizimini, umumiyligi va shaxsiy muhofazalanish vositalarini vujudga keltiradilar hamda ularni doimiy shay holatda saqlaydilar.

### **Mahalliy darajada:**


-aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to‘planilishini va almashinishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar tahdidi

borligi yoki ro'y berganligi to'g'risidagi aholi o'z vaqtida vofiq va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

- ABTni ahborot bilan ta'minlash viloyat ichki tizimini yaratish va doimiy shay holatda saqlash;

-boshqaruv va ahborot berish uchun davlat, viloyat va idora aloqa, radio, televide niye kanallaridan va boshqa texnik vositalardan markazlashgan holda foydalanishni ta'minlash;

-tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda kimyoviy xavfli va boshqa potensial xavfli obyektlarda hamda ular atrofidagi hududlarda xabar berish va axborotlarni mahalliy tizimlarini, shuningdek suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida signalizasiya va xabar berish mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish. Bu borada qilingan ishlar 6-rasmda keltirilgan mahalliy ogohlantirish tizimlarini yaratish dinamikasi ma'lumotlar keltirilgan.



7.5-rasm. Obyektlarda mahalliy ogohlantirish tizimlarini yaratish dinamikasi

### Obyekt darajasida:


- kimyoviy xavfli va boshqa potensial xavfli obyektlarda xabar berish va ahbortlarni mahalliy tizimi, shuningdek gidrotexnika inshootlarida signalizasiya va mahalliy xabar berish avtomatik tizimini yaratish ishlarini tashkil etish;

- sodir bo'lgan favqulodda vaziyat, uning ko'lami va rivojiana borishi, oqibatlari haqida, ko'rيلayotgan choralar va favqulodda vaziyatni tugatish uchun zarur bo'lgan yordam haqida axborot yig'ishni ta'minlash va nazorat qilish, yuqori organlarga ma'lumotlarni yetkazishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagи “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasida Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari belgilab qo‘yilgan:

xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro‘y berganligi to‘g‘risida xodimlarni o‘z vaqtida xabardor qilishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 515-sonli hamda 2017 yil 8 avgustdagи 601-sonli qaroriga muvofiq aholini va hududlarni favqulodda vaziyatdan muhofaza qilishda tegishli vazirliklar o‘z funksional kichik tizimini xabar berish va aloqa xizmatining yaratilishi hamda faoliyatiga rahbarlik qilishlari belgilangan. Bu markazlashtirilgan ogohlantirish tizimi orqali amalga oshiriladi.



7.6-rasm. Markazlashtirilgan ogohlantirish tizimi yo‘nalishlari bo‘yicha aloqa va xabar berishni ta’minlashi va FVDT

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatdan muhofaza qilishda tegishli vazirlik va idoralaring aloqa va xabar berishni tashkillashtirish bo‘yicha **quyidagi vazifalari belgilab berilgan jumladan**,

Vazirlik va idoralarga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida: favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida mahalliy xabar berish tizimlarini yaratishlari va

ularni doimo shay holatda saqlab turishlari; aholining va hududlarning muhofazalanish holati to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda vaziyat tahdidi borligi to‘g‘risida xabardor qilishlari majburiyati yuklatilgan.

**Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi.**

Respublika va mahalliy darajalarda hamda FVDT faoliyat ko‘rsatishining barcha rejimlarida aloqa va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Favqulodda vaziyat oqibatlarini tugatishga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruva organlarini davlat va idora aloqalari vositalari va kanallaridan birinchi galda ta’minlash.

Favqulodda vaziyat to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, qayta ishslash va FVDT boshqaruva organlariga uzatishni texnik ta’minlash.

Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta’minlashning turg‘un vositalariga foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatishni shartnomaviy asosda amalga oshirish.

FVDT quyi tizimini tashkil etishga va uning faoliyatiga, xabar berish va aloqa xizmatiga rahbarlik qilish ishlarini amalga oshiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy Teleradio kompaniyasi.** Aholini radioeshittirish stansiyalari va televide niye orqali favqulodda vaziyatlar xavfi va yuzaga kelganligi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlaydi.

Mahalliy hokimiyat organlari, manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda aholi o‘rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini tashkil etadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, fuqaro muhofazasi boshliqlari - Qoraqalpog‘iston Respubliksi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimligining buyurtmanomalariga binoan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko‘rsatuvalar va radioeshittirishlarni tashkil etadi.

Sog‘lijni saqlash vazirligi va Qizil yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o‘zaro va o‘z o‘ziga yordam ko‘rsatishga o‘qitish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan eshittirishlarni tashkil etish vazifalarni amalga oshiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi.** FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi sanitariya epidemiologik ahvol to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash ishlarni bajarishi kerak.

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi.** Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnik inshootlardan foydalanish xavfsizligini, ularda avariylar va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimollarini bashoratlaydi.

Suv xo‘jaligi obyektlarining ish rejimini o‘zgartirish yoki keyinchalik foydalanish zaruriyatini belgilash, suv omborlaridagi suvni avariyanı oldini olish maqsadida chiqarib yuboradi va suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, viloyatlar shaharlar, tumanlar xokimligi va aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi sanitariya-veterinariya va agrokimyoviy axvol, kutilayotgan toshqinlar hamda suv omborlari va boshqa suv manbalarining urib ketishi bilan bog‘liq halokatli suv bosishlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash kabi ishlarni bajaradi.

Yuqoridagi tegishli vazirlik va idoralarning aloqa vositalari va xabar berish tizimining asosiy vazifalarini to‘g‘ri bajarilishi va ularga qo‘yilgan quyidagi talablarni:

- aloqani o‘z vaqtida o‘rnatish, axborotlarni tezda va aniqlik bilan uzatish, mustaxkamligi va yashirinliligin, aloqa vositalarining ishini o‘z vaqtida rejalashtirish va amalga oshirish;
- shaxsiy tarkib va aloqa vositalarni zararlanishdan saqlash;
- aloqa bo‘yicha kuch va vositalar rezervini tashkil etish;
- shtab boshliqlari, shaxsiy tarkib va xizmatchilarning aloqa texnik vositalarini ishlata bilishni fuqaro muhofazasiga ma’sul bo‘limlari ta’minlab beradilar.

Fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarishni yashirinliligin ta’minlash uchun aloqa texnik vositalarida ishlovchi shaxsiy tarkib aloqa vositalarini o‘rnatilgan ish

tartiblariga aniq rioya qilishlari hamda belgilangan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Tinchlik davrda halokatli suv bosish va boshqa tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarda yashirinsiz xabar beriladi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni tashkil etish bo‘yicha tadbirlar zanjirida asosiy qismlardan biri bu mustaxkam, barqaror va o‘z vaqtida aloqa o‘rnatish va xabar berishdir.

### **Respublika, viloyat hamda iqtisodiyot obyektlarida aloqa va xabar berish xizmatining tashkil etilishi hamda ularning kuch va vositalari tarkibi**

Aloqa fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarishning asosiy vositasi hisoblanib, u kuch va vositalardan kelib chiqqan holda fuqaro muhofazasi boshlig‘i qarori, shtab boshlig‘i ko‘rsatmalariga muvofiq boshqaruv punktlarda tashkil etiladi.

Aloqa va xabar berishni tashkil etishga fuqaro muhofazasi boshlig‘i ma’suldir. Aloqa va xabar berish tizimining doimiy tayyorgarligini bevosita fuqaro muhofazasi xabar berish va aloqa xizmati boshlig‘i ta’minlaydi.

FM aloqa tizimi muqum, ko‘chma boshqaruv punktlarining aloqa uzellari bazasiga hamda davlat aloqa tarmog‘iga tayangan holda tinchlik davrida oldindan tashkil etib qo‘yiladi.

Respublika, viloyat, shahar aloqa tizimi asosini FVDT boshqaruv punktlarining aloqa uzellari tashkil etadi va O‘zbektelekom filiallari aloqa uzellari yordamida axborot boshqaruv tizimini ta’minlaydi.

Boshqaruv punktlarining aloqa uzeli - boshqaruvni ta’minlash uchun ishlatalgan aloqa kuchlari va vositalarning tashkiliy texnik birlashmasi hisoblanadi.

Aloqa tarmoqlari statsionar (muhofaza qilingan va muhofaza qilinmagan) hamda ko‘chma holda tashkil qilinadi.

Statsionar aloqa uzellari respublikaning, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralar boshqaruv punktlarida jihozlanadi. Ko‘chma aloqa uzellari avtomobilarda, vertoletlarda va temir yo‘l vagonlarida jihozlanib, muqum aloqa uzellari ishdan


chiqqanda, qidiruv- qutqaruv ishlarini o'tkazishda va boshqa to'satdan paydo bo'lgan vazifalarni bajarishda aloqalarini ta'minlab turishga mo'ljallangan bo'ladi.

FM tizimida radioaloqa, simli va signal beruvchi aloqa vositalaridan foydalaniladi.

### **Respublika aloqa va xabar berish tizimining favqulodda vaziyatlар xavfi yoki sodir bo'lganda rahbarlar tarkibi va aholiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazish texnik imkoniyatlari**

Favqulodda vaziyatlarda aholiga axborotlar (ma'lumot) uzatish tartibi. Fuqaro muhofazasi xavf - xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to'g'risida o'z vaqtida xabar va ma'lumot berishdan boshlanadi. Maqsad aholini e'tiborini insonlar hayoti va salomatligiga xavf soluvchi qandaydir vaziyat sodir bo'lishi mumkinligiga qaratish va bunday vaziyatlarda harakat tartibini tushuntirishdan iborat.

Aloqa vositalari va xabar berish usullari oldindan rejalashtirilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerak. Fuqaro muhofazasini tadbirlarini o'tkazishning barcha rejimlarda aloqa va xabar berish vositalari asosiy o'rinni egallaydi.



7.7-rasm. Markazlashtirilgan xabar berish va ogohlantirish tizimi ishslash sxemasi

Har qanday xavf-xatar holatida elektr sirenalari orqali FM da «Diqqat barchaga!» signalidan foydalaniladi.

Sirena ovozi eshitilgan zahoti televizor, radiopremnik, radiokarnaylar orqali mahalliy hokimiyat organlarining xabarlarini tinglashi zarur.

Bu tabiiy ofat yoki avariya oqibatlarini tugatgunga qadar davom etishi hamda MTRKning radiotranslyatsiya uzellari orqali uzlusiz kechayu-kunduz zarur ma'lumotlarni yetkazishi zarur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar FV boshqarmalari asoslangan ovozli xabarlar matnini davlat va rus tillarida ishlab chiqishlari ularni magnit tasmasiga yozilgan holda maxsus ko'rsatmaga muvofiq yetkazilishi belgilangan.

Xabar berish signallari respublika viloyatlar milliy teleradiokompaniyasi teledasturlari orqali efirga bevosita uzatib borilishi belgilangan.

Oldindan belgilangan ogohlantirish signallarini yetkazish uchun avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimlarini yaratish;

tezkor navbatchi punktlariga (markazlariga) raqamli va ovozli xabarlarni;

aholi va mansabdor shaxslarni raqamli aloqa tarmoqlari asosida xabardor qilishning mahalliy tizimlarini telefon va sirenalar orqali xabar berish;

aholini tumanlar bo'yicha elektrosirenalar va radiotranslyatsion markazlaridan foydalangan holda xabardor qilish.

Aholini markazlashtirilgan ogohlantirish tizimlari katta hududlarda (shahar, tuman) ogohlantirish va axborot berish muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan.

Stansiyalar, yirik savdo, sport, madaniy va ko'ngilochar markazlar hududida joylashgan aholining katta guruhlarini tezkor xabardor qilish va ogohlantirish vazifasini tashkiliy jihatdan hal etish, markazlashtirilgan xabar berish vositasi bo'lman joylarda aholini ommaviy axborot vositalarida xabardor qilish va xabardor qilishning Respublika kompleks tizimini yaratishda qo'llanilmoqda.

Mahalliy ogohlantirish tizimlari potentsial xavfli obyektlarni (radiatsiya, portlash, kimyoviy, yong'in xavfi) joylashtirish joylarida yaratilgan va potentsial xavfli obyektdagi voqealarni favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi haqida ma'lumotni ushbu obyektning rahbarlari va xodimlariga, obyekt kuchlari va xizmatlariga etkazish uchun, tegishli mahalliy ogohlantirish tizimining amal qilish

zonasida joylashgan obektlar (tashkilotlar) ning rahbarlari (navbatchi xizmatlari), favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqaruv organlari tezkor navbatchi xizmatlariga, harakat hududida yashovchi aholi mahalliy ogohlantirish tizimlari bilan aloqani taminlash uchun mo‘ljallangan.



7.8 - rasm. P-160 ogohlantirish uchun texnik vositalar majmuasi

shahar hududida fuqaro muhofazasi boshqaruv organlardan olingan signallarni (buyruqlarni), axborotni va ogohlantirishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan:

- fuqaro muhofazasi obyektlarining rahbar tarkibi;
- obyektning ogohlantirish zonasida istiqomat qiluvchi obyektlar va aholi xodimlarining talablari asosida;
- harbiy va tinchlik davrida obyektlarning tezkor navbatchi xizmatlari (dispatcherlari).

- Ta’minlaydi:

- obyektni avtomatik rejimda markazlashtirilgan ogohlantirish tizimiga ulash;
- "Diqqat barchaga!" ogohlantirish signalini berish ("sirena" - P-166, P-164, P-160 ogohlantirish uskunasidan uzatildi);

- nutq ma’lumotlarini uzatish ("Team -5");
- eshittirish dasturlarini takrorlash;
- obyekt hududini mustaqil ogohlantirish zonalariga ajratish;
- uskunaning uzlucksiz quvvat manbai.

Respublikamizda favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish signalini aholiga etkazishning asosiy vositasi elektr sirenidir. Ular shahar va tuman hududida imkon

qadar iloji boricha uzlyuksiz tovush qoplamalarini ta'minlaydigan tarzda o'rnataladi. Buni amalga oshirish uchun shaharda 0,5 dan 1,2 km gacha bo'lgan tovushlarning samarali radiusini ta'minlaydigan S-40 tashqi sirena turi ishlatilmoqda.

### **Ogohlantirishning asosiy texnik vositalarining xususiyatlari**

Maqsad: Mahalliy tashqi ogohlantirish tizimining elementi. U potensial xavfli obyektlarda va odatda FVDT ogohlantirish tizimlarida qo'llaniladi. Maksimal ogohlantirish zonasini qamrab oladigan joylarda o'rnataladi.



#### **Foydalanish xususiyatlari:**

- atrof-muhit harorati -45 dan + 40°C gacha;
- + 95°C da atrof-muhit havosining nisbiy namligi 25% ;
- atmosfera bosimi: 650-800 mm HG. maqola.;
- korozyon-faol reaktivlar atmosferasidagi tarkib GOST 15150-69 bo'yicha II toifa (sanoat) turiga mos kelishi kerak.

#### **Texnik xususiyatlari:**

Xususiyatlari	O'l.bir.	S-40
Ovoz bosimi darajasi	Db	118
Ovoz vibratsiyasining chastotasi	Gs	450
Elektr motorining nominal kuchi	kVt	3
Nominal aylanish tezligi	ob/min	3000
Ta'minot tarmog'ining xususiyatlari	V	~380(3f)
Elektrosirenenning umumiy o'lchamlari:		
Balandligi	mm	575
Diametri	mm	740
Massa,	kg	42

O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Fuqaro

muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunlari, “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-son Farmonlarini bajarish, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi kuch va vositalarining harakat qilishga tayyorgarligini oshirish, shuningdek aholiga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida o‘z vaqtida xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgust kunidagi 601-sonli qarori qabul qilingan.

Bu qaror O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Dasturiy-texnik vositalar majmuasi bazasida favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish to‘g‘risida.

Bu bilan quydagilarga erishishimiz kutilmoqda: favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, saqlash va yetkazish texnologik jarayoni majmuini avtomatlashtirishni ta’minalash, favqulodda vaziyatlar xolatida muhofaza usullari va aholining harakatlari, yuzaga kelgan vaziyat to‘g‘risida aholiga xabar berish va ma’lumotlarni yetkazishda barcha jarayonlarni real vaqt ko‘lamida monitoring qilish;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida respublika aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish;

boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi kundalik boshqaruv organlari, respublika hududida Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan va ajratiladigan (jalb qilinadigan) maxsus tayyorlangan kuch va vositalarga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish.

Bularni amalga oshirish jarayonida hozirgi kunda mavjud aholini ogohlantirish tizimlarining holatini tahlil qilish ularning tayyorligi va barqarorligini ta’minalashda bir qator muammolarni ko‘rishimiz mumkin:

qishloq joylarida mahalliy avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimlarining yetishmasligi;

ogohlantirish texnik vositalarining eskirishi (ogohlantirish tizimlari o'tgan asrning 60-laridan 90-yillarigacha bo'lgan davrda yaratilgan);

tezkor navbatchi tarkibning belgilangan muddatlarda aholini xabardor qilish bo'yicha harakat qilishga yetarli darajada tayyorlanmaganligi;

aholining, ayniqsa, qishloq aholisining (50% dan kam), elektr tarmog'i va kuchli akustik qurilmalarning kam qamrovi aholining elektron ommaviy axborot vositalariga favqulodda xabarlarni yetkazish uchun o'z vaqtida e'tiborini jalb qilishiga yetarli yemas;

zamonaviy raqamli aloqa tarmoqlarida ishlashga mo'ljallanmagan va zamonaviy operatsion va texnik talablarga javob bermaydigan texnik vositalar komplekslaridan foydalanish, respublika ogohlantirish tizimlarining ishonchlilagini kamaytiradi;

favqulodda vaziyatlarda xabar berish va ogohlantirish uchun markazlashgan tizimi P-160 uskunlari bilan jihozlangan, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tassarufidagi aholiga xabar berish va ogohlatalishning avtomatlashtirilgan tizimidagi texnik vositalar majmuasi, ya'ni 10 ta tuman hokimiyatlariga o'rnatilgan P-160, Bektemir tumanida esa bunday tizim mavjud yemas

aholiga favqulodda vaziyatlarda tovushli xabar berish tizmi SS, PS va S-40 elektrsirena vositalari 120 ta mavjud, shundan shartnoma asosida 60 tasiga "O'zbektelekom" AK "TSHTT" filiali Yer osti inshootlari va favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantiruvchi aloqa vositalari sexi tomonidan texnik xizmat ko'rsatib kelinmoqda;

Toshkent shaharida qurulish ishlarining ko'pligi sababli, S-40 tovushli elektrosirenalari o'rnatilgan binolarning buzulishi natijasida mavjud Favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlatalish tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda;

mavjud ogohlantirish tizimlarini, shu jumladan tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish tizimlari, raqamli televideniya va radioeshittirish, mobil aloqa tarmoqlari va boshqa tizimlarni texnik-dasturiy bog'lanishlarda muamolar mavjudligi;

eski (5F-88, P-160, P-164, P-166) favqulodda vaziyatlarda xabar berish va ogohlantirish tizimlari, radioto'lqinli aloqa operatorlari tarmoqlarining qisqa xabarlar xizmati va boshqalar bilan mahalliy ogohlantirish tizimlarini integratsiyalashning iloji yo'q;

subyektlarining ijro etuvchi organlari tomonidan ogohlantirish tizimlarini rekonstruksiya qilish va ularni ishchi holatda saqlash uchun juda kam mablag' ajratilishi.

Zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari, multiservis aloqa tarmoqlarini rivojlanishi, tele va radioeshittirishlarning raqamli tarmoqlarga o'tishi, boshqaruvning barcha darajalarida mavjud ogohlantirish tizimlarini yaratishda ilgari qabul qilingan tashkiliy - texnik yechimlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi, ushbu muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi aholisini ogohlantirish va xabardor qilish vazifasini bajarish uchun murakkab yondashuvni talab qiladi, agar favqulodda vaziyatlar yuzaga kelsa, barcha mavjud texnik vositalardan, shu jumladan aloqa va radioeshittirish vositalaridan foydalangan holda, bir-birini to'ldirishi kerak.

**Internet.** Hozirgi kunda juda tez rivojlanayotgan "Internet" jamoat axborot tarmog'i hisob-kitoblarga ko'ra Respublikamizning jami aholining 65 foizga yaqin foydalanuvchilariga ega.



7.9-rasm. Internet tarmog'i

Ushbu tarmoqning simsiz texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish va foydalanuvchilar sonining o'sishini hisobga olgan holda, Internet tezkor axborot yetkazish, aholiga xabar berish va xabarlarini tarqatish kanali sifatida foydalanish uchun shubhasiz qiziqish uyg'otadi, ammo hozirgi vaqtida uning salohiyati juda cheklangan. Aholini "Internet" axborot-kommunikatsiya tarmog'i orqali, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalangan holda xabar berish va ogohlatalish uchun texnik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni aholi va hududlarni muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilgan ijobiy ishlar ham mavjud, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi "Qamchiq" Yagona navbatchi-dispatcherlik xizmati mavjud.



7.10 -rasm. "Qamchiq" dovonida faoliyatni amalga oshirish uchun jalb qilingan FVDT xizmatlari bilan o'zaro hamkorlik sxemasi

Xizmatning joriy qilinishi quyidagilarni ta'minlaydi:

Toshkent-O'sh avtoyo'lining A-373, M-39 xavfli uchastkasini doimiy monitoringini olib borish, aniq vaqt rejimida vaziyat to'g'risida ma'lumotlar olishni;

Vaziyat yomonlashganligi, favqulodda vaziyat sodir bo'lganligi to'g'risida xabar olinganda qutqaruv tuzilmalari tomonidan harakatgakirishishga ketgan vaqt ni qisqartirish, tegishli axborotlarni manfaatdor vazirlik va idoralarga uzatish;

Qaror qabul qilish bo'yicha tezkorlikni va fuqaro muhofazasi kuchlari boshqaruvi samaradorligini oshirish;

“Qamchiq” dovonida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishga jalg etilgan FVDT kuch va vositalarini o‘zaro hamkorlikda harakat qilish imkoniyatini kengaytirish;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish yoki oldini olish jarayonida olinayotgan yoki uzatilayotgan axborotlarni ishonchlilagini ta’minlash, ularni saqlash, qayta ishlash va ma’lumotlarni uzatish kanallari bo‘yicha almashinish;


Favqulodda vaziyat sodir bo‘lish xavfini va ular keltirish mumkin bo‘lgan oqibatlarini kamaytirish;

Aholini xabardor qilish, hamda audio va videoaloqa orqali aholidan axborotlar olish;

Audioaxborot almashinishni tashkillashtirish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlari olib borilayotgan joydan video axborotlarni olish;

Ichki ishlar vazirligi bo‘linmalari tomonidan olib borilayotgan tegishli tadbirlar bo‘yicha axborotlar olish;

Yo‘l meteostansiyasidan olingan ma’lumotlardan foydalanib yo‘l ko‘tarmasi bo‘yicha axborotlar olish.



7.11 - rasm. “Qamchiq” YEDDS tezkor navbatchisiga ma’lumot olish sxemasi

### Xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslari tarkibi va ularning vazifalari

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslari ma’lumotlarni qabul qilish, ishlov berish va audio va vizual xabarlarni

aks ettirish, shuningdek odamlarning ommaviy yig‘ilish joylaridagi xolat haqidagi ma’lumotlarni axborot markaziga axborotlashtirish vositalari orkali qabul qilish va tarqatishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgust kunitagi 601-sonli Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to‘g‘risida qarorida Xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslari tarkibi va vazifalari belgilab qo‘ylgan. Unga ko‘ra Xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslari tarkibi respublika, mahalliy va obyekt axborot markazlari, terminal majmualari va bo‘lingan avtomatlashtirilgan quyi tizimlardan iborat bo‘ladi.

Respublika axborot markazi - O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlarda boshqaruva markazi tarkibida tashkil etiladi. U rejalashtirish va axborot operatsiyalarini o‘tkazish, quyi axborot markazlari faoliyatini nazorat qilish, ma’lumotlarni taxlil qilish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Mahalliy axborot markazi - hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari tarkibida tashkil etiladi. U rejalashtirish va axborot operatsiyalarini o‘tkazish, javobgarlik zonasida terminal majmui translyatsiyalarini boshqarish, ma’lumotlarni taxlil qilish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Obyekt axborot markazi - potensial xavfli obyektlarda hamda ellik nafardan ko‘p xodimlari bo‘lgai obyektlarda tashkil etiladi. U axborot operatsiyalarini o‘tkazish, javobgarlik zonasida terminal majmui translyatsiyalarini boshqarish, aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazish tizimi va terminal majmui faoliyatining ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Potensial xavfli obyektlar tarkibidagi obyekt axborot markazi zarar yetishi mumkin bo‘lgan zonalardagi barcha aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishni ta’minlashi kerak.

Terminal komplekslari joylashgan va o‘rnatilgan terminal majmui tarkibiga ko‘ra quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- axborot tablosi;
- o‘tuvchi yozuvlar qurilmasi;
- tovushni kuchaytiruvchi vositalar;
- videokuzatuv kameralari;
- radiotsion va kimyoviy nazorat vositalari va h.k.

Tarqatilgan avtomatlashtirilgan quyi tizimlar axborot markazlari va terminal komplekslari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ommaviy axborot yetkazishning quyi tizimi, kuzatish va ma’lumot yig‘ish, aloqa va axborot uzatish, axborot xavfsizligi, radiatsion va kimyoviy nazorat, tovushning xamoxangligi va axborotning uzatilishi, xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini boshqarish va nazorat qilish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslari tarkiblari shu asosda tashkil etiladi va vazifalari belgilanadi.

Quyidagilar xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining terminal komplekslarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, saqlash va tarqatish texnologik jarayoni majmuuni avtomatlashtirishni ta’minlash, shuningdek favqulodda vaziyatda muhofaza usullari va aholining harakatlari, yuzaga kelgan vaziyat to‘g‘risida aholiga xabar berish va ma’lumotlarni yetkazishda barcha jarayonlarni aniq vaqt ko‘lamida monitoring qilish;

favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida respublika aholisiga xabar berish va ma’lumot yetkazish;

rahbar organlarga, FVDT kundalik boshqaruv organlariga, respublika hududida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan va ajratiladigan (jalb

qilinadigan) maxsus tayyorlangan kuchlar va vositalarga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarni yetkazishdan iborat.

Respublika va viloyat darajasidagi xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Koraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan xamkorlikda, har yili ajratiladigan byudjet mablag‘lari hisobidan yaratiladi va saqlanadi.

Respublika va viloyat darajasidagi xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlari qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga ham yaratilishi va saqlanishi mumkin.

Lokal va obyekt darajasidagi xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimlar potensial xavfli obyektlar hamda ellik nafardan ortiq xodimlari bo‘lgan obyektlar tomonidan xar yili ajratiladigan byudjet mablag‘lari, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hamda konunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga yaratiladi va saqlanadi.

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi faoliyati uchun mo‘ljallangan bog‘lovchi liniyalar va ma’lumotlarni uzatish kanallari O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ustuvor tartibda, telekommunikatsiya xizmat tariflarini kamaytirish bo‘yicha tashkilotning imtiyozini hisobga olgan xolda, shartnomaga asosida taqdim etiladi.

Bunda, xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi tasarrufida bo‘lgan boshqarmalar bilan shartnomaga tuzgan O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining tegishli bo‘linmalariga, shartnomaga shartlariga muvofiq, bog‘lovchi liniyalar va ma’lumotlarni uzatish kanallarining sozligi uchun to‘liq javobgarlik yuklanadi. Shuning uchun ham bu vazirlikning xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishda tutgan katta ahamiyat kasb etadi.

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimida tashkil qilingan vositalar faoliyati uchun elektr tarmoqlari ham talab etiladi. Bunda

“O‘zbekenergo” AJ bo‘linmalari tomonidan ustuvor tartibda elektr xizmatlaridan foydalanish uchun tarif xizmatlarini pasaytirish bo‘yicha tashkilotning imtiyozini hisobga olgan holda, shartnoma asosida taqdim etiladi.

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimiga foydalanish-texnik xizmat ko‘rsatish va uning tasarrufidagi boshqarmalar va aloqa va axborotlashtirish vositalaridan foydalanish, ularni sozlash va xizmat ko‘rsatish sohasida o‘z faoliyatini yurituvchi tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi qaramog‘ida bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tizimga foydalanish-texnik xizmat ko‘rsatish uchun asosiy detallar, butlovchi va tarkibiy qismlar zaxirasini yaratadilar.

Respublika va viloyat darajasida xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlatish va unga foydalanish-texnik xizmat ko‘rsatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Lokal va obyekt darajasidagi xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlatish va unga foydalanish- texnik xizmat ko‘rsatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Aholiga xabar berish va ma’lumot yetkazishda translyatsiya qilish uchun teleradiokanalarni ishlatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va O‘zbekiston milliy teleradio-kompaniyasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshiruvchi mobil aloqa operatorlari orqali aholiga xabar berish va ma’lumotlarni yetkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilanadi.

Xabar berish va ma’lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi terminal kompleksidan unumli foydalanish maqsadida Kundalik faoliyat rejimida terminal kompleksidan ijtimoiy reklama, reklama-marketing va respublika aholisiga tegishli

boshqa ijtimoiy muxim ma'lumotlar translyatsiyasi uchun foydalanish mumkin. Bunda kundalik faoliyat rejimida reklama materiallari translyatsiyasi terminal kompleksi ekranlarida efir vaqtining 75 % dan ortiq bo'limgan xajmda amalga oshirilishi kerak. Qolgan vaktda favquloda vaziyatlarda aholi tayyorgarligi va fuqaro muhofazasi borasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha axborotlar translyatsiyasi amalga oshiriladi.

Kuchaytirilgan faoliyat rejimida reklama materiallari translyatsiyasi terminal kompleksi ekranlarida efir vaqtining 50 % dan ortiq bo'limgan xajmda amalga oshirilishi kerak. Qolgan vaqtida xabar berish va ma'lumot yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha aholini, kuch va vositalar harakatlari, boshqaruv organlari tavsiyalari, yuzaga kelayotgan vaziyat to'g'risida aholiga ma'lumot yetkazish va tayyorgarlik bo'yicha translyatsiya amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyat rejimida efirning to'liq vaqtidan favqulodda vaziyat sodir bo'lganligi to'g'risida aholiga xabar yetkazishda va ularni tayyorlashda, yuzaga kelgan vaziyatda aholi harakatlari bo'yicha ma'lumotlarni translyatsiya qilishda foydalaniлади.

### **Aholini favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va xabar berish tizimining chet davlatlari tajribasi.**

Favqulodda vaziyatlarda oldindan amalga oshirilgan himoya choralarini orasida favqulodda vaziyatlarda davlat tuzilmalarini va aholini tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar yoki xarbiy xarakatlar xavfi to'g'risida xabar berish va ogohlantirishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Aholining o'z vaqtida xabardor qilinishi va 7 - 10 daqiqa ichida ogohlantirilgandan so'ng boshipana berish imkoniyati odamlarning 90 - 85% dan 4 - 7 % gacha yo'qotilishini kamaytiradi. Shuning uchun favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish yaxshi tashkil etilgan xabar berish va ogohlantirish tizimiga bog'liq.

Ayni paytda Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatning tabiatini va ko'lamiga qarab, jamoatchilikni turli usullar bilan xabar berish va ogohlantirish

yo‘lga qo‘yilgan. Masalan SMS xabarlari, televizor va radio orqali, sirenalar, avtomatik qo‘ng‘iroqlar orqali xabar berish va ogohlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Shunday bo‘lsada insonlarning favqulodda vaziyatlar tufayli talofatlar juda ko‘p.

Bu vaziyatda kim aybdor? Xabar berish va ogohlantirish tizimi orqali yo‘lga qo‘yilgan vositalariga befarq insonlarmi? Yoki barcha ogohlantirish tizimini odamlarga yuqori darajada etkazishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymagan favqulodda vaziyatlar vazirligimi? Misol uchun, evropaning ko‘plab mamlakatlarida o‘tgan asrning birinchi yarmida o‘rnatilgan sirena tarmoqlari hali ham qo‘llanilmoqda. Afrika mamlakatlari haqida gapirishning hojati yo‘q. Buni oldini olish maqsadida BMT 2022 yilgacha ogohlantirish tizimlarini o‘rnatish va rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Shuni ham yodda tutish kerakki, ogohlantirish tizimi amalda Yaponiya va AQSH mamlakatlarida juda rivojlangan.

### **Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu tizim qanday yo‘lga qo‘yilgani:**

**Yaponiya. J-Alert** (Zenkoku Shunji Keihō System) - Yaponiyada milliy ogohlantirish tizimi, jamoatchilikni turli favqulodda vaziyatlar haqida tezda xabar berish va ogohlantirish uchun mo‘ljallangan. Yaponiyalik ekspertlarning fikriga ko‘ra, 2011 yilgi dahshatli sunamidan so‘ng ogohlantiruvchi fuqarolar umumiy sonining 78% ko‘cha eshittirish tarmog‘i orqali, televideniya orqali 5%, radio orqali 12%, mobil qurilmada 3% ga ogohlantirish oladilar. Yaponiyada zilziladan tashqari tabiiy ofatlardan 200 dan ortiq vulqon mavjud, shundan 49 faol hisoblanadi.

J-Alert - Yaponiyada butun mamlakat bo‘ylab aholini ogohlantirish tizimi mavjud. U sun’iy yo‘ldoshlar orqali ishlaydi, bu esa rahbarlar va aholiga mahalliy ommaviy axborot vositalari va sirenalar orqali tezkor xabar berishga imkon beradi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, fuqaro muhofazasi rahbarlarini ogohlantirish 1 soniyada amalga oshiriladi va favqulodda vaziyat xavfi to‘g‘risida aholiga xabar yuborish uchun 4-20 soniyagacha vaqt etadi. Ogohlantirishlar quydagicha amalga oshiriladi:

Noqulay ob-havo haqida ogohlantirishlar faqat yapon tilida efirga uzatiladi. Boshqa barcha favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish tizimi zilzilalar, sunami, vulqon portlashlari va harbiy harakatlar haqida besh tilda uzatilishi yo‘lga qoyilgan. Bular:

Yapon, Ingliz, Xitoy, Koreys va Portugal. Ushbu tizimni yaratish va uni ta'mirlash ko'p mablag' talab etadi.

Bundan tashqari, Yaponiyada zilzila xavfi haqida oldindan ogohlantirish tizimi ham mavjud. Bu bilan Yaponiya meteorologiya agentligi shug'ullanadi, zilzila haqida ogohlantiradi va qanday harakat qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar beradi. Yaponiyada 4 mingdan ortiq seysmograf mavjud bo'lib, ulardan kamida ikkitasi silkinishlarni aniqlasa, agentlik zilzila va uning epitsentrining taxminiy maydonini darhol aniqlaydi. Agar tebranishlarning ortishi kutilsa, agentlik bu haqda aholini darhol ogohlantiradi.

Ogohlantirishning aniqligi zilzila qaysi hududaligiga bog'liq. Epitsentr hududida yer osti silkinishlari ogohlantirishdan oldin sodir bo'lishi mumkin. Episenterdan uzoqroq hudularda ogohlantirishdan so'ng harakat qilish uchun bir daqiqa atrofida vaqt bo'ladi. Bu holatda boshpana topish yoki xavfli hududdan chiqib ketish mumkin. Masalan temiryo'llar poyezdlarni sekinlashtiradilar yoki zavod ishchilari ishni to'xtatadilar. Televideniya orqali quydagicha xabar beriladi:

"Bu zilzila haqida ogohlantirish. Iltimos, yer osti silkinishlari uchun tayyorgarlik ko'ring". Ekranda yaqinlashib kelayotgan zilzila epitsentri va unga ta'sir ko'rsatadigan hududlar ro'yxati ko'rsatilgan xarita paydo bo'ladi. Ushbu ogohlantirishlar zilzila oqibatida yer ko'chkisi yoki sunami xavfi haqida ham ma'lumot beradi.

Agar sunami xavfi mavjud bo'lsa, u holda 1SEG texnologiyasi umumiyligida ogohlantirishni etkazish uchun, xavf mavjud hududlarda televizor va radiolarni avtomatik ravishda ishga tushuradi (agar texnologiya ushbu texnologiyani qo'llab-quvvatlasa). Xabar besh tilda efirga uzatiladi. Bundan tashqari, yaqinda yuzaga keladigan zilzila haqida SMS orqali ham xabarlar yuboriladi. Barcha uchinchi avlod mobil telefonlari va zamonaviy mobil telefonlar uchun ilovalar orqali zilzila yoki sunamiga oid avtomatik xabarlar uchun o'rnatilgan ogohlantirish tizimi yaratilgan.

Suv toshqini va sel kelishini oldini olisda tablolari va ovozlovchi xabar beruvchi gidrologik qurulmalar orqali aholiga xabar beriladi.



7.12-rasm.Tablolar va ovozlovchi xabar beruvchi hidrologik qurulma

**AQSH.** Amerika Qo'shma Shtatlardagi ogohlantirish tizimi turli yo'nalishlarda ishlaydi. Birinchisi, Simsiz Favqulodda ogohlantirish tizimi (Wireless Emergency Alerts, WEA). Bu vakolatli davlat organlari tomonidan mobil telefonlar va mobil qurilmalarga yuborilgan favqulodda vaziyatlar to'g'risida ogohlantiruvchi matnli xabarlar hisoblanadi [29].

Xabarlar favqulodda vaziyat xavfi vaqtida ishlashga mo'ljallangan mobil aloqa antennalari orqali uzatiladi. Agar xavf Nyu-Yorkda paydo bo'lsa, ogohlantirishlar Nyu-York fuqarosi bo'limgan yoki boshqa mamlakatdan kelgan shaxslar mobil qurulmalari uchun ham WEA texnologiyasi qo'llab-quvvatlaydi va Nyu-Yorkda joylashgan barcha qurilmalarga ogohlantirish xabari keladi. Ular alohida signal va tebranishlarga ega, shuning uchun boshqa aloqa sinallari bilan aralashmagan holda olohida ishlaydi. Ogohlantirish va xabar berish davlat va mahalliy jamoat xavfsizligi organlari, milliy ob-havo prognozi xizmati va AQSH prezidenti tomonidan berilishi mumkin.

Uchta ogohlantirish toifasi mavjud: yaqinlashib kelayotgan xavf haqida xabar, prezident xabarlari va yo'qolgan bolalar haqida xabarlar berish uchun ham qo'llaniladi. Bu xabarlar 90 belgidan oshmasligi kerak bo'lgan xabarda xavf turi, vaqt, amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakatlar haqida ma'lumot beriladi va ogohlantirish yuborgan organ ko'rsatiladi. Ogohlantirishlar tarmoqni talab qilmaydi va oddiy xabarlar, qo'ng'iroqlar va Internet aloqalarining ishlashiga ta'sir ko'rsatmasdan mobil qurilmalarga xabar keladi.

Ikkinchidan, IPAWS – Integrated Public Alert and Warning System tizimi federal aloqa agentligi, federal favqulodda boshqaruv agentligi va Milliy meteorologiya xizmati tomonidan boshqariladi. EAS tizimi AQSH Prezidenti yoki hukumati tizimni faollashtirgandan so‘ng 10 daqiqadan kamroq vaqt davomida xalqqa murojaat qilishi uchun mo‘ljallangan.

Uchinchidan, xavfli ob-havo voqealarini (NOAA Weather Radio All Hazards, NWR) doimiy ravishda xabar beradigan NOAA radiostantsiyalari tarmog‘i mavjud. Rasmiy ogohlantirishlar, favqulodda vaziyatlar haqida prognozlar va boshqa xavflar to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, davlat xavfsizligi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni ogohlantirishda ham qo‘llaniladi, bular: milliy xavfsizlikka, tabiiy, ekologik va ijtimoiy xavflar to‘g‘risida favqulodda xabar berish tizimlari orqali amalga oshiriladi.

**Rossiya.** NTSUKS – inqiroz sharoitida milliy boshqaruv markazi – FSSN-seysmologik kuzatuvlar va zilzilalar prochni Federal tizimi, OKSION -aholini favqulodda ogohlantirish uchun keng qamrovli tizim. Rossiyada 300 dan ortiq vulkanlar mavjud bo‘lib, shulardan 55 tasi faol. Dunyoning eng kuchli zilzilalarining 80% tinch okeani havzasida sodir bo‘ladi.

Rossiya aholisini xabardor qilishning past darajasi bilan bog‘liq holda hududlarda texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida zamonaviy ogohlantirish tizimlarini joriy etish zarur. Keng qamrovli ogohlantirish tizimlarini ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatishning moliyaviy tomonini kengroq yoritish zarur. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi 1522-soni Farmonini amalga oshirish doirasida OKSION erta ogohlantirish tizimi bo‘lishi kerak. Respublika va mahalliy darajada OKSION tizimini joriy etish ogohlantirish muddatini ta’minlaydi 5 daqiqadan oshmasligi kerak; obyekt darajasida 1- daqiqadan oshmasligi va aholining 100% qamrab olishi lozim.

### **Moskva shaxrining tashkiliy-texnikaviy ogohlantirish tizimi:**

Moskva shahridagi favqulodda vaziyatlarda tezkor dispatcherlik boshqaruvining yagona tizimi doirasida navbatchi-dispatcherlik xizmatlari;

Moskva shahrida faoliyat yuritayotgan aloqa operatorlarining kuchlari, vositalari;

Moskva shahridagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va Moskva hududida joylashgan turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlar bilan aloqa va xabar berish kuchlari va vositalari aloqa tarmoqlari;



7.13-rasm. Aholini ogohlantirish va xabar berish moslamasi

Moskva favqulodda vaziyatlar vazirligi va fuqarolik mudofaasi organlari aholiga axborot va ogohlantirish signallarini etkazib beradigan aloqa tarmog‘ining kanallari.

7.1- jadval

#### Moskva shahri aholisini ogohlantirish tizimining kuchi va vositalari

Ogohlantirish turi	Miqdori	Aholini qamrab olish
Radiotochki	2,2 mln. dan ziyod dona	83%
Yelektrosirenlar	1316 dona	80%
OKSION	116 dona. modullar	14%
Ko‘chadagi dinamiklar	1745 dona	34%
Televideniya	1-chi va 3-chi kanal	100%
Radio UKV	«Mayak», «Radio Rossii», «Orfey», «Yunost»	

**Polsha.** Mintaqaviy ogohlantirish tizimi yordamida hukumat aholini televideniya, veb-saytlar va mobil ilovalar orqali yaqinlashib kelayotgan favqulodda vaziyatlar haqida xabar beradi. Televizorda xabarlar favqulodda vaziyat haqida qisqacha ma’lumotni o‘z ichiga olgan matn shaklida uzatiladi. Barcha mobil qurilmalar uchun ishlab chiqilgan ilovalarga xabarlarni yuborishdan tashqari, quyidagilar bo‘yicha, evakuatsiya, yong‘in, suv toshqini va epidemiya va zaharlanish, shoshilinch ob-havo

hodisalari, terrorizm, tabiiy ofatlar va boshqalar to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar va tushuntirishlar beriladi.

Bundan tashqari, tizim SMS-xabarlarni yuborish imkoniyatini beradi. Mamlakat hududida faoliyat yurutadigan uyali aloqa operatorlari bilan kelishgan holda, xabarlar telefonlarga avtomatik ravishda yuboriladi, agar kerak bo‘lsa, ularni bekor qilishingiz mumkin. SMS orqali boshqa ogohlantirish tizimlari mavjud, ammo ularga ulanish uchun telefon raqamingizni ma’lumotlar bazasida ro‘yhatdan o‘tishiz lozim bo‘ladi.

Favqulodda vaziyatlar signallari va ogohlantirishlar sirenalar bilan ham uzatiladi. Shu bilan bir qatorda, favqulodda vaziyat xavflari haqidagi xabarlar televidenia va radio orqali uzatiladi. Aholi gavjum punktlarini ovozli xabar berish mashinalar orqali ham aholi ogohlantirish mumkin. Lekin bu hammasi emas. Misol uchun, Mazury ko‘llarida qirg‘oqdan uzoq bo‘lgan kichik orollarda yashovchi fuqarolarning bo‘ron haqida ogohlantirish uchun maxsus yorug‘lik signallari beradigan yoritgichlar o‘rnatilgan.

**Kanada.** Alert Ready milliy jamoatchilik ogohlantirish tizimi yaratilgan. Ob-havo va boshqa favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirishlar xavf ostida bo‘lgan hududda televidenia va radio orqali xabar beriladi. Tizim respublika va mahalliy favqulodda vaziyatlarda qutqarish organlari, Kanada atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi va efirga uzatish kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Yong‘in, tabiiy, ekologik va biologik xavflar, terroristik xavf, ma’muriy va fuqarolik xavflar haqida ogohlantirishlar efirga uzatiladi. Uyali aloqa orqali xabar berish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan, biroq ba’zi kompaniyalar va davlat muassasalari maxsus obuna bo‘yicha xabarlar va ogohlantirishlarni olishi mumkin. Bundan tashqari, Kanadada ob-havo ma’lumoti tarmog‘i (The Weather Network) mavjud bo‘lib, u televide niada va uning xizmat ilovalari orqali favqulodda ob-havo haqida ogohlantirishlari yuboriladi. Favqulodda vaziyatlar xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda, o‘rnatilgan ilovalar zarur choralar ni ko‘rish haqida xabar beradi.

**Avstraliya.** Favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun ogohlantirish radio va televide niada efirga uzatiladi, jamoat joylarida ham manitorlar orqali uzatiladi. Shundan so‘ng favqulodda vaziyat haqida ma’lumot va xavfdan yashirinish uchun

zarur bo‘lgan harakatlar haqida ko‘rsatmalar beriladi. Bundan tashqari, Avstraliyada favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirishlar mavjud. Mahalliy aloqa operatrlari orqali ogohlantirish va uyali telefonlarga matnli xabarlar beriladi. Xabarlar har doim ham yuborilmaydi, lekin vaziyatga qarab: yong‘in, suv toshqini yoki ekstremal ob-havo sharoitlari xavfi haqida xabar beriladi. Xabarlar qo‘llaniladigan hududda joylashgan uyali aloqaga ulangan barcha abonentlarga yuborish orqali ogohlantiriladi. Favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirish uchun telefon tizimi va veb-sayt orqali, bu ommani ogohlantirish usullaridan biri ekanligini va bu usul har doim ham qo‘llanilmaydi. Vaziyat haqida eng to‘liq ma’lumotni olish uchun radio va televizor orqali va qutqaruv xizmatlari saytlariga tashrif buyurish orqali ma’lumotlar yetkaziladi.

**Fransiya.** Milliy xabar berish tizimi (Le réseau national d’alerte RNA) mavjud. Fransiyada favqulodda vaziyat haqida ogohlantirish havo signalizatsiyasi sirenalari milliy ogohlantirish tarmog‘i yordamida amalga oshiriladi. 4500 ta sirenalaridan tashkil topgan va ikkinchi jahon urushi davrida aholini bombardimon qilish xavfidan haqida ogohlantirish uchun ishlab chiqilgan. Shuningdek sirenalar va karnaylar xavfli hududdagi aholi punktlarida ishlaydigan o‘t o‘chiruvchilar va politsiya mashinalariga ham o‘rnatalishi mumkin. Sirena orqali xabar olgandan so‘ng, darhol radioning “France Inter” yoki “France Info” kanalari orqali favqulodda vaziyatlarning tabiatini va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan harakatlar haqida gapirishadi. Xuddi shu ma’lumot mahalliy radiostansiyalar tomonidan ham efirga uzatiladi. Sirena bilan ogohlantirish tizimi bir qancha kamchiliklarga ega:

Birinchidan, ko‘plab qurilmalar eskirgan va ta’mir talab holatda.

Ikkinchidan, sirenalarning bir qismi hokimiyat tomonidan emas, balki, ular joylashgan korxonalar tomonidan nazorat qilinadi va ishga tushuriladi.

Uchinchidan, sirenlar Fransiya hududini to‘liq qamrab olmagan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun mamlakatda yana bir loyiha — aholini ogohlantirish va xabardor qilish tizimi (Système d’Alerte et d’Information des Populations) ishga tushirilgan. Sirena signaliga qo‘srimcha ravishda, tahdid yuzaga kelganda, boshqa ogohlantirish vositalari ishga tushadi, bular milliy va mintaqaviy

ommaviy axborot vositalari, qutqaruv xizmatlarining avtomatik qo‘ng‘iroqlari va boshqalar. Keng qamrovli ogohlantirish tizimi shahar hokimi, viloyat hokimi yoki bosh vazirning qarori bilan ishga tushiriladi. Xavfli hududdagi barcha telefonlarga ogohlantirish uchun SMS-xabarlar yuboriladi.

**Shveysariya.** Shveysariya sirenлari tarmog‘i ikkinchi jahon urushi davrida yaratilgan. Favqulodda vaziyat sharoitida va tabiiy ofatlar xavfi ostida aholini xabardor qilish uchun ishlatiladigan 8 ming ta sirena mavjud. Bu tizim ICARO xavf to‘g‘risida radioaxborot tashkiloti. (ICARO (Information Catastrophe Radio Organisation). Signalning ikki turi mavjud. Birinchisi, umumiy signal. Umumiy signal olgan fuqarolar radioni yoqishlari va u yerda aytilgan ko‘rsatmalarga rioya qilishlari kerak. Bundan tashqari, qo‘shnilaringizga favqulodda vaziyat xavfi haqida xabar berish kerak.

To‘g‘onlar yaqinida joylashgan joylarda umumiy signaldan keyin ikkinchi signal - suv toshqini signalini berilishi mumkin. Bunda agar siz uni eshitgan bo‘lsangiz, ko‘rsatmalarga rioya qilib, darhol xavfli hududni tark etishingiz kerak. Ko‘rsatmalar fuqarolarning telefon ilovalari yoki davlat veb-sayti sahifalarida topish mumkin. 2016 dan beri Shveytsariya sirena tizimini modernizatsiya qilish uchun POLYALERT loyihasini ishga tushirdi. Ular joylarda masofadan yoki qo‘lda ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, so‘nggi bir necha yil ichida Shveytsariya ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Davlat va xususiy radio va televidenia kompaniyalari yuqori va favqulodda darajadagi xavf yuzaga kelgan taqdirda o‘zlarining efirlarini to‘xtatib, favqulodda vaziyatlarga oid davlat ogohlantirishlarini yuborishlari kerak. Ogohlantirishlar Shveytsariya seysmologiya xizmati, Federal atrof-muhitni muhofaza qilish idorasi va tabiiy xavflarni o‘rganishga ixtisoslashgan boshqa tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin.

**Filippin.** Favqulodda vaziyatlar paytida Filippin aholisini televizor, radio, qo‘ng‘iroqlar, SMS-xabarlar va ijtimoiy tarmoqlarga asosan xabar berish tashkil etilgan. Bir necha yil oldin ular Internet-ogohlantirish tizimini sinab ko‘rishdi, lekin u ham favqulodda vaziyat sharoitlarda samarali ish bermadi. Xabarlar ko‘pincha kelmadi, orollardagi tarmoq qamrovi to‘liq emas va har bir kishi internetga

ulanmagan. Filippin uchun eng maqbul echim sirena bilan ogohlantirishdir. Evropa mamlakatlarida bo‘lgani kabi, bunday sirena tarmoqlari Filippin orollarda ham to‘liq qamrab olmagan. Tabiiy ofatlar haqidagi ma’lumotlar Filippinning atmosfera, geofizika va astronomik tadqiqot xizmatlari (PAGASA) tomonidan taqdim etilgan. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida, yaqinda yuzaga keladigan ofat xavfi darajasiga qarab, Ogohlantirishlar uchun to‘rtta signal turi ishlab chiqilgan, ular xavf kutilgan vaqt oralig‘ida farq qiladi: 36, 24, 18 va 12 soat. Har bir signal uchun hukumat sayti meteorologik sharoit va ehtiyyot choralarini tasvirlaydi.

Mavjud zamonaviy ogohlantirish tizimlari maxsus sun’iy yo‘ldosh tarmog‘i va yerga asoslangan axborotni qayta ishlash tizimidan iborat. Tizimlarning tarkibiy qismlari seysmograflar, akselerometrlar, GPS sensorlari, mobil aloqa tizimlari, kabel tarmoqlari, optik tolali tarmoqlar, radar stantsiyalari va boshqalarni o‘z ichiga olgan rivojlangan uchta mamlakat tizimini solishtiramiz (7.2-jadval).

7.2-jadval

Ko‘rsatkichlar	AQSH	Yaponiya	Rossiya
Favqulodda vaziyatlarda xabar berish va ogohlantirish tizimi	IPAWS	J-Alert	FSSN, KSEON
Tegishli rahbarlarni ogohlantirish vaqtini	4 – 10 s	1 s	<60 s
Aholini ogohlantirish vaqtini:			
- ogohlantirish vositalari	10 s	4 s – 20 s	60 s – 20
- televideniva orqali xabar berish	3 min	3 min	min
Ogohlantirish o‘lgan aholining nisbati	90 %	> 80 %	< 50%
Tizimning qiymati, mln. dollar	38,3	3,798	–
Tizimiga yillik xizmat ko‘rsatish qiymati,	7	0,88	–
Tizim hududini qamrab olishi	100 %	100 %	<80 %
Mamlakat mumkin bo‘lgan zilzilalar	>80%	100%	49%
Mumkin bo‘lgan suv toshqinlari, suv toshqini maydonlari km <sup>2</sup>	900 000 km <sup>2</sup>	2 150 km <sup>2</sup>	5 000 km <sup>2</sup>
Yiliga suv toshqinlaridan zarar miqdori,	16	–	3.25

### **§7.3. Favqulodda vaziyatlardan aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etishning avtomatlashtirilgan tizimi**

Favqulodda holatlarda telekommunikatsiyalar tarmoqlari va resurslarini markazlashgan holda boshqarish qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik deb yuritiladi) maxsus iste’molchilar, shuningdek telekommunikatsiyalar operatorlarining telekommunikatsiya tarmoqlari (aloqasi)ni boshqarish markazlari, tasarrufida idoraviy telekommunikatsiyalar tarmoqlari bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda O‘zbekiston telekommunikatsiyalar tarmoqlarini markazlashgan holda boshqarish rejimiga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror Vazirlik tomonidan korxonalarining fuqaro muhofazasini tayyor holatga keltirish to‘g‘risida tegishli davlat hokimiyati organlaridan, belgilangan tartibda, olingan farmoyishi asosida qabul qilinadi.

Favqulodda holatlarda O‘zbekiston telekommunikatsiyalar tarmoqlari resurslarini markazlashgan holda boshqarish Vazirlikning bevosita bo‘ysunuvida bo‘lgan O‘zbekiston telekommunikatsiyalar tarmoqlarini Respublika boshqarish markazi (keyingi o‘rinlarda — RBM deb yuritiladi) tomonidan maxsus iste’molchilar, telekommunikatsiyalar va idoraviy tarmoqlar operatorlarining boshqarish markazlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Markazlashgan holda boshqarish O‘zbekiston Telekommunikatsiyalar tarmoqlarini boshqarish tizimi (keyingi o‘rinlarda — O‘zTTBT deb yuritiladi) orqali amalga oshiriladi. Markazlashgan holda boshqarishda O‘zTTBT quyidagilarni ta’minlaydi:

telekommunikatsiyalar tarmoqlari operatorlari tomonidan favqulodda holatlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog‘liq davlat boshqaruvi, mudofaa, davlat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlash sohasida kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni o‘tkazishda ko‘rsatiladigan telekommunikatsiyalar xizmatlari bo‘yicha ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

telekommunikatsiyalarning istalgan tarmoqlari va vositalaridan ustuvor foydalanish, yoxud ulardan foydalanishni to‘xtatib qo‘yish yoki cheklash to‘g‘risidagi qarorlar bajarilishini tashkil qilish;

zarur avariya-tiklash ishlari bajarilishini tashkil qilish;

favqulodda holatlarda telekommunikatsiyalar tarmoqlari va vositalari shikastlangan holatlarda ularning ishlash qobiliyatini tiklash mobaynida monitoring;

maxsus iste’molchilar uchun telekommunikatsiyalar operatorlari tomonidan aloqaning rejalashtirilgan qo‘srimcha kanallari va vositalari ajratilishini nazorat qilish va ular bo‘yicha chora-tadbirlarni qabul qilish.

RBM va Aloqa sohasida mintaqaviy hamdo‘stlik (keyingi o‘rinlarda — AMH deb yuritiladi) a’zolari bilan ularning tarmoqlaridan foydalanish zarurati yuzaga kelganda, o‘zaro hamkorlik qiladi. O‘zaro hamkorlik AMH Aloqa ma’muriyatları o‘rtasida amalda bo‘lgan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan hududlardagi telekommunikatsiya tarmoqlari, aloqa obyektlari va mobil aloqa operatorlarining baza stansiyalaridagi baland antenna-machta qurilmalarida montaj qilish orqali aloqani tiklash vazifalarini bajarish ishlarida MATB bo‘linmlari, Axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hududiy boshqarmalari va mobil aloqa operatorlari mutaxassislari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan hududlardagi talofat oqibatlarini bartaraf qilish jarayonida boshqaruva shtabi va tashkilotlarning shtablari orasidagi aloqa MATB bo‘linmlari, Axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi viloyat boshqarmalari va “O‘zbektelekom” AK hududiy filiallari, hamda mobil aloqa operatorlarining mutaxassislari bilan hamkorlikda tashkillashtiriladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda ularni oqibatlarni bartaraf etish vaqtida, hamda aholi va hududlar havfsizligini ta‘minlash bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlar vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining mobil boshqaruva punktida aloqani tashkillashtirish jarayonida Axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining ko‘rsatmasiga

asosan “O‘zbektelekom” AK optik tolali aloqa liniyalariga ulanish va telekommunikatsiya hizmatlaridan foydalanish huquqini MATBga beg‘araz taqdim qiladi.



7.12-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining mobil boshqaruv punkti

Фавқулодда ҳолатларда (харбий ҳаракатлар, зилзилалар, сув тошқинлари, ёнгинлар, эпидемиялар ва бошқалар) телекоммуникациялар соҳасидаги маҳсус ваколатли орган телекоммуникациялар тармоқлари ва воситаларидан устувор фойдаланиш ҳамда уларни марказлашган ҳолда бошқариш, шунингдек уларнинг ишлишини чеклаш ёки тўхтатиб қўйиш хуқуқига эга.

Телекоммуникациялар тармоқлари ва воситаларидан устувор фойдаланиш, улардан фойдаланиши тўхтатиб қўйиш ёки чеклаш Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик хизмати (кейинги ўринларда — маҳсус истеъмолчи деб юритилади) фавқулодда ҳолатларнинг олдини олиш ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш бўйича кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни кўриш имкониятини таъминлаш, фавқулодда ҳолатлар юзага келганда давлат бошқаруви, миллий хавфсизлик, мудофаа ва хуқуқ-тартиботни қўриқлаш бўйича вазифаларни таъминлаш мақсадида амалга оширилади.



7.13-rasm. Favqulodda holatlarda mobil telekommunikatsiya vositalari

Operatorlar va provayderlar aholini favqulodda holatlar xavfidan xabardor qilishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan vositalar o‘rnatilishini va ulardan foydalanishni ta’minlashlari shart.

Favqulodda holatlarda telekommunikatsiya tarmoqlari va vositalaridan foydalanish paytida operatorlar va provayderlar ko‘rgan zararlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

Operatorlar va provayderlar odamlarning dengizdagи, yerdagi, havodagi, kosmik fazodagi xavfsizligiga, mudofaa, xavfsizlik va huquq-tartibotni saqlash sohasidagi kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlar o‘tkazishga taalluqli barcha xabarlargaga, shuningdek yirik avariylar, falokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlar haqidagi xabarlargaga mutlaq ustuvorlik berishlari lozim.

#### **§7.4. Evakuatsiya tushunchasi, uning turlari va tashkil etish tadbirlari**

Evakuatsiya-bu favqulodda vaziyatlar hududlaridan (ehtimol favqulodda vaziyatlar) aholini uyushgan holda olib chiqish (olib chiqish) va uni hayotni birinchi

navbatda qo'llab-quvvatlash shartlari bo'yicha oldindan tayyorlangan xavfsiz hududlarga (hududlar, joylar, punktlar) qisqa muddatli joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.

Evakuatsiya tadbirlari 3 bosqichni o'z ichiga oladi: (rejalashtirish, ta'minlash, amalga oshirish - o'tkazish) va 3 rejimda amalga oshiriladi: (kundalik faoliyat, yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimi).

Evakuatsiyani ko'chirish (ko'chirish) va tarqalish bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ko'chib o'tishda aholi qisqa vaqtga emas, balki yangi doimiy yashash joyiga ko'chib o'tadi. Tarqatish deganda toifalangan shaharlardan uyushgan eksport qilish va urush davrida ishlab chiqarish faoliyatini davom ettiradigan sanoat, energetika va boshqa ob'ektlar xodimlarini, shuningdek alohida toifadagi alohida ob'ektlar xodimlarini shahar atrofiga joylashtirish tushuniladi. Xodimlarning smenali ishi uchun ishchilarni o'zlarining ishlaydigan ob'ektlariga etkazib berish tashkil etiladi (bu shahar sonining 10-15%).

Mamlakatimizning butun hududi (SNIP NTM GZ-93 ga muvofiq) hududlarga bo'linadi:

xavfli hudud-mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar hududi (kimyoviy, radiatsiya, biologik, ifloslanish ,halokatli suv toshqini, sel oqimlari, ko'chkilar, qor ko'chkilar, zamonaviy qirg'in vositalaridan kuchli vayronagarchilik va boshqa favqulodda vaziyatlar);

xavfsiz (shahar atrofi) hududi, ya'ni aholi yashaydigan joylar va aholi punktlari xavf tug'dirmaydi. Ularning masofasi juda boshqacha bo'lishi mumkin (bir necha kilometrdan o'nlab va yuzlab kilometrgacha). Ushbu hududlar favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning hududiy organlarini belgilaydi va korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga evakuatsiya qilish uchun hududlarning tegishli uchastkalarini (tumanlar, punktlar, ob'ektlar) beradi.

### **Evakuatsiya qilish.**

Tinchlik davrida evakuatsiya aholini hududlardan olib chiqish maqsadida amalga oshirilishi mumkin:

- mumkin bo'lgan halokatli suv toshqini;

- kamyoviy xavfli ob'ektdagi avariya natijasida er va havoning kamyoviy ifloslanishi;

- radiatsiyaviy xavfli ob'ektdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish;

- odamlarning hayotiga tahdid soladigan toshqinlar va boshqalar.

Evakuatsiya qilish to‘g‘risida qaror ob’ekt rahbari yoki (va) har qanday darajadagi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinishi mumkin. Ular evakuatsiya tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun to‘liq javobgardir.

Amalda, toza evakuatsiya kamdan-kam uchraydi. Qoida tariqasida, u boshqa favqulodda vaziyatlar tuzilmalari ishtirok etadigan boshqa tadbirlar bilan birlashtiriladi.

Evakuatsiya komissiyalari turli toifadagi fuqarolarni evakuatsiya qilishni rejalashtirish va tashkil etish funktsiyalarini bajaradilar. Vaqt cheklanganligi sababli evakuatsiya organlari to‘liq ochilmaydi. Ba’zi hollarda evakuatsiya qilish uchun transport to‘g‘ridan-to‘g‘ri turar-joy binolariga, ma’muriy binolarga va ichki ishlar organlari yordamida etkazib beriladi; evakuatsiya hatto majburiy bo‘lishi mumkin.

Qoida tariqasida, evakuatsiya komissiyalari evakuatsiya tadbirlarini oldindan rejalashtirishadi, chunki ba’zi favqulodda vaziyatlar juda aniq prognoz qilingan. Odatda potentsial xavfli ob’ektlar, ularning xavf darajasi, shamol ko‘tarildi, arning xususiyatlari va boshqa dastlabki ma’lumotlar ma’lum. Bu sizga tuman, shahar xizmatlari, tashkilotlari va ob’ektlarini evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazishda ularning ishtiroki to‘g‘risida oldindan xabardor qilish imkonini beradi.

Favqulodda vaziyatlarning rivojlanishiga va favqulodda vaziyat hududidan chiqarilgan aholining soniga qarab, evakuatsiya qilishning quyidagi variantlari ajratilishi mumkin:

**Lokal evakuatsiya** - agar zarar etkazuvchi omillarning mumkin bo‘lgan ta’sir qilish zonasi alohida shahar mikrorayonlari yoki qishloq aholi punktlari chegaralari bilan cheklangan bo‘lsa, aholi soni bir necha o‘ndan bir necha ming kishigacha bo‘lsa amalga oshiriladi.

**Mahalliy evakuatsiya** - agar o‘rta shaharlar, yirik va yirik shaharlarning ayrim hududlari, qishloq joylari xavf hududiga tushib qolsa, amalga oshiriladi. Shu bilan

birga, aholi soni bir necha mingdan yuz minggacha bo‘lishi mumkin. Mahalliy evakuatsiya paytida eksport qilinadigan aholi, qoida tariqasida, zarar ko‘rgan va unga qo‘shni hududlarning xavfsiz hududlarida joylashgan.

**Mintaqaviy evakuatsiya** - bu ta’sir etuvchi omillarning ta’siri aholi zinchligi yuqori bo‘lgan bir yoki bir nechta hududlarni qamrab oladigan va yirik shaharlarni o‘z ichiga olgan muhim hududlarga tarqalishi sharti bilan amalga oshiriladi. Mintaqaviy evakuatsiya paytida favqulodda vaziyatlar hududidan chiqarilgan aholi doimiy yashash joyidan uzoq masofalarga evakuatsiya qilinishi mumkin.

Aholini evakuatsiya qilishning o‘tkazish vaqt va vaqtiga qarab quyidagi variantlari ajratiladi:

oldindan (oldindan) evakuatsiya - potentsial xavfli ob‘ektlarda yoki tabiiy ofatda loyihaviy baxtsiz hodisa yuz berishi ehtimoli yuqori bo‘lganligi to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar olinganda amalga oshiriladi;

shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) evakuatsiya - favqulodda vaziyat yuzaga kelganda amalga oshiriladi. Favqulodda vaziyat hududlaridan olib chiqish (olib tashlash) qisqa vaqt ichida va favqulodda vaziyat manbasining zararli omillari ta’sirida amalga oshirilishi mumkin.

Oldindan (oldindan) evakuatsiya qilish bilan barcha tadbirlar favqulodda vaziyatlar paydo bo‘lishidan oldin oldindan rejalashtirilgan va amalga oshiriladi, barcha evakuatsiya organlari evakuatsiya rejasiga muvofiq amalga oshiriladi, ya’ni bu evakuatsiyaning klassik shakli, ammo u faqat ma’lum sharoitlarda, asta-sekin rivojlanayotgan hodisalar bilan, faqat ma’lum favqulodda vaziyatlarda (toshqin, qurg‘oqchilik, harbiy harakatlarning tayyorgarlik bosqichi va boshqalar).

Odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan aholining normal hayotini ta’minalash buzilgan taqdirda, favqulodda (shoshilinch) evakuatsiya ham amalga oshiriladi.

Shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) evakuatsiya oldindan (oldindan) evakuatsiya qilishdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu tezkor favqulodda vaziyat (yong’in, sel, ko‘chki, kimyoviy ifloslanish va boshqalar, shuningdek tezkor jangovar harakatlar paytida) tufayli yuzaga keladi.

O‘tgan favqulodda vaziyatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, evakuatsiya ham oldindan (oldindan), ham shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) bo‘lishi mumkin. Ammo tez-tez shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan) evakuatsiya sodir bo‘ladi, chunki favqulodda vaziyatlarning aksariyati to‘satdan paydo bo‘ladi. Favqulodda evakuatsiyani amalga oshirish proaktivga qaraganda ancha qiyin, o‘nlab muammolar mavjud bo‘lib, ularni kechiktirmasdan, cheklangan vaqt ichida cheklangan kuch va vositalar bilan hal qilish kerak.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan va mavjud vaziyatdan himoya qilish bo‘yicha harakatlar rejasiga muvofiq favqulodda evakuatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi:

Viloyatlar hokimlari-shaharlar (viloyat va tuman markazlari), viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar va o‘ta muhim ob’ektlar aholisi;

tuman hokimlari-tuman bo‘ysunuvidagi tumanlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullar shaharlari aholisi, viloyat hokimi tomonidan kelishilgan va tasdiqlangan holda.

Ikki yoki undan ortiq viloyat hududida evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish zarurligiga sabab bo‘lgan respublika va transchegaraviy favqulodda vaziyatlar tahdid qilingan yoki yuzaga kelgan taqdirda, shuningdek qurolli mojarolar yuzaga kelgan taqdirda aholini evakuatsiya qilish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

Favqulodda vaziyatlar hududida bo‘lgan aholini evakuatsiya qilish bilan qamrab olishga qarab, evakuatsiya sodir bo‘ladi:

- umumiy;
- qisman.

Umumiy evakuatsiya favqulodda vaziyatlar hududidan aholining barcha toifalarini olib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Qisman evakuatsiya-aholining ayrim toifalarini (bemorlar, nogironlar, homilador ayollar, bolalar va boshqalar) favqulodda vaziyatlar hududidan olib chiqish zarur bo‘lganda amalga oshiriladi.

## **Nazorat savollari**

1. Favqulodda vaziyatlardan o‘z vaqtida ogohlantirish va xabar berish tizimi qanday tuzilgan?
2. Favqulodda vaziyatlardan aholini o‘z vaqtida ogohlantirish va xabardor etishning avtomatlashtirilgan tizimi qanday tuzilgan?
3. Evakuatsiya tushunchasi, uning turlari va tashkil etish tadbirlari tuzilishi?

## **8. BOB. TERRORISTIK HARAKATLARDAN MUHOFAZALANISH**

Insoniyat yangi ming yillikka - XXI asrga qadam qo‘ydi, lekin shuni ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrda bashariyat juda ko‘p quvonchli hamda tahlikali, dahshatli voqealami boshidan kechirdi. Qonli to‘qnashuvlami, ikkita jahon urushini, sovuq urush vahimasi va qatag‘onlami boshidan kechirgan insoniyat kelajak sari talpinib, har qanday qiyinchiliklami yengib, taraqqiyotga erishib bordi. Afsuski, insoniyatning hayot kechirishi uchun undagi imkoniyatlaming tobora cheklanib borayotganligi ayon bo‘lmoqda. Aholini toza ichimlik suvi, toza havo, oziq-ovqat mahsulotlari biian ta’minalash bir vaqtida xavfsiz hayot masalalari ayniqsa qiyinlashib bormoqda. Biroq taraqqiyparvar kuchlar tomonidan bashariyatning gullab-yashnashi, uning sayyoramizda emin-erkin yashashi uchun yangidan yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ming afsuslar bo‘lsinki, bugungi kunda yer yuzida, insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, xuruj qilayotgan xalqaro terrorizm o ‘zining rnanfur maqsadlarini jahon ommasiga tobora yaqqol ko‘rsatmoqda. Xalqaro terrorizm xuriji oqibatida yuz minglab kishilaming yostug‘i qurib, moddiy boyliklar vayron qilinmoqda. Hozirda uning xurujidan hech bir davlat, hatto hech kirn mutlaqo muhofazada emas. Har daqiqada insoniyat bunday ijtimoiy ofatning qurbaniga aylanishi mumkun. Shu sababdan BMTning favqulodda vaziyatlar tasnifiga qo‘shim cha qilib, aynan ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlaming kiritilishi bejiz emas. Chunki bunday tusdagi xavf-xatarning darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Shuning uchun har bir inson o‘z yurti, millati, muqaddas zamini va oilasi tinchligi, xotirjamligi uchun kurashmog‘i lozim.

### **§8.1. Terrorizm va terrorchilik harakatlari haqida tushuncha**

Terrorizm lotincha "terror"-qo‘rquv, dahshat so‘zidan olingan bo‘lib, siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy boyliklarning yo‘q qilinishi xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga,

xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli majorolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqtish va ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan.

Terrorizmning ikki turi mayjud:

- a) yakka tartibdagi (individual terror);
- b) uyushgan guruhli.

**Individual terror.** Tarixdan ma’lumki, davlat siyosatini saklash yoki o‘zgartirish uchun ma’lum bir shaxs yoki dushman jismoniy yo‘q qilingan. Ana shunday zo‘ravonlik va kuch ishlatalish jarayonida individual terror namoyon bo‘ladi. Demak, siyosiy kurashda kuchli siyosiy opponent yoki raqibni yo‘q qilishning boshqa vositasi topilmaganda, individual terrordan qurol sifatida foydalanilgan. Uni ikkiga ajratish mumkin:

**Birinchisi**, sulolaviy nizolar negizidagi terror - ma’lum bir maslakdosh kishilar, ya’ni guruh rahnamoligida rejalashtirilib amalga oshiriladi. Mirzo Ulug‘bekka nisbatan uyushtirilgan suiqasd buning yaqqol misoli. Buyuk hukmdor, donishmand, mutafakkir Mirzo Ulug‘bek Vataniga qirq yil xizmat qildi, o‘z yurtini ravnaq toptirdi hamda jahon fanini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdi. "Ijtimoiy to‘qnashuvlar sababli johil fitnachilar rahnamoligida Abdullatif saroy to‘ntarishini amalga oshirdi va otasining huzuriga yollanma qotilni jo‘natdi".

**Ikkinchisi**, nomaqbul hukmdor, davlat, jamoat va fan arboblarini yo‘q qilishga qaratilgan terror. Jordano Bruno, Pavel I, Aleksandr II, Stolipin va boshqalar individual terror qurboni bo‘lishgan. Bu shaxslar ma’lum bir faoliyatlarini tufayli jamiyat uchun nomaqbul kishiga aylanishgan va ba’zi bir kuchlar uchun ularni jismoniy yo‘q qilish qulay bo‘lgan. Jordano Bruno ijtimoiy to‘qnashuvlar sababli o‘ldirilgan. Pavel I ning shafqatsizligiga chek qo‘yish maqsadida unga nisbatan terror uyushtirilgan. Aleksandr II va Stolipin islohotlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo‘shganligi xususida tarix guvohlik byeradi. Ularning reformatorlik faoliyatini jamiyat a’zolari bir tusda qabul qilishmadi va mazkur

faoliyatni to‘xtatish maqsadida bu shaxslarga nisbatan terror uyushtirildi. Aleksandr II ga nisbatan etti marta suiqasd uyushtirilgan bo‘lib, oxirisida o‘ldirildi.

Terror asta-sekin spiralsimon harakat qilib, keng ommaga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlaydi va natijada individual terror ommaviy terrorga aylanadi. Terror faqat ommaga qarshi qaratilganligi yoki muayyan bir ommaning boshqalarga qarshi qaratilganligi uchungina ommaviy tus olmaydi. Zo‘rlikka qarshi zo‘rlik ishlatilganda terror haqiqiy ommaviy tus olishi mumkin. Bunda terror ommaning keng qatlamlarini o‘z girdobiga oladi. Ommaviy terroni quyidagi ko‘rinishlarga ajratish mumkin:

**Birinchisi**, hokimiyat boshqaruv quroli sifatida - ma’lum bir tarixiy davrlarda xalqni itoatda saqlashda qo‘rquv va vahima, ya’ni terror alohida o‘rin egallagan. Bu haqda tarixiy dalillar talaygina. Zero uning tarixiy shakllarini chuqur tahlil etish Terrorizm muammosining echimini topishga imkon byeradi. Bunday turdag'i ilk terror qadimgi Italiyada diktator Sulla davrida sodir bo‘lgan. Mitridian 1 bilan Dardan sulhini tuzgach, Lutsiya Korneliya Sulla (mil.av. 82-79-yillarda hukmronlik qilgan) Italiyaga shoshilinch qo‘shin tortadi. Sulla askarlari va marianliklar orasida jangovar to‘qnashuv boshlanadi. Sulla bu to‘qnashuvda g‘alaba qozonib, Rimda diktatura o‘rnatadi. Manbalar guvohlik berishicha, bu urushda 110 mingga yaqin kishi halok bo‘lgan. Shundan so‘ng Rimda dahshatli qirg‘inlar boshlanadi. Ko‘chalarda barcha mol-mulki musodara etilgan, o‘zi esa o‘limga hukm qilinganlar ro‘yxati osib qo‘yilgan. Proskripsiya ro‘yxat faqat Rimda emas, balki Italiyaning barcha shahar va qishloqlarida tuzilgan. U o‘zini diktator hisoblab, sodir bo‘layotgan hodisalar uchun javobgar emas, deb e’lon qildi. Kelajakda butun hukumatni egallah, shaharlarni talon-taroj qilib, xunrezlik asosida qo‘lga kiritgan mol-mulkni o‘zi xohlagan kishisiga taqdim etishini e’lon qildi.

**Ikkinchisi**, siyosiy harakat ko‘rinishida, ilk bor fransuz inqilobi davrida paydo bo‘ldi va radikal inqilobchilar tomonidan siyosiy muxolifatni qatag‘on qilish vositasi tarzida foydalanildi. Terroring tarixiy rivojlanish dinamikasiga e’tibor berilsa, aynan shunday holat kuzatiladi. Har bir terror jarayonining asosida muayyan siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yotadi, u yoki bu shaxs ustidan zo‘ravonlik, kuch ishlatish esa ushbu mamlakatdagi siyosatni saqlash yoki o‘zgartirish vositasi sifatida

namoyon bo‘ladi. Siyosiy kurashning bu usuli ma’lum jamiyatda, mamlakatda yashovchi fuqarolar orasida qo‘rquv va dahshat tarqatishdir. Siyosiy maydondan o‘ziga nomaqbul davlat, hukumat, jamoat arboblarini yo‘qotish uchun terrorchi ular olib borayotgan asosiy yo‘nalishni bartaraf qilishga intiladi. Uning izdoshlari yoki vorislari xalq orasida parokandalik urug‘ini sochishga intiladi. Shu bilan birga bu jarayon atrofdagilarga katta ma’naviy-ruhiy jarohat yetkazadi.

Bu masalada tadqiqotchi I.Artamonovning quyidagi fikri ma’lum darajada asosli: “Terrorning asosiy maqsadi begunoh odamlarni yo‘q qilish va yo‘q qilinmaganlarni qo‘rqtish. Shuning uchun Usoma bin Lordin toifasidagi terrorchilarining vazifasi - butun dunyoni bo‘ysundirish uchun qo‘rqtish, agar buning iloji bo‘lmasa, dunyoni yo‘q qilish”.

Kuch ishlatishning turli: jismoniy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, axborot orqali va h.k. Shakllari bor. Zo‘rlikning aniq ifodalangan turlari mavjud bo‘lib, ularni bir-biridan farqlay bilish murakkab bo‘lgan hollarda ikki turini: ommaviylashganlik va tashkil qilinganlik darajasini ajratish lozim. Mana shu ikki o‘lcham bir-biri bilan kesishgan joyda zo‘rlik ishlatishning to‘rt turini aniqlash mumkin.

Bular: ommaviy uyushgan; ommaviy uyushmagan (stixiyali); yakka holda uyushgan; yakka holda uyushmagan (stixiyali) zo‘rlik ishlatishlardir. Albatta, ularning har biri o‘z xususiyatlari ega. Bizningcha, umumlashgan holda ularni tizimli va tizimsiz terror, deb farqlash mumkin.

**Tizimsiz** - alohida kishilarga, ko‘p hollarda, to‘satdan vaziyat qurboni bo‘lgan odamlarga nisbatan tartibsiz zo‘ravonlik qiluvchi yoki zo‘ravonlik bilan tahdid qiluvchi tarqoq guruh harakati. Bunday guruh harakatini terror deb baholash o‘rinli, chunki ularning harakatida terrorchilikning qo‘poruvchilik, jarohat yetkazish, odam o‘ldirish va shu kabi elementlarini kuzatish mumkin.

**Tizimli** - terroni amalga oshirayotgan guruhda qat’iy, uyushgan, tartibli tizim yuzaga kelib, uni boshqarish aniq maqsad va faoliyat rejasi asosida olib borilsa, uni tizimli va uyushgan terror, deb ta’riflash mumkin.

Demak, ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, tizimli terror Terrorizmni yuzaga keltiradi. Terrorizmning terrordan farqi shundaki, Terrorizm ijtimoiy hayotning siyosiy

doirasida yuzaga keladi. Terrorning tarixiy rivojlanish dinamikasiga e'tibor bersak, uning individual terrordan ommaviy terrorga o'zgarib borishida maqsadlar o'zgarishi sodir bo'lishini, ya'ni ma'lum bir siyosat amalga oshirilishini kuzatamiz. Demak, terror siyosiy maqsadda qo'llanilsa, terror siyosati amalga oshirilgan bo'ladi, ya'ni Terrorizm yuzaga keladi.

Shu o'rinda Belorussiyalik tadqiqotchi M.Trebinning quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "Kurashning siyosiy shaklini qo'llovchi terrorchi guruhlar qanday shiorlar bilan maydonga chiqmasinlar, bu shiorlar ularning siyosiy zaifligidan darak beradi. O'z pozitsiyalarining xuddi shu zaifligi tufayli ular kurashning eng dahshatli usullaridan foydalanishga tayyordirlar".

Yuqoridagi tahlillar Terrorizm siyosiy tasnifga egaligi va unga faqat siyosiy kuchlarga (davlat institutlari, siyosiy partiyalar va shu kabi boshqa elementlar) qarshilik ko'rsata olishi mumkinligidan dalolat beradi. Shuningdek, Terrorizm, terrordan farqli ravishda, o'zining siyosiy maqsadini o'ziga xos yo'llar bilan amalga oshiradi. Shu ma'noda S.Butrin: "Terrorizm o'z shafqatsizligi, maqsadga izchil intiluvchanligi va tashqi tomondan yetarli darajada samaraliligi bilan ajralib turuvchi zo'rlik ishlatish, ayniqsa, siyosiy zo'rlik ishlatishning alohida shaklidir", - deb ta'rif bergan.

Adabiy manbalar tahliliga ko'ra terrorning Terrorizmga aylanish bosqichlari quyidagi tartibda amalga oshadi:

- Jamiyatda ma'lum bir vaziyatlar natijasida jinoiy guruhlar paydo bo'lib, ular tomonidan aniq yo'naliishga ega bo'limgan harakat, ya'ni tizimsiz (ko'r-ko'rona) terror sodir etiladi.
- Ayni shu sharoitda guruhlarda aniq belgilangan boshqaruv va tizim yuzaga kelib, terrorchilik faoliyati aniq rejaga asoslanadi, harakatlari esa tizimli va uyushgan bo'ladi.
- Jinoiy guruh siyosiy maqsadda tizimli terrorni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Natijada, terror terrorizmga, jinoiy guruh esa terrorchilik tashkilotiga aylanadi.

Shunday qilib, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil qiladi.

Tarixan qaraganda, terrorizm o‘rta asrlardan boshlab barcha mintaqaga va mamlakatlarda uchrab, o‘z faoliyatlarini amalga oshirgan. Lekin o‘tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko‘rinishlari vujudga keldi: jumladan, chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o‘ldirish yoki o‘g‘irlash, elchixonalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, ayroportlar va vokzallarda portlash sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va boshqa shunga o‘xshash nomaqbul harakatlarni amalga oshirish. Bulardan ko‘rinadiki, Terrorizmga aniq va yakdil ta’rif berish ancha murakkabdir. Ushbu vazifani hal qilishda O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi qabul qilingan qonunda keltirilgan tushunchalarning mohiyatini bilish orqaligina aniqlik kiritish mumkin. Ushbu qonunning 2-moddasida Terrorizmga oid tushunchalar va ularning mohiyati bayon etilgan. Jumladan:

**Garovda ushlab turilgan shaxs** – qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiysi va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek, ayrim shaxslarni biron - bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs.

**Terrorchi** - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.

**Terrorchilik guruhi** - oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko‘rgan yoki uni sodir etishga qasd qilgan shaxslar guruhi.

**Terrorchilik tashkiloti** - ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.

**Terrorchilikka qarshi operatsiya** - terrorchilik harakatiga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslar bilan kelishilgan va o‘zaro bog‘liq maxsus tadbirlar majmui.

**Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazilgan zona** - joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo‘shlig‘i, transport vositalari, binolar,

imoratlar, inshootlar, honalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilgan doirada ularga tutash xududlar.

**Terrorchilik faoliyati** - terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, tuzishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyat.

**Terrorchilik harakati** - garovga ushlab turish uchun shaxslarni qo'lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamiyat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy va boshqa guruhlari chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik ob'ektlarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatish, o't qo'yish, portlatish qurilmalarini, reaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy va boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish yo'li bilan qo'rqtish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizlik keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga, avariylar, texnogen xususiyatlari sodir etish yo'li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidiy har qanday vositalar, usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.

**Terrorizm** - zo'ravonlikka asoslangan uslub va vositalar yordamida siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tizimli va uyushtirilgan, siyosiy mazmunga ega ijtimoiy hodisa.

**Xalqaro Terrorizm-** siyosiy, milliy va xalqaro huquq Me'yorlariga zid bo'lgan, davlat suverenitetiga, mintaqa va qit'alarning barqaror taraqqiyotiga hamda xalqaro xavfsizlikka putur yetkazishga qaratilgan, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi, xalqaro maqomga ega tizim.

Hozirda Terrorizmning zo'rayishi va global miqyos kasb etishi, jahon siyosatining dunyo yaxlitligini saqlab kelayotgan yo'nalishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shari, butun

bashariyat, jahon sivilizatsiyasiga qarshi qaratilgan global xavf sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu tariqa bugungi kunda - **global terrorizm**, degan tushuncha ham qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Shunday qilib, agressiya, kuch ishlatish, jismoniy yo‘q qilish orqali inson tichligi va hayotiga xavf soluvchi zo‘ravonlikka asoslangan faoliyat terrorchilik faoliyatidir. Bularni amalga oshiruvchilar esa terrorchilar deb yuritiladi. Terrorizm har qanday umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviyatga rioya qilmasligi, biron-bir aniq, sog‘lom mafkuraviy va g‘oyaviy asosga ega emasligi, jamiyat, xalq va davlat manfaatini ko‘zlovchi siyosiy maqsadni o‘z oldiga qo‘ymaganligi, har qanday milliy va xalqaro huquq me’yorlariga amal qilmasligi bilan ajralib turuvchi jinoiy faoliyatdir.

## **§8.2. Terrorizmni iqtisodiyot va aholi uchun xavfli hususiyatlari**

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida Terrorizm insoniyat hayotiga katta xavf sola boshlab, o‘zining niyatini oshkora namoyish eta boshladi. Jumladan, Nyu-York (AQSH) shahridagi Butunjahon savdo markazining ikki binosi sanoqli daqiqalar ichida yer bilan yakson bo‘ldi. Shuningdek, Irlandiya va Angliyadagi "UPA", Ispaniyadagi "ETA", Osiyoda jinoyatkorona faoliyat olib borayotgan "Al - Qoida", so‘nggi yillarda “ISHID” kabi yer yuzasining turli burchaklarida 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari turli ko‘rinishdagi qabih ishlarni amalga oshirdilar va hozirda ham olib bormoqdalar. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda 1975 yildan to bugungi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida 12 mingga yaqin terrorchilik harakatlar sodir etilgan.

Oxirgi yillarda terrorchilik uslublari ancha kengayganligi ma’lum. 1970 yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko‘proq qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kishilarning qurban bo‘lishiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan. Avvallari terrorizm, odamlarni garovga olishdan maqsad pul undirish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda terrorchilar

asosan, xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatlarda beqarorlikni keltirib chiqarish borasida mo'ljallangan siyosiy maqsadlarga erishishni ko'zlamoqdalar. Xulosa shuki, bugungi kunda terrorchilik harakatlarining yanada faollashish jarayoni yuz bermoqda. U hozirgi kunda XXI asrning global muammosiga aylanib qoldi.

Terrorchilik tashkilotlari o'zlarida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solib, o'z maqsadiga erishish uchun qonli yurishlarni qilmoqdalar. Ular turli xildagi kimyoviy va biologik qurollardan foydalanishga urinmoqdalar. Ma'lumotlarga qaraganda 200 martadan ortiq shunday qurol va vositalardan foydalanilgan. Jumladan, 1994 yil yaponianing "AUM Sinrikyo" diniy terrorchilik tashkiloti tomonidan "zarin" kimyoviy vositasini ishlatish oqibatida 7 kishi vafot etgan, 114 nafar kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan. 1995 yilda mazkur terrorchilik tashkiloti tomonidan Tokio metrosi 16 ta bekating zararlanishi oqibatida 12 yo'lovchi halok bo'lgan, 400 kishi turli darajada tan jarohati olgan. Bunday zararli moddalar so'nggi yillarda Quvaytda, Iroqning Kurdiston hududlarida, Suriyada va boshqa davlatlarda qo'llanilib, ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'lmoqda.

Terrorchi guruhlar yovuz harakatlarini amalga oshirishda kishi e'tiborini o'ziga tortmaydigan, kichik hajmli, tashqi tomoni har kuni foydalaniladigan buyumlar ko'rinishidagi narsalardan foydalanmoqdalar (masalan, chemodan, sumka, sellofan paket va boshqalar). Ular tomonidan qo'llaniladigan qurollarning foydalanish ob'ektlari - odamlar ko'p to'planadigan joylar: metro bektlari, ayroportlar, temiryo'l va avtomobil bektlari, katta binolar, yopiq turdag'i konsyert va sport zallari, kinoteatrlar, yirik shaharlardagi suv haydash tizimlari, suv omborlari va boshqa ob'ektlar.

Ular ko'proq portlovchi modda va qurilmalardan: fugas, mina, granatalardan foydalanadilar. Terrorchilarni bunday qurollardan foydalanib o'z harakatlarini amalga oshirishlari kuchli ta'sirga kiradi. Chunki, bunday portlovchi qurilmalar har kimning e'tiborini o'ziga tortmaydi va o'zi bilan birga uni olib yurish imkoniyati yuqori bo'ladi. Masalan, "O'yinchoq mina", "O'yinchoq qopqonlar" va boshqalar.

Terrorchilar qo'llayotgan turli ko'rinishdagi portlovchi moddalarning xavfli maydoni quyidagicha:

- granata parchasining tarqalishi 50-100 m;
- mina parchasining uchishi 100-300 m;
- keysning xavfli maydoni 250-300 m;
- jomadon, sumkaga solingan portlovchi moddaning xavfli maydoni 350-400 m;
- avtomobilga qo‘yilgan portlovchi moddaning xavfli maydoni 50-300 m;
- “O‘lim belbog‘i”ning xavfli maydoni 50-300 m.

Terrorchilar tomonidan keng qo‘llanilayotgan qurollardan biri tuproq ostida portlatiladigan mina va fugaslar hisoblanadi. Fugas yoki mina tipidagi portlovchi moddalarni mina izlovchi jihozlar yordamida topish mumkin emas. Chunki bunday tipdagi portlovchi qurilma plastik materiallardan yasalgan bo‘lib, uni faqat savyorlarning maxsus tayoqchasi yordamida aniqlash mumkin. Buni aniqlash jarayoni o‘ta xavfli bo‘lib, kichik bir hato ham inson hayotiga xavf solishi ehtimoli juda yuqori.

Adabiy manbalardagi ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, terrorchilik harakatlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- a) terrorchilik harakatlari qonun ustuvor bo‘lmagan, o‘zaro jipslashmagan, rivojlanish darajasi ancha past bo‘lgan hududlarda shakllanadi;
- b) birinchi bo‘lib o‘zi shakllangan, birlashgan hududni o‘z tasarrufiga olishga harakat qiladi;
- c) o‘ziga rivojlangan mamlakatlarda homiy izlashga harakat qiladi va har qanday homiy yordamini rad etmaydi;
- d) targ‘ibotning har qanday usullaridan: reklamalardan, matbuot materiallaridan, og‘zaki tashviqotlardan, turli mish-mishlar va yolg‘on gaplar tarqatishdan o‘z maqsadlari uchun samarali foydalanishga urinadilar.
- e) ular o‘zini portlatib yuboradigan (kamikadze) lar guruhini tayyorlaydi va o‘z harakatlarini bilvosita amalga oshiradi;
- f) ular hozirgi kunda fan, texnika va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanib, Terrorizmni “global” muammoga aylantirishga urinadilar;
- g) ular o‘zlari panoh topgan mamlakatlar boshqaruvini garovga olish yoki nazoratda ushlab turgan holatda keng jamoatchilikni qo‘rqtish, vahimaga solish,

bo‘ysundirish maqsadida ko‘proq kuchli rivojlangan mamlakatlarda terrorchilik harakatlarni amalga oshiradilar va bu bilan o‘zlarini namoyish etishga urinadilar.

Ayni paytda, terrorizmning ham muhim jihatlari mavjud, ular xususida AQSH davlat departamentining 1999 yildagi global terrorizm to‘g‘risidagi ma’ruzasida ko‘rsatib o‘tilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- yaxshi tashkil qilingan terrorchilik guruhlaridan tuzilgan xalqaro jinoiy uyushmaga aylanishi, bularni mahalliy homiy davlatlar qo‘llab-quvvatlab turishi;
- siyosiy terrordan diniy yoki g‘oyaviy asoslari ustun bo‘lgan terrorizmga aylanishi;
- terrorizm markazining yaqin sharqdan Janubiy Osiyoga, xususan, Afg‘onistonga ko‘chishi, terrorchilik tashkilotlar tomonidan ular jazosiz harakat qilishi mumkin bo‘lgan mintaqalardan joy qidirishi;
- moliyalashtirishning xususiy homiyalar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy savdo-sotiq kabi manbalaridan foydalanish.

Bularning ichida xalqaro Terrorizmning eng asosiy va xavfli xususiyatlaridan biri “zo‘rlik - davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi, parokandalikka olib keladi” - degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishdir. Bunda siyosiy masalalarni zo‘rlik yo‘li bilan hal qilishga harakat qilinadi.

Bu haqda, amyerikalik mutaxassis Jenkins “Terrorizm eng avvalo, qurbanlardan ko‘ra, guvohlarga qaratilgan va vahima uyg‘otishga yo‘naltirilgan zo‘rlik” deb baholaydi. Boshqa bir amyerikalik siyosatshunos Lonsning ta’rifiga ko‘ra, terrorizm bevosita qurbanlardan ko‘ra ko‘proq odamlar fikriga ta’sir o‘tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Demak, qanday ta’rif berilishidan qat’iy nazar, har bir terrorchilik xurujining maqsadi - davlat to‘ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishga asoslanadi, bunga yaqqol misol bugungi kundagi Iroq, Suriya kabi mamlakalaridagi terrorchilik harakatlarining oqibatlari.

### **§8.3. Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari**

Xalqaro terrorizm yoki terrorchilik deganda bir yoki bir nechta davlat hududida turib, boshqa davlatga va uning fuqarolariga qarshi uyushtirilayotgan jinoiy harakatlarning, moddiy jihatdan qudratli, xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan ekstremistik tashkilotlarning yoki ayrim shaxslarning qo‘poruvchilik faoliyati tushuniladi. Xalqaro terrorchilar, avvalo, bosqinchilik, qotillik, portlatishlar uyuştirish, turli hududlarda ijtimoiy beqarorlikni sodir etish yo‘li bilan o‘zlarining shaxsiy yoki korporativ manfaatlarini amalga oshiradilar.

Xalqaro terrorizm XX asming 60-70-yillariga kelib o‘zini yaqqol nam oyon qildi: dastlab turli davlatlardagi jinoyatchilar, o‘z davlatiga nisbatan ekstremistik ruhdagi guruhlar birlashib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan va kam rivojijangan mamlakatlarda harakat korsata boshladi.

Xalqaro terrorchilar ayrim davlatlarning rahbarlariga, xalqaro miqyosda obro‘ga ega bo‘lgan siyosatchilarga chetdan turib suiqasd uyuştirish, davlat, transport, aloqa va milliy xavfsizlik tizimini ishdan chiqaruvchi portlashlar va harakatlar sodir etish, transport vositalari, jumladan, samolyotlami olib qochish bilan shug‘ullana boshladilar. 80-yillarga kelib xalqaro terrorizm yanada jiddiy tus oldi. Xalqaro terrorizm o zining yovuz niyatlarini turli terroristik harakatlari bilan amalga oshiradi. Jumladan.

- mustaqil davlatlar chegarasini buzish orqali amalga oshirish;
- diniy ekstremistik guruhlar tom onidan sodir etish;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilik sodir etishda, xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamida xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan manbalardan foydalanish.

Terrorchilar qaysi g‘oya va mafkuraga tayanishlari, ma’naviy qadriyatlarni niqob qilib olishlaridan qat’iy nazar, ularning xatti-harakati ma’naviy jihatdan g‘ayriinsoniy, huquqiy jihatdan esa jinoyatdir.

Xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki terrorchilik tashkilotlari jangari usullar bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ulami har tomonlaina rag'batlantirish va qo‘llab-quw atlashga intiladi.

Terrorizm ko‘zlagan maqsadini amalga oshirishda eng zamonaviy intellektual va texnik vositalarni qo‘llayotgan bo‘lib, ko‘lami jihatidan hech qanday to‘siq bilmay, xalqaro miqyosdagi global muammoga aylanib bo‘ldi. Axborot terrorizmi, biologik terrorizm, iqtisodiy terrorizm, kosmik terrorizm, yadroviy terrorizm, kibernetik terrorizm, kimyoviy terrorizm va hokazolar shular jumlasidandir.

Shunday ekan, terrorizmga qarshi kurashning quyidagi tarixiy-falsafiy tamoyillari vujudga keldi, deb e’tirof etishadi, ko‘pchilik tadqiqotchilar:

- Davlat insonning tinchligini ta’minalash va jonini saqlashni kafolatlaydigan yagona mexanizmi.
- Nafs va xudbinlik turli odamlar, guruh, toifa, tabaqalar orasida o‘zaro nizolar, bema’ni olishuvlar, konfliktlar kabi ijtimoiy ziddiyatlar sababi va terrorizmning o‘ziga xos namoyon bo‘lishi.
- Zo‘ravonlik, kuch ishlatish, vayronkorlik kabi terrorchilik illatlarining oldini olishda yuksak insoniy fazilat va xususiyatlarni shakllantirish - ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, ma’naviy meros yordamida amalga oshirilishi.
- Hamjihatlik, bag‘rikenglik, totuvlik, birdamlik, o‘zaro hamkorlik va murosa kabi umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy barqarorlikning kafolati.
- Insoniyat qoldirgan boy moddiy va ma’naviy merosgina jamiyat a’zolari ongi va e’tiqodida aksilterrorizm, bunyodkorlik, doimo yaxshilikka intilish kabi xususiyatlarni shakllantirishi.

- Yuksak axborot texnologiyalaridan foydalanish va axborot tarqatishda etika tamoyiliga asoslanish.

- Insonparvarlik g‘oyalarini hayot mazmuniga aylantirishda nazariy va amaliy yondashuv hamohangligini ta’minlashda faqat inson yagona mas’ul.

Hozirgi davrda xalqaro terrorizmning keng yoyilishi inqilobiy jarayonlar, ishchi va demokratik harakatlar, milliy ozodlik kurashlari bilan ham bog‘liq. Tabiiyki, iqtisodiy ezilish va milliy zulm oqibatida nafaqat inqilobiy va milliy ozodlik g‘oyalari, balki ularga butunlay yot bo‘lgan qarashlar, g‘oyalar, mafkura va harakat ham yuzaga kelishi mumkin. Bunga ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlardagi milliy ozodlik harakatlariga rahbarlik qilgan partiyalar va tashkilotlarning mafkuraviy va g‘oyaviy evolyusiyasi tarixi orqali ishonch hosil qilish mumkin.

O‘ylaymizki, xalqaro terrorizmga qarshi siyosiy, g‘oyaviy va mafkuraviy kurashda uning ana shu ijtimoiy-siyosiy ildizlariga ham e’tibor qaratmoq zarur. Aks holda, xalqaro terrorizmning geografik ko‘lami, g‘oyaviy va mafkuraviy ildizlari haqida noto‘g‘ri tasavvur vujudga kelib, unga qarshi kurash jihatni ham bir yoqlama, cheklangan bo‘lib qolishi mumkin.

Shunday ekan, hozirgi paytda terrorizmga qarshi e’lon qilingan kurash aslo biron ta dinga, shu jumladan islom diniga, alohida xalq, biron ta millat yoki davlatga qarshi emas, balki, aynan, xalqaro terrorizm va uning “dohiy”lariga qarshi, uyushgan to‘dalar va ularning markazlariga qarshi qaratilishi lozim.

Terrorizmning tarqalishi, moddiy va mafkuraviy jihatdan tobora mustahkamlanib borishining sabablaridan yana biri ayrim mamlakatlarning unga ikki yoqlama yondashishidir. Ba’zi tarixiy hujjatlar va ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, hozirgi davrda terrorizmga qarshi faol kurashayotgan ayrim davlatlarning o‘zi muayyan tarixiy sharoitlarda siyosiy va geosiyosiy, harbiy va iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqqan holda xalqaro terrorizm tusini olgan tashkilotlarni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan ba’zan yashirin, ba’zan oshkora ravishda qo’llab-quvvatlagan holatlar ham uchramoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, bunday holatni bir qo‘l bilan silab turib, ikkinchisi bilan shapaloq tortmoq, deb baholash mumkin. Shunga o‘xshash fikrlarni bugungi kunda Suriya mamlakatida hukm

surayotgan ISHID terrorchilik harakatiga qarshi koalitsiya kurashidagi eng mushkul vaziyat sifatida o‘zining murojaatlarida Rossiya Prezidenti V.Putin ham bir necha bor ta’kidlab o‘tgan edi.

Bulardan ko‘rinadiki, xalqaro terrorchilar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo‘liga yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa zamonaviy hujumkor qurollarning tushib qolish xavfi kuchaydi. Bularning hammasi jahon jamoatchiligini qattiq tashvishlantirib qo‘ydi. Vaholanki, 1977 yilda katta “yettilik” davlatlari rahbarlarining Bonn (GFR) shahridagi uchrashuvida xalqaro Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida bayonot qabul qilingandi. Shunga qaramay, xalqaro Terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga qarshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzusi bo‘lib qoldi. Endilikda, xalqaro terrorizm bir tizimga birlashib harakat qila boshladi. Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik ruhdagi shaxslar, narkobiznes va qurol-yaroq savdosidan foyda ko‘rvuchi jinoiy to‘dalar, yollanib xizmat qiluvchilar paydo bo‘ldi. Xalqaro terrorchilik va ekstremistik markazda razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan maxsus lagerlar ochildi. Xalqaro terrorchilar aholini, xususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga qarshi qo‘yishga hamda hokimiyatga qarshi muxolifatni shakllantirishga harakat qilmoqda.

#### **§8.4. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish**

Xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki terrorchilik tashkilotlari jangari usullar bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ulami har tomonlaina rag‘batlantirish va qo‘llab-quw atlashga intiladi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro terrorizmning xavfi - 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996-yillarda Tojikistondag‘i fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 -yiilarda Qirg‘izistonning Botken, O‘zbekistonning Surhandaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004-yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buhoro viloyatlarida, 2004-yilning 11-13-may kunlari Andijon viloyatida amalga oshirilgan

terorchilik harakatlari misolida o‘zini namoyon etdi. Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizmning umumbashariy miqyosda xavfli ekanligini, jahon hamjamiyati bilan birgalikda unga qarshi kurashish lozimligini jahoning nufuzli minbarlarida e’lon qildi.

O‘zbekistonning xalqaro terrorizm ga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada global m iqtyosda tinchlik, barqarorlikni saqlasli, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqning erkin-farovon hayotini ta’minlashdir. Respublikamiz terrorizm ga qarshi qaratilgan ko‘plab xalqaro shartnomalami - hozirgana BMTning 12 ta, Yevropa Kengashi doirasida esa 7 ta xalqaro shartnom alami imzoladi. Bulardan tashqari, O‘zbekistonning xalqaro terrorizm ga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham namoyon bolmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT) va boshqalar. O‘zbekistonning bunday tashkilotlardagi ishtiroki, tashabbusi, global xavfsizlik va barqarorlikni ta’m inlashda davlatimizning tutgan o‘rni muhim ekanligini tasdiqlaydi. Terrorizmga qarshi kurashda 2000-yilda «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonunning 4-m oddasida terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari aniq ko‘rsatib beriigan.

Ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- shaxs qonunlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi;
- jazoning muqarrarligi;
- terrorizmga qarshi kurashning oshkora va nooshkora usullarining ustuvorligi;
- jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o‘tkaziladigan operatsiiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

Terrorizmning oldini olishda davlat organiari, fiiqarolaming o‘z- o‘zini boshqarish organiari hamda jamoat birlashmalari bilan birgalikda profilaktik chora-tadbirlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Bu harakatlarda quyidagilar taqiqlanadi:

- terrorizmni ta’qib qilish;

- terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi;
- terrorchilik faoliyatiga daxldor bo'lgan yuridik shaxslarni, ularning boiinm alari va vakolatlarini akkreditatsiya qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ularning faoliyat ko'rsatishi;
- terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi;
- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va fikrlami yashirish.

Ushbu qonunga binoan O'zbekiston Respublikasida quyidagi davlat organiari terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi: jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat Bojxona qo'mitasi, Mudofaa va Favqulodda variyatlar vazirliklari kiradi. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta'm inlash O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan am alga oshiriladi. Bunda ishtirok etadigan har bir davlat organlarining vakillari ham ko'rsatib o'tilgan. Terrorchilik harakatlarini bartaraf etishda, birinchi navbatda, aholi hayoti havf ostida qolsa hamda moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlab qolish maqsadidakuch ishlatmaslik uchun muzokaralar olib borish mumkin. Bunda ruxsat etilgan shaxslargina muzokara olib boradilar. Muzokaralar terrorchilar harakatining ishtirokchilari tomonidan ijobiy hal b oimasa, ya'ni ular o'z harakatlarini to'xtatishga rozi bo'lsalar, shuningdek, fuqarolar hayotiga xavf mavjud bo'isa hainda moddiy va ma'naviy boyliklaming yo'qbolishi aniq saqlanib turgan paytda, ularni quroislantirish va yo'q qilish uchun zarur choralar ko'rildi. Har qanday terrorchilik harakati muayyan hududda yuz beradi. Terrochilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zonaning chegaralari terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish rahbarlari tornonidan belgilnadai. Bunda hududning chegaralarini begilashda uning sharoiti, geografik tuzilishi, inshootlar, o'ta muhim obyektlaming mavjud va mavjud emasligi,

terorchilik harakatlarining ko‘lami va xavfsizlik darajalari e’tiborga olinadi. Terrorchilik harakatiga qarshi kurash olib borilayotgan paytda kurashayotgan shaxslarga qonunga binoan quyidagi huquqlar beriladi:

- zaruriyat tug‘ilganda ko‘chada harakatlanuvchi transport vositalari hamda yo’lovchilar harakatini cheklash va taqiqlash;
- transport vositalarini ayrim hududlarga va obyektlarga kiritmaslik, hatto, chet el diplomatik vakolatlarining konsullik transportlari ham;
- aholini xavfli deb topilgan hududlardan, korxona, uy, bino, va boshqa obyektlardan chiqarib yuborish;
- jismoniy shaxslaming shaxsini aniqlash uchun ushlab turish;
- terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazayotgan shaxslaming qonuniy talabini bajarmagan, terrorchilik harakati sodir bolayotgan hududga suqilib kirishga uringan yoki shunday harakatlar sodir etayotgan shaxslarni ushlash va tegishli organlarga olib borish;
- kechiktirish kishiar hayotiga xavf solayotgan bolsa, terrorchilik harakati ishtirokchilarini ta’qib qilib, istagan paytda bino, korxona, ish joyi, uy va boshqa joylarga moneliksiz kirish;
- terrorchilar harakatiga qarshi kurash olib borayotgan hududdan chiqayotgan yoki kirayotgan transport vositalarini, jismoniy shaxslarni tekshirish;
- zaruriyat tug‘ilganda, jismoniy shaxslam ing aloqa va transport vositalaridan foydalanish (bunga chet el diplomatik vakolatxonalar xodtmlarining aloqa va transport vositalari kirmaydi). Terrorchilikka qarshi kurashda mavjud bolgan qurol va tehnikalardan foydalanish mumkin. Terrorizmga qarshi kurash jarayonida ommaviy axborot vositalari bilanhamkorlikda ish olib boriladi. Shu bilan birga quyidagi ma’lumotlaming tarqalishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Jumladan:
- terrorchilik harakatini bartaraf etish va yo‘q qilish uchun maxsus texnikausullari va taktik yondashish jarayoni;
- o‘tkazilayotgan operatsiyani qiyinlashtirib qo‘yadigan, jismoniy shaxslar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan ma’lumotlar;
- terrorchilik harakatlariga xayrxohlik bildiradigan;

- terrorchilik harakatini bartaraf etishda faoliyat ko'rsatayotgan va ularga yordamlashayotgan shaxslar haqidagi ma'lumotlardir.

Mamlakat barqarorligi, aholining tinch va farovon hayotining buzilishiga qarshilik ko'rsatuvchi shaxslar huquqiy va ijtimoiy himoya qilinadi. Bu haqda «Terrorizmga qarshi kurash haqida»gi Qonunning 25, 26,28-bandlarida ko'rsatib o'tilgan. Demak, terroristik harakatlar va ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlamning olidini olish uchun sergak bolish, atrof muhitga e'tibor bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Mabodo shubhali buyumlar aniqlanganda ularga tegmaslik, joyidan qo'zg'atmaslik, ko'tarmaslik, ichini ochmasük lozim. Zudlik bilan tegishliorganlarga xabar berish kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Terrorizm va terrorchilik harakatlari qanday tushunchalar?
2. Terrorizmning qanday turlari mavjud?
3. Terrorizmning salbiy illatl nimalardan iborat?
4. Xalqaro terrorizmning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunning mohiyatini tushintirib bering?
6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro terrorizimga qarshi olib borayotgan siyosati nimalardan iborat?
7. O'zbekistonda terrorizm ga qarshi kurashda qanday davlat organlari ishtirok etadi?
8. Terrorizimning aholi uchun qanday xavfli xususiyatlari bor?

## **9. BOB. BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI**

### **§9.1. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalari**

Birinchi tibbiyoti yordam ko'rsatishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga tez tibbiy yordam xizmatini ko'rsatish, bu xizmatning kuch va vositalarini shakllantirish.
- Tez tibbiy yordam xizmati kuchlari va vositalari tayyorgarligini oshirish.
- Halokatlarning oldini oladigan tibbiy tadbirlani rejalashtirish va amalga oshirish.
- Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam, birinchi tez shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish usullarini qo'llash.

Falokat va halokatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etishda halokatning miqyosi va sanitariya talafotining hajmiga qarab belgilanadi. Albatta, tabiiy ofat yoki katta ishlab chiqarish avariyalardan sanitariya talafoti katta miqyosida bo'lganda, buning oqibatlarini tugatishda m axsus yondashuvlar talab etiladi. Jumladan, bunday holatlarda jabrlanganlarga iloji boricha talafot o 'chog'ining o'zida yoki unga yaqin bo'lgan joyda tibbiy yordam ko'rsatilishi lozim bo'ladi. Katta miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordamni tashkil etishda quyidagi ishlar bajariladi:

- shikastlangan o'choqlami tibbiy razvedka qilish;
- jabrlanganlami qidirib topish va ulami qutqarish;
- jabrlanganlami saralash;
- jabrlanganlami evakuatsiya qilish;
- tibbiy yordam berish va davolash.

Shikastlangan o'choqlami razvedka qilishda - aholi soni, tibbiy xizm at kuchlari va vositalari soni, talafot darajasi, yollar va suv manbalarining mavjudligi hamda ulaming ahvoli haqidagi m a'lumotlar olinadi.

Jabrlanganlami qisqa vaqt mobaynida (bir necha soatdan - bir sutkagacha) qidirib topish va qutqarish talab etiladi hamda iloji boricha ulaming hayotini saqlab qolish omillari bajariladi. Bu omillami qutqaruvtizimlaridan tashqari, o't

o‘chiruvchilar, jamoat tartibini saqlovchi harbiy qismlaming xodimlari ham da ko‘ngilli fuqarolar bajaradilar.

Jabrlanganlami saralash tibbiy xizmatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Saralash - tibbiy yordam ning hajmini, turini hamda yordam ko‘rsatishning keyingi bosqichlarini hisobga olib, jabrlanganlami transportiarda tashish imkoniyatlari va navbatini aniqlaydi.

Jabrlanganlami evakuatsiya qilish - talafot olganlami shikastlangan o‘choqlardan olib chiqish, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish hamda davolash uchun tibbiyot muassasalariga olib borish tadbirlaridan iborat. Bunda tibbiy hisobga olish varaqasi to‘ldiriladi va yaradorlami transport vositalari (tem iryozi, avtomobil, suv va havo yo‘li) yordamida evakuatsiya qilinadi. Davolash m uassasalariga keltirilgan saralangan jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordamlar ko‘rsatiladi. Shunday qilib, shikastlangan o‘choqda qolgan jabrlangan aholiga tibbiy yordamning hamma turlari: birinchi tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordami birin-ketin ko‘rsatiladi.

**Birinchi tibbiy yordam.** Shikastlangan o‘choqlarda talafot oigan fuqarolarga shu joyning o‘zida hayotiy ko‘rsatkichlarga muvofiq ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tushuniladi. O‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rsatilgan birinchi tibbiy yordam shikastlangan odamning hayotini saqlab qoladi va salbiy oqibatlar rivojining oldi olinadi. Albatta, bu yerda favqulodda vaziyatning shikastlovchi omillarini to‘xtatish (suvdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlami o‘chirish, yonayotgan, gazga to‘lgan uylardan olib chiqish va boshqalar) choralarini ko‘rgan holda xatti-harakat qilish kerak. Talafot oigan kishini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda shifokor quyidagi tartibdagi tekshiruvlarni o‘tkazadi:

- og‘iz bo‘shlig‘i va yuqori nafas yo‘llarini tekshirish (og‘izni begona narsalardan tozalash);
- nafas olish harakatlarini tekshirish (o‘pkaga sun’iy nafas berish va yurakni bevosita uqalash);
- qon tomirlari butunligini aniqlash (qon tomirlaridan oqayotgan qonni to‘xtatish, ayniqsa, arterial tomirlardan);

- yurak-qon tomir tizimini tekshirish (tomir urishini);
- sezgi a'zolarini tekshirish;
- shikastlangan kishining nutqini tekshirish.

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa vaqt - shikastlangan vaqtdan boshlab 30 daqiqagacha, nafas olishi to‘xtagan bo‘lsa 5-7daqiqagacha amalga oshirüishi lozim. Zaharlangan hududlarda 30 daqiqa ichida birinchi tibbiy yordam ko'rsatilsa, ularning um um iy ahvolining og‘irlashuvi ikki baravarga kamayadi. Demak, jarohat olganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish vaqt nihoyatda muhim hisoblanadi. Ma'lum otlar ko‘rsatishicha, jarahotlanganlarga bir soat mobaynida yordam ko‘rsatilmasa, o'limga sabab bo‘lish 30 foizga, 3 soatgacha yordam ko‘rsatilm asa - 60 foiz va 6 soatgacha yordam ko‘rsatilm asa 90 foizgacha ortadi. Birinchi tibbiy yordamni jarohat oigan kishining o‘zi yoki uning yonida bo‘lganlar (aholi, sandrujinachilar yoki fuqaro muhofazasi hodimlari) ko‘rsatadi.

**Birinchi shifokor yordami** - jarohatning jabrlanganlar hayotiga bevosita xavf soluvchi oqibatlarini bartaraf qilish, jarohat infeksiyasining yanada rivoj topishining oldini olish maqsadida shifokoriar bajaradigan davolash - muhofaza omillaridan iborat. Bunday yordamni um um shifokorlik tayyorgarligi bo‘lgan va ixtisoslashgan jarroh shifokorlari ko‘rsatadilar. Birinchi shifokor yordamini ko‘rsatish vaqt nihoyatda olgan vaqtdan boshlab 3-6 soat hisoblanadi. Tibbiy yordamning bu turini hamma ixtisoslikdagi shifokoriar bilishlari kerak.

**Malakali tibbiy yordam** - davolash muassasalarida tegishli ixtisoslikdagi shifokoriar amalga oshiradigan jarohat oqibatlarini, birinchi galda hayot uchun xavfli oqibatlami bartaraf qilish, rivojlana boshlagan salbiy oqibatlarga qarshi kurashish, jarohatlanganlami to‘liq davolashga qaratilgan jarrohlik va terapevtik tadbirlar majmuasi.

**Ixtisoslashgan tibbiy yordam** - ixtisoslashgan davolash muassasalarida odamning ba’zi a’zolari va tizimlaridagi buzilishlarini maksimal darajada tiklash maqsadida maxsus apparatlar va uskunalardan foydalanib, mutaxassis shifokoriar bajaradigan davolash-muhofaza tadbirlari majmuasidan iborat. Shunday qilib, Birinchi tibbiy yordam tizimi ikki bosqichli tizimda faoliyat ko‘rsatadi. Birinchi

bosqichda - bevosita o‘choqning ichida jabrlanganlami qidirib topib, ularga birinchi tibbiy va birinchi shifokor yordami ko‘rsatiladi, ularni tibbiy evakuatsiya qilib, sanitariya-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlar am alga oshiriladi. Ikkinci bosqichda esa jarohatlanganlarga shifoxonalarda malakali, ixtisoslashgan tibbiy yordam amalga oshiriladi.

## **§9.2. Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish**

Yer silkinishi ofatida «Birinchi tibbiy yordam» tizimining hamma tarkibiy qismlarida ofatning birinchi kunidan boshlab, kun-u tun navbatchilik tashkil etiladi, tibbiyot muassasalarining xodimlari uzliksiz ish tartibiga o‘tkaziladi va tibbiy xizm atlasm ing kuch va vositalari harakatga keltiriladi.

Yer silkinishi ro‘y bergen hududda birinchi tibbiy yordam aholining o‘zi tomonidan, shuningdek, shu hududdagi mavjud bo‘lgan tibbiy yordam kuchlari tomonidan amalga oshiriladi. Chunki zarar ko‘rgan hududlarga yordam beruvchi bunday kuchlaming kelish imkoniyati yuqori hisoblanadi.

Bulardan tashqari, zarar ko‘rganlarga birinchi tibbiy yordam shu hududda tashkil etilgan mintaqaviy tez yordam ko‘rsatish markazi kuchlari tomonidan ham olib boriladi. Tibbiy yordam xizmati xodimlari qutqaruvchilar, o‘t o‘chiruvchilar, avariya-tiklov tizimlari va fuqaro muhofazasining boshqa tizimlari bilan birgalikda buzilgan imoratlar ham da vayronalar ostida qolganlarni qidirib topish va ularga birinchi tibbiy yordam ishlarini tezkorlik bilan amalga oshirishlari kerak. Bunda odamlami qutqarish qisqa vaqt davomida, uzog‘i bilan bir kun mobaynida amalga oshirish maqsadga muvofiq, chunki ularning hayotini saqlab qolish shunchalik yengil bo‘ladi.

Yarador va halok bo‘lganlar ko‘p bo‘lgan taqdirda, ulami transport vositalariga ortish, joylarni tayyorlash, yengil talafot ko‘rganlarga transportlarga o‘z kuchlari bilan borishlari uchun yo‘nalish belgilari qo‘yish talab etiladi. Talafot olganlar transport vositalarida eng yaqin bo‘lgan tibbiyot shoxobchalariga tibbiy saralanib evakuatsiya qilinadi. Bunda albatta, favqulodda vaziyatlar shtablari va halokatlar

tibbiy xizmati tizimlari talafot ko‘rganlami statsionar davolash muassasalariga tibbiy evakuatsiya qilish uchun yetarli ko‘z transport vositalarini ajratish choralarini ko‘rishlari kerak. Talafotlanganlarni tibbiy saralashda jabrlanganlaming umum iy ahvollariga qarab (tibbiy ko‘rsatkichiarga qarab) tibbiy yordam ko‘rsatish hajmi, turi aniqlanadi va keyingi davolash bosqichlari belgilanadi hamda ularning har biriga saralash birkasi beriladi. Aynan shikastlanganlami evakuatsiya qilishda tibbiy saralash birinchi shifokor yordami asosida amalga oshiriladi. Bunday tibbiy yordamni umumiyl shifokorlik tayyorgarligi va jarrohlik ixtisosligi bo‘lgan shifokorlar ko‘rsatadilar.

Barcha davolash muassasalariga shikastlanganlar tibbiy saralash birkasi bilan olib kelinadi, unda jabrlangan fuqaroga qanday tibbiy yordam ko‘rsatilishi yozilgan bo‘ladi.

Tibbiy evakuatsiyada kasalxonalarga faqat statsionar davolanishga muhtoj bo‘lganlar yotqiziladi. Yengil va o‘rtacha jarohat olganlar hamda statsionar sharoitida davolanishi zarur bo‘lmaganlar ambulatoriya sharoitida davolanishlari kerak.

Yer silkinishida turli tan jarohati olganlar bilan bir qatorda, ruhiy shikast olganlarga (endokrenologik kasallikkari, zo‘riqib bolasi tushib qolganlarga va boshqalarga) alohida tibbiy yordam ko‘rsatilishi zarur. Bunday kasa!larga tibbiy yordam berishda tez tibbiy yordam xizmati va maxsus yordam xizmati xodimlari yetakchi o‘rinda turishlari, har qanday tasodiflarda to‘g‘ri qarorga kelishga tayyorgarliklarini oshirishlari talab etiladi. Yurak, qon-tomir va boshqa xavfli kasalliklarga chalingan kasallarga tibbiy yordam berish uchun ixtisoslashgan tibbiy yordam brigadalari (maxsus yordam xizmati) xizmatidan foydalaniлади. Jumladan, akusher-genekologik, psixonevrologik, kardiologik va boshqalar.

Shuni nazarda tutish lozimki, yer silkinishi oqibatida tibbiyat muassasalari buzilishi mumkin. Bu - kasallar, tibbiyat xodimlari va tibbiyat jihozlarini ko‘chirishni, davolash muassasalarini moslashmagan binolarga, yozgi chodirlarga o’tkazishni taqozo etadi. Bunday maqsadlar uchun muayyan binolar (maktab, bolalar bog‘chasi va h.k.) va chodirlar tayyorlab qo‘yilishi zarur. Tibbiyat muassasalarini

ko‘chirish yuqori saviyadagi tashkilotchilik hamda tibbiyat xodimlarining yuksak darajada m a’naviy tayyorgarligini talab qiladigan qiyin va mashaqqatli ish hisoblanadi.

Toshkent zilzilasida tibbiyat xodimlari tomonidan kasallarga tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida zarur ishlar amalga oshirilgan, ammo talafot o‘chog‘ida tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati va ta’mnoti past bo’lganligi sabab zarar ko‘rgan kasalxonalardan ikki mingdan ziyod kasal ambulatoriya sharoitida davolanishga chiqarilgan, mingdan ortiq kasallar esa boshqa davolanish maskanlariga o‘tkazilgan. Ko‘chirish mumkin bolgagan kasallarning bir qismi kasalxonalaming moslashmagan yozgi chodirlariga o‘tkazilgan.

Yer silkinishi oqibatida aholi va tibbiyat muassasalarining joylashish holatida o’zgarishlar ro‘y berishi, tibbiyat xizmati boshliqlari, mutaxassislarini qayta taqsimlash, yangi tashkil etilgan muassasalarni yangi asbob-uskunalar bilan jihozlash, o‘rinlami kasallar soniga muvofiqlashtirish, yangi dorixonalar ochish kabi masalalar albatta ko‘rib chiqilishi lozim va ularni tashkil etish talab etiladi. O‘tgan zilzilalar paytida olingan jarohatlar tahlili shani ko‘rsatdiki, 10 foiz jarohat - binolar devori va tomi qulashidan, 35 foizi - bino va inshootlar qurilmalari va bo‘iaklari sinib tushishidan, 55 foizi - fuqarolaming zilzila paytida qanday yiqilish kerakligini bilmaganliklaridan yuzaga kelgan. Tabiiy ofatlar tez-tez ro‘y beradigan hududlarda sanitar va ma’rifiy tadbirlar doimiy ravishda olib borilishi kerak. Tabiiy ofat hududida sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Ba’zida tabiiy ofat natijasida minglab oilalar bospanasiz qoladilar va noqulay, juda qiyin sharoitga tushib qoladilar. Odamlami chodirlarga ko‘chirish, binolar buzilishi oqibatida oqova kanallari izdan chiqishi, kir yuvish va hammom xizmatlarining yomonlashuvi natijasida yuqumli kasalliklar paydo bolishi uchun qulay vaziyat tug‘iladi. Bu sharoitda tibbiy xizmat oldida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish vazifasi paydo bo‘ladi. Sanitariya-epidemiologiya stansiyalari izdan chiqqan sharoitda epidemiyaga qarshi ko‘chma otryadlar SES vazifasini o‘z zimmalariga olishlari kerak.

Aholini yaxshi, sifatli ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlash, uy-joy axlatlarini markazlashtirilgan tarzda olib chiqib ketish, sifatli va to'laqonli oziq-ovqat bilan ta'minlash, hammomlaming doimiy ravishda ishlashi, yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Esda saqlash lozimki, bolalarga yuqumli kasalliklar juda tez yuqadi.

**Ommaviy yong'in va suv toshqinlari paytida tibbiy yordamni tashkil etish** o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, yong'in shuni esdan chiqarmaslik lozimki, zarar ko'rganlar ichida aholi vakillaridan tashqari shaxsiy bolinmalar a'zolari ham bolishi mumkin. Bunday vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish shikastlangan o'choqning o'zida yoki unga yaqinroq joylarda olib bonladi. Buning uchun birinchi galda yong'in ichida qolgan, zaharli gaz va tutundan zaharlanganlar qidirib topib qutqariladi va uiarga juda qisqa vaqt mobaynida hayotini saqlab qolish tibbiy muolajalari ko'rsatiladi. Bu vazifalami qutqaruv tizimlaridan tashqari o't o'chiruvchiliar, xizmatli tizimlar va ko'ngilli fuqarolar bajarishlari mumkin. Albatta, bu yerda ikki kishilashib harakat qilish va bir-birining holidan xabardor bo'iib turish lozim. Tez tibbiy yordam ko'rsatuvchi brigada xodimlari kuyganlarga, zaharli gazlar va tutundan zaharlangan fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish usullaridan yaxshi xabardor bo'lishlari talab etiladi. Zaharlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgandan so'ng, shifokor ko'riganidan o'tkaziladi, tibbiy saralanadi, so'ngra tibbiy evakuatsiya qilinadi. Tibbiy ko'rsatkichlari og'ir bo'lган fuqarolar ixtisoslashgan davolash muassasalariga (kuyganlami, zaharlanganlarni qabul qiluvchi tibbiyot shoxobchalar) joylashtiriladi va ularga malakali hamda tor ixtisoslikdagi yordamlar ko'rsatiladi.

Suv toshqini paytida talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish ham o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Bunday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam, asosan o'pkaga sun'iy havo yuborish, yurakni uqalash va tanani qizdirish kabi yumishlardan iborat.

Shifokor yordami organizimming hayot faoliyatini ushlab turishga qaratilgan oddiy davolash usullardan tashkil topadi. Bunday vaziyatlarda asosiy og'irlik

davolash muassasalari zimmasiga tushadi va ular ko‘p hollarda maxsus malakali tibbiy yordam ko‘rsatishadi.

Yirik fojiya va avariylar paytida tibbiy yordamni tashkil etish xususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tish kerak. Bularga quyidagilami kiritish zarur:

- Talafot ko‘rganlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi hamda obyektning tibbiyot xizmatlari kuchi bilan tibbiy yordam ko‘rsatilishi. Zaruriy vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yaqin joylashgan tashkilot, korxona va muassasalarning sanitarni qismlari harn jalgan etilishi mumkin.

- Tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi kuchlarini jadal va ommaviy ravishda jalgan etish imkoniyatlarini yaratish.

- Hamma jarohat olganlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishda birinchi shifokor yordamini, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish.

Kimyo sanoati obyektlarida yirik avariylar ro‘y beragan holda talafot ko‘rganlarga tibbiy yordam ko‘rsatilishi ham o‘z xususiyatlariga ega.

Bunday avariylar paytida faqat avariya ro‘y beragan sex va bo‘linma ishchilar, rahbarlar, aholi orasida ham zarar ko‘rganlar bolishi mumkin. Bu narsa yengil uchuvchan gazlar bolgan obyektlarda ro‘y beragan avariylar oqibatida yuzaga keladi. Bunday avariylar paytida tibbiy yordam ko‘rsatilishi uchun kuch va vositalarni avvaldan puxta tayyorlash kerak. Kuchli ta’sir qiladigan zararli moddalaming havo orqali ta’sir o‘t.kazishini hisobga olib, shamolning yo‘nalishi, xonalar joylashishi, zararlashi mumkin bo‘lgan maydon kattaligini aniqlab, bu hududda ishlovchi va yashovchi insonlar soni to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish talab qilinadi. Talafotlar ko‘payishining oldini olish ucbun qo‘shti korxonalar xizmatchi va ishchilarini ogohlantirish tartibi belgilanishi zarur. Ular shaxsiy vosita va qurilmalardan foydalana olishlari kerak. Mazkur korxonada mavjud kimyoviy moddaning xususiyatlariga qarab, ularidan zaharlanganlik paytida qanday ehtiyot choralari ko‘rilishi mumkinligi to‘g‘risida xabardor bo‘lishlari, zarur vositalar va transport bilan ta’milanishlari lozim. Tez tibbiy yordam xizmatining boshqa xizmat xodimlari kimyoviy moddalardan zaharlanish patalogiyasini yaxshi bilishlari, tibbiy yordam ko‘rsatish tartibiga rioya qilishlari talab qilinadi. Bu paytda asosiy vazifa zarar

ko'rganlarni zaharlanish hududidan tezroq olib chiqib ketish hisoblanadi. Tibbiy yordam ko'rsatayotgan ti'bbiyot xodimlari yakka tartibdagi muhofaza vositalaridan foydalanishlari shart.

Radioaktiv moddalami saqlash, tashish va qayta ishlash texnologiyasi buzulgan paytdagi atrof muhitni zarariantiruvchi avariyalarda tibbiy yordam ko'rsatish ham vaziyatni to'g'ri baholash paytida o'z xususiyatlariga ega. Atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalarga hozirgi davrda kimyoviy sanoatni, turli radioizotop laboratoriyalami, radioaktiv chiqindilami ishlab chiqish va ko'mib tashlash joylarini, turli yadroviy reaktorlarni kiritish mumkin.

Radioaktiv moddalar bilan atrof muhit zararlanishining eng katta xavfi atom reaktorlari avariya uchragan paytda sodir bo'ladi. Atom elektrostansiyanlarda ro'y bergan avariylar paytida uzoq yashovchi atom radioaktiv zarrachalari atrof muhitni zararlantiradi. Bu paytda nurlanish jarayoni yadro portlashi davridagidan ancha sekin kechadi. aqt jihatidan sekin parchalanish yadro portlashi oqibatlaridan kam zarar yetkazmaydi.

Tuproq, suv, bino va inshootlaming zararlanishi ehtimoli insonlar uchun katta xavf tug'diradi. Avariya hududida ishlash mumkin bo'lgan eng katta doza 25 R ga tengdir.

Atom elektrostansiyanlariagi avariya oqibatida tan jarohatidan tashqari radiatsiya talafoti ham ro'y beradi. Favqulodda holat tibbiyot tizimlaridagi faoliyatning bosh yo'nalishi suv ta 'minoti, oziq-ovqat ustidan radiatsiyaga oid nazorat o'matish, aholini epidemiyaga qarshi va davolash profilaktika ta 'minotini tashkil etish, barchaga muntazam yod preparatini yetkazib berishdan iborat. Radiatsiya nurlanishi olgan shaxslarni aniqlashga alohlida e'tibor beriladi. Bunda barcha aholini uch guruhga ajratish m um kin: hech qanday radiatsiya jarohati olrnaganlar; oz miqdorda nurianish oigan va radiatsiya jarohati belgilari bo'lm agan shaxslar; Nur kasalligi yoki nurlanishdan kuyishga olib keluvchi nurlanishga uchragan shaxslar.

Birinchi guruhga kiruvchi shaxslar qanday bo'imasin nazoratga muhtoj emaslar, ammo, radiatsiya hududida ishlash paytida ular radiatsiya nazoratiga olinadilar.

Ikkinchı guruhgä kiruvchilar ustidan doimiy tibbiy nazorat o'rnataladi, bu narsa qon tarkibini doimiy ravishda tahlil qilib borishidan iborat. Bu shaxslar zararlangan hududda ishslashga qo'yilmaydilar. Nurianish asorati bor shaxslar kasalxonaga yotqizilishi v a maxsus tibbiyot muassasalarida davolanishlari kerak.

Shunday qilib, favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmati xodimlari yirik avariyalar paytida talafot ko'rganlarga puxta o'ylangan va oldindan rejalashtirilgan tadbirlar asosida yordam berishlari kerak. Favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmati shaxsiy tarkibi ehtimoli bor bo'lgan ishlab chiqarish avariyalari xususiyatini bilishlari va tegishli ravishda vositalarga ega bo'lishlari lozim. Bu vaziyatlarda harakat qilish malakasini tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam hamda davolash muassasalari xodim lari ham yaxshi egailagan bo'lishlari talab etiladi.

### **§9.3. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning bajarilishi va uni ahamiyati**

Birinchi tibbiy yordamning vazifasi eng oddiy choralami ko'rish bilan shikastlangan odam hayotini qutqarib qo'ush, uning azob-uqubatlarini kamaytirish, ro'y berish ehtimoli bo'lgan asoratlaming oldini olish, jarohatning o'tishini yengillashtirishdan iborat.

Birinchi tibbiy yordam shikastlanish hodisasi ro'y bergen joyda shikastlangan odamning o'zi (o'z-o'ziga yordam berish), o'rtog'i (o 'zaro yordam) va sanitardrujinachilar tomonidan berilishi mumkin. Birinchi tibbiy yordamga kiradigar, chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- qon oqishini vaqtincha to'xtatish, badanning jarohatlangan v a kuygan joyiga steril bog'lam qo'yib bogMash, sun'iy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish, antidotlar bilan ukol qilish, antibiotiklar berish, og'riq qoldiradigan dorilar yuborish (shok - holsiz holatda), yonib turgan kiyimni o'chirish. transportda olib borish uchun shikastlangan joyni qimirlamaydigan qilib bog'lab qo'yish (transport immobilizatsiyasi), bemorning badanini isitish (sovuz urib qotib qolganda), shikastlangan kishini zaharlangan joydan olib chiqish, qisman sanitardor qoldirish;

- birinchi tibbiy yordamni mumkin qadar tezroq ko'rsatish kasallik va jarohatning qanday o'tishi hamda oqibati nima bilan tugashi uchun, ba'zida esa hayotni qutqarib qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ayniqsa, qon ko'p ketib turganda, odam elektr tokidan shikastlanganda, suvga cho'kkан paytida, yurak faoliyati to 'xtab, nafasi chiqmay qolgan paytda birinchi tibbiy yordam darhol ko'rsati lishi kerak;

- bolalarga va shu damning o'zida yordam olmasa o'lib qolishi mumkin bo'lgan shikastlanganlarga birinchi navbatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi;

- son suyagi ochiq sinib, arteriyadan qon ketib turgan mahalda birinchi navbatda hayot uchun xatarli bo'lgan qon ketishini to'xtatish, keyin jarohatga steril bog'lam qo'yish va shundan keyingina oyoqni qimirlamaydigan qilib bog'lashga kirishish lozim. Bunda singan joyni qimirlamaydigan qilib qo'yish uchun maxsus shina solib bog'lash yoki qolida bor bo'lgan boshqa vositalardan foydalanish kerak.

Birinch tibbiy yordamning hamma usul-amallarini ehtiyyotkorlik bilan avaylab bajarish lozim. Qo'pol harakatlar qilinadigan bo'lsa, shikastlangan kishiga zarar qilishi va uning ahvoli yomonlashib qolishi mumkin. Birinchi tibbiy yordam ikki yoki bir necha kishi tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

### **§9.3.1. Qon ketishida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam**

Qon ketishi jarohatlarning bevosita hayotga xavf soluvchi eng xatarli asoratidir. Qon ketishi deganda shikastlangan tomirlardan qon chiqib turishi tushuniladi.

Shikastlangan tomirlarining tabiatiga qarab arteriyalardan, venalardan, kapillardan qon ketishi tafovut qilinadi.

**Arteriyalardan qon ketishi** hammadan xatarlidir, bunda qisqa muddat ichida organizmdan talaygina miqdorda qon ketib qolishi mumkin. Arteriyalardan qon ketishining alomatlari chiqayotgan qonning qimiizi qizil rangda bo'lishi, uning otilib-otilib chiqib turishidir.

**Venalardan qon ketishi** arteriyalardan qon ketishidan farq qilib, birmuncha to‘qroq rangda bo‘ladigan qonning uzlusiz ravishda oqib chiqib turishi bilan xarakterlanadi, bunda qon otilib chiqmaydi (venoz qon ketishi).


**Kapillarlardan qon ketishi** teri, teri osti kletchatkasi va muskullardagi maydamayda tomirlar zararlanganida sodir bo‘ladi. Kapillarlardan qon ketayotgan mahalda jarohatning butun yuzasi qonab turadi.



9.1.- rasm. Jarohatlanganda qon ketish

Tashqariga arteriyadan oqib chiqayotgan qonni vaqtincha to‘xtatish yo‘li (qon ketishining bu xili hayot uchun hammadan ko‘ra xatarliroqdir) jgut yoki burarna qo‘yish orqali, qo‘l yoki oyoqni imkonli boricha qattiqroq bukilgan hoiatda bog‘lab qo‘yish, arteriyani shikastlangan joyidan yuqori tomonini barmoqlar bilan bosib turishdir. Bunda arteriyaning suyaklarga yaqinroq joyiga bosib turiladigan puls nuqtalarini bilish kerak (9.2-rasm).

Arteriyalarni bannoq bilan bosib turish qon oqishini vaqtincha to‘xtashning eng oson va tezkor usulidir. Bunda arteriyalar suyak yonidan yoki uning ustidan o‘tadigan joylar barmoq bilan bosib turüadi. Tomirni barmoq bilan bosib, qon to‘xtatib turilganidan keyin, mumkin bo‘lgan joylarga jgut yoki burama qo‘yish va jarohatni steril bog‘lama bilan bog‘lab qo‘yish kerak. Qol-oyoqlarning yirik arterial tomirlari shikastlangan paytlarda jgut (burama) qo‘yish qonni vaqtincha to‘xtatib turishning asosiy usulidir.



#### 9.2-rasm Qon ketishda barmoqlar bilan bosib turish

Jgutni son, boldir, yelka va bilaklardan, jarohatga yaqinroq qilib, qon oqayotgan joydan yuqoriroqqa, terini qisib qo'ymaslik uchun kiyim ustidan yoki tagiga yumshoq material (bint, ro'molcha va b.) qo'yib turib qo'yiladi.

Uni odatda oqayotgan qon to'xtaydigan darajada tortib turib qo'yish maqsadga muvofiq. Jgut qo'yilgan vaqt, kuni, soati va daqiqasini qog'ozga yozib, uni yaxshi ko'rinish turadigan qilib jgut o'rami tagiga qistirib qo'yiladi.

Q o'yilgan jgut qo'l yoki oyoqda ko'pi bilan 1,5-2 soat saqlab turishi kerak, aks holda qo'l yoki oyoqning jgut qo'yilgan joydan pastki qismidagi to'qimalar halok bo'lishi mumkin.

Jgut qo'yilgan paytdan hi-soblaganda 2 soat o'tgandan keyin arteriyani barmoq bilan bosib turib, pulsni tekshirib turgan holda jgutni 5-10 daqiqaga asta-sekin bo'shatish va keyin uni oldingi joyidan sal yuqoriroqqa yana qo'yib bog'lash kerak.

Jgut bo'limgan taqdirda arteriyadan qon oqishini burama qo'yish yoli bilan yoki qo'l-oyoqni mumkin qadar ko'proq bukib, shu holatda mahkam qilib bog'lab qo'yish yo'li bilan to'xtatsa bo'ladi.

Shikastlangan odamga jarrohlik yordami ko'rsatilmaguncha jgutni har soat oralatib shu tariqa vaqtinchha bo'shatib, olib turiladi, buni har safar yuqoridagi

qog'ozga yozib boriladi. Jgut naysimon bo'lib, uchida zanjirchasi va ilmoqchasi bo'lmasa, uning uchlari tugun qilib bog'lab qo'yiladi.

**Vena va kapillarlardan** tashqariga oqib chiqayotgan qonni jarohatga bosib turadigan steril bog'lama qo'yib bog'lash (jarohat ustiga 3 – 4 qavat steril salfetka yoki boglama qo'yitib, ustidan gigroskopik paxta va bog'lama bilan mahkam qilib bog'lab qo'yiladi) va badanning shikastlangan qismini tanaga nisbatan yuqoriroq turadigan holga keltirib qo'yish yo'li bilan vaqtincha to'xtatiladi.

### **§9.3.2. Odam jarohatlanganida qo'llaniladigan bog'lamlar turlari va ularni qo'vish qoidalari**

**Jarohatlar asoratlarining oldini olish.** Har qanday jarohat, hatto, eng kichkinasi ham, shikastlangan odamning hayoti uchun xavf tug'diradi. U har xil mikroblar yuqtiradigan manba bo'lib qolishi mumkin, ba'zi jarohatlar esa bir talay qon ketib qolishiga sabab bo'ladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mahalida ana shu asoratlar oldini olishning asosiy yo'li jarohatga imkonli boricha ertaroq steril bog'lam qo'yib bog'lash, jarohatga qo'l urish, uni ustidagi har qanday narsalar, kiyim-kechak parchalarini olib tashlash zarur, jarohatni berkitish uchun sterillanmagan materialni ishlatish mumkin emas.

Jarohatlarga infeksiyayuqishiga qarshi kurashda aseptika va antiseptika usullari qo'llanishi maqsadga muvofiq.

**Aseptika va antiseptika to'g'risida tushuncha.** Aseptika jarohatga mikroblar tushishiga yo'1 qo'ymaslik maqsadida ko'rildigan chora-tadbirlardir, ya'ni u jarohat infeksiyasining oldini olish, profilaktika usuli hisoblanadi. Jarohatga uriladigan narsalarning hammasi steril (mikroblardan xoli) boiishi kerak, degan oddiy qoidani qo'llash bilan unga erishiladi. Jarohatga qol urish, undagi narsalar, kiyim-kechak parchalarini yulib tashlash, jarohatni berkitish uchun unga sterillanmagan materialni ishlatish mumkin emas.

**Antiseptika** deb jarohatdagi mikroblar sonini kam aytirish yoki ulami yo‘q qilishga qaratilagan chora-tadbirlarga aytildi. Mexanik, fizik, kimyoviy va bilogik antiseptika usullari mavjud.

**Mexanik antiseptika** jarohatlarni birinchi jarrohlik obrabotkadan o‘tkazishdan iborat.

Fizik antiseptika mikroblarning yashab qolishi uchun jarohatda noqulay sharoit yuzaga keltiradigan usullarni tatbiq etishdan iborat, ya’ni jarohatni quritish, unga drenaj qo‘yish va jarohat suvi, selining oqib chiqib turishini ta ’minlash chorasi ko‘riladi. Chunki quyosh nuri va sun’iy ultrabinafsha nur mikroblami o’ldiradi.

**Kimyoviy antiseptika** mikroblarga qarshi har xil dori vositalarini ishlatishga asoslangan. Bunday vositalar qatoriga yod, etil spirti, xloramin, kaliy permanganat eritmasi va boshqalar kiradi.

**Biologik antiseptiklar** jum lasiga jarohat infeksiyasining profilaktikasi va davosi uchun ishlatiladigan antibiotiklar kiradi.

**Bog‘lam va bog‘lashlar to‘g‘risida tushuncha. Bog‘lamlarning turlari.** Bog‘lam jarohatni berkitib, bog‘lab qo‘yish uchun ishlatiladigan materialdir. Bog‘lamlarni qo‘yish paytida ortiqcha og‘riq bo‘imasligiga harakat qilish zarur. Qon aylanishiga xalal bermasiik uchun bog‘lamni uncha qattiq bosmaydigan qilib (bosib turadigan maxsus bog‘iam qo‘yish kerak bo‘ladigan hollardan boshqa paytlarda) va jarohatdan tushib ketmasligi uchun uncha bo‘s sh qilmasdan qo‘yiladi. Birinchi bog‘lam qo‘yisndan avval jarohatga iflos tekkizmasdan va shikastlangan odamga ozor bermasdan turib jarohatni ochib, yalong‘ochlash zarur, ustki kiyim esa yechib olinadi yoki qirqib tashlanadi. Jarohatga yopishib qolgan kiyimni uzib olish yaramaydi, uni qaychi bilan ohista kesib oiish, so‘ngra bog‘lam qo‘yish kerak. Shaxsiy bog‘lovchi paket ikkita paxta-dokali yostiqcha va bintdan iborat. Teshib o‘tgan jarohatlarni bog‘lash mahalida jarohatning kirish va chiqish teshigini berkitishga imkon beradi.

### **§9.3.3. Bosh, ko'krak qafasi, qorin va qo'l-oyoq jarohatlariga ko'rsatiladigan birlinchi tibbiy yordam**

Bosh va ko'krak qismga steril bog'lanilar qo'yish qoidalari. Bosh shikastlangan paytda har xil tipdagи bint bog'lam, durracha (kosinka), steril salfetka va yopishqoq plastir bog'lab qo'yish mumkin. Boshning sochli qismi jarohatiga «Chepets» deb ataladigan bog'iam qo'yiladi. Buning uchun bintdan 1 metrcha qirqib olinib, o'rtasi jarohatni yopib turgan steril salfetka ustiga, bosh tepasi sohasiga qo'yiladi, uning uchlari quloqlar oldidan tik pastga tushirilib, tarang qilib tortiladi. Boshdan gir aylantirib (9.3-rasm, a) ushlab turgan bint o'tkaziladi (1), so'ngra tugiladigan joyga yetgandan keyin bintni shu joydan qaytarib, qiyshiq holda ensaga qarab olib boriladi (2). Bint ikkinchi tom onda ham tugiladigan joy atrofidan qaytarilib, qiyshiq holda peshanaga qarab yurgiziladi (3). Shu tariqa bintni bir safar ensadan va bir safar peshanadan o'tkazib, (1-10) har safar tikroq yurgizib borib, boshning butun sochli qismi bekitib chiqiladi (9.3-rasm, b). Shundan keyin bintni 2-3 marta gir aylantirib o'rav, mahkam bog'lab qo'yiladi. Tugunning uchlari engak tagidan kapalak nusxa qilib bog'lanadi.




9.3-rasm. Boshni «Chepets» ko'rinishida bog'lash

Odamning bo'yini, tomog'i yoki engagi jarohatlangan bolsa, «Butsimon» bog'lam qo'yiladi (9.4-rasm). Bunda aw al bintni boshga gir aylantirib o'rav bog'lanadi (1, 2), keyin chap quloqning yuqorirog'i va orqasidan uni qiyshiq yo'nalishda bo'yinga tomon pastga tushirilib (3), bo'yining o'ngyon yuzasi bo'ylab ensaga qaytariladi (4), so'ngra o'ng va chap quloqning yuqorirog'idan o'tkazilib, oldingi 0'ramlar takrorlanadi.




9.4-rasm. Ensa sohasini butsimon qilib bog'lash

Burun, peshana va ensaga (lunj qism) «Sopqonsimon» bog'lam qo'yiladi. Bunda bog'lam tagidan jarohat yuzasiga steril salfetka yoki bint qo'yib qo'yiladi.



9.5-rasm. Sopqonsimon bog'lain: a-burunni; b-peshanani; d-engakni bog'lash


Ko'krak jarohatlariga esa, odatda, spiral yoki butsimon bog'lamlar qo'yiladi. Spiral bog'lam qo'yish uchun (9.6-rasm, a) bintdan 1,5 m etrcha kesib olinib, uni so'glom kiftga solinadi va ko'krakda qiyshiq qilib (1) osiltirib qo'yiladi. Bintni spiral holda yurgizib (2-9), ko'krak qafasi orqa tomonining pastidan boshlab bintlab chiqiladi va uning uchlari bog'lanadi. Ko'krakka butsimon bog'lamni (9.6-rasm, b) bintni ushlab turadigan qilib 2-3 marta gir aydlantirib o'rash yo'li bilan pastdan solib boriladi (1-2), so'ngra orqaning o'ng tomonidan chap kiftga (3) o'tkaziladi, keyin ushlab turadigan qilib gir aylantirib o'raiadi (4), pastdan o'ng kift osha (5), yana ko'krak qafasi gir aylantirib o'raladi va oxirgi o'ramning uchi to'g'nag'ich bilan mahkamlab qo'yiladi.



9.6-rasm. Ko'krakni bog'lash: a-spiralsimon; b-butsimon bog'lamlar qorin sohasi va qo'lga sterii bog'lamlar qo'yish qoidalari


Qorin sohasi jarohatlari orasida qorinni teshib kirgan jarohatlar shikastlangan odamning hayoti uchun hammadan ko'ra ko'proq xatarlidir. Mana shunday jarohat yetgan mahalda organlardan: ichaklar va charvi tashqariga chiqib qolishi, juda ko'p qon yo'qotilishi murnkin. Ichki organlar chiqib qolgan bo'lsa, ulami qorin bo'shlig'iga qaytarib tushirib qo'yib bo'lmaydi. Chiqib qolgan ichki organlar atrofidagi jarohatni steril salfetka yoki steril bint biian o'rab bekitib qo'yish kerak. Qorinda teshib kirgan jarohaii bor odamga suv ichirib bo'lmaydi, faqat lablarini ho'llab turish mumkin.

Qorinning ustki qismiga steril bog'lam qo'yishda bint pastdan yuqoriga tomon gir aylantirib o'rab chiqiladi (9.7-rasm, a). Lekin, qorinning pastki tomoniga spiral bog'lam qo'yiladigan bo'lsa, tushib ketaveradi, shu sababdan bunda qorin va son oralig'i sohasiga boshoqsimon bog'lam qo'yiladi (9.7-rasm, b). Bunday bog'lam qorinni bint bilan gir aylantirib o'rashdan boshlanadi (1-3), so'ngra bint sonining tashqi yuzasi bo'ylab (4) o'rab boriladi (7). Qorinnning katta-katta joylari kuygan mahalda durrachali bog'lamlar ham qo'yilishi mumkin.



9.7-rasm. Qoririning pastki sohasi (a) va son oraliq sohasini  
(b) boshoqsimon bogiash


Qolga chatda spiral, boshoqsimon va butsimon bog'lamlar qo'yiladi. Barmoqqa spiral bog'lam qo'yishni (9.8-rasm, a) kaft ustini gir aylantirib o'rab olishdan boshlanadi (1), so'ngra bintni qo'l panjasining orqasidan timoq falangasiga olib boriladi (2) va barmoqning uchidan to asosiga qadar bintni spiral qilib o'rab chiqiladi (3-6), yana qo'l panjasining orqasidan o'tkazib (7), bintni kaft ustiga bog'lab qo'yiladi (8-9). Qo'l panjasining kaft tomoni yoki orqa tomoni shikastlanganida butsimon bog'lamni kaft ustida ushlab turadigan o'ram solishdan boshlanadi, keyin bint qo'l panjasining orqasidan kaftiga olib o'tiladi (9.8-rasm, b). T'irsak bo'g'imiga bog'lam (9.8-rasm, d) bintni spiralsimon qilib o'rab solinadi, bunda bint o'ramlari tirsak chuqurchasida kesishtirilib, bir gal bilakka (1,2,6,8,10,11) va bir gal yelkaga solib boriladi (3,4,5,7,9).



9.8-rasm. Qo'lga steril bog'lamlar qo'yish: a-barmoqni spiralsimon bog'lash; b-qo'l panjasini butsimon bog'lash; d-tirsak bo'g'imini spiralsimon bog'lash

**Oyoqning tovon sohasiga** bog‘lam qo‘yishda bintning birinchi o‘rami tovonning do‘mbayib turgan joyi (1) dan boshlanib, galma-gal yuqori va past (2,3)ga o‘raladi. Bog‘lamni mustahkamlash uchun bintni qiyshiqroq (4) va sakkizsimon (5) qilib o‘rash lozim (9.9-rasm).

**Boldir-panja bo‘g‘imiga** sakkizsimon bog‘lam qo‘yiladi (9.9-rasm). Buning uchun bintning birinchi o‘rami to ‘piqdan yuqoriroqqa solinadi, keyin pastga, oyoq tagi tomon (2) o‘tkazib, oyoq panjasasi (3) o‘raladi, so‘ng bint oyoq panjasining orqa yuzasi bo‘ylab to ‘piq tomon yuqoriga yo’naltiriladi (4), keyin esa oyoq panjasasi (5) va to‘piq (6) tomon qaytarib kelinib, bint uchini to‘piqdan yuqorida 1-2 marta aylantirgach, mustahkam bog‘lanadi (7,8). Umuman, odamning oyoq qismi shikastlangan paytda jarohat bog‘langach, oyoqni qimirlamaydigan qilib taxtakachlab qo‘yilsa, uni transport vositalarida ko‘chirish oson va og‘riqsiz kechadi. Yilning sovuq paytlarida shikastlangan oyoqlami issiqroq buyum bilan o‘rab qo‘yish maqsadga muvofiq.



9.9-rasm. Oyoqning tovon, boldir-panja sohalariga  
qo‘yiladigan sakkizsimon bog‘lamlar

#### §9.3.4. Suyak singan paytda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam


Suyak sinishi va travmatik shok to‘g‘risida tushuncha. Odam keskin harakatlar qilganida, zarb yeganida, balandlikdan yiqilib tushganida suyaklari sinadi. Suyaklar sinishi yopiq va ochiq bo‘lishi mumkin. Yopiq suyak siniqlarida teri qoplamlarining butunligi buzilmaydi, ochiq suyak siniqlarida suyak singan joyda jarohat bo‘ladi.

Suyaklaming ochiq sinishi hammadan ko'ra xavfliroqdir. Suyaklar singanda suyak bo'laklari surilib ketgan yoki surilmay turgan bolishi mumkin. Suyak sinishlarining asosiy belgilari: suyak singan joyning og'rib, shishib ketishi, qon talash bo'lishi, uning odatdan tashqari tarzda harakatlanadigan bo'lib qolishi, qo'l yoki oyoq funksiyasining buzilishi kabi alomatlardir. Suyak ochiq singan paytda jarohatda suyak bo'laklari ko'rinish turishi mumkin. Qo'l-oyoq suyaklari singanida qo'l yoki oyoq kalta tortib, singan joyi qiyshayib qoladi. Suyaklaming sinishi og'ir hollarda shok bilan birga davom etadi. Shok suyaklar ochiq sinib, arteriyalardan qon ketib turgan paytda ayniqsa ko'p paydo boladi. Travmatik shok og'ir shikastlarning hayot uchun xavf soladigan asorati bo'lib, markaziy asab sistemasi faoliyati, qon aylanishi, moddalar almashinushi va hayot uchun muhim bo'lgan boshqa fiinksiyalarning buzilishi bilan xarakterlanadi. Bir marta yoki takror-takror og'ir shikast yetishi shokka sabab bolishi mumkin. B unda odam es-hushi joyida bo'lgani holda, bo'shashib, atrofdagilarga loqayd bo'lib qoladi, hayot uchun muhim bo'lgan barcha funktsiyalari susayib ketadi: badani muzlab, yuzi oqaradi, pulsi zaif, nafa olishi sust bo'ladi. Shikastlanib, shok holatiga tushib qolgan odamga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda hayot uchun xavf solib turgan qon ketishni to 'xtatish, og'riqni qoldiradigan dori berish, sovuqdan asrash, suyaklari singan bo'lsa, transport immobilizatsiyasini bajarish zarur.

**Suyak singan paytda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy qoidasi** shikastlangan kishining hayotini saqiyab qolishga qara-tilgan usul-amallami birinchi navbatda bajarishrarteriyalardan qon ketisnini to xstatishjtravmatik shokning oldini olish, keyin esa jarohatga steril bog'lam bog'lash va qo'lda bor vositalardan foydalanib immo-bilizatsiya qilishdan iborat. Immobilizatsiyadan asosiy maqsad - singan jovidagi suyaklami qimirlamaydigan qilib qo'yishdir. Bunda og'riq kamayadi, natijada travm atik shokning oldini olish oson boiadi. Suyak singanida o'sha joy yaqinidagi ikkita bo'g'imni (singan joyning yuqorisi va pastidagi bo'g'imni) maxsus shinalar yoki qo'lda bor vositalar yor-damida taxtakachiab qo'yish yo'li bilan singan joyning qirnirlamay turishi ta'minlanadi. Shu tariqa taxtakachiab qilingan immobilizatsiya **transport immobilizatsiyasi** deb ataladi.

Immobilizatsiyadan ko‘zlangan maqsad - singan joydagi suyaklarni o‘rnidan siljimaslik, qimirlamaydigan qilishdir. Bunday holatda og‘riqlar kamayadi, travmatik shokning oldi olinadi. Transport shinalarining asosiy turlari: shotisimon va to‘rsimon qilib ishlangan metall shinalar, faneradan ishlangan shinalar bo‘lishi mumkin. Oyoqqa qo‘yish uchun m oijallangan maxsus transport shinasi (Deterixis shinasi) esa yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, tovonga taqalib turadigan fanera va burama tayoqchadan iborat. Immobilizatsiya qilish uchun fanera bo‘laklari, tayoqlar, yupqa taxtalar, har xil ro‘zg‘or buyumalari va singan joy ni qimirlamaydigan qilib qo‘yishga ishlatsa boladigan boshqa narsalardan foydalanish mumkin.

**Kalla suyakiari singan paytda** aksariyat hollarda bosh rniya ham zararlanadi. Shikastlangan odam hushsiz holatda boiishi mumkin. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda juda ehtiyot bo‘iish talab etiladi. Shikastlangan odamni ko‘zdan kechirib, tekshirib chiqilgandan keyin qomini pastga qilib zambilga yotqiziladi, boshining tagiga(yuziga) o‘rtasi chuqurroq tushirilgan yumshoq to ‘shama (yostiqcha) qo‘yib qo‘yiladi yoki paxta-dokadan ishlangan chambarakdan foydalaniladi (9.10-rasm).



9.10-rasm. Kala suyagi singan odamning boshi ostiga yumshoq yotiqcha qo‘yib transport vositasida tashish


Shikastlangan ustki va pastki jaglar sopqonsimon bog‘lam bilan mahkam bog‘lanadi, odamning tili tomog‘iga tiqilib, havo yo‘lini berkitib qo‘ymasligi uchun boshini yon tomonga burib qo‘yiladi. Qo‘l va oyoq suyaklarining sinishi boshqa suyaklaming sinishidan ko‘ra ko‘proq uch-rab turadi. Bilak, qo‘l panjasи va barmoqlarga fanera, karton yoki shotisimon shina qo‘yiladi. Qo‘lni kosinkaga solib

osib qo'yiladi. Bilak suyaklari singanida qo'lni tirsak bo'g'imidan to'g'ri burchak ostida asta-sekin bukib,kaftini ko'krak tomonga burish va shu holda shina yoki qo'lda bor vositalar yordamida qimirlamaydigan qilib bog'lab qo'yish kerak. Shina barmoqlaming asosidan to yelkaning yuqori uchdan bir qismigacha yetkazib qo'yiladi. Ana shunda qo'l bilak-kaft usti va tirsak bo'g'implari harakatlanmaydigan holatga keladi, keyin esa qo'lni durrachaga (kosinkaga) solib osib qo'yiladi (9.11-rasm).



9.11-rasm. Yelka suyaklari singanda immobilizatsiya qilish

Chanoq suyaklari singanida shikastlangan odam hamisha og'ir holatda bo'ladi. Uni qattiq narsa (fanera, taxta, eshik) ustiga chalqancha yotqiziladi va tizzalarining tagiga oyoqlari tizza bo'g'implaridan yarim bukilgan va ikki yon tomonga sal kerilib turadigan qilib, palto yoki choyshabni dumaloqlab qo'yib qo'yiladi (9.12-rasm).



9.12-rasm. Chanoq suyaklari singan, umurtqa pog'onasi shikastlangan odamni immobilizatsiya qilish

Shikastlangan odamning bir nechta suyak-lari singan bo'lsa, u vaqtida birinchi tibbiy yordam quyidagi tartibda ko'rsatiladi: qon oqishi to'xtatiladi, jarohatga steril bog'lam lar qo'yib bog'lanadi, og'riqni qoldiradigan dori yuboriladi va oldin hayotga hammadan ko'ra xavfli bo'lgan siniqlar, keyin esa qolgan siniqlar immobilizatsiya qilinadi va bemorni tibbiyot muassasasiga olib borish choralari ko'rildi.

### **§9.3.5. Kuygan paytda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam**

Boshqa barcha jarohatlar kabi odam kuygan paytida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamning ahamiyati muhim. Odatda, odamga yuqori harorat ta'sir etganida badani kuyib qoladi. Yorug'lik nuri, alanga, qaynoq suv va issiq bug'dan badan kuyishi termik kuyish deb ataladi.

Kuyish turlari: termik - issiqlik ta'sirida; kimyoviy - zaharli moddalar ta'sirida; elektr toki ta'sirida.



9.13. Yuqori harorat ta'siri ostida kelib chiqib, to'qimalarning shikastlanishi kuyish

Kuyish darajalari:

**I daraja** - teri yuza qismining kuyishi - **qizarish, og'riq, shish;**

**II daraja** - teri iatlamining kuyishi - **qizarish, og'riq, shish + suvli pufakcha;**

**III daraja** - teri ostki iiislari muskul va suyaklar kuyishi - **teri-ning ko'mir singari qorayib qolishi.**

Badan terisi va shilliq pardalarga kuchli kislota va ishqorlar ta'sir qilganida kim yoviy moddalardan kuyish hodisasi ro'y beradi. Bunda kislota va ishqorlar ta'sir qilgan joyning o'zigina shikastlanib qolmasdan, umuman butun organizmning

zaharlanishiga ham sabab bo‘ladi. Badan terisi va to ‘qimalaming nechog‘liq chuqr zararlariishiga qarab kuyishning to‘rtta darajasi farq qilinadi: yengil (I), o‘rtacha og‘ir (II), og‘ir (III)

va juda og‘ir (IV). Badanning 10-15% dan ko‘proq qismini egallaydigan joylari II-III darajada kuygan paytda organizmning og‘ir umumiy kasalligi - kuyish kasalligi paydo bo‘ladi, bunday kasallik ko‘pincha kuyish shoki boshlanishiga olib keladi. Kuyish shokining xususiyati uning uzoq davom etishidir, bunda shok 24-72 soatgacha cho‘zilishi mumkin. Kuyish kasaliigi o‘tkir intoksikatsiya, ya’ni organizmdagi suv-tuzlar alm ashinuvi jarayonlarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Kuygan odamlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda darrov nim tatir qilib bir oz tuz qo‘shilgan iliq suv ichiriladi. Kuygan odamlarga birinchi tibbiy yordam nechog‘liq barvaqt ko‘rsatilsa, asoratlar shu qadar kamroq bo‘ladi. Yordam ko‘rsatishda hammadan ilgari yonib turgan kiyimni o‘chirish kerak, buning uchun shikastlangan odamning ustiga palto, choyshab tashlanadi. Tananing kuygan qismi kiyimdan xoli qilinadi, buning uchun kiyimning kuygan joyga yopishgan qismini qoldirib, gir aylantrib qirqib olinadi. Badandagi puffakchalami yorish, kuygan joyga qo‘l urish, yog‘, mazli malham va boshqa moddalar surish yaramaydi. Tananing anchagina qismi kuyib, talaygina yuzasi zararlangan bo‘lsa, shikastlangan odamni yaxshisi toza choyshabga o‘rab, shokning oldini olishga doir barcha chora-tadbirlami ko‘rish va tezda tibbiy muassasaga jo‘natish maqsadga muvofiq. Ko‘zlar kuyib qolgan vaqtida ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam ko‘zga steril bog‘lam qo‘yib bog‘lash va shikastlangan odamni tinch qo‘yishdan iborat. Napalm va yondiradigan boshqa moddalardan shikastlangan odamlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda birinchi galda yonib turgan joyni o‘chirish zarur, buning uchun o‘sha joyga suvga ho‘llangan bog‘lam qo‘yiladi yoki yonib turgan joylar suvga botiriladi. Alangani urib o‘chirishga harakat qilish yonuvchan aralashmaning tanaga surkalib yoyilib ketishiga va aksincha jadalroq yona boshlashiga sabab bo‘ladi. Yonib turgan joy o‘chirilganidan keyin kuygan joyga steril bint yoki kuyishga qarshi maxsus bog‘lama qo‘yib bog‘lash ma’qul.

**Radioaktiv moddalardan zaharlangan hududda birinchi tibbiy yordam** ko'rsatishda, avvalo, zararlangan odamning hayotini saqlab qolishga aloqador bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. So'ngra tashqi gamma-nur ta'sirini bartaraf etish yoki kamaytirish zarur, buning uchun himoya inshootlaridan: pana joylar, chuqurlikdagi binolar, g'isht, betondan qurilgan imoratlar va boshqa binolardan foydalaniлади. Radioaktiv moddalaming badan va shilliq pardalarga ta'sir qilib borishiga yo'I qo'ymaslik uchun qisman sanitariya ishlovi o'tkaziladi va kiyim - kechak hamda poyabzal qisman dezaktivatsiya qilinadi. Qisman sanitar ishlovi badanning ochiq qismlarini toza suv bilan yuvish yoki ho'llangan tamponlar bilan artish yo'li bilan o'tkaziladi. Zararlangan odamning ko'zлари yuviladi, og'zini chayqab tashlash uchun suv beriladi. So'ngra unga respirator kiygazib yoki paxta-dokali bogiam taqib yoki og'zi bilan bumini sochiq, ro'mol, sharf bilan berkitib, kiyim-kechaklari qisman dezaktivatsiyadan o 'tkaziladi. Bunda kiyimdan supurib-qoqib tushiriladigan radioaktiv chang boshqalarga tegmaydigan boishi uchun shamolning yo'nalishi hisobga olinadi.

Radioaktiv moddalar organizm ichiga tushib qolgan bolsa, me'da yuviladi, odamga adsorbsiyalovchi moddalar (faollashtirilgan ko'mir) ichiriladi. K o'ngil aynib, behuzur bo'lsa, shaxsiy dorigidan qusishga qarshi m odda olib ichiriladi. Nur ta'siriga uchragan odam yuqumli kasalliklarga moyil bo'lib qoladi, shunga ko'ra bunday kasalliklarning oldini olish maqsadida bakteriyalarga qarshi №2 vositani ichish tavsiya etiladi.


### **§9.3.6. Yurak faoliyati va nafas olish to'satdan to'xtab qolganida birinchi tibbiy yordam berish**

Yurak faoliyati to'satdan to'xtab, odam nafas olmay qolgan mahalda klinik o'lim holati boshlanadi. Yurakni darrov bilvosita uqalash va sun'iy nafas oldirishga kirishiladigan bolsa, bir qancha hollarda odamni qutqarib qolish mumkin boladi. Odam elektr tokidan zararlanganida, suvga cho'kkaniда va nafas yollarini bosilib yoki tiqilib qolgan boshqa bir qancha hollarda yurak faoliyati birdan to'xtab qolishi

mumkin. Bunda sun'iy nafas oldirish uchun o'pkaga havo yuborishga imkon beradigan maxsus apparatlardan foydalanish hammadan ko'ra ko'proq naf beradi.

Ana shunday apparatlar bolmagan taqdirda har xil usullar bilan sun'iy nafas oldiriladi, masalan, «og'izdan og'izga» nafas berish usuli. Sun'iy nafas oldirishga kirishishdan avval shikastlangan odamni chalqancha yotqizib, havo o'tkazuvchi yollari havo o'tishi uchun ochiq turganiga ishonch hosil qilish kerak, buning uchun uning boshini imkonli boricha ko'proq orqaga engashtirib qo'yiladi. Jag'lari qisilib qolgan bolsa, pastki jag'in i oldinga tortib engagiga bosish, og'zini ochish, so'ngra salfetka bilan og'iz bo'shlig'ini solak yoki quruq massalardan tozalab olish va sun'iy nafas oldirishga kirishish: shikastlangan odamning ochiq turgan og'ziga bir qavat salfetka (dastro'mol) qo'yib, bumini qisish, chuqur nafas olib, lablami shikastlangan odam lablariga mahkam taqash va germetik qilib turib, kuch bilan uning og'ziga havo puflab kiritish kerak.


Havoni puflab kiritilganida har safar u o'pkani imkonli boricha ko'proq rostlaydigan miqdorda qilib puflash kerak bo'ladi, ko'krak qafasining harakatiga qarab buni bilish mumkin. Kam havo puflab kiritiladigan bo'lsa, bunday sun'iy nafas naf bermaydi. Havoni tabiiy nafas tiklanguncha, bir daqiqada 16-18 martadan bir maromda puflab yuborib turiladi. Shikastlangan odamning pastki jag'i yaralangan bo'lsa, sun'iy nafasni boshqa usul bilan oldirish mumkin, bunda havo shikastlangan odamning burnidan puflab kiritiladi (9.14-rasm).



9.14-rasm. «Og'izdan og'izga» (a), «og'izdan burunga» (b) sun'iy nafas berish


Kallistov usuü bilan sun'iy nafas oldirishda shikastlangan odamning qo'llarini oldinga cho'zib, qorni bilan yotqiziladi, boshini yon tomonga burib, tagiga kiyimini

(choyshabini) dumaloqlab qo‘yiladi. Zam bilning tasmalari yoki bir-biriga ulangan ikkita-uchta shimning kamari bilan shikastlangan odamni dam-badam (nafas harakatlari maromida) 10 sm gacha yuqori ko‘tariladi va pastga tushiriladi. Shikastlangan odam yuqori ko‘tarilganida ko‘krak qafasi yozilishi natijasida unga nafas kiradi, pastga tushirilganida ko‘krak qafasining siqilishi tufayli undan nafas chiqadi (9.15-rasm).



9.15-rasm. Kallistov usuli bilan sun’iy nafas oldirish: a-havo yutish; b-havo chiqarish

Yurak faoliyati birdan to‘xtab qolgan paytda (buning alom atlari puls yo‘qolib qolishi, yurak urishining büinm asligi, ko‘z qorachiqlarining yorug‘likka reaksiya ko‘rsatmay, kengayib turishidir) darhol yurakni bilvosita uqalashga kirishiladi: shikastlangan odamni chalqancha yotqiziladi, u imkon qadar usti qattiq joyda yotishi kerak. Yordam beruvchi kishi uning chap tomoniga o‘tib, ustma-ust qo‘yilgan o‘z kaftiarini to‘sh suyagining pastki uchdan bir sohasiga qo‘yadi. Bir maromdag'i shaxdam zarblar bilan to‘sh suyagiga daqiqasga 50-60 martadan bosib boriladi, bunda har bir zarbdan keyin ko‘krak qafasining yozilib olishiga imkon berish uchun qo‘llar olib turiladi. Ko‘krak qafasining oldingi devori kamida 3-4 sm ichkari tushib turadigan bo‘lishi kerak. Bilvosita yurak uqalanishi sun’iy nafas oldirish bilan birgalikda olib boriladi (9.16-rasm).



9.16-rasm. Bemoming og‘zini ochish (a); yurakni bilvosita uqalash (b)

Bu xildagi shikastlangan odamga ikki yoki uch kishi yordam bersa, yana ham yaxshi. Ularning birinchisi yurakni bilvosita uqalab boradi, ikkinchisi «og‘izdan og‘izga» usuli bilan sun’iy nafas oldiradi, uchinchisi esa shikastlangan odamning o‘ng tomoniga o‘tib, uning boshini ushlab turadi va sun’iy nafas oldirish bilan yurakni bilvosita uqalashni kerakli vaqt davomida uzluksiz davom ettirib borish uchun yordam beruvchilardan birining o‘m iga o‘tishga tayyor bolib turadi. Havo puflab kiritilayotgan paytda ko‘krak qafasiga bosish yaramaydi. Bu tadbirlar galma-gal amalga oshiriladi: ko‘krak qafasiga 4-5 marta bosiladi (nafas chiqarib turilgan vaqtda), so‘ngra o‘pkaga bir marta havo puflab kiritiladi (nafas olish paytda). Sun’iy nafas oldirish bilan bir vaqtda yurakni bilvosita uqalab borish klinik o‘lim holatida yetgan odamni tiriltirish (reanimatsiya)ning eng oddiy usulidir. Yoshi qaytib qolgan odamga sun’iy nafas oldirib, yuragini bilvosita uqalash qilish paytida, bu yoshdagi kishilaming suyaklari ancha mo‘rt boiishini esda tutish kerak, shu sababdan harakatlar ohista bo‘lishi lozim. Yosh bolalarda bilvosta massaj to‘sh suyagi sohasiga qol kaftlari bilan emas, balki barmoqlar bilan bosib amalga oshiriladi.

**Odamning elektr tokidan shikastlanishi natijasida** nafas olishi va yurak faoliyati to‘xtab qolgan bo‘lsa, avval shikastlangan odamni elektr toki ta’siridan qutqarish zarur. Tezgina rubilnikni ajratish, elektr probkalarini chiqarib olish, simni olib tashlash kerak. Ayni vaqtda shikastlangan odam tok ta’siridan xalos qilinmagan bo‘lsa , uning o‘zi elektr o‘tkazgich bo‘lib turishini va rezinka qo‘lqop kiyib olinganidan keyingina unga qo‘1 tekkizish mumkinligini esda tutish kerak, badaniga tegib turgan sim quruq tayoq bilan olib tashlanadi.

Shikastlangan odamning siqib turgan kiyimlarini bo'shatgandan keyin darhol unga sun'iy nafas oldirib, yuragini bilvosita uqalashga kirishiladi. Yurak faoliyati bilan nafas olishi asliga kelganidan keyin shikastlangan odamning badanini isitish choralari ko'rildi, jarohatlari va kuygan joylariga steril bogMamlar qo'yildi.

### **§9.3.7. Sovuq olgan, xushdan ketgan va suvga cho'kkан odamlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish**

**Sovuq olishi (sovuq urishi)** organizm to'qimalariga past harorat ta'sir qilishi natijasida shu to'qimalaming shikastlanib qolishi bilan xarakterlanadi. Harorat 0°C dan yuqoriqoq bo'lib turganda ham to'qimalami sovuq olishi mumkin, ayniqsa, kunlar dam-badam isib-sovub turadigan mahallarda shunday bo'ladi. Poyabzalning nam va tor bo'lishi, sovuq havoda, qorda, sovuq yomg'ir tagida odamning uzoq vaqt qimirlamay turib qolishi sovuq olishini tezlashtiradi. Ko'proq qo'l-oyoqlarni, ayniqsa, ovoqlarni sovuq oladigan bo'ladi. Sovuq ta'sir qilgan mahalda avvaliga o'sha joy sanchib, sovuq yegani seziladi, achishib turadi, keyin terisi oqarib yoki ko'karib ketadi va sezmaydigan bo'lib qoladi, qo'l yoki oyoq faol harakat qila olmaydi. Shikastning haqiqatda nechog'liq chuqur va keng yoyilganini sovuq ta'siri to'xtaganidan keyin, ba'zan bir necha kun o'tganidan keyingini aniqlasa bo'ladi (sovuk oigan joy shishib chiqib, unda yallig'lanish boshlanadi yoki to'qimalar halok bo'ladi, nekroz ro'y beradi). Birinchi tibbiy yordamni ko'rsatishda shikastlangan odam issiq binoga olib kirilib, issiq suvli vannaga solinadi, bordi-yu, buning iloji bo'lmasa, uni o'sha joyning o'zida sovuqdan ehtiyyot qilib, unga qaynoq choy, qahva ichiriladi. To'qimalarda hali o'zgarishlar boshlanmagan bo'lsa (terida qavariqlar, eti o'lgan joylary o'q bo'lsa), sovuq olgan joylar spirt yoki atir bilan artilib, so'ng paxta tamponi bilan artib yoki yaxshilab yuvib quritilgan qoMlar bilan teri qizarib chiqquncha ohista ishqalanadi.

**Xushdan ketish holiali** ham tez-tez uchrab turadi. Xushdan ketish miyada qon aylanishining qisqa muddat izdan chiqishi bilan o'tadigan tomir yetishmovchiligining ko'rinishidir. Bunday hodisa ruhiy travmalar, qattiq bosh og'riq mahalida va qon

ketib turgan paytda, kasallar keskin harakat qilib, birdan o‘rnidan turgan paytda ro‘y berishi mumkin. Odam xushidan ketganda umuman darmoni qurib, boshi aylanadi, quloqlari shang‘iilaydi, ko‘zlarining oldi qorong‘ilashib, bir necha soniya yoki daqiqa o‘zini bilmay qoladi. Bemor yiqilib tushadi, badani oppoq oqarib, terchilab turadi. Pulsi zaiflashib, daqiqasiga 40-60 martadan uradi. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda bemorning boshini sal ko‘tarib, yotqizib qo‘yish (boshi baland turmaydigan bo‘lishi kerak), yoqasini yechib, yuzini sovuq suv bilan artish, novshadil spirt hidlatish kerak. Odam o‘ziga kelavermaydigan bo‘lsa, sun’iy nafas bera boshlash lozim.

**Suvga g‘arq boiish (cho‘kish)** deb nafas yollarining suvgaga tolib qolishiga aytiladi. Suvga g‘arq bo‘lgan odamning bronxlari va o‘pkasiga suv kirib, nafas olishi to‘xtaydi, birdan kislorod tanqisligi boshlanib, yurak faoliyati ham to‘xtab qoladi. Bunday holda odamni imkonli boricha tezroq suvdan chiqarib olish zarur. Uni suvdan chiqarib olingandan keyin beligacha yechintirilib, og‘zi bilan bumi balchiq va shilimshiqdan obdan tozalanadi, dumaloqlab o‘rab balandroq qilib qo‘yilgan narsa ustiga yoki biror kishi tizzasiga qomi bilan yotqiziladi va shundan keyin ko‘krak qafasiga bosib o‘pkasi bilan me’dasidagi suv chiqarib tashlanadi. So‘ngra shikastlangan odamni chalqanchasiga yotqizib, darhol sun’iy nafas berishga va yurakni bilvosita uqalashga kirishiladi. «Og‘izdan og‘izga» usuli bilan sun’iy nafas oldirish hammadan ko‘proq naf beradi, bunday sun’iy nafas oldirishni shikastlangan odamning nafas olishi asliga kelguncha davom ettiriladi. Nafas olish bilan yurak faoliyati tiklanib asliga kelganida shikastlangan odamning badanini isitish choralarini ko‘rish, unga qaynoq choy ichirish va tibbiyat muassasasiga olib borish choralarini ko‘rish kerak. Mabodo amalga oshirilgan chora-tadbirlar nafsiz bo‘lib, o‘limning obyektiv belgilari (ko‘z qorachig‘lari kengayib, yorug‘likni sezmasa, yurak urmay, to‘xtab qolsa murda dog‘lari) paydo bo‘lsa, organizmni qayta jonlantirish, tiriltirish tadbirlari to‘xtatiladi.

### **§9.3.8. Odam zaharli moddalardan zaharlanganida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish**

**Zaharli moddalar (ZM)dan** zararlangan odamlar hayotini qutqarib qolish uchun maxsus dori vositalari - antidotlar (ziddizaharlar)dan foydalanish zarur. Antidotlar odam endi zaharlana boshlagan paytida yoki og‘ir zaharlanishga xos belgilar (talvasalar) paydo bo‘lganidan keyin dastlabki daqiqalarda ishlatsagina, ular yaxshi kor qiladi. Ayniqsa, suyuq-tomchi holatdagi ZM va iprit ta’sir qilganida ZM badanga tegib qolganidan keyingi dastlabki 5 daqiqa ichida badanning ochiq joylarini qisman sanitariya obrabotkasidan o‘tkazish zaharlanishning oldini oladi yoki ancha kuchini qirqadi. Odam kimyoviy zararlanish o‘chog‘ida himoya vositalarisiz turib qolsa, bu ZMning organizmga tinmay o‘tib turishiga olib kejadi va kishining ahvolini ancha og‘ir lashtirib qo‘yadi. ZMdan zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish yuzasidan ko‘riladigan chora-tadbirlar eng qisqa muddat ichida amalga oshirilishi kerak. Shu munosabat bilan ZMdan zararlangan kishilami qutqarib qolish uchun o‘z-o‘ziga va bir-biriga yordam berish, shuningdek, keyinchalik birinchi tibbiy yordami ko‘rsatish va davolashga doir barcha chora-tadbirlarni vaqtida amalga oshirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Sanitar drujinachilar ZMdan zararlanib qolmaslik uchun, kimyoviy zararlanish o‘chog‘iga kirishdan avval, shaxsiy doriquti (AI-2)dan profilaktik dozada (1 ta tabletka) antidot olib ichishlari, kimyolovchi kiyim, rezina etik, qo‘lqop, gazniqoblami kiyib olishlari kerak. ZMlar bilan zararlangan odamlar kimyoviy zararlanish o‘chog‘idan olib chiqib ketilganidan keyin ham ancha xavfli bolishini esda tutish kerak. Zararlangan odamlarning kiyim-kechagi, sochlari va badanining terisida ZM uzoq vaqt saqlanib qolib, boshqa odamning ochiq joyiga tekkanida, uning ham zaharlanib qolishiga sabab bolishi mumkin. Zaharlangan kiyim-kechakdan ZM bug‘lari berk binolar, avtom ashinalarda desorbsiyalanib (bug‘lanib) chiqib turishi hisobiga ham odam zaharlanib qolishi mumkin. Zararlangan odam bevosita ZM ishlatalgan zonada qolib, yuziga zaharlovchi moddalarning mayda-mayda tomchilari tushgan bo‘lsa, avval kimyoviy quroqla qarshi shaxsiy kimyoviy paket (SHKP -8)dagi suyuqlik bilan yuz terisini artib

tozalash va shundan keyingina gazniqob kiygizish kerak. Gazniqob kiyilmagan bo'lsa, ko'zlarni mahkam yumib, yuz va bo'yin terisini degazatorga ho'llangan tampon bilan tezda artib olish zarur. Ko'zlarni ochm asdan turib, ko'z atrofidagi terini quruq tampon bilan artiladi, keyin gazniqob kiyiladi. So'ngra yana tamponni ho'llab qo'l panjalari, kiyim yoqasi bilan yenglarining badanga tegib turadigan chetlari artiladi. Paketdagi suyuqlik bilan yuz terisi tozalanayotgan paytda ko'zlarni ehtiyyot qilish zarur. Bo'g'uvchi ta'sir ko'rsatadigan ZMdan zararlangan hududda bo'lgan odamlarning hammasiga gazniqob kiygazilganidan keyin albatta zararlanish o'chog'idan olib chiqib, ularni eng yaqin joydagi davolash muassasasiga olib boriladi. Havo sovuqroq bo'lsa, shikastlangan odamlarni issiq qilib o'rash va isitish kerak. Shikastlangan odamlar zaharlangan hududdan olib chiqilganidan keyin tamomila tinch qo'yilishi va nafas olishda qiynalmasin deb, yoqalarini va kiyimlarini bo'shatib qo'yish, imkon bo'lsa, yechib olish kerak. Bo'g'uvchi ta'sir ko'rsatadigan ZMdan shikastlangan odamga sun'iy nafas oldirish mutlaqo mumkin emas. Ko'zdan yosh oqadigan va achishtiradigan ZMdan shikastlangan paytda odamlarga gazniqob kiygizib, ularni zaharlangan hududdan olib chiqib ketish kerak. Achishishni bartaraf etish uchun ko'zlar yuvilib, og'zini toza suv bilan chayqab tashlanadi. Achishtiradigan ZM dan og'ir shikastlanish paytida antidot ishlataladi.

### **§9.3.9. Shikastlangan odamlarni tashish va transportirovka qilishda yordam ko'rsatish**

Shikastlangan odamlar tashiladigan asosiy vositalarga yer usti transporti avtomobil, temiryo'l transporti), havo transporti (samolyot, vertolyotlar), suv transporti, sanitar va moslashtirilgan transportlar kiradi.

Shikastlangan odamlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda yoki transportlarga tashishda quyidagi usullar tafovut qilinadi: qolda, yelkada opichib, zambil tasmalari va qo'lda bor bo'lgan boshqa vositalardan foydalangan holda 1-2 yoki bir necha kishilashib sanitar zam billarda olib borish.

Shikastlangan odamlarni olib borishda mumkin qadar ko‘proq avaylaydigan sharoitlar yaratib, olib ketilayotgan odamni qulay va to‘g‘ri vaziyatda yotqizib qo‘yish kerak. Olib borish va tashishda noto‘g‘ri harakat qilinsa, bu ahvolni yomonlashtirib, qo‘srimcha shikast paydo bo‘lishiga olib kelishi, qon oqishining kuchayishiga, singan suyak bolaklarining o‘midan surilib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Oyoqlar jarohatlangan, kalia suyaklari zararlangan paytda shikastlangan odamlar chalqancha yotgan holda zambilga solinadi. Umurtqa pog‘onasi singan bo‘lsa, shikastlangan odamni qomi bilan yotgan holda zambilga solinadi. Yoki chalqancha yotqiziladigan bo‘lsa. umurtqa pog‘onasining bukilib qolmasligi uchun zambil ustiga taxta, faner va boshqa buyum qo‘yish kerak.

Qorin jarohatlangan, shuningdek, chanoq suyaklari singan paytda shikasitlangan odamlaming oyoqlarini bukib, chalqancha yotqizgan holda zambilga solinadi va shu holda olib boriladi. Bunda tizzalari tagiga kiyimini dumaloqlab solinadi, oyoqlari yon tomonga sakerib qo‘yiladi.

Ko‘krak qafasi jaohatlangan kishilami zambilda bosh tomonini yuqoriroq ko‘tarb, ko‘krak qafasi bosilib qolmasligi uchun yonboshlatib olib borish kerak.

Shikastlangan odamlarni zambilda va transportda olib borayotgan mahalda ularning ahvolini, bog‘lam va shinalaming to‘g‘ri turganligini kuzatib borish kerak. Yo‘l uzoq davom etadigan bo‘Isa, shikastlangan odamning vaziyatini o‘zgartirib qo‘yish, bosh tomoniga, tagiga solingan kiyimlarni to‘g‘rilab berish, chanqog‘ini bosish (qorni jarohatlanganlardan tashqari) lozim.

Odatda, zambildagi shikastlangan odamning oyog‘ini oldinga qilib olib boriladi. Ammo, u behush holda yotgan bo‘lsa, uni kuzatib borish mumkin bo‘lishi uchun boshini oldinga qilib boriladi. Tik yuqoriga ko‘tariladigan va pastga tushayotgan paytda zam bilning gorizontal holatini saqlash kerak. Shikastlanganlarni kasalxonada zinadan yuqoriga olib chiqilayotgan mahalda zambilning bosh tomonini oldinga qilib, pastga olib tushilayotganda oyoq tomonini oldinga qilib burib olinadi. Transportga chiqarishda bemor yotgan zambilning bosh tomonini oldinga to‘g‘rilab beriladi,

transportga birinchi galda zam bildagi bemorlar, undan keyin esa yuradigan bem orlar va yaradorlar chiqariladi.

Zambilning loaqal qo‘lda yasalgan xili ham bo‘lmasa, shikastlangan odamlarni qo‘lda, tasmalar va boshqa vositalar yordamida bir yoki ikki kishi bolib qo‘lda ko‘tarib olib borish mumkin (albatta, jarohatning holatiga qarab).

Masalan, Shikastlangan odamni qo‘llar bilan orqaga opichib olib borish mumkin, bunda shikastlangan odam balandroq joyga o‘tqizilib, uning oyoqlari orasiga, unga orqa o‘girgan holda bir tizzasini bukib cho‘kkalanadi. Shikastlangan odam ko‘taruvchi kishining yelkalaridan quchoqlab oladi, ko‘taruvchi kishi esa ikkala qo‘li bilan uning sonlari tagidan ushlab o‘rnidan turadi.

Shikastlangan odamni uzoqroq masofaga yelkaga qo‘yib olib borish hammadan ko‘ra qulayroq. Uni ko‘taruvchi odam o‘ng yelkasiga boshini orqaga qaratib o’tkaziladi. Ko‘taruvchi kishi shikastlangan odamning oyoqlarini o‘ng qo‘li bilan quchoqlaydi va shu bilan birga uning o‘ng bilagi yoki qo‘li panjasini ushlab oladi. Shikastlangan odamning qui-oyoq suyaklari, umurtqa pog‘onasi singan, ko‘krak qafasi, qorni yaralangan bo‘lsa, u holda bu usuldan foydalanib bo‘lmaydi (9.17-rasm).



9.17-rasm. Shikastlangan odamlarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish

Jabrlanganlarni transportirovka qilishda yordam ko‘rsatish. Birinchi tibbiy yordamning eng m uhim vazifasi - bemomi yoki talafot olgan odamni tezda xavfsiz holda shifoxonalarga yetkazish hisoblanadi. Transportirovka davrida jarohat olgan bemor qo‘sishimcha og‘riq oladigan bolsa, u holda uning ahvoli yanada og‘irlashadi yoki «shok» holatiga tushadi. Transportirovka qilish jarohatlangan bemorning

ahvoliga, jarohat xarakteriga yoki kasalligiga qarab amalga oshiriladi. Agar tez yordamni chaqirish imkonи bo‘Imasa, transpartirovka boshqa mashinada amalga oshiriladi. Transport vositalari bo‘lmagan vaziyatlarda esa bemorlarni zambilda transportirovka qilinadi. Transportirovka davrida kasal yoki jarohat oigan odam doimiy nazorat qilib boriladi, ya’ni nafas olishini, pulsini o‘lchash, o‘qchiq kelganda qusuq massasining nafas olish yollariga tushmasligiga harakat qilinadi. Transportirovka davrida jabrlanganning ruhiyatiga birinchi yordam ko’rsatuvchining axloqi, xatti-harakati, muomalasi juda katta ta’sir ko’rsatadi.

Jabrlanganlaming jarohat darajalariga qarab, ular guruhlarga bo libtranportirova qilinadi.

1-navbatda - ko‘krak qafasi va nafas yo’llari jarohatlangan, o‘zini bilmaydigan yoki shok holatdagilar, boshi jarohatlangan, ichki qon ketishi kuzatilgan, suyagi ochiq singanlar va kuyganlar guruhi.

2-navbatda - suyagi yopiq singanlar, qon ketishi to‘xtatilgan jarohat olganlar guruhi.

3-navbatda - kichik qon yo‘qotgan, eti uzelgan va kichik suyaklari singanlar guruhi. Har bir guruhga kiruvchi kichik yoshdagi bolalar birinchi navbatda evakuatsiya qilinadi, agar imkoniyat bo‘lsa, ulaming ota-onasi yoki qarindoshi bilan amalga oshiriladi.

#### **§9.4. Tabiiy ofat, avariya va katastrofalarda jabrlanganlarni tibbiy saralash qoidalari (triaj)**

Katta miqyosdagi tabbiy ofat, avariya va katastrofalarda ko‘plab insonlar jarohat oladilar. Bunday vaziyatlarda birinchi navbatda tibbiy saralanadi. Tibbiy saralashda jarohat olganlar uch xil rangli tasmlar yoki qog‘ozlar bilan belgilanadi.

«Qizil» - jarohati og‘irlar, tez tibbiy yordamga muhtojlar kiradi;

«Sariq» - tibbiy yordamga muhtoj, ammo ma’lum muddatgacha kutishi mumkin bo‘lgan jarohat olganlar;

«Yashil» - jarohat olganlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, lekin ular uzoq vaqtgacha kutishi mumkin bolganlar;

«Qora» - nafas olmayotganlar (oiganlar).

Jabrlanganlarni saralashda rangli tasma yoki qog‘oz hamda himoya vositalari - qo‘lqop, maska, ko‘zoynak va boshqalar bo‘lishligi shart. Triaj vaqtida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatilmaydi, faqat triajni qisqa fursatda o‘tkazish talab etiladi. Triaj o ‘tkazib bo‘lingandan so‘ng, ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

### **Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ketma-ketligi:**

- 1-navbatda - nafas olmayotgan jarohat olganlarga;
- 2-navbatda - ko‘krak sohasi va nafas yollari shikastlanganlarga;
- 3-navbatda - ko‘p qon yo‘qotganlarga;
- 4-navbatda - shok holatidagi yoki hushini yotganlarga;
- 5-navbatda - suyaklari ko‘p singanlarga;
- 6-navbaída - yengil jarohat olganlarga.

### **Nazorat savollar:**

1. Birinchi tibbiy yordam nimalami o‘z ichiga oladi va uni kimlar amalga oshiradi?
2. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishning asosiy qoidalari nimalardan iborat?
3. Jarohat nima va u qanday belgilar bilan xarakterlanadi, uning qanday turlari tafovut qilinadi?
4. Qon ketishining xavfi nimadan iborat, uning qanday turlari tafovut qilinadi va ular nima bilan xarakterlanadi?
5. Arteriyadan qon oqishini vaqtincha to ‘xtatib turishning qanday usullari bor?
6. Qon to‘xtatishda ishlataladigan jgut va burama qo‘yishning qoidalari qanaqa?
7. Venalar va kapillarlardan oqayotgan qon qanday to‘xtatiladi?
8. Aseptika va antiseptika nima?

9. Bog‘lamIar nima, ulaming qanday turlari farqlanadi, ularni qo‘yishda qanday materiallardan foydalaniladi?

10. Bosh va ko‘krak qafasi jarohatlariga bog‘lamlaming qanday xillari qo‘yiladi?

11.Uzoq bosilish (travmatik toksikoz) sindromida qanday qilib birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi?

12. Bosh rmya lat yegan paytda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?

13. Paylaming cho‘zilishi va bo‘g‘imlar chiqiqlarining alomatlari kuzatilganida qanday birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilishi mumkin?

14. Badan kuygan paytda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?

15. Sovuq olgan, hushdan ketgan paytda qanday birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi?

16. Odam suvga cho‘kkan, tok urgan paytda qanday birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi?

17. Radiatsiyadan shikastlanish ro‘y bergen vaqtida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?

18. Odam zaharli moddalardan zararlanganida ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?

19. Shikastlangan odamlar zambilga qanday yotqiziladi?

20. Shikastlangan odamlarni transportgacha qay tariqa olib borish mumkin, ularni transporga chiqarish qoidalari qanday?

## XULOSA

Hozirgi kunda aholi xavfsizligini saqlash, iqtisodiyot obyektlarining barqarorligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va FVDT tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralar favqulodda vaziyatlarning oldini olishga tayyorgarlikdan o'tish borasida o'quv mashqlari, o'quv yig'lnlari, seminarlar o'tkazib kelmoqdalar. Bu nazariy va amaliy tadbirlar favqulodda vaziyat o'chog'ida odamlarni qutqarish, ularga zarur yordamni ko'rsatish, qidiruv-qutqaruv ishlarini mohirona olib borish, qurban bo'lganlar sonini qisqartirishga, jabrlanganlar salomatligini saqlab qolishga, moddiy zarar miqdorini kamaytirishga imkon beradi. Bunda favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlarni amalga oshirish va boshqaruvni tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, barcha favqulodda vaziyatlarni muammolarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish dolzarb masaladir. Aholi hayotiy faoliyat xavfsizligi masalalari va favqulodda vaziyatlar sharoitida hatti harakatlari bo'yicha savodxonligi darajasining oshirishda, yangi innovasion texnologiyalaridan foydalanish, bugungi kunning muhim shartidir.

## GLOSSARIY

**Xavf** - inson hayotiga va sog‘lig‘iga zarar keltirishi, yong'in, portlashlarni yuzaga keltirishi, zararli va zaharli moddalarning atrof muhitga tarqalishi, bino va inshootlaming buzilishi, hududlaming suv bosishi va boshqa ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi.

**Xavfsizlik** - inson faoliyatining holati bo‘lib, u muayyan ehtimollikda yuzaga keladigan xavflarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan xavflar majmuyi.

**Texnosfera** - ishlab chiqarish jarayonidagi yoki ish zonasidagi sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan xavili joy.

**Gomosfera** - ishlovchining ishlab chiqarish obyektida bo‘ladigan joyi.

**Hinioya vositalari** - ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan insonlarga zararli va xavfli ishlab chiqarish om illarining ta’sirini kamaytirish yoki uning oldini olish uchun qo‘llaniladigan vositalar majnruyi.

**Hayot faoliyati xavfsizligi** - xavfsiz hayotni ta’minalash uchun insonning mehnati faoliyatida, atrof muhit musaffoligi (ekologiya) izdan chiqqanda, favqulodda vaziyatlar yuz berganda yuzaga keladigan xavf-xatarlarni yo‘qotish yoki kamaytirish, jarohatlangan, shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish chora-tadbirlari majmuyi.

**FVDT** - favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi.

**Favqulodda vaziyat** - muayyan hududda o‘zidan so‘ng odamlarning qurbon bo‘lishi, odam lar sog‘iig‘i yoki atrof-tabiiy muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar va uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan avariva, halokat, tabiiy ofat, epidemiya, epizotiya, epifitotiyalar natijasida yuzaga keladigan holat.

**Hudud** - yer, suv, havo makoni, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlardagi obyektlar, shuningdek, atrof-tabiiy muhit majmuyi.

**Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** - favqulodda vaziyat yuzaga kelganda amalga oshiriladigan hamda odamlarni qutqarish va insoniar sog‘lig‘ini saqlash, atrof - tabiiy muhitga zararining, hamda moddiy zararlar miqdorini kamaytirish.

**Hudud** - hududlaming kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular uchun xos bo‘lgan xavfli omillar ta’sirini bartaraf etishga yo’naltirilgan avariya-qutqaruva boshqa kechiktirib bo‘lm aydigan ishlar majmuyi.

**FVV** - Favqulodda vaziyatlar vazirligi avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ulami muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

**Fuqaro muhofazasi** - favqulodda vaziyatlarning, halokatlaming oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholining hududlarini va moddiy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi davlat tizimi.

**Tabiiy ofat** - tabiatda yuz beradigan favquloddagi o‘zgarish bo‘lib, u birdan, katta tezlikda insonlarning mo‘tadiI yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning va qishloq xo‘jalik hayvonlarining o‘limi, moddiy boyliklaming buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishi va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi hodisalar.

**Tektonik yer silkinishi** - yerning chuqur qisimida yuzaga keladigan tektonik kuchlarning tarqalish jarayonida yer ustki qatlaming tebranishini xarakterlaydigan o‘zgarish.

**Gipotsentr** - yer silkinishining chuqur ichki qismidagi o‘chog‘i markazi.

**Epitsentr** - yer silkinishining, yer ustki qatlaming eng maksimal silkinish joyi.

**Sel ofati** - tog‘li hududlarda kuchli yom g‘irlaming yog‘ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo‘ladigan daryo toshqinlarining tog‘ yonbag‘rilaridan uragan tog‘ jinsi bo‘laklarining, daraxt ildizlari va shox-shabbalari bilan pastlik tomon oqizib kelishi.

**Geologik xavfli hodisalar** - odamlar o‘limiga, ma’muriy-ishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob-uskunalarni, energiya ta’minoti, transport kommunikatsyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo‘nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

**Gidrometerologik xavfli hodisalar** - odamlar o'limiga, aholi yashash joylarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlarini suv bosishiga, infratuzilma va transport kommunikatsyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan tabiiy ofatlar.

**Epidemeologik vaziyatlar** - odamlar o'rtasida xavfli infeksiyalar: o'lat, vabo, isitma; epidemik toshma, terlama, Bril kasalligi; zoonoz infeksiyalar: Sibir yarasi, quturish; bezgak kasalliklari; zaharli moddalar bilan zaharlanish; oziq-ovqatdan zaharlanish holatlari.

**Epizootiya** - hayvonlarning ommaviy tarzda kasallanishiga yoki nobud bo'lishiga olib keladigan vaziyat.

**Epifitotiya** - o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishiga olib keladiga vaziyat.

**Fuqaro muhofazasi xizmati** - fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi tizimlarining harakatlarini ta'minlash uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash maqsadida tuzilgan funksional bo'linmalar majmuyi.

**Fuqaro muhofazasi kuchlari** - qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlami (QBTI) amalga oshirish uchun tuziladigan fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funksional va obyekt tizimlari.

**Himoya inshootlari** - aholini va ishlab chiqarish xodimlarini hamma ta'sir omillaridan: yuqori harorat, radioaktiv, portlovchi va kuchli zaharli moddalardan, inshootlar buzilganda ularning qismlaridan hamda qirg'in qurollar ta'sirlaridan saqlashga mo'ljallangan muhandislik inshootlari majmuyi.

**Radiatsiyaviy avariya** - uskuna nosozligi, xoditnlaming xatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan me'yordan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof inuhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbayi ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.

**Radiatsiyaviy xavfsizlik** - fuqarolar va atrof inuhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati.

**Favqulodda vaziyat oqibatlari** - favqulodda vaziyat turiga, tusiga va tarqalish m'iqyosiga bog'iqliq holda odamlarning kasallanishi, o'limi, inshoot, bino va

qurilmalarning buzilishi, radioaktiv ifloslanishlar, kimyoviy va bakterial zaharlanishlar, ekologik vaziyatning keskinlashishi, yong'in, portlashlar va insonlaming ruhiy jarohatlanishi.

**Shikastlanish o'chog'i** - yuzaga kelgan favqulodda vaziyatning zararli va xavfii omillari ta'siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, bino va inshootlar, moddiy resurslarning barchasi.

**Yer surilishi** - tog' jinslari qatlamlarining qiya sath bo'ylab o'z og'irligi, gidrodinamik, gidrostatik va seysmik kuchlar ta'sirida pastlik tomon surilishi.

**Reanimatsiya (jonlantirish)** - organizmning muhim hayotiy funksiyalarini tiklash.

**Yurak-o'pka reanimatsiyasi** - insonni klinik o'lim holatidan qayta jonlantirish uchun nafas oldirish va yurakni bilvosita uqalash tadbirlari majmuyi.

**Triaj** - katta miqyosdagi tabiiy ofat, avariya va halokatlarda fuqarolarning olgan jarohat darajalariga qarab tibbiy saralanishi.

**Qon ketishi** - shikastlangan tomirlardan tashqariga qon chiqib turishi (oqishi) bo'lib , jarohatlarning bevosita hayotga xavf soluvchi eng xatarli asoratlaridan biri.

**Travmatik shok** - og'ir jarohatlarning hayot uchun xavf soladigan asorati bo'lib, markaziy asab tizimi, qon aylanishi, modda almashinushi va boshqa hayotiy faoliyatlarning buzilish majmuyi.

**Immobilizatsiya qilish** - singan suyakni o'rnidan siljimasdan faner bo'laklari, qattiq karton qog'oz, yupqa taxta va boshqa vositalar yordamida qimirlamaydigan qilib bog'lash.

**Ezilish sindromi** - zilzila ofatida odam tanasining ayrim qismlari, turarjoylardagi binolar, devorlar, dov-daraxtlar va boshqa narsalar ostida uzoq vaqt qolib ketishi.

**Suvga cho'kish** - nafas olish yo'llarining suyuqlikka, suvga to'lib, havo tanqisligi boshlanib, nafas olish va yurak faoliyatining to'xtashi.

## **TERMIN VA ATAMALAR**

FM - Fuqarolar muhofazasi.

FV - Favqulodda vaziyat.

FVV - Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

FVDT - Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi.

RQQM - Respublika qidiruv-qutqaruv markazi.

TJFB - Turar joydan foydalanish boshqarmasi.

MM-1 - matoli maska.

PVX - polivinil xlorid.

EP - evakuatsiya punkti.

RSB - radiatsiyadan saqllovchi boshpana.

SHD-2 - shaxsiy dorixona.

RQ - radiatsiyaga qarshi.

KTQ - kimyoviy ta'sirlarga qarshi.

SHKP-8 - shaxsiy kimyoviy paket.

KTZM - kuchli ta'sir etuvchi zaharli kimyoviy moddalar.

QBTI - qutqaruv va birinchi tiklov ishlari.

IES - issiqlik elektr stansiyasi.

RS - radiatsiyadan saqllovchi.

VPXR - kimyoviy razvedkaning qo'shin asbobi.

PXR-MV - meditsina va veterinariya xizmatlari-kimyoviy razvedka asbobi.

BXK - bolalar himoya kamerasi.

SHB-1 - resperator (bir marotaba ishlataladigan).

R-2 - resperator.

ZM - zaharli moddalar.

RM - radioaktiv moddalar.

O'zRFVV - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O'RQ-837-soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 mart №1378 "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar Vazirligini tashkil etish to'g'risida" farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 12 aprel 201-soni "Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish va ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularning bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455-soni "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi 2022 yil 17 avgustdagi O'RQ-790-soni "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 19 avgustdagи "Yo'l xarakati xavfsizligi to'g'risida" qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagи 80-II-soni "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 20 avgustdagи "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 31 avgustdagи "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida" qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 15 dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi 2006 yil 26 maydagи "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" qonuni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-soni

“Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3030-sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni 2018 yil 2 iyuldagagi №PF-5471 “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining ayrim hujjalariiga o‘zgartishlar va qo‘sishma kiritish to‘g‘risida.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgustdagagi 601-sonli “Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi haqida O‘zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi 1027-sonli “Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinushi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi 754-sonli “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgust kunidagi 515-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi”gi qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrdagi O‘RQ-737-son “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy Qonuni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 -

2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

22. Чернишев Г.Я., Голда А.Н., Зайсев А.П. «Захита населения в чрезвычайных ситуациях» - М.: Военные знания, 2000.
23. Организация защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций: учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. / В.А. Седнев, С.И. Воронов, И.А. Лисенко, Е.И. Кошевая, Н.А. Савченко, Н.И. Седих.– М.: Академия ГПС МЧС России, 2014. – 229 с.
24. Чрезвичайные ситуации мирного и военного времени. Характеристика зон чрезвичайных ситуаций: методическая разработка / [сост.: В. А. Горишний, В. Б. Чернетсов, Л. Н. Борисенко]. – Н. Новгород, НГТУ, 2006.
25. Прогнозирование чрезвычайных ситуаций природного характера: Б.А. Храмсов, Т.Г. Болотских, А.М. Юрьев. Методическое указания. –Белгород: Изд-во БГТУ им. В.Г. Шухова, 2006. – 25с.
27. Абдурахманова А.Д. Чрезвычайные ситуации и защита населения: Учебное пособие. ТГТУ. – Ташкент. 2020. -203 с.
28. Сулейманов А.А., Шамансуров С.С. Методическое указания к выполнению курсовой работы по курсу «Чрезвычайные ситуации и защита населения». –Т.: ТГТУ. 2020. - 24 с.
29. Рахмонов И., Вахобов У.В., Ёкубов Х., Фавқулодда ҳолатларда шикастланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш. - Т.: «Фан», 2005. - 62 б.
30. Мусаева Н.А. Камилова Д.Б Хакимова Ф.Т. Гражданская защита Учебное пособие. Иктисадиёт.-Ташкент. 2013.
31. Юлдашев.О., Хасanova.О, Джалолов.О и др. «Аварийно-спасательные работы». Учеб.пособие -Т.: 2008.
32. Абдурахманова А.Д. Чрезвычайные ситуации и защита населения: Учебник. «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi». – Ташкент. 2023. -348 с.
33. Захаркин В.П., Седнев В.А., Неровных А.Н. и др. Разработка планов действий по предупреждению и ликвидации чрезвычайных ситуаций на

предприятиях, в учреждениях и организациях. Методические указания по выполнению курсовой работы. – М.: Академия ГПС МЧС России, 2009.

34. Наставление по организации и технологии ведения аварийно-спасательных и других неотложных работ при чрезвычайных ситуациях. Часть 2: Организация и технология ведения аварийно-спасательных и других неотложных работ при землетрясениях. – М.: ИИЦ ВНИИ ГОЧС, 2000. - 204с.

35. Планирование действий по предупреждению и ликвидации чрезвычайных ситуаций и мероприятий гражданской обороны. Рекомендации / Под редакцией В.А. Пучкова. – М.: ФГУ ВНИИ ГОЧС (ФЦ), 2004.

36. Зиёдуллаева Р.Б. Аҳолини юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлардан огоҳлантириш ва хабардор этиш тизимини илмий-услубий асосланган тавсияларини ишлаб чиқиш. Магистрлик диссертация. ТДТУ. – Тошкент. 2021. 82 б.

37. Баротов М.Б. Фавқулодда вазиятларни келтириб чиқарувчи хавфли табиий ходисаларни мониторинги ва башорат қилишнинг илмий асослари. Магистрлик диссертация. ТДТУ. –Тошкент. 2021. 109 б.

38. Наимова М.З. Фавқулодда ва кризис ҳолатларда тезкор вазиятни ҳисобга олган ҳолда кўмондонлик-штаб ўқув машғулотларини ташкиллаштирилиши ва ўтказилишини такомиллаштириш. Диссертация автореферати. –Тошкент. 2023. 44 б.

39. Камолов Л.А. Давлат назорати органлари фаолияти ва аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлашни такомиллаштириш. Диссертация автореферати. –Тошкент. 2022. 46 б.

40. Бобоев А.А. Тоғ-кон саноати соҳасида профессионал хавфларни мониторинг ва баҳолаш методологиясини ишлаб чиқиш. Диссертация автореферати. –Тошкент. 2022. 46 б.